Kirish. XIX asrda xonliklar o'rtasidagi tinimsiz o'zaro urushlar barcha mamlakatlar uchun birdek og'ir siyosiy vaziyatni yuzaga keltirib chiqarmoqda edi. Bu holat o'lkaga yangi dushmanning kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratib bergan edi. Rossiya imperiyasi esa bunday vaziyatdan ustamonlik bilan foydalandi va o'lkani 4 bosqichda egallab oldi. (1847-1885 yillar). Milliy davlatchilik tugatildi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mutlaq hokimiyati general-gubernator qo'lida to'plandi. Turkiston general-gubernatorligi tarkibida XIX asr oxirlariga kelib besh viloyat tashkil etildi. Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarini shaxsan imperatorning o'zi tayinlagan harbiy gubernatorlar boshqarar edi. General-gubernator ayni bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni,

bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. U Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan.

Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarga, viloyatlar uyezdlariga, uyezdlar esa volostlarga, volostlar uchastkalarga, uchastkalar esa oqsoqollar boshqaradigan hududlarga bo'lingan. Mustamlakachilar Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib tanlashdi. Rus mustamlakachiligining Turkistondagi asosiy tayanch ma'muriy va majbur qiluvchi tashkiloti politsiya idorasi bo'lib, u katta vakolatlarga ega edi. Rossiya imperiyasining 1886-yilgi «Nizom»i o'lkaga rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan o'lkani ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi. Ko'chib keluvchi har bir oilaga 10 tanobdan kam bo'lmagan yer ajratish belgilandi. 15 yil davomida (1875-1890 yy.) Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib joylashdi. Turkiston aholisining 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakachilari qo'lga hosildor yerlarning 60 foizi berib qoyilgan edi.

Turkistonni paxta xomashyosi yetishtiradigan bazaga aylantirish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi deb belgilandi. 1885-1915- yillar davomida paxta maydoni 13 barobarga o'sdi. 1900-yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25% ni qondirib, bu raqam yil sayin oshib bordi va 1913-yilga kelib 50% ga oshdi. Chor ma'muriyati Turkistonni Rossiyaning bir qismiga aylantirish, uning janubiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, boyluklarni va yetishtirilayotgan xomashyoni tashib ketish maqsadida temir yo'l qurilishini boshlab yubordi. 1880-1889 -yillarda Krasnovodsk, Ashxabod, Marv, Chorjo'y, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon shaharlarini bog'lovchi O'rta Osiyo temir yo'li qurildi [1]. Bu o'z navbatida mahalliy hududlarni Rossiyaning markaziy shaharlar bilan mustahkam bog'ladi.

Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma'naviy-madaniy jihatdan tutqunlikga solish, uzoqqa mo'ljallangan manfaatiga bo'sundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus-tuzem maktabi» ochildi. Shunday maktablarda rus va o'zbek muallimlari dars mashg'ulotlarini o'tadigan bo'ldi. Maqsad o'zbek yoshlariga rus tilini o'rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi xalqning noroziligi oshib bordi, isyon va qozg'olonlar ko'tarishga sabab bo'ldi. 1880-1883-yillarda Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qozg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885-1892- yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy chiqishlari qayd etilgan. Qozg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari va kambag'allar bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yoqotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar. 1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga «Vabo isyoni» nomisifatida kirgan qozg'olon bo'ldi. Dastavval vabo kasali bilan og'rish belgilari Turkiston general-gubernatorligining Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh joylarida sezila boshlagan [2]. X. Yunusova o'zining “1892 yildagi Toshkent qo'zg'oloni” nomli ilmiy ishida yozishicha, Toshkentda 1870 yilda ham vabo kasali tarqalishi natijasida 3978 kishi kasallangan. Ulardan 2215 kishi o'lgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Chorizm amalga oshirgan tadbirlar qattiq repressiyalar bilan ommani qo'rqitish, omma o'rtasida obro' e'tibori katta bo'lgan shaxslarni Turkiston o'lkasidan chiqarib yuborish, din arboblarni obro'sizlantirish, mahalliy ma'muriy idoralarning tarkibini ko'proq ruslashtirish, Turkistonda yashayotgan turli xalqlar o'rtasiga turli xil adovat urug'ini sochishga qaratilgan jinoyatkorona siyosati birinchi o'ringa chiqa boshladi, - deb yozadi H. Yunusova.

H. Ziyoyev o'zining “O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi nomli asarida “1892 yil 1 iyunda Jizzax uyezdida vabo kasali paydo bo'lganini yoritadi [2]. Shu bilan birgalikda 7 iyunda esa Toshkent shahrida vabo kasali borligi ma'lum bo'ldi. Imperiya ma'muriyati esa shifokorning ruxsatisiz murdalarni ko'mmaslikni, murdalarni maxsus qabristonga ko'milishini e'lon qildi. Bundan tashqari, vabodan vafot etgan ayollarning murdasini erkak shifokorlar

nazoratdan o'tkazayotgani va mayitni yuvmasdan ko'milayotgani haqidagi mish-mishlar mahalliy aholi g'azabini qo'zg'atdi. Xullas, hukumatning vaboga qarshi chorolari zulm va adolatsizlikdan sabr kosasi to'lib toshgan shaharliklarni bosh ko'tarishiga turtki bo'ldi", - deb, 22 iyunda shahar oqsoqoli Muhammad Yaqub mish-mishlar yolg'onligi, ularga ishonmaslik kerakligi haqida aholini ogohlantirdi [3]. Bu haqida S.R. Putinsev: "Iyun oyining boshlarida vabo kasalining tarqalishiga qaratilgan choralar turli mulohazalarni yuzaga keltirib, xalqda ularga nisbatan ishonch qoldirmadi. Hatto, shifokorlar bemorlarni "og'riqlardan tezroq xalos bo'lsin deb kukun beryapti degan gaplar ham tarqaldi" [4]. Bu ham yetmagandek, shaharning katta oqsoqoli Muhammad Yaqub shahar atrofidan kelgan mardikorlarni surishtirmay kasalxonaga yotqizaverganidan ular shahardan qochib ketavergan. Bu holat mardikorlarni Muhammad Yaqubga nisbatan nafratini uyg'otdi va qo'zg'olon boshlanishiga sabab bo'ldi. Muhammad Yaqubning so'ziga qaraganda avvalo 2000 kishilik xalq olomoni unung uyiga borishgan, u yerdan topa olishmagach uyini ostin-ustun qilib, 4000 so'mlik mol-mulkini talashgan. Bu olomon tepasida Eshon Aziz, Odil Qosimxo'ja va bozor oqsoqoli Ziyo Isamuhamedovlar turganlar.

V.Zikin o'z maqolasida bu voqealar haqida shunday deydi: "Vabo kasalining oldini olish borasidagi tadbirlarini belgilashda ham zo'rvonlik, mahalliy aholi manfaatlarini e'tiborga olmay ish tutish siyosati yana bir bor namoyon bo'ldi." [5].

Muhokama va natijalar. "Harbiy qism Eski shahar bozoriga kelganida qo'zg'olonchilar to'planib, soldatlarga toshlar otdilar. Shu bois ularga qarshi soat 11 larda kazaklar qo'shini yuborildi va natijada o'q otilib, bir necha kishi otib o'ldirildi.

O'rdaning Eski Jo'va bozori bilan bog'lovchi katta ko'chada joylashgan Saidkarim Azimboyevning hovlisida kasalxona joylashgan edi. Buning atrofida ertalab soat 10 da olomon to'planib, Mirzaboyvachcha Mirsalimboyev, Usmon qassob, Aziz Kasabov va yamoqchi Iskandar Shukurbekovlar "Biz Muhammad Yaqubni o'ldirdik, uyini taladik, o'g'lini qo'lga oldik, agar sizlar chindan ham musulmon bo'lsalaringiz, do'konlarni yopinglar va Shayxontahurga boringlar", - deb baqirganlar. Eski shahar bozorida soldatlar tomonidan bir necha kishilarning o'ldirilishi va jarohatlanishi bilan qo'zg'olon nihoyasiga yetdi. Viloyat harbiy gubernatori Grodekov soldatlarni turli joylarga yuborib, qo'zg'olonchilardan 60 kishini hibsga oldirtirdi.

1892 yil 15 dekabrda sud raisi general mayor Mordvinov sud hukmini e'lon qildi. Unga ko'ra Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jaev, Ziyomhammad Isomuhammedov, Azimboyvachcha Mirsalimboyev, Iskandarbek Eshkurboyev, Usmon qassob, Toshmuhammad To'ychiyev osib o'ldirishga, mol-mulkini musodara qilishga hukm qilindi [6]. 1892 yil 16 martda shaxsan imperatorning roziligi asosida qo'zg'olonning oldini ololmaganliklari uchun Grodekov va Putinsevlar lavozimidan olindi.

Umuman olib qaraganda, 1892 yil 7 iyun - 9 avgust orasida Toshkent shahrida o'zbeklardan 1428 kishi kasallanib, 1389 kishi o'lgan. H. Ziyoyevning yozishicha, asrlar mobaynida hukm surib kelgan islom dinining g'ayri din asiriga aylanib qolishi yangi Andijon qo'zg'olonining yuzaga kelishida eng muhim omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa namoz vaqtida rus imperatori nomiga xutbani majburiy holatda o'qitilishi achinarli hol edi. Demak imperiya ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan shavqatsiz zulm tub aholining qadr qimmatini yerga urilishi Andijon qo'zg'olonini yuzaga keltirdi [7].

Fozilbek Otabek o'g'lining yozishicha, Farg'ona vodiysining o'zbek va qirg'izlardan tashkil topgan, o'troq, yarim ko'chmanchi aholisi bu davrda nihoyatda achinarli ahvolga tushib qolgan edi. Mana shunday og'ir sharoit hukm surayotganda Muhammad Ali Sobir o'g'li siyosiy maydonda paydo bo'ldi. U 1856-yilda Marg'ilon shahriga qarashli Shohidon qishlog'ida o'rtahol oilada tug'ilgan. Muhammad Ali yoshligidanoq aql-idrokli, mehnatsevar va adolatli shaxs sifatida tanilib, otasining kasbi va dehqonchilik bilan shug'ullangan. U 1866-yilda otanasi bilan Mingtepaqa kelib o'rtnashadi. U asli kasbi bo'yicha Dukchi Eshon iborasi bilan

ham atalgan. Uning o'zbek, tojik, qirg'izlardan iborat muridlari bo'lgan. Bu xususida Asaka bo'limining pristavi Chanishev boshlig'iga: "Manim maxfiy olgan axborotimga qaraganda Mingtepada bir eshonning muridlari o'n mingdan oshgani, agar shunday boraversa ehtimol Eron eshonlaridek Rossiya davlatiga isyon chiqarishi mumkinligi" haqida ma'lumot yetkazadi.

Qo'zg'olong'alabaqilgantaqdirda, Muhammad Ali Eshonning 17 yoshli jiyani Musulmonqul xonlik taxtini egallashi lozim edi. 1898-yilda "Rus invalidi" gazetasida yozilishicha Abdualil degan kimsa Qashg'ardan kelib, Eshonga "Turkiya sultoni tomonidan yuborilgan xat va to'nni topshirgan" emish, lekin ularning aslligi tasdiqlanmagan. O'sha yili 14 iyulda Turkiston harbiy okrugining shtab boshlig'i N. Belyayvskiyning bildirishicha, "Turkiya sultonidan hech narsa olinmagan". 1898-yil 17 may kuni Muhammadali Eshon xalqqa murojat qilib, ularni mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga da'vat etadi. Qozg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy gornizoniga bostirib kiradi va kazarmaning piramidalarida 30 ga yaqin turli miltiqni o'lja qilib olib, birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. To'qnashuv paytida harbiy garnizon jangchilaridan 22 kishi o'ldirildi, 24 askar yarador bo'ldi. Yarim soat davom etgan qattiq jangdan so'ng jangovar tayyorgarligi durust bo'lmagan va qurol-yarog'i nochor qo'zg'olonchilar guruhi to'qnashuv joyida o'lgan 11 nafar va yarador bo'lgan 8 nafar odamlarini qoldirib chekinishadi. Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi. Mustamlakachilar Muhammad Ali Eshonni tutish uchun Mingtepada bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, Eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. Dukchi Eshon osib o'ldirildi, uning 45 nafar yordamchilari qatl etildi, 208 kishi Sibirga surgun qilindi. Dukchi Eshon qozg'oloni izsiz ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi. Iyul oyida Xo'jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unga dehqonlar, mardikorlar, chorakorlar, ayollar-jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o'tdi. Politsiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar yetib kelib politsiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi. Samarqand uyezdining Urgut qishlog'ida g'azabga kelgan 2000 kishilik dehqonlar olomoni volost boshqaruvining mahkamasi oldiga to'plandi [8].

Mahkama xodimlari kaltaklandi. 11-iyulda Toshkentda hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi politsiya boshqarmasi tomon yo'l oldilar. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko'ra o'zimiz o'lganimiz yaxshiroq, podshoh o'lib ketsin» deya maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Yo'lchi Ibrohimov (konchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhrabibi Musayeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar. Tez orada jazo qo'shini etib keldi. Natijada ular 5 kishini otib o'ldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi. Noroziliklar Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattaqo'rg'on, Rishton qishloqlarida ham bo'lib otdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi. 1916-yildagi qozg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzaxda bo'ldi. Shahar aholisi 13 iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib yondirib tashladilar. Iyul oyiga kelib butun Turkiston o'lkasida harbiy holat e'lon qilindi. Jazo otryadlari va mustamlakachi ma'murlarga juda katta huquq berildi. Qozg'olonchilar safi kengayib bordi. 18 iyul kuni Nazirxo'ja Eshon boshchiligidagi olomon yangi shahar tomon yurdi. Jazo otryadi bilan qozg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi. Turkiston general-gubernatori Jizzax qozg'olonini bostirish uchun polkovnik Ivanov boshchiligidagi oltita to'pi bor 13 ta rota askar, 300 kishilik kazak otryadi va 3 rota sapyorlarini safarbar etdi. Jazo otryadi qozg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaldi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 dan ortiq kishi

hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib, turli muddatlarga qamaldi. 1916 yilgi qozg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar qozg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham, A.F Kerenskiy «Urush frontlariga yangi bir front-Turkiston fronti qoshildi», -deb vaziyatga jiddiy baho bergan edi [9]. 1916-yil qozgoloni o'lkadagi Chor Rossiya mustamlakachilik tizimining tagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari qimirlay boshlaganini hamda Turkiston xalqlarining vatanparvarligi, g'ururi so'nmasligini korsatdi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrdagi parokandalik, uch xonlikdagi o'zaro notinchlik va mahalliychilik yurtimizni o'zga davlatlar iskanjasiga soldi. Natijada, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston xalqlarini asoratga soldi. U o'lkani siyosiy-hududiy jihatdan zabt etibgina qolmay, balki erksevar, zahmatkash xalqni ma'naviy-ruhiy bo'ysundirishga harakat qildi. Rossiya mustamlakachilarining og'ir asorati sharoitida ham xalqimiz o'zligini, milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyatini, urf-odatlarini va turmush tarzini saqlab qola oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юнусова Х.Е. 1892 йилдаги Тошкент қўзғолони: Тарих фан. ном. илмий даражасини олиш учун дис. – Т., 1995. - Б. 50.
2. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Т.: Шарқ. 2001. - Б. 159.
3. О'зМА, I - 723, I - ro'yxat, 3 - ish, - В. 12.
4. Зыкин В. Под двойным прессом (Ученые записки Пермского государственного университета). - Пермь 1931,- С. 335.
5. О'зМА, I - 723, I - ro'yxat, 2 - ish, 59-varaq.
6. О'зМА, I - 19. I - ro'yxat, 5579-ish, - В. 109.
7. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi eshon voqeasi. Nashrga tayyorlovchilar: Sirojiddin Ahmad, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev. - Т.: Cho'lpon, 1992. -В. 15-16.
8. Ортиқов, Азамат, and Бобир Болтаев. “Пойкент-антик ва илк ўрта асрлар даври шаҳри”. Варқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали 4.3 (2024): 99-102.

BUXORODA MUZEY FAOLIYATITARIXIGA BIR NAZAR

Boltayev Bobir Baxtiyorovich
Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi t.f.f.d (Phd)
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.009>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyati hududidagi ilk muzeyning tashkil topishiva faoliyatining rivojlanish dinamikasi yillar kesimida yoritib berilgan. Bundan tashqari, respublikamiz muzeyshunos olimlarining muassasa va tashkilotlar muzeylari taraqqiyotidagi muammolar echimi xususidagi fikr va mulohazalari ilgari surilgan bo'lib, ularning taklif va tavsiyalari tahlil qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxkomstaris, ekspluatatsiya, ekskursiya, arxitektura, restavratsiya, demografiya, bank, masjid, gazeta, jurnal, ekspozitsiya, tizim.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЗЕЯ В БУХАРЕ: ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ

Болтаев Бобир Бахтиёрович

*Доктор философии по историческим наукам (PhD) старший преподаватель
кафедры Археологии и Истории Бухары
Бухарского государственного университета*

Аннотация: в данной статье освещено сведение об образовании первых музеев Бухарской области и динамики развития их деятельности по годам. Кроме того, выдвинуты мнения и точки зрения музейщиков нашей республики по решению проблем развития музеев учреждений и организаций, а также проанализированы их предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Бухкомстарис, эксплуатация, экскурсия, архитектура, реставрация, демография, банк, мечеть, газета, журнал, экспозиция, система.

MUSEUM ACTIVITIES IN BUKHARA: A GLIMPSE INTO HISTORY

Boltaev Bobir Bakhtiyorovich

*Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD), senior lecturer at the Department of
Archeology and History of Bukhara
Bukhara State University*

Abstract: this article covers information about the formation of the first museums in Bukhara province and the dynamics of their activities by years. In addition, the opinions and points of view of museologists of our republic on solving the problems of development of museums of institutions and organisations are presented and their proposals and recommendations are analysed.

Keywords: Buhkomstaris, operation, tour, architecture, restoration, demography, bank, mosque, newspaper, magazine, exposition, system.

Kirish. Sharqning qadimiyshaharlardan biri bo'lgan Buxoro ilk o'rta asrlardayoq o'zining mashhurlik darajasiga yetishgan bo'lib, buxoroliklarning ajdodlar ruhiga hurmat, ular xotirasini uzoq vaqt yodda tutish, qadriyatlarni ulug'lash, ilm-ma'rifat tarqatish va boshqa bir qator xayrli amallarni qilish orqali dunyoning ko'pgina hududlari aholisi orasida ma'lum va mashhur bo'lganlar. Buxoro o'zining qadimiy yodgorliklari, me'moriy inshootlari, qadimiy va o'rta asr an'alariniko'proq saqlab qolganligi bilan O'zbekistonning boshqa viloyat vahududlaridan ajralib turadi. Buxoro shahrining paydo bo'lgandan buyon joylashgan yeri o'zgarmaganligi, qadimdan muqaddas va e'tiborli joylarga aholining hurmat bilan qarashi,

e'zozlashi, ayniqsa, kitoblar, kutubxonalar faoliyati, ularni asrash, kelajak avlodga yetkazib berish kabi ijobiy xususiyatlar Buxoroda muzey ishi majoziy ma'noda qadimgi davrlardan buyon mavjud bo'lganligini isboti bo'lib hisoblanadi. muzey tashkil qilinmagan bo'lsa-da, madrasa va masjidlar, muqaddas qadamjolar ushbu vazifani bajargan, degan fikrni bemalol aytish mumkin. Qadimiy osori-atiqalarni asrab-avaylash ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelavergan. Lekin, bu hali Buxoroda muzey va muzeyshunoslikning paydo bo'lishi degani emas edi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. 1920 yil sovet hokimiyatininghavohujumi natijasida Buxoroshahrining ko'pgina tarixiy obidalariga shikast yetdi, ba'zilari esa qayta tiklanmas darajaga kelib qoldi. Bir guruh vatanparvar, ma'rifatli ziyolilar Buxoroning moddiy-madaniy merosi yodgorliklarinasrab-avaylash maqsadidayagona bitta tizimli tuzish ishlarni amalga oshirishga kirishdilar. Buxoro ziyoli va vatanparvarlarining sa'y-harakatlari bilan 1922 yildastlabki rasmiymuzeyga tamal toshi qo'yildi. Ammo, o'sha davrda muzeyning hali aniq bir doimiy binosi bo'lmay, yo'nalishi ham aniqemas edi. Ekspozisiya ashyolarni namoyish qilishda hamqator kamchiliklar mavjud edi. Bir guruh mahalliy ziyolilar Abdurauf Fitrat, Muhammad Siddiq (Hashmat), Sayyid Muhammad Nosiriddinto'ra, Sharifjon Maxdum (Sadr Ziyoy), Mirzo Salimbek kabilar "Tarixi anjuman" jamiyatini tuzish orqali qizil armiya hujumidan talofot ko'rgan binolar, yolg'orliklarni o'rganish va saqlab qolish borasidagi ishlarni boshlab yuborgandilar[1.107,3]. Tadqiqotch, olim A.H.Boltayev ma'lumotlariga ko'ra, "Tarixi anjuman" jamiyatining qisqa muddat (1920-1924 yy) faoliyati samarasi sifatida Buxoro tarixiga oid, uning topografiyasi, arxitektura, moddiy va ma'naviy yodgorliklarini tadqiq etish yo'lga qo'yilib, Buxoroda o'lkashunoslik sohasiga tamal toshi qo'yilgan[2.37]. Shuningdek, Buxoroda muzey shakllantirish borasida hukumat tomonidan ham qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, "Buxoro axbori" gazetasida Markaziy inqilobiy qo'mitaning raisi A.Muhiddinov, uning muovini Abdulhamid Orif, kotib sifatida Sobir Yusupovlar imzo chekkan 14-raqamli buyruq e'lon qilingan bo'lib, unda; "Butun Buxoro mamlakatlaridagi eski hukumat ma'murlaridan qolgan qadimiy va yangi kitoblar maorif nazoratiga topshiriladur. ... Xususiy kishilarda eski kitoblari bo'lib sotmoqchi bo'lsalar chetga chiqarmasdan maorif nazoratiga keltirib, o'z bahosila oqchasini olsunlar va shul yuqoridagi qarshi kelganlarga jazolar ila hukunga beriladur"-degan jumlar mavjud bo'lgan[3.3,29]. Ushbu qarordan so'ng Buxoroda qadimiy osori-atiqalarni yig'ish ishlari boshlanib ketgan bo'lib, ushbu ishlarni amalga oshirish, ularni bir joyga yig'ish, saqlash borasidagi vazifalar Maorif nozirliги huzuridagi "Tarixiy osori-atika sho'basi"ga yuklatilgan. Maorif nozirliги bu borada buyruq chiqarib, tarixiy qiymatga ega ashyolarni pulini to'lab yig'ishni ma'lum qilgan. shuningdek, tarixiy qiymatga ega ashyolarni xorijga olib chiqib ketish borasidagi harakatlarni qonunan ta'qiqlagan[4.103-104].

Buxoroda muzeyni tashkil qilish borasida "O'rta Osiyo qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni qo'riqlash komiteti" Turkomstaris oldiga 1922 yil 16 fevralda Eski Buxoroda muzey tashkil etish va uning zoologiya, biologiya, minerologiya, etnografiya, arxeologiya, musulmon paleografiyasi, numizmatika va sanoat bo'limlaridan iborat bo'lishi bilan bog'liq vazifani topshirgan[5.3,2.12].

Muhokama va natijalar. "Tarixiy asori-atika sho'basi" ikki yil davomida faoliyat olib borib, Buxoro tarixiga oid ko'plab eksponatlarni to'plagan. Uning 1920-1922 yillarda olib borgan faoliyati natijasida Buxoroda ilk bora 1922 yil 8 noyabrda muzeyning tantanali ochilishi bo'lib o'tgan. Buxoro amirining sobiq yozgi qarorgohi - Sitorai Mohi Xossada Xalq Nozirlar Sho'rosi raisi Ato Xo'ja, maorif noziri Qori Yo'ldosh, Rossiyaning Buxoro Respublikasidagi vakolatxonasi boshlig'i Sokolov va oddiy aholi vakillari ishtirokida muzey ochilishi marosimi bo'lib, unda so'zga chiqqan Ato Xo'ja: "Buxoroda bir muzaxona (muzey) ochilishini ko'rmak, ilk buyuk tilaklarimizdan biridir. Bu kun shu muqaddas tilagimizning vujudga chiqishini ko'rib juda xursand bo'ldik",-degan mazmunda ma'ruza qildi. Maorif nozirining muovini

Mahzum esa: "Muzaxona bir tarixdur. Muzaxona bir darsdan iboratdur. Bir millatning avlodi shuni tomosha qilib bobolarning ahvolidan dars o'qur. Bir mamlakatning tarixini bilmak uchun muzaxonadan ortiq bir tarix kitobi bo'lmas",-mazmunidagi fikrlarni bildirgan. Shuningdek, Nazir afandi nomli bir muallim muzaxona (muzey)ga Qori Yo'ldosh nomini berishni taklif qilganligi K.J. Rahmonov tadqiqotlarida keltirib o'tilgan. G'.N. Qurbonov izlanishlariga ko'ra, o'sha vaqtda baribir muzeyga Qori Yo'ldosh Po'latov nomi berilgan[6.61]. Muzeyning birinchi direktori sifatida Aminjon Po'latov tayinlangan[7.16]. Muzeyning dastlabki faoliyati haqida qarashlar turlicha bo'lib, taniqli olim R.V. Almeyev fikricha, bu muzey 1923 yilda Ko'kaldosh madrasasiga ko'chirilib, undan so'ng 1924-yilda Rossiya-Xitoy banki binosiga joylashgan. Bu vaqtda muzey shtatlari soni beshtani tashkil etgan. 1924 yili muzeyga tashrif buyurganlarning umumiy soni olti ming kishini tashkil qilgan. 1924 yilga qadar bizning fikrimizcha, BXSР hukumatining boshlagan ko'plab xayrli ishlari singari turli to'siqlarga uchragan muzey ishi ochilganiga besh yil bo'lsa ham o'zining muqim binosiga ega bo'lmagan. O'lkashunos olim A.H. Boltayevning Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlaridan foydalanib yozishicha, 1927 yil Zerkomissiya (Zarafshon okrugi komissiyasi) Ko'kaldosh madrasasida ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi sababli muzeyni Mohi Xossaga ko'chirish taklifini bersada, Viloyat ijroiya qo'mitasibu taklifni e'tiborsiz qoldirgan. Ko'kaldosh madrasasi ta'mirlangandan so'ng muzey shu yerda ish boshlagan[8.59].

Muzeyning birinchi bora namoyishga qo'yilgan buyumlari soni 168 ta bo'lib, ular tematik shaklda bo'lmaganligi, kulolchilik, kashtachilik, Qashqar vazalar kabilarni o'z ichiga olganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Shuningdek, BXSР hukumatiga Rossiyata'sirining ortib borishi bilan dastlabki tematik ekspozitsiya 1924 yilda qishloq xo'jaligiga bag'ishlab yaratilganligi, bu muzey Buxoroda muzey shakllanishi tarixining birinchi davri ekanligi, bu davr 1922-1926 yillarni o'z ichiga olishiga oid fikr-mulohazalarni muzeyshunos olim R.V. Almeyev tomonidan tilga olib o'tilganligini ko'rish mumkin[9.83]. Sho'rolar davrida muzey to'liq shakllanib ulgurmasidan mafkuraviy jarayonlarga tortilgan deb xulosa qilish mumkin.

O'zbekiston SSR tashkil topgandan so'ng Buxoro muzeyi binosi masalasida Sredazkomstaris, Zerkomissiya, Buxkomstaris va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi turli taklif ko'rib chiqilib, munozaralar ham bo'lib o'tgan. Zarafshon viloyati ijroiya qo'mitasi taklifi muzeyni Sitorai Mohi Xossada ochishga oid bo'lib, unga Zerkomissiya muzey binosining shahardan uzoqlikda joylashishi va ekspozitlarni saqlash tizimi nosozligini vaj sifatida ko'rsatgan. Buxkomstaris taklifi bilan Ko'kaldosh madrasasida ochilish taklifi inobatga olingan. Ko'kaldosh madrasasini muzeyga moslab ta'mirlash ishlari 1926 yil martidan boshlangan, shuningdek, 3236 rublga yangi vitrina va jihozlar sotib olindi[10.40]. Ammo, 1927 yilda Sitorai Mohi Xossa saroyida viloyat o'lkashunoslik muzeyining "So'nggi amirlar sulolasining turmushi" deb nomlangan filiali ham ochilganligini muzeyshunos olim Q. Jumayev tadqiqotlarida keltirib o'tgan[11.48-49]. Demak, Sitorai Mohi Xossada muzey ochish taklifi ham o'z kuchida qolgan deb xulosa qilish mumkin. 1927 yil 22 iyunda Ko'kaldosh madrasasida o'z faoliyatini yangidan boshlagan O'lkashunoslik muzeyiarxeologiya, etnografiya va tabiat kabi bo'limlardan iborat bo'lgan. muzeyni ochilishida Muso Saidjonov faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U Buxoro tarixiy va me'moriy obidalarining umumiy tahlili bilan ilk bora shug'ullangan[12.35]. Muso Saidjonovning faoliyati tufayli ko'pgina me'moriy yodgorliklar saqlanib qolingan deb xulosa qilish mumkin.

Ko'kaldosh madrasasida tashkil etilgan muzey tomoshasiga kirishda narx belgilangan bo'lib, u erkaklar uchun 20 tiyin, qizil askarlar va xotin-qizlar uchun bepul tarzda amalga oshirilgan. Bu orqali musulmon ayollarni ham muzeyga jalb qilishga harakat qilingan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, 1920-yillar oxirlaridan boshlab Buxoro muzey jamg'armalari ma'lum bir miqdorda o'z mablag'lariga ega bo'lib, ilmiy xodimlarining yig'ish ishi davomida topilgan yangi ekspozitlar sotib olish yo'li bilan to'ldirila boshlangan. Ekspozitlarning bir qismini turli tashkilotlar va xususiy shaxslar muzeyga tuhfa etganlar[13.12]. Bu muzey

fondlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan.

1931 yilda sobiq Buxoro amirining Sitorai Moxi-Xossa saroyi Buxoro o'lkashunoslik muzeyi tarkibiga qo'shib berilgan. Bu yerda ham muzeyning numizmatika, zardo'zlik va boshqa badiiy san'at yo'nalishlarida ekspozitsiyalar tashkil etilgan. XX asrning 30-yillarida Buxoro o'lkashunoslik muzeyi sobiq SSSRdagi Ermitaj, Tretyakovskiy galereyasi, SSSR inqilobi muzeyi, Leningrad muzeyi va boshqa ko'plab sobiq SSSRning markaziy muzeylari bilan ilmiy aloqalar o'rnatgan. Shu bilan bir qatorda Buxoro o'lkashunoslik muzeyi xodimlarining 1931 yildan boshlab chop etila boshlangan "Советский музей" ("Sovet muzeyi") jurnali sahifalarida ilmiy izlanishlari chop etila boshlangan. Misol tariqasida P.Ye. Kornilov faoliyatini keltirib o'tish mumkin. Bu muzey xodimlarining dastlabki ilmiy izlanishlari natijalarining e'lon qilinishi bo'lgan. Natijada, butun sobiq Ittifoqda Buxoro muzeyi ommalashib borgan.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyi fondlarini XX asr 40-yillarida eksponatlar bilan boyitishda taniqli qadimshunos olimlar akademik Ya.G'. G'ulomov va T.Mirniyozovlarning faoliyati muhim ahamiyatga ega [14.92]. Shu bilan bir qatorda XX asr 40-yillaridavomida muzey to'liq tarixiy-o'lkashunoslik xususiyatiga to'la moslashib borishi ham kuzatiladi.

1945 yilda muzey Ark qo'rg'oniga ko'chib o'tgan va quyidagi ekspozitsiyalarni o'zida jamlagan. Tabiat bo'limi, tarixiy inqilobgacha bo'lgan davr, sovet jamiyati tarixi, tasviriy san'at kabi bo'limlardan iborat bo'lgan. Ushbu ekspozitsiyalarda viloyatning o'simlik va hayvonot dunyosi, tarixiy hujjatlar, Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi ashyolar, etnografik materiallar, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga oid hujjatlar qo'yilgan. Arxeologik izlanishlar natijasida topilgan ko'plab ashyolar muzey fondiga topshirilishi natijasida Buxoro shahrining qadimgi davrlarini o'zida mujassamlagan yangi arxeologiya bo'limi tashkil etiladi. Arxeologiya bo'limi tomonidan tashkil etilgan ekspozitsiya o'sha vaqtlardayoq (1947 y) Moskva shahrining 800 yillik tantanalari, Buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning 800 yillik yubileyi kabi tantanalarda ko'rgazmaga qo'yilgan va tashrif buyuruvchilar ko'rgazmani katta qiziqishi bilan kutib olganlar.

Buxoro o'lkashunoslik muzeyining oltmishinchi yillardagi faoliyatida ko'proq targ'ibot ishlari va ko'rgazmalar namoyishining kengaygani ko'zga tashlanadi. Ya'ni, muzeyga tashrif buyuruvchilar sonining yil sayin ortib borishidan ham bilib olish mumkin. Masalan, 1968 yilda muzeyga 29602 nafar, 1969 yilda esa 42937 kishi tashrif buyurgan. Bu raqamlar muzey faoliyatining yil sayin takomillashib, uning ta'sirchanligi oshganini ko'rsatib beradi. Muzey eksponatlari va qadimiy va nodir ashyolarining ko'payib borishi uni ulkan ilmiy markazga aylanishiga sabab bo'ladi. Chunki, Muzey faoliyatining 70-80 yillar davrini kuzatadigan bo'lsa, Buxoro o'lkashunoslik muzeyi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix, arxeologiya, san'atshunoslik va boshqa institutlari, Buxoro davlat pedagogika instituti kabilar bilan hamkorlikda ilmiy faoliyatni yo'lga qo'ygan. Muzey tashkil etilgan davrdayoq unda taniqli olimlar faoliyat olib borgan bo'lsa-da, muzey o'zining dastlabki "Ilmiy maqolalar to'plami"ni 1965 yilda chop ettirgan. To'plamdahammasi bo'lib sakkizta ilmiy maqola jamlangan. Muzeyda shu vaqtdan boshlab mahalliy kadrlarning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish va ilmiy izlanishlarda ularning roli ortib borganligi ko'zga tashlanadi [15.127].

XX asrning 70-yillarda muzey tarixida ko'zga tashlangan muhim voqeliklardan biri, direktor A.A. Mahmudov tashabbusi bilan eksponatlar raqamlanib kartoteka tashkil etilishi va qaydlar kitobiga kiritish ishlarini yo'lga qo'yilishidir. Shuningdek, muzeyga aholi qo'lidagi ashyolarni sotib olishda eksponatlarni baholash komissiyasi ham tuziladi. 80-yillardan boshlab o'lkashunoslik muzeyida ashyolarga ilmiy pasport to'ldirish ishlari ham amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, ilmiy ekspeditsiyalarga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, 1985 yilda muzeyga R.V. Almeyev direktor etib tayinlangandan so'ng, uning faoliyatida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida muzey ashyolarining soni 70 mingdan oshib ketgandi. Shuningdek, 1988 yilda Buxoro o'lkashunoslik muzeyi rasman "Buxoro badiiy-me'morchilik muzeyi-qo'riqxonasi" nomi bilan atala boshlaydi.

XX asrning 80-yillarda Buxoro o'lkashunoslik muzeyi bo'lim va filiallari ko'payib borib, tasviriy san'at, amaliy san'at bo'limlari, shuningdek, 1980 yil Afshona qishlog'ida Abu Ali Ibn Sino memorial muzeyi tashkil qilinadi. Muzey ko'rgazmalarida, foydali qazilmalar, tabiat bo'limi, ibtidoiy odamlarning mehnat qurollari, V-VIII asr saroylarini bezagan devoriy tasvirlar, qo'lyozma asarlar va turli hujjatlar, mahalliy aholining kiyim-kechaklari, etnografiyaga oid ashyolar, Buxoro inqilobi ishtirokchilarining shaxsiy hujjatlari, fashizmga qarshi kurash jarayonlari aks ettiruvchi ashyolar, "Rivojlangan sosializm davri", P.P. Benkov, U. Tansiqboyev kartinalari, somoniylar davriga oid sirlangan sopol idishlar, me'moriy inshootlari, amaliy bezak namunalari, tibbiyot jihozlari mulyajlari, sovet va xorijiy olimlarning Ibn Sino hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqodlari o'rin oldi. Ibn Sino muzeyining ochilishi Buxoro ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'lkashunoslik muzeyining keng qamrovli faoliyati va nodir eksponatlari hisobga olinib, 1983 yil muzeyga Buxoro davlat tarixiy-me'morchilik muzeyi qo'riqxonasi maqomi beriladi.

Muzey fondlarini turli davrlarda to'ldirish va boyitish ishlari bilan Duke Xuan, R.K. Tipayeva, Sh.R. Avezova, S.A. Lukyanova, B.A. Kazakov, I.Ya. Idrisov, O.A. Suxareva, P.A. Goncharova, V.F. Pak, G.M. Kurbonov, Yu.I. Hamroyeva, K.D. Shumayev kabi ilmiy xodimlar shug'ullanganlar, muzey faoliyatida ularning juda katta hissasi qo'shilgan. Shuningdek, Muzeyda turli davrlarda X.Ashurov, P.Kornilov, A.Po'latov, S.Kabanov, Sh.Kamalov, R.Reyker, L.Rempel, R.Fayazov, M.Saidjonov, O.Chexovich, V.Shishkin, N.Yuldashev, B.Kazakov, R.Almeyer, G'.Qurbonov, K.Rustamov, M.Niyazova, H.To'rayev va boshqa ko'plab taniqli olimlar faoliyat olib borganlar [16.17].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni yakunlab shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida zamonaviy muzey ishiga o'tgan asrning 20-yillarida asos solingan. Ekspozitsiyalar sovet mafkurasi va sinfiylik doirasida yaratilgan bo'lsa-da, muzey Buxoroning uzoq o'tmishi, tarixiga oid ma'lumotlarni jamlash, kelajak avlodlarga yetkazish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliylik, o'z xalqining boytarixi, madaniy yodgorliklariga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Yuz yillik faoliyati davrida muzey nodir tarixiy ashyolarni to'plash, saqlash, targ'ib qilish bilan bir qatorda, ilmiy tadqiqot ishlariga ham e'tibor qaratib kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy arxivi, R-2628-fond, 1-ro'yxat, 107-yig'ma jild, 3-varaq.
2. Bobir Boltayev, Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 5 (5)
3. Buxoro axbori, 3-son, 1920-yil 29-sentabr.
4. Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республдикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар) / К.Рахмонов; Масъул муҳаррир Қ.К. Ражабов. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Файзулла Хўжаев номидаги Бухоро давлат ун-ти. – Т.: АБУ МАТБУОТ-КОНСАЛТ, 2012. – б. 103-104.
5. O'zbekiston Milliy arxivi, R-394-jamlanma, 3-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 12-varaq.
6. Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар (Общественные науки в Узбекистане). – Т.: Фан, 1983. № 1. – С. 61.
7. Альмеев Р.В. Бухара-город музей. – Т.: Фан, 1999. – С. 16.
8. Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарварақларида [Матн] : монография / Б.Мизакулов. – Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2018. – Б. 59.
9. Boltayev B. V. Buxorolik miniaturachi-rassom sadriddin pochchayev ijodiga bir nazar // Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 998-1004.
10. Ниязова М.И. Истории деятельности Бухарского музея (1925-1927 гг) // из истории культурного наследия Бухары вып 2 1994. – С. 40.
11. Жумаев Қ. Ситорай Моҳи Хосса (Тўлдирилган иккинчи нашри). – Бухоро: "Бухоро нашриёти", 2010. – Б. 48-49.

12. Jasurovna M. R., Vaxtiyorovich B. B. SHIMOLIY VAQTRIYA HUDUDIDA BRONZADAVRIDA DINIY E'TIQODLAR VA DAFN MAROSIMI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 830-832.
13. Вухоро Davlat dadiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonа (albom-katalog). – Toshkent-2004. – В. 12.
14. Бухоро Шарқ дурдонаси. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 92.
15. Бухоро давлат архиви, 1175-фонд, 1-рўйхат, 127-йиғма жилд, 126 варақ.
16. Вухоро Davlat dadiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonа (albom-katalog). – Toshkent-2004. – В. 17.
17. Мардонов Р., Болтаев Б. ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 68-71.
18. Boltayev B. MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA OLISHDA QONUN HUJJATLARINING AHAMIYATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
19. Vaxtiyorovich B. B. Excerpts from the life of the bukharian artist //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 12. – С. 160-165.
20. Ахмадалиев К., Болтаев Б. МАРКАЗИЙ СУҒДНИНГ МУДОФАА ИНШООТЛАРИ //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 30-31.

JANUBIY O'ZBEKISTON ZIYORATGOHLARINING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

*Djuraeva Sanabar Nurmatovna,
tarix fanlari doktori. O'zbekiston Milliy universiteti professori.
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.010>*

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda ziyorat masalasi, uning diniy ibodat ekanligi, islom dini va unda ibodatning turlari sifatida haj hamda musulmonlar orasida qabr ziyorati amali hamda buyuk allomalar ijodiy merosi, islom dini ta'limotida muhim o'rin tutgan shaxslar, avliyo pir darajasidagi ulamolar ta'limoti, qabr ziyorati masalasida sovet yillarida bildirilgan munosabatlar, o'sha davr adabiyotlari orqali o'rganilgan. Shu bilan birga, ziyorat u bilan bog'liq marosimlar, urf-odatlar, diniy e'tiqod ildizlari mustaqillik davri adabiyotlarida, xorij tadqiqotlari orqali chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shahar, alloma, ziyoratgoh, qadamjo, manba, qo'lyozma, adabiyot, tasavvuf, marosim, urf-odat, ibodat, kult.

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПАЛОМНИЧЕСТВА ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

*Джураева Санабар Нурматовна,
доктор исторических наук. Профессор Национального университета Узбекистана.*

Аннотация. В статье рассматривается вопрос паломничества в Центральной Азии, ее религиозного поклонения, ислама и видов богослужения в нем, паломничества и практики посещения могил среди мусульман, а также творческое наследие великих ученых, людей, сыгравших важную роль в учении ислама, учении ученых на уровне святых, вопрос могильного паломничества в советские годы выражаемые связи изучались через литературу того времени. В то же время ритуалы, обычаи и корни религиозных верований, связанные с паломничеством, глубоко проанализированы в литературе периода независимости, посредством зарубежных исследований.

Ключевые слова: город, аллома, святыня, паломничество, источник, рукопись, литература, суфизм, церемония, традиция, богослужение, культ.

HISTORICAL ANALYSIS OF THE PILGRIMAGE OF SOUTHERN UZBEKISTAN

*Djuraeva Sanabar Nurmatovna,
Doctor of History. Professor of the National University of Uzbekistan.*

Annotation. In the article, the issue of pilgrimage in Central Asia, its religious worship, Islam and the types of worship in it, the pilgrimage and the practice of visiting graves among Muslims, as well as the creative heritage of great scholars, the people who played an important role in the teachings of Islam, the teachings of scholars at the level of Saints, the issue of grave pilgrimage in the Soviet years the relations expressed were studied through the literature of that time. At the same time, the rituals, customs, and roots of religious beliefs related to the pilgrimage have been deeply analyzed in the literature of the period of independence, through foreign studies.

Key words: city, shrine, pilgrimage, source, manuscript, literature, Sufism, ceremony, tradition, worship, cult.

KIRISH. O'zbek diniy, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan bir hisoblangan ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar tarixini o'rganish, xalqimiztafakkurini shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini

tadqiq qilish o‘zbek xalqi milliy mentaliteti, o‘zlikni anglashmasalasining tarixiy ildizlarini ochib berishga imkon beradi. Muqaddas qadamjolarining tarixi va ularning ziyorat ob‘ektiga aylanishini o‘sha davrdagi tarixiy jarayonlar, xalqning ruhiyati va kayfiyatini hisobga olgan holda tadqiq etish katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Shu jihatdan, O‘zbekiston hududidaqadimgi davrlardanshakllanib, takomillashib kelgan an‘anaviy qadriyat va urf-odatlarining jamiyat ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlaridagi o‘rnini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu yuzasidan turli ko‘rinishdagi adabiyot va tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsada, ularda Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida ziyoratgoh masalasi, uning kelib chiqishi va aholining munosabati Farg‘ona, Qo‘kon, Xorazm, Buxoro ziyoratgohlari misolida tadqiq etilgan.

Ziyorat masalasi, bevosita diniy ibodat bilan bog‘liq bo‘lib, dinshunoslik yo‘nalishida yaratilgan adabiyotlarda turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta‘limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma‘lum xalq hayotida tutgan o‘rni dunyo dinlar tarixi misolida ko‘rsatib berilgan. Mazkur turdagi asarlarda, islom dini va uning tarixi tahlil qilinishi barobarida islom dinida ibodatning turlari sifatida haj hamda musulmonlar orasida qabr ziyorati masalasining umumiy jihatlari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan [1:672].

Shuningdek, islomshunoslik yo‘nalishida, buyuk allomalar ijodiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilib, nafaqat umumiy tarix hajmida, balki islom dini ta‘limotida muhim o‘rin tutgan shaxslar, ya‘ni avliyo, pir darajasidagi ulamolar va ularning ta‘limoti, jumladan, ziyoratning turlari, islomda qabrlarni ziyorat qilish masalasi, tasavvuf va tariqatlarining tarqalishi bilan bog‘liq qarashlar asosidagi xulosalar ilmiy tadqiq qilinadi [2:23]. Mazkur turdagi adabiyotlar ziyoratgohlarning paydo bo‘lishi, avliyo, pirlar nomi bilan bog‘liq muqaddas joylar hamda islom olamida mashhur tasavvuf vakillarining fikrlari borasida yangi ma‘lumotlarni olish imkonini yaratadi.

Markaziy Osiyo musulmonlari yashaydigan hududlarning Rossiyaga qo‘shib olinishi olimlarning tarix, madaniyat va aholi turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirdi. Ular o‘z xizmatlari davomida, mahalliy aholi bilan birga yashab, ularning turmush tarzini o‘rganganlar va xulosalar asosida, Turkiston musulmonlarining ziyoratgohlari, mozor, muqaddas joylar to‘g‘risida ma‘lumot berganlar. Mazkur tematika mualliflar tomonidan mahalliy aholi hayotiga yoki uning islom diniga nisbatan munosabati ba‘zi o‘rinlarda salbiy baholangan. Ba‘zan etnografik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Masalan, hududiy ziyoratning o‘ziga xos hususiyatlarini akademik V.V.Bartold [3] asarlarida tilga olinsa, Turkiston musulmonlarining ziyorat masalasi Ch. Valixonov [4] tadqiqotlarida berib o‘tiladi. Shuningdek, aynan shu davrda mahalliy aholi turmush tarziga oid asarlarda muqaddas joylar to‘g‘risida fragmentar eslatib o‘tilgan ma‘lumotlar rus mualliflarining geografik-statistik harakterga ega ma‘lumotlarida ham aks etadi [5].

Aytish lozimki, O‘zbekistonda ziyoratgohlar faoliyatining ayrim jihatlari yoritilgan sovet yillaridagi adabiyotlarda, nafaqat O‘zbekistonning janubiy hududi, balki ziyoratgohning umumiy hususiyati va aholining munosabati tahlil qilingan. Turkiston mustamlaka davri ziyorat masalasini tadqiq qilgan olim V.Litvinov ham o‘z tadqiqotida, muammoning o‘rganilish jihatlari ta‘kidlab, Sovet tarixshunosligida, ziyorat masalasi hukumat siyosati darajasida o‘rganilmaganligini qayd etadi. XX asrning 20-yillarida musulmonlarni inqilobiy o‘zgarishlarga jalb qilish maqsadida partiya va sovet adabiyoti bu masalani o‘rgana boshlagan. B.L. Kuftining «Qozoq madaniyati va hayoti» to‘g‘risidagi kitobida xalqning muqaddas joylarga tashrifi haqida qisqa eslatib o‘tiladi. Keyingi yillarda musulmon ruhoniylari faoliyati keskin ta‘qib ostiga olinib, mozor va qabrlarga tashrif qoloqlik va johillik belgisi, deb baholandi. 1936 yilda L. I. Klimovich «Islam v sarskoy Rossi» asarida bu haqda qisqacha ma‘lumotlarni bersada, muqaddas joylarga ziyorat to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ilmiy nuqtai nazardan emas, «shaxsga sig‘inish» ning sabablarini sinfiylik misolida ko‘rsatib bergan [6:26].

Ta'kidlash o'rinliki, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan barcha adabiyotlar jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar va kommunistik partiyaning g'oyaviy ta'siri ostida din bilan bog'liq eskilik sarqiti sifatida baholanib, yoritilgan. Tadqiqotlarning asosiy ob'ekti sifatida islom dini va uning tarixini o'rganish belgilangan bo'lib, xususan T.Saidbaev, O.Suxareva, M.Jalolov, A.Ahmedov, R.Mavlyutov, U.Yusupov kabi mualliflar o'z ilmiy ishlarida islom dini va u bilan bog'liq marosimlar tarixini salbiy baholab, tahlil qilganlar. Masalan, R.Mavlyutov «Islom» nomli risolasida, mahalliy aholi hayotida ziyorat fenomeni to'g'risida fikr bildirgan. Uning ta'kidlashicha, musulmonlar o'zlarining avvalgi ajdodlaridan qolgan diniy e'tiqod an'alariga amal qilib, turli qadimiy inshootlar, qabrlar, qabristonlarni hamda daraxt, tosh va boshqalarni muqaddas joylar (mozorlar) sifatida hurmat qilishgan [7:100-110]. Odatda, bu mozorlar afsonalar bilan muqaddaslashtirilgan bo'lib, O'zbekiston hududida ilk bor VII-VIII asrlarda musulmon mozorlariga sig'inish sifatida paydo bo'lgani qayd etilgan.

Ziyorat va u bilan bog'liq marosimlar, nafaqat o'zbek xalqi orasida, balki, o'lkada yashovchi turli millat vakillari orasida saqlangan va hozirga qadar qo'llanib kelinayotgan urf-odatlardan biri hisoblangan. Shu jihatdan, Rossiya tarixshunosligining sovet yillari adabiyotlarida, boshqa hududlar aholisi (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari) misolida, muammoning ayrim masalalari yoritilgan. O.Murodov tadqiqotida, Zarafshon tojiklari misolida diniy kultning kelib chiqishi shomonlik dini ildizlari bilan bog'lansa [8], L. Tolstov tadqiqotida, Xorazm vohasi turkiy tilli aholisi o'rtasidagi diniy ibodat shakllarining tarqalish asoslarini xalq folklori bilan bog'lab, uning tarixiy o'tmishini massaget qabilasiga borib taqagan [9]. S.Abramzon diniy ibodatda kult masalasini qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqi turmush tarzidagi diniy elementlar misolida qiyosiy tahlil qilib, uning asoslarini bevosita qadimgi tarixiy jarayondagi diniy e'tiqod ildizlari qoldiqlari bilan bog'liqligini ko'rsatib bergan [10].

Sovet yillarida nashr qilingan O'zbekiston tarixiga doir adabiyotlardaham mazkur mavzu aholi ijtimoiy-madaniy hayoti yoki shahar arxitekturasida tarixiy yodgorliklar misolida Toshkent [11], Buxoro [12:328], Fargona muqaddas qadamjolari va diniy kultlar mavzusi yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar orasida sovet etnografi G.P.Snesarevning ilmiy izlanishlari [13] Xorazm hududi ziyoratgohlari misolida o'rganilgan bo'lsa, V.N.Basilov tadqiqotlarida, muqaddas avliyolar obrazi, uning tarixiy ildizlari bevosita shomonlik bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan [14:3-5]. Umuman, sovet davri adabiyotlarida janubiy O'zbekiston misolida ziyorat masalasi tadqiqot sifatida o'rganilmagan, hatto buni tadqiqotchi olim V.P.Litvinov ham baholab, Turkistondagi din bilan bog'liq e'tiqodlar etnografik yo'nalishda faqat bir hudud doirasida o'rganilgani, ya'ni olimlar hududlarning o'ziga xos hususiyatlarini ochib berishga e'tibor qaratganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tadqiqotchilarning kamchiligi shundaki, muqaddas joylarga ziyorat masalasi maxsus chuqur o'rganilmagan va undagi yondashuvlar partiya g'oyaviy mafkurasi nuqtai nazardan baholanib, eskilik sarqiti, jamiyatdan orqada qolish g'oyalari bilan yoritib berilgan [6:26].

Sovet davrida nafaqat din bilan bog'liq ziyorat tarixi, balki Surxondaryo va Qashqadaryo vohasining qadimiy obidalar va tarixiy joylari arxitekturasini, san'at, madaniyat va diniy etnografiyasining ma'lum masalalarini yoritgan ilmiy adabiyotlar yaratildi. Ayniqsa, 1968-1970 yillarda O'zbekistonda turli ko'rinishdagi etnografik ekspeditsiyalar tashkil etilib, aholining etnik sostavi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati, oila va oilaviy turmush tarzi to'g'risida katta hajmli ma'lumotlar yig'ildi [15:161].

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalar tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish 1870 yilda Chor Rossiyasi tomonidan Shahrisabz va Kitob bekliklarining tugatilishi, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan keyin boshlangan. Shahrisabzga dastlab tashrif buyurgan tabiatshunos A.L. Kun (1870), V.N. Litvinov (1895-1910), I.A.Kastane (1916), suratkash G.Ye. Krivsov, topograf Sitnyakovskiy, yozuvchi V.V. Krestovskiy bu shaharda o'zlari ko'rgan me'moriy obidalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar qoldirishgan, xolos.

Jumladan, Nasaf va Kesh shaharlari, qishloqlari tarixiy topografiyasi bilan dastlab yozma manbalar asosida V.V. Bartold [16:187-197] [[17:188-196], L.A. Zimin[18:127] shug‘ullangan. 1927 yilda Shahrisabzning tarixiy-me‘moriy yodgorliklari B.N. Zasyrkin, 1930 yillarda Ya.G‘. G‘ulomov, T. Mirg‘iyosov, S.K. Kabanovlar [19:16; 77-114] tomonidan tadqiq etilgan. 1942 yilda M.Ye. Masson, G.A. Pugachenkova [20: 292], V.L. Voronina, 1948 yilda esa O.A. Suxareva Shahrisabzning mahallalari, guzarlari, tarixiy topografiyasi va shahar aholisining etnik qatlamlarini o‘rganagan.

Tadqiqotlar orasida arxeolog L.Yu. Mankovskayaning “Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari» kitobi [21:56] muhim hisoblanadi. Unda hududdagi temuriylar davri yodgorliklari, Xojagi Imkanagi, Abulqosim Xoja xonaqohlari holati to‘g‘risida keng ma‘lumot beriladi. Arxeolog olim M.Ye. Masson [22:32] Qashqadaryo vohasi Shahrisabz xududidagi qabrlar (Xazrati Imom, Sulton Sodot) xolatini o‘rganib, xulosalar beradi.

Shu bilan birga, arxeolog olimlardan R.Abdurasulov, L.Rempel, L.Mankovskaya tomonidan Qashqadaryo viloyati Koson tumani Pudina qishlog‘ida joylashgan Qusam Shayx me‘moriy yodgorligidagi eng qadimgi makbaralar X-XI asrda bunyod etilganligi aniqlangan [23:30].

Xullas, sovet hukmronligining dastlabki yillarida O‘zbekiston sanoat korxonalarini mutaxassislar bilan asosan Markaziy rayonlardagi oliy ta’lim muassasalari ta’minlab turdi. Moskva Davlat universiteti, Leningrad Davlat universiteti, Moskva politexnika instituti, Xarkov poligrafiya instituti tayyorlagan muhandis-texnik kadrlar O‘rta Osiyo sanoat korxonalarida ishlash uchun yuborildi. Sovet davlati sanoatini rivojlantirishda omma “g‘ayrat - shijoatidan” unumli foydalanib, “Sotsialistik musobaqa”, “Zarbdorlik”, “Staxanovchilik”

harakatlarini uyushtirdi. Ammo, bu turdagi harakatlarga ishchilarning 70 foizidan ortig'i jalb etilgan bo'lsada, amalda ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Bu harakatlar sun'iy ravishda keng yoyilib, masala bazasidan ishchilarning yig'ilishlari, konferensiya va syezdlari chaqirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov X. Voha sanoat tarixi bunyodkori, qashqadaryo tarixchilarining zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning ilmiy merosi //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.3. – C. 4043-4043.
2. To'xtayev A.Q. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni sotsialistik asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlari (1917 – 1941-yillar) // Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2001. – 11 bet.
3. To'xtayev A.Q. Surxondaryo viloyati an'anaviy sanoat korxonalarini tarixi (1930 – 1940 yy). – Termiz davlat universiteti professor – o'qituvchilarining XXVIII ilmiy-nazariy konferensiya ma'ruzalar to'plami. – Termiz, 1996; – 87 bet.
4. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; – 65 bet
5. Mamatqulov B.SH.O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925-1941-yy.); Monografiya. T.: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti. - 2023. -134 b.
6. Ziyodullayev S. Manoxin I. Sovet O'zbekistonining sotsialistik sanoati. – T., 1949. – 144 bet.
7. Mamatqulov B.SH.O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi va uning oqibatlari (1925-1941-yy.); Monografiya. T.: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti. - 2023. -134 b.
8. Qobulov E. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. – Termiz: Jayxun, 1993-12 bet

ILK O'RTA ASRLARDA CHOCH VOHASI BOSHQARUV TIZIMINI XORIJLIKOLIMLARINING TADQIQOTLARIDA YORITILISHI

Muxamedov Yakubdjan Kadirovich,

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya
kafedrasi katta o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD)*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.015>

Annotasiya. Ushbu maqolada Choch vohasi boshqaruv tizimini yoritishda xorijlik olimlarning tadqiqotlaridan o'rin olgan xoqonlik tomonidan olib borilgan boshqaruvdagi isloxlarning mazmun mohiyatini ilmiy masalalarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu borada arxeologik va yozma manbalardagi ma'lumotlar tahlili asosida ochib berilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlarni tadqiq qilishda mazkur masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan xorijlik mutaxassislar tomonidan bildirib o'tilgan fikr mulohazalar o'rganib chiqilib tahlil qilinib yoritilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, Sug'd, Choch, Xoqon, turk, eftalit, Chje she, Tegin, Qang', Yabg'u, etnik gurux, tudun, tutun, savdo, ayiriboshlash.

COVERAGE OF THE MANAGEMENT SYSTEM OF THE CHACH OASIS IN THE EARLY MIDDLE AGES IN THE RESEARCH OF FOREIGN SCIENTISTS

Mukhamedov Yakubdjan Kadirovich,

*Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Faculty of History, Senior Lecturer,
Department of Archaeology, Ph.D.*

Abstract. This article is devoted to the study of scientific problems that took place in the research of foreign scientists on the history of management of the Chach oasis in the early Middle Ages, and is revealed based on the analysis of data from archaeological and written sources. When researching the information presented in the article, the opinions expressed by foreign experts conducting scientific research on this issue were studied, analyzed and highlighted.

Key words: Management, Sogd, Chach, Khakan, Turk, Ephthalite, Chje she, Tegin, Kang, Yabgu, ethnic group, Tudun, Tutun, trade, exchange.

ОСВЕЩЕНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧАЧСКОГО ОАЗИСА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ

Мухамедов Якубджан Кадирович,

*Мирзо Национальный университет Узбекистана, исторический факультет,
старший преподаватель кафедры археологии, Ph.D.*

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию научных проблем, имевших место в исследованиях зарубежных учёных по истории управления Чачским оазисом в раннем средневековье, и раскрывается на основе анализа данных археологических и письменных источников. При исследовании информации, представленной в статье, были изучены, проанализированы и освещены мнения, высказанные зарубежными специалистами, проводящими научные исследования по данному вопросу.

Ключевые слова: Управления, Согд, Чач, Хакан, Тюрк, Эфталит, Чже ше, Тегин, Канг, Ябгу, этнос, Тудун, Тутун, торговля, обмен.

Kirish. Ma'lumki, o'tmishda biron bir sulola tarix saxnasiga kelar ekan tarkibida bo'lgan hududlarda o'z boshqaruv tizimini olib borgan. G'arbiy Turk xoqonligining ma'muriy boshqaruv tizimini o'rganish tadqiqot ishimizning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ushbu

masala hozirgi kunga qadar bu o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. G'arbiy xoqonlikning boshqaruv tartibi va tarkibidagi yerlardagi isloxotlari bo'yicha eng muxim ma'lumotlar ayniqsa Choch vohasining boshqaruvi borasidagi masalalar xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan o'rin olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur masalani yoritishda xorijlik olimlardan, fransuz sharqshunoslari E. Shavann, F. Grene, E. de la Vessier, amerikalik J.K. Skeff, nemis tadqiqotchisi Z.Shtark, venger sharqshunosi K.I.Bekvis, turkiyalik sharqshunos va tarixchilar Z.V.To'g'on, E.Esin va E.Ekremlarning tadqiqotlari ilmiy ishning asosiy manbasini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritishda tarix fanida tan olingan tarixiylik, obyektivlik tamoyillari, tizimli qiyosiy tahlil, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan Choch vohasining tarixini, uning ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini, boshqaruv shakli va vohadagi hukmron sulolalarning kelib chiqishi masalasi bir qator xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, ular orasida asosan fransuz sharqshunoslari E. Shavann, F. Grene, E. de la Vessier, amerikalik J.K. Skeff, nemis tadqiqotchisi Z.Shtark, venger sharqshunosi K.I.Bekvis, turkiyalik sharqshunos va tarixchilar Z.V.To'g'on, E.Esin va E.Ekremlarning tadqiqotlari alohida ajralib turadi[1]. Ular asosan yozma manbalarga, xususan, xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlarga tayangan holda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shuningdek, voha tarixini asosan Turk xoqonligi davri tarixi doirasida yoritib berishda hozirgi kunga qadar aniqlanmasdan kelayotgan ko'pgina muammoli masalalariga oydinlik kiritishgan. Jumladan, ular orasida birinchilardan bo'lib Markaziy Osiyo tarixini xitoy manbalari asosida tadqiq qilgan E.Shavann XX asr boshlarida "G'arbiy turklar tarixiga oida hujjatlar" nomli monografiyasida Choch vohasining ilk o'rta asrlardagi siyosiy tarixi aks etgan xitoycha ma'lumotlarni tarjima qilish mobaynida arab va fors tilidagi ma'lumotlarni ham o'zaro taqqoslab keltirgan va xoqonlik tomonidan Chochga noib sifatida yuborilgan "tudun" unvonli amaldorlar faoliyatiga to'xtalib o'tib o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tgan [2].

E.Shavan, F.Grene va E. de la Vessierlar nisbatan yaqin yillarda o'z tadqiqotlarini amalga oshirishgan bo'lib, ular Mug' tog'i sug'diy hujjatlarini tahlil qilish mobaynida 720- yillarda Sug'd hukmdori Devashtich tomonidan Chochga yuborilgan elchi Fatufarnning o'z xo'jayiniga yozgan xati – A-14 raqamli sug'diy hujjatni fransuz tiliga tarjima qilib, o'sha yillarda vohada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga e'tibor qaratishgan[3]. Mazkur tadqiqotchilar ushbu hujjatda uchraydigan "Choch hukmdori", "Choch tuduni", "xun" iboralarini tahlil qilib, ulardan so'nggi ikkitasini Turk xoqonligi bilan bog'lashgan. Amerikalik tadqiqotchi J.K. Skeff esa asosan xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar asosida Turk xoqonligining tarkibida bo'lgan hududlarnin boshqaruv tizimida olib borgan islohotlariga to'xtalib, bu masalani ilmiy tahlil qili, Choch hukmdorligi misolida yoritishga harakat qilgan. Uning fikricha, xoqonlikning bu erdagi boshqaruvi ancha izchil amlga oshirilgan bo'lib, xoqonlar tomonidan noib sifatida yuborilgan maxsus vakil – tudunlar kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lganligini ta'kidlagan[4].

Germaniyalik tarixchi Z. Shtark turli tillardagi manbalar va arxeologik materiallar asosida qadimgi turklar tarixini yoritib, Choch vohasida kelib chiqishi Ashina honadoniga mansub bo'lgan hukmdorlar, shuningdek, tudunlar faoliyatiga ham qisqacha to'xtalib o'tgan. Xulosasigako'ra, Turk xoqonligi Choch, Farg'ona va To'xoristonni, shuningdek, ehtimol, Buxoroni bevosita o'z boshqaruvchi xonadani vakillarini tayinlash orqali boshqargan[5].

Xorijlik ayrim tadqiqotchilar, xususan, J.K. Skeff, E.de la Vessier, F. Grene, Z. Shtarklar Choch vohasining siyosiy boshqaruvi bo'yicha ham muhim yangi fikrlar bildirib o'tishlariga qaramasdan, vohadagi hukmron sulolalar bilan bog'liq ayrim biryoqlamali yondashuvlarda bo'lganliklari ko'zga tashlanadi. Xususan, Z. Shtark vassal hukmdorliklar boshqaruvida turkiy unvonlarning uchrashini muayyan bir tizim bilan emas, shunchaki tasodif yoki davrga hos holat sifatida tilga olib o'tilsa[6], J. K. Skeff esa Choch tudunlari sulolasi vakillarining unvoni

turkiy, ismlari esa g‘ayriturkiy ekanligini ta’kidlashgan[7]. Biroq har ikkala tadqiqotchining fikri o‘sha davr voqeliklarini chuqur o‘rganilmasdan va atroflicha ilmiy asosda tahlil qilimasdan turli tillardagi ma’lumotlarni o‘zaro solishtirmasdan bildirilgani, numizmatik materiallarga jiddiy e’tibor berilmaganligi, hamda bir qator tadqiqotchilarimiz tomonidan ta’kidlab o‘tildi va ular tomonidan ilgari surilgan “davr modasi”, “g‘ayriturkiy ismlar” kabi masalalarga aniqlik kiritildi. Xususan, G‘. Boboyorovning ta’kidlashicha, Turk xoqonligi davrida turkiy unvonlar xoqonlik boshqaruvida qanday qo‘llanilgan bo‘lsa, uning vassalarida ham shunga amal qilgan holda ishlatilgan, agar ular yozganidek davrga xos tizim sifatida baholanganida, xohlagan hukmdorlik xoqonlikka xos bo‘lgan unvonlarni ixtiyoriy tartibda, ya’ni ularning darajasiga qaramasdan o‘ziga maqul kelganini tanlab olib, palapartish holatda qo‘llana boshlagan bo‘lur edi. Shu bilan birga ushbu tadqiqotchi “g‘ayriturkiy ismlar” masalasiga to‘xtalib, xitoy yilnomalarida uchraydigan 3 ta nafar tudunning ismlari ham sof turkcha ekanligini turli manbalar bilan asoslab berishga muvafaq bo‘lgan[8].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, E.V. Shavann Choch vohasining siyosiy tarixiga oid “Bey shi”, “Suy shu” va “Tan shu” kabi ilk o‘rta asrlarga oid xitoy yilnomalaridagi ma’lumotni fransuzchaga tarjima qilishi mobaynida arab manbalaridagi ma’lumotlarga ham murojaat qilgan g‘arblik tadqiqotchilarning dastlabkilaridan biri sanaladi. Shunga qaramay, mazkur yilnomalardan foydalangan va E.V. Shavanning tadqiqotidan xabardor bo‘lgan F. Grene va E. de la Vessierlar, ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlar. Jumladan, ular A-14 raqamli sug‘diy hujjatni tahlil qilish mobaynida E. Shavann tomonidan o‘girilgan xitoycha ma’lumotlardagi Shi-guo Fu-Wang – “Choch hukmdori muovini tudun” iborasini to‘liq olgan holda, Shi-guo Wang T‘ele, ya’ni “Choch hukmdori Tegin” jumlasidagi[9] “tegin” so‘zini tushirib qoldirib, Shi-guo Wang “Choch hukmdori” tarzida beradiki[10], bu esa o‘z navbatida ayrim tarixiy voqeliklar borasida muayyan anglashmovchiliklarning kelib chiqishiga olib keldi. Ya’ni xitoy yilnomalarida aynan Choch hukmdori Tegin ekanligi ko‘rsatilib turishiga qaramay mazkur tadqiqotchilarning bu unvonni tushirib qoldirishi natijasida qaysi unvon egalarining Chochda bosh sulola, qaysilari esa aksinchaligi masalasida tushunmovchilik yuzaga keldi.

Ushbu masalaga o‘z vaqtida e’tibor qaratgan G‘. Boboyorov F. Grene va E. de la Vesserlar xatoga yo‘l qo‘yishgani, aslida Chochda bosh sulola – Teginlar, ikkinchi darajali sulola esa Tudunlar bo‘lganini nafaqat xitoy manbalaridagi ma’lumotlar (Shi-guo Wang T‘ele “Choch hukmdori Tegin” va Shi-guo Fu-Wang – “Choch hukmdori muovini tudun”) va Turk xoqonligi unvonlar ierarxiyasida “tegin” (shahzoda), “tudun” (noib) maqomlari tasdiqlashini talqin qilgan[11].

Bu davr tibet manbalari bo‘yicha yirik mutaxassis K.I. Bekvis Choch vohasi tarixiga doir nisbatan kam o‘rganilgan mavzularni yoritgan. Tadqiqotchining yozishicha, xitoy yilnomalarida uchraydigan Choch muoviniyordamchi hukmdorining ismi turkiy bo‘lib, uning asli Inal Tudun Kulug shaklida tiklanadi[12]. Uning fikricha, xitoy yilnomalarida Chabishi shaklida uchraydigan Choch hukmdorining ismi Chabish shaklida tiklanadi va u aslida ism bo‘lmay, turkiy chabish (chovush) unvoni bilan aloqadordir. Tadqiqotchiga ko‘ra, ushbu hukmdor Chochning ikkinchi darajali hukmdori Inal (Inay) Tudun Kulugning o‘g‘li bo‘lib, Turgash xoqonligiga aloqador hukmdorlikning boshqaruvchisi sifatida turgash xoqonlarining Xitoyga qarshi ittifoqchisi ham bo‘lgan[13]. Biroq uning 751 yildagi ittifoqchilari bo‘lmish Turgash xoqoni va tibetlik lashkarboshilar bilan birgalikda xitoy sarkardasi Gao Syanchji tomonidan qo‘lga olinib, poytaxt Chan’anga olib ketiladi va u erda imperator farmoni bilan poytaxtdagi “KayYuan darvozasi” oldida qatl etiladi. Shundan keyin marhum Choch hukmdori Chabishning o‘g‘li xitoyliklarga qarshi Samarqanddagi Arab garnizoni boshlig‘i Ziyod b. Solih alXuzaynaga yordam so‘rab murojaat qiladi va natijada 751 yilda bo‘lib o‘tgan mashhur Talas jangi yuz beradi[14]. Aftidan g‘olib chiqqan arab qo‘shinlari ushbu jangda o‘zlariga yordam bergan voha hukmdorliklari qatorida Chochni ham o‘z qaramog‘iga olib, uni tobe hukmdorlikka aylantiradi.

Xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari Choch vohasining ilk o'rta asrlardagi siyosiy-ma'muriy boshqaruvi bo'yicha ko'plab muammoli masalalarga aniqlik kiritganliklarini guvohi bo'lish mumkin. Ular yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida vohada bir mahalliy sulolalar hukm surganligi, Choch hukmdorlarining boshqaruv yillari xronologiyasi, sulolalarning etnik mansubligi, boshqaruvda qo'llanilgan unvon va epitetlar, mahalliy sulolalar tomonidan zarb qilingan tanga-pullar, tangalarda o'rin olgan ramziy belgilar – tamg'alar, umuman olganda vohada mavjud bo'lgan boshqaruv an'analari bo'yicha birmuncha umumiy to'xtamlarga kelishayotganligi ko'zga tashlanadi.

Xulosa. ilk o'rta asrlarda Choch vohasi ijtimoiy va siyosiy tarixi bo'yicha xorij tadqiqotchilaridan ayrimlarining ba'zi ishlari bilan qisqacha tanishib chiqishimiz natijasida quyidagicha xulosaga kelindi:

- xorijlik tadqiqotchilar, xususan, ular orasida fransuz, nemis, venger, amerikalik kabi tadqiqotchilar islomdan oldingi Choch vohasi tarixini yoritishga anchagina hissa qo'shganlar;
- ularning tadqiqotlari asosan turli tillardagi yozma manbalar va qisman arxeologik materiallar asosida olib borilgan bo'lib, voha tarixining mavhum jihatlarini anchamuncha yoritadigan mohiyatdadir;
- xorij tadqiqotchilarining ishlarida ilmiy yutuq va yangiliklar mavjud, fikr mulohazalari anchagina isbotli bo'lishi bilan birga ular tomonidan ayrim biryozlamali fikrlar ham bildirilganligi ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903; Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura 2002. – P. 155–196; Skaff K. J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS. – Ankara, 2002. – Vol.2. – P. 364–372; Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien. – Wiesbaden, 2008.
2. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux ... P. 140-142.
3. Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent ... P. 169-170.
4. Skaff K. J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries ... P. 370.
5. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasien- und Zentralasien // Grenzüberschreitungen. Formen des Kontakts zwischen Orient und Okzident im Altertum. – Stuttgart, 2002. – S.389; Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien ... S. 225.
6. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasien- und Zentralasien ... S. 389.
7. Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // The Turks, 2. – Ankara, 2002. – P. 364-372.
8. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв.). – Т.: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, 2007. – С. 58–60, 100; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). – Т.: Yangi nashr, 2010. – 36, 49–51, 144.
9. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – P. 142, n. 1.
10. Stark S. Nomaden und Seßhafte in Mittelasien- und Zentralasien ... S. 374-375, k. 68.
11. Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв.) ... С. 46–47, 57–59; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар ... Б. 49–51.
12. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the early middle Ages. – New Jersey: Princeton University Press, 1993. – P. 124.
13. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans ... 137-138.
14. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans ... 139.

BUXORO AMIRLIGI MARKAZIY QOZIXONASI VA UNING FAOLIYATI

Naimov Ismat Nusratilloevich

Buxoro davlat universiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi”

kafedrası dotsenti, t.f.f.d., (PhD)

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.016>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixida 1756-1920-yillarda mavjud bo‘lgan Buxoro amirligining markaziy qonunchilik mahkamasi haqida tarixiy-ilmiy manbalar asosida fikrlar berilgan. Shuningdek, maqolada Buxoro amirligi qonunchilik mahkamasining tarkibiy tuzilishi, unda islom manbalari asosida qozilarning fuqarolar o‘rtasida huquqiy munosabatlarni amalga oshirish tartiblari to‘g‘risida muallifning xulosalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sud mahkamasi, qozi, shariat, huquqiy munosabatlar, hovli, mehmonxona, nurlı xonadon, jazo va ijro, sud jarayoni.

ЗДАНИЕ ЦЕНТРАЛЬНОГО СУДА БУХАРСКОГО ЭМИРАТА И ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Наимов Исмаи Нусратиллоевич,

доцент кафедры Археологии и истории Бухары Бухарского государственного университета, д.ф.и.н., (PhD)

Аннотация: В данной статье на основе исторических и научных источников приводятся мнения о центральном законодательном суде Бухарского эмирата, существовавшем в 1756-1920 годах в истории узбекской государственности. Также в статье описывается структурная структура законодательного суда Бухарского эмирата, сделаны выводы автора о процедурах реализации правоотношений между гражданами на основе исламских источников.

Ключевые слова: суд, судья, шариат, правоотношения, двор, гостиница, прозрачный дом, наказание и казнь, судебный процесс.

BUILDING OF THE CENTRAL COURT OF BUKHARA EMIRATE AND ITS ACTIVITIES

Naimov Ismat,

Associate Professor of the Department of Archaeology and History of Bukhara, Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Historical Sciences, (PhD)

Abstract: This article, based on historical and scientific sources, provides opinions on the central legislative court of the Bukhara Emirate, which existed in 1756-1920 in the history of Uzbek statehood. The article also describes the structural structure of the legislative court of the Bukhara Emirate, and draws the author’s conclusions about the procedures for implementing legal relations between citizens based on Islamic sources.

Key words: court, judge, Sharia, legal relations, courtyard, hotel, transparent house, punishment and execution, trial.

Kirish. Turon zaminining ko‘zga ko‘ringan markazlaridan biri Buxoro hududida qonunchilik mahkamalarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” jamiyatning huquqiy qarashlarini o‘zida ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik davlatchilik asoslari tobora tarixiy tajribalar asosida takomillashib borishi, ayniqsa, islom dinining kirib kelishi va shariat qoidalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning tartibga solib borilishi Buxoroda ham qozilik mahkamalarining vujudga kelishiga poydevor qo‘ydi. Natijada hokimiyatning bo‘linish tamoyili asosida mustaqil qozilik mahkamalari

jamiyatda adolatni qaror toptirishning huquqiy kafolati bo'lib, o'tgan o'n ikki asr davomida fuqarolarning ishonchini qozonib keldi. Qozilar faoliyat yuritadigan maskan – “qozixona”lar esa “dor-ul quzzot”, ya'ni adolat dargohi sifatida aholining huquqiy munosabatlarini ta'minlaydigan ishonchli, huquqiy, mustahkam qo'rg'on bo'lib keldi.

Adabiyotlar sharhi: Buxoro amirligi qonunchilik tizimi va uning faoliyati doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Mazkur masaladagi dastlabki tadqiqotlarni o'tgan asrning 40-yillarida olim M.S.Yusupov amalga oshirdi va tom ma'noda kelajakda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarga yo'l ochib berdi. Natijada o'tgan davr mobaynida L.Rempel, O.Suxareva, N.Kislyakov, G'.Qurbonov, H.Qurbonov, S.Rahmatova, J.Shodiyev, I.Bekmirzayev va N.Mirzayev kabi olimlar qozilik mahkamasi va serqirra faoliyatining ayrim jihatlarini tadqiq etdilar va ilmiy jamoatchilikka yangi tarixiy dalillarni taqdim etdilar. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida 2023 yilda “Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XX asr boshlari)” nomli kitob nashr etilib, ushbu kitobda tarixiy-ilmiy manbalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, qo'lyozma asarlar hamda 2022-2023 yillar davomida Buxoro shahrining Gavkushon mavzesida joylashgan Qozixona madaniy meros ob'yektida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot natijalari asosida Buxoro amirligi qozixona mahkamasi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XX asr boshlari) haqida shu vaqtgacha ochiqqlanmagan masalalar xolisona yoritildi.

Natija va munozaralar. Odatda qozilar o'z faoliyatini olib borish uchun qulay deb bilgan joylarni ixtiyoriy ravishda tanlar edilar. Aksariyat hollarda ular masjid, madrasa yoki o'z uylarida ish olib borgan. Keyinchalik qozilik vazifasining kengayib borishi va lavozim mavqeining oshishi natijasida davlat tomonidan alohida binolar qurilib, maxsus qozixonalar va mahkamalar tashkil etilgan. Ayniqsa, mazkur amaliyot Temuriylar davlatini barpo etgan Amir Temur tomonidan mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida “Dorul-adl” – qozixonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan va bu keyingi milliy davlatchiligimiz tarixida XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat yuritgan sulolaviy ma'muriy-boshqaruv tizimida keng qo'llanila borilgan [2: b. 58].

Burhoniddin Mahmudning fikricha, Buxoro qozilari shahardagi jome' masjidining bir qismini o'zlariga “mavqe”, ya'ni qarorgoh sifatida tanlagan. Bundan maqsad fuqarolarga qozining ish joyini topishlarida qulaylik yaratish bo'lgan. Boshqa tarafdin esa, mahkama jarayonining masjidlarda bo'lishi huquqiy tizimning o'ziga xos mafkuraviy xususiyatlarini ochib beradi. Chunki islom o'lkalarida jome' masjidlari muqaddas makon hisoblanib, nizolashayotgan taraflar bu yerda o'zining diniy mas'uliyatini his qilgan va bir-birlariga tuhmat, bo'htonlarni yog'dirishdan ma'lum darajada tiyilgan. Qozilar ham bunday joylarda o'zining “ilohiy mas'uliyatini” his qilib, muammoning adolatli yechimini topishga harakat qilgan [1: b. 34-35].

Buxoro amirligida qozixonalar faoliyati Amir Shohmurod (hukmronlik davri: 1785-1800 yy.) davrida kengayib bordi. Shohmurod mamlakatda adolatni qaror toptirish maqsadida shaxsiy namuna ko'rsatib, Minorayi kalon yaqinidagi hovlisida fuqarolarning arz-dodlarini eshitish va ularni hal etish tizimini joriy etdi. Natijada amirlik poytaxti Buxoroda qozixonalar va qozilar tasarrufida bo'lgan hovuz, hammom, bog', madrasa va masjidlar soni XX asr boshlariga qadar muttasil kengaya bordi. Bunday maskanlardan nafaqat aholi huquqiy maqsadlarda, balki maishiy turmushida, amirlikka tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar va elchilarni qabul qilish marosimlarini o'tkazishda ham keng foydalanildi. Shu bilan birga shahar markazida mavqei baland qozilar tomonidan madrasalar bunyod etilib, aholi orasida hurmat topgan qozilar sharafiga ko'chalar nomlandi. Ayrim ko'chalar bugungi kunda ham shu nomlar bilan yuritilib kelinmoqda.

Qozikalon yashagan uy va sud boshqarmasi binosi qozixona deb yuritilgan. Sud ishlari uchun mo'ljallangan maxsus binolar Buxoro shahri hududida mavjud bo'lmay, qozikalon uyi ushbu vazifani ayni paytda bajargan. Qozilarning uylari loyiha va qurilishi jihatdan u

yerda qozixona joylashishi yoki joylashmasligiga bog‘liq bo‘lmay, an‘naviy Buxoro aholisi xonadonlardan biror bir jihati bilan ajralib turmagan. Biroq, fuqarolarni qabul qilish va ularga huquqiy xizmatlar ko‘rsatish hamda huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun tadbirlar o‘tkazish kabi talablarga javob bera olgan. Uylarning qurilish uslubi va jihozlanishi Buxoroning barcha darajadagi amaldorlari sinfi uchun amalda bir xil edi. Buxoro boy xonadonlari an‘naviy me‘morchiligi va joylashuviga qarab ikkiga bo‘lingan: tashqi uy (havli berun) va ichki uy (havli durun). Qozikalon hamda boshqa mansabdor shaxslarning uylari ham shunday bo‘linish asosida shakllantirilgan.

Tarixiy manbalarning dalillik berishicha, Buxoro shahrida bir necha qozixonalar faoliyat yuritib, markaziy qozixona Ark qo‘rg‘onidan tashqarida Minorai kalonning janubi-g‘arbi, Shahrison va Gavkushon mavzolari o‘rtasidagi Sharifjon guzarining jarlik yoqasidagi qismida joylashgan.

Qozixona joylashgan mavze XVI asrda Mirzoquli guzari deb nomlanib, guzar juda kichik va aholisi ham kam bo‘lgan. Guzarda dastlab, faqatgina Qozikalon hovlisi, ya‘ni Qozixona bo‘lgan. Aholining ko‘pchiligi qozixonada turli lavozimlarda, xususan, mirzalik va mulozimlik vazifalarida ishlagan. Boshqa qismi esa hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Guzarda 1927 yilda 57 ta xo‘jalik bo‘lib, unda 285 kishi istiqomat qilar edi.

Qozixonaning uchta darvozasi bo‘lib, uning markaziy darvozasi fuqarolarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan. Qozikalon uyining darvozasi ortida ikkita sufa bo‘lgan, katta sufada jibachi, mirzoboshi, qorovulbegi unvoniga ega “qirq a‘lam” deb nomlangan 40 ga yaqin ulamolar o‘tirgan. O‘ng tomondagi kichikroq boshqa sufa esa “darbon” (darvozabon) uchun mo‘ljallangan. Uning vazifasiga eshik oldida navbatchilik qilib, murojaatchilarni qozikalon oldiga olib borishdan iborat edi. Darboshilarning ba‘zilari miroxur darajasiga ega edilar. Darvozaning jihozlanishiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, qozikalon uyining qo‘riqchilari va “shabgard” (tungi soqchi)lar favqulodda vaziyatlarda foydalanishi uchun “tavl” (nog‘ora) va “naxshin” (zarb tayoq) doimiy ravishda darvoza ustida ilib qo‘yilgan. Shabgard ba‘zan tavlga naxshin bilan urib turgan. Bu uning uxlamayotgani va sergak turganining ifodasi edi. Qozixonaning markaziy darvozasi hech qachon yopilmagan. Agarda uni yopishganda ham, bu uzoq muddatga cho‘zilmagan. Bundan asosiy maqsad amirning qarorlarini va turli rasmiy shoshilinch xatlarini kechiktirmasdan qabul qilish bo‘lgan.

Bugungi kungacha saqlanib qolgan XVII asrga oid Buxoro qozixonasi uchta hovliga bo‘lingan va ularning har biri alohida vazifani bajarishga mo‘ljallangan.

Birinchi hovli qabulxona, mahzarxona (hujjatxona), aminaxona (amin xonasi), mutavallixona (ish boshqaruvchilar xonasi), muftixona, mahramxona (yordamchilar xonasi) va qozilik hujjatlari rasmiylashtiriladigan boshqa xonalardan iborat. Bu hovlida hozir faqat qozikalon o‘tiradigan old ayvonli mehmonxona, mirzoyi daftarxonasi hamda muftixonalar saqlangan.

1940 yillarda Buxoro amirligi sud-huquq tizimini o‘rgangan dastlabki tadqiqotchi-olim M.Yusupovning tasvirlashicha, qozikalon mehmonxonasining jihozlanishi juda oddiy, butun oyoq osti “tekin” gilami bilan qoplangan hamda xonaning atrofi devor bo‘ylab eni torroq bo‘lgan uzun paxta ko‘rpachalar – “ko‘rpachayi davrixona” to‘shalgan. Uchinchi eshikning oldida qozikalon o‘tirib, sud jarayonida kichik derazani ochib, sudlashayotganlarning ishlarini kuzatib borgan. Qozikalonning ikki tomonida yostiqlar, orqasida esa devorda gilamcha osilgan bo‘lgan. Uning oldida kichikroq xomtaxta bo‘lib, unda qalamdon va djuzgir (hujjatlar jildi) bo‘lgan. Xomtaxtaning yonida xizmatona uchun mo‘ljallangan kichik sandiq saqlangan.

Barcha mahkama jarayonlari aynan shu hovlida olib borilgan. Darboshi tomonidan olib kelingan fuqaroni dastlab ikki nafar mahram – qozikalonning yaqin yordamchilari qabul qilib, dastlabki ishni ko‘rish jarayoni amalga oshirilgan. Muftixonada mufti-a‘lam raisligida 15 mulladan iborat “devoni mufti” kengashi maslahatlashgan holatda shariat qoidalariga rioya

etib “tatvo”, “sijil” (ikki shaxs o‘rtasidagi bahs-munozara bo‘yicha qozi tomonidan chiqarilgan hukm) va “rivoyat”lar tuzishgan, so‘ngra fuqaro qozikalon huzuriga olib borilgan. Qozi odatda o‘z kotibi - “mirzo-i kalon” bilan birgalikda kichik deraza orqali fuqarolarni “bo‘yro-i shariat” (shariat gilamchasi) ustiga taklif etib, “murofaa” (da‘vo, qoziga shikoyat bilan murojaat qilish, sud) jarayonini amalga oshirgan. Shaxsiy masalalar bo‘yicha murojaat etuvchilar esa old dahliz orqali kiritilgan. Xuddi shu hovlida shimolga qaragan besh eshikli, baland ustunli qozikalonning yozgi qabulxonasi ham joylashgan [6: b. 17]. Qozixonada aksariyat hollarda adliya va fuqarolik ishlari hamda kichik nizoli vaziyatlar ko‘rib chiqilgan. Agar ish juda keskinlashib ketsa, unda Ark qo‘rg‘onida Qo‘shbegi huzurida Shayx-ul islom, raisikalon va qozikalondan iborat kengashda muhokama qilingan [4: b. 48].

Qozixona darvozasidan o‘ng yo‘lakdagi xonalardan birida 5-6 nafar mirzolar faoliyat yuritadigan mirzoxona (devonxona) joylashgan. Qozixona kotibi, ya‘ni mirzoda maxsus “daftar” bo‘lib, unda qozixonadan chiqqan hujjatlar qaydi yuritilgan. Buxoro qozixonasida qozikalonning turli tabaqalardan tarkib topgan 40 nafardan 60 nafargacha mulozimlari mahkama ishlarida faoliyat olib borishgan. Shuningdek, Buxoro qozixonasida merosiy mulkni taqsimlash bo‘yicha 12 ta mutaxassis – “tariqachi” ham faoliyat yuritgan [6: b. 16-28].

Ikkinchi hovlidan asosan turli xizmatlar ko‘rsatadigan xona (farroshxona, oshxona, mirzoxona, tahoratxona)lar o‘rin olgan. Mazkur hovlida “mirzoyi ijora” (ijara ishlari bo‘yicha kotib) ham bor edi. U ijaraga berilgan vaqf mulklari hisobini yuritgan hamda vasiqa hujjatlarini tuzgan. Ijara hujjatlarini rasmiylashtirish aynan mirzoi ijora orqali amalga oshirilgan.

Uchinchi hovli esa qozikalon oilasi uchun mo‘ljallangan, biroq hovlining bu qismi saqlanmagan.

Qozixonada hujjatlarning haqiqiyliги “tamg‘a”, “muhr”, “nishon”lar bilan qonuniylashtirilgan. Rasmiy ishlarda qo‘llanilgan muhr-tamg‘alarning ko‘rinishi bir necha xil – dumaloq, bodomsimon yoki uch, to‘rt, olti va sakkizburchak shakliga ega bo‘lganini kuzatish mumkin. Mazkur muhrlar orasida dumaloq shakldagilardan hujjat yuritish amaliyotida ko‘proq foydalanilgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, qozixonada Sadridin, Badridin va Burhoniddinlar sulolasi Buxoro amirligi qozikalonlari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik hovli ularning avlodlari, xususan, Qozi Kiromiddin tasarrufiga o‘tadi. Mazkur qozilar avlodiga buxoroliklarning hurmat va ehtiromi baland bo‘lib, ular istiqomat qiladigan xonadon (qozixona) aholi o‘rtasida “Ibn Bayzo” (yoki “xonadoni Bayzo”, ya‘ni ravshan, shaffof, nurli xonadon) nomi bilan ta‘riflangan [3: b. 7].

1920-yil 28-avgustdan 2-sentabrgacha davom etgan qizil armiyaning hujumi oqibatida Buxoroning aksariyat binolari yong‘in ostida qoladi. Buxoroliklar orasida “kichik qiyomat” deb nomlangan mazkur bosqinda qozixona ham qisman zarar ko‘radi. Buxoro shahrini bosib olgan qizil askarlar hukmdor qarorgohi Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo‘shbegisi va boshqa saroy amaldorlarining butun boyliklarini talon-toroj qilganlar.

“Buxoro axbori” gazetasida yozilishicha, Mulla Burhoniddin qozikalon va boshqa amirlikda yuqori mansablarda ishlagan qozi, mulla va sudurlar Buxoro favqulodda tekshiruv komissiyasi qarori bilan 1920-yil 6-sentabrda otishga hukm qilingan. O‘sha voqealarning bevosita shohidi bo‘lgan Muhammad Ali Baljuvoni o‘z asarida Buxoroda ulamolarga nisbatan jazo siyosatini quyidagicha ko‘rsatadi: “Miyonsaroy o‘rtasidagi jilovxona darvozasi hujralaridan birida yashiringan qozikalon (Mir Burhoniddin), raisikalon va qozikalonning o‘g‘li Shahobuddinon Miyonsaroyda asirga olindi. Ular orasida qozikalonning mirzosi va dabiri (darbor) Mirzo Umar miroxo‘r ham bor edi. Ularni zudlik bilan Buxoroga yubordilar. Bu va boshqa ko‘plab mahbuslar Sho‘ro qonunlari bo‘yicha gunohkor deb topildi va sud qozilarining hukmi bilan qatl etildilar”.

BXSR hukumati shakllantirilgach, dastlabki ishlar adliya nazoratini o‘rnatishdan boshlanadi. Xususan, 1920-yil 2-oktabrdan boshlab BXSRning Adliya nozirligi tomonidan

shahar va tumanlarda qozixonalar tashkil etilib, ularning har birida qozilar tayinlanadi. Buxoro hukumati o'zining aholiga birinchi murojaatnomasida eski qozixonalar faoliyati tugatilgani va uning o'rnida xalq sudlari (xalq qozixonalari) tashkil etilgani, tan jazolarini qo'llash man etilgani, shuningdek, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi hamda jinsidan qat'iy nazar barchaning qonun oldida tengligini e'lon qiladi.

1921-yil 18 – 23-sentabrda Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyida 79 moddadan iborat BXSР Konstitutsiyasi qabul qilinadi. BXSР Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qaroriga ko'ra, adliya nozirliги tarkibida 1922-yilnoyabrda prokuratura bo'limi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Shunday qilib, ko'hna Buxoroda asrlar davomida amirlik tizimida mavjud bo'lgan qozilik mahkamasi faoliyatidan birdaniga voz kechilmay, 1924-yilga qadar saqlab qolindi. 1928-yil bahorida esa qozixonalar milliy huquq mahkamasi sifatida butunlay tugatildi.

Buxoro amirligining qozixona mahkamasi o'z faoliyatini tugatgach, hovli Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tasarrufiga olinadi. Ushbu binoda 1922-yilda Fayzulla Xo'jayevning ko'rsatmasi bilan xorijdan uskunalar keltirilib, Buxoroning milliy valutasini ishlab chiqarish uchun zarbxona tashkil qilinadi [5: b. 6].

Uzoq yillar Buxoro viloyat matbuotida xizmat qilgan, jurnalist, tarixchi olim Nusratillo Naimovning o'z avlodlariga qoldirgan xotira kitobida qayd etilishicha, F.Xo'jayev tomonidan tashkil etilgan pul chiqarishfabrikasi aynan biz tahlil qilayotgan Sharifjon guzarida joylashgan qozikalonning sobiq mahkamasida o'z faoliyatini boshlaydi.

Keyinchalik qozixonada Telman nomli artel (tikuvchilik korxonasi) ish boshlagan, u boshqa binoga ko'chgandan so'ng esa, bu yerda xotin-qizlar bilim yurti joylashadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bino Buxoro xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan va bu joyda 2016 yilga qadar Buxoro Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini uslubiy ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 12-son "Dilrabo" maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritib kelgan.

XIX asrga oid Buxoro amirligi qozixona mahkamasining hozirgi manzili: Buxoro shahri, "Imom Buxoriy" MFY, Abdullabekov ko'chasi 12-uyda joylashgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'yektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qaroriga asosan "Qadimiy hovli" (maydoni: 0,1648 ga) sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, qozixona madaniy meros yodgorligi o'z davrida fuqarolar muammolarini bartaraf etishga qaratilgan adliya xizmatlarini ko'rsatuvchi adolat dargohi bo'lgan. Ming afsuslar bo'lsinki, sovet davrida bu yodgorlikka e'tibor berilmasligi oqibatida, keng maydonni egallagan va bir necha tarmoqlardan iborat bo'lgan qozixona ayanchli ahvolga kelib qoldi.

Bugun ana shu merosni o'rganish, tadqiq etish harakatlari faollashgani quvonarli. Yagona saqlanib qolingan "qozixona"ni qayta tiklash, unga yangi "hayot" bag'ishlash va "Huquq tarixi muzeyi"ni tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Zero, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda olib borish ham ibratli, ham samarali ishdir.

Hozirgi kunda saqlanib qolingan Buxoro amirligi qozixonasining baland ayvonli



qabulxo

nasi



Qabulxonaga o'tiladigan dahliz



Qabulxonaning ichki ko'rinishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бекмирзаев И. Қозилик маънавияти. – Тошкент: “Маънавият”, 2019. – 40 бет.
2. Бухоро амирлиги қозихона маҳкамаси тарихи (XVIII аср ўрталари – XX аср бошлари) [Матн] / лойиҳа раҳбари И.Наимов. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023. – 188 бет.
3. Воҳидов Ш. Зиёи Садр Бухорӣ ва фехрести китобхонаи ӯ. – Панжкент: Ирфон, 2017. – С. 7.
4. Кисляков Н. Патриархально-феодалное отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX веков. – Москва-Ленинград:

Академия наук СССР, 1962. – 170 стр.

5. Наимов И. “Дор-ул куззот” – адолат даргоҳи. “Янги Ўзбекистон” (Тошкент), 2023 йил 18 октябрь, 216-сон. – Б. 6.

6. Юсупов М. Судоустройство и судопроизводство в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX в. / Текст и вводная статья: Ульфат Абдурасулов и Паоло Сартори. – Ташкент-Вена, 2016. – 169 стр.

7. Курбанов Г. Бухарские печати XVIII – нача XX веков (каталоги). – Ташкент: “Узбекистан”, 1987. – С. 6.

8. Мирзаев Н. Қози лавозими ва унинг одоби ҳақида ёзилган асарлар таҳлили // “Infolib”. №2, 2019. – Б. 66-69.

9. Ремпель Л. Далекое и близкое / Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары (Бухарские записи). – Ташкент: Гафур Гулям, 1981. – 304 стр.

10. Сухарева О. Квартальная община позднефеодального города Бухары (с связи историей кварталов). – Москва: «Наука», 1976. – 363 стр.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI QURILISHINING QISQACHA TARIXI HAMDA GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Salimova Dildora Bahodirovna

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
"Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti" tayanch*

I-bosqich doktoranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.017>

Kalit so'zlar: Gidrotexnika inshootlari qurilish, Markaziy Osiyoning jug'rofiy joylashishi, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari, Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm davlatlari, Farg'ona vodiysi, Darg'om kanali Samarqand, Shohrud kanali, Gauxvar (Gavhar) kanali, Tuproqqal'a kanali, Chermen-Yab kanali, Giryra kanali, Toshqaqa kanali.

Annotatsiya: mazkur gidrotexnika inshootlari qurilishining qisqacha tarixi hamda gidrotexnika inshootlari haqida umumiy tushunchalar deb nomlangan maqolamizda qadimdan Markaziy Osiyoning jug'rofiy joylashgan maydonlarida joylashgan kanallar haqida, ularning suv manbaalari haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan, shu bilan birga mazkur kanallardagi suvlarni saqlash texnologiyasi haqida ilmiy fakt va asoslar keltirilgan hamda gidrotexnika inshootlari qurilishi haqida tushunchalar berilgan.

КРАТКАЯ ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЙ И ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ О ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЯХ

Салимова Дилдора Баходировна

Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства «Национальный исследовательский университет «Бухарский институт природопользования»» докторант I степени

Ключевые слова: строительство гидротехнических сооружений, географическое положение Средней Азии, реки Амударья, Сырдарья и Зарафшан, Древняя Бактрия, Сугдияна, Хорезмийские государства, Ферганская долина, Даргомский канал, Самарканд, Шахрудский канал, канал Гаушвар (Гавхар), канал Тупроккала, Чермен Канал – Яб, канал Гиря, канал Тошсака.

Аннотация: наша статья под названием «Краткая история строительства гидротехнических сооружений и общие понятия о гидротехнических сооружениях» содержит исторические сведения о каналах, расположенных в географических районах Средней Азии, их водных источниках, а также научные факты о технологии водоснабжения. Хранения в этих каналах, а также изложены основы и понятия о строительстве гидротехнических сооружений.

A BRIEF HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF HYDRAULIC STRUCTURES AND GENERAL CONCEPTS ABOUT HYDRAULIC STRUCTURES

Salimova Dildora Bahodirovna,

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

“Institute of Natural Resources Management of the National Higher University of Bukhara” 1st degree doctoral student

Key words: construction of hydraulic structures, geographical location of Central Asia, the Amu Darya, Syr Darya and Zarafshan rivers, Ancient Bactria, Sugdiyana, Khorezmian states, Fergana Valley, Dargom Canal, Samarkand, Shahrud Canal, Gaushvar (Gavkhar) Canal, Tuprokkala Canal, Chermen Canal Yab, Giryra canal, Toshak canal.

Abstract: our article entitled “A Brief History of the Construction of Hydraulic Structures and General Concepts about Hydraulic Structures” contains historical information about canals located in the geographical areas of Central Asia, their water sources, as well as scientific facts about water supply technology. Storage in these canals, as well as the basics and concepts of the construction of hydraulic structures.

Kirish. Yer yuzining dehqonchilik uchun yaroqli kattagina qismida, shu jumladan Markaziy Osiyoda ham nam tanqisligi mavjud va shu boisdan inson qadim zamonlardan boshlab, tabiiy omillarnomutanosibligini tuzatish hamda yerlarni suv bilan ta'minlanishini oshirish uchun juda ko'p kuch va mehnat sarf qilib kelgan.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Markaziy Osiyoning jug'rofiy joylashgan o'rni, uning arid iqlimi, ya'ni havoning o'ta quruqligi, yozning issiq va yog'insiz bo'lishi, qishning nam va sovuq kelishi, ya'ni iqlimning keskin kontinental ekanligi va o'simliklar vegetatsiyasi davrida atmosfera yog'inlari yetarli bo'lmasligi bu yerda sun'iy sug'orish bilangina madaniy dehqonchilik olib borishni taqozo etgan [3].

Metodlar. Mazkur tadqiqot ishimizni “Muammoli vaziyat”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara” va “Loyiha” metodlari yordamida o'rgandik. Bunda: birinchi metodimiz orqali: muammoli masala aniqlandi, uning kelib chiqish tarixi o'rganildi, oqibatlar haqida fikr yuritildi, uni yechish yo'llari ko'rib chiqildi va aniqlandi; ikkinchi metod yordamida Venn diagrammasi tuzildi; keyingi metodlar yordamida dolzarb muammo maqolada ko'rsatilib, shu bo'yicha fikr, g'oyalar bildirildi va ularga aniq tahlillar keltirildi hamda loyiha-jadvallari keltirildi.

Natijalar va munozara. Mamlakatimizda sug'orma dehqonchilik tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqaladi va u qariyb 10 ming yillik tarixga ega. Sug'orish va u bilan bog'liq kanallar, inshootlar qurilish ishlari Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vodiysida olib borilgan. Olingan tarixiy ma'lumotlar va arxeologik qazishmalar natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyoda sug'orish ishlari bilan eramizdan avvalgi IX-VII asrlarda ham shug'ullanishgan. Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm davlatlari, Farg'ona vodiysida sug'orish ishlari olib borilganligi, sug'orish tarmoqlari, suv to'plash inshootlari qurilganligi bunga misol bo'la oladi [4].

Birgina Zarafshon daryosida bundan 2,5 ming yil avval qo'l kuchi bilan bunyod etilgan va hozirgacha saqlanib qolgan Darg'om kanalini olib qaraydigan bo'lsak, ajdodlarimizning qanchalik zukko mirob hamda ularning yer past-balandligi, nishabligini

katta aniqlikda hisoblay olgan fozil insonlar bo'lganligi ishonch hosil qilamiz. Bundan tashqari, Zarafshon daryosidan suv oluvchi qadimiy va hozirgi paytda ham saqlanib qolgan Narpay, Mirzaariq, Shohrud, Vobkent, Pirmast, Sul-tonobod va boshqa ko'pgina kanallarni ham sanab o'tish mumkin. Qadimiy davlatlar poytaxtlari Zarafshon daryosidan suv oladigan kanallar bo'yida barpo etilgan edi. Darg'om kanali Samarqand (Marokand) ni suv bilan ta'minlagan bo'lsa, Shohrud kanali Buxoro shahri ichidan o'tar edi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Amudaryoning quyi qismida irrigatsiya tarmoqlarini eng rivojlangan davri eramizdan avvalgi VI asrdan to eramizning III asrlarigacha bo'lgan vaqtga to'g'ri keladi. Saqlanib qolgan tarixiy hujjatlarga ko'ra, Xorazm sug'oriladigan eng qadimiy va o'z davridagi murakkab gidrotexnik inshootlar tizimiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Fikrimizning dalili sifatida Amudaryodan Xorazmning o'ng qirg'oq yerlarini Sul-toniztog' balandligigacha bo'lgan joylarni sug'orish uchun eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalarida qurilgan Gauxvar (Gavhar) kanalini keltirish mumkin.

Eramizning I asrlarida Sul-toniztog' yon bag'irlarini sug'orish uchun Tuproqqal'a kanalidan suv oluvchi kattagina tarmoq qurib bitkaziladi, g'aznaobod – Chermen-Yab kanalidan sug'oriladigan yerlar ko'lami kengayadi, III-asrda g'arbiy qiyot kanali qurib bitkaziladi, IV asrda Guldursin va Berkut qal'a kanallari atrofida vohalarda sug'orma dehqonchilik ishlari yo'lga qo'yiladi. IX asrda Gurganj (ko'hna Urganch), g'aznaobod (Madra) kanali quyi qismida dehqonchilik tiklanadi, Amudaryoning quyi deltasi rayonlarini irrigatsiya o'zlashtirishi boshlanadi. Shu davrda Shovot (Shoxobod) va Buve kanallari qurilgan, X asrda Amudaryoning chap qirg'og'ida Xiva kanalidan ikkita tarmoq kanallari bunyod etilgan.

XII-XIII asrlarga kelib Xorazmda irrigatsiya ishlarining biroz jonlanganligini guvohi bo'lamiz: g'aznaobod (g'azavot) kanali Chermen – Yab arig'i orqali Shohsanamgacha, Giryra kanali Qavatqal'a rayonigacha yetkaziladi. Qadimiy kanallardan hozirgi paytda Markaziy Osiyoda eng yirik kanal hisoblangan Toshsaqa kanalining tarmoqlari bo'lgan va Shovot, Polvon va g'azovot kanallarini ayni kunlarda ham faoliyat ko'rsatayotganligini aytib o'tish mumkin.

Toshkent vohasidagi sug'orish tizimlari asosan Chirchiq va Angren daryolarida qurilgan. Grek tarixchilarining ta'kidlashicha, Toshkent atrofidagi yirik kanallar eramizdan avvalgi III-II asrlarda ham mavjud bo'lgan.

XIX asr o'rtalarida, hozirgi O'zbekiston hududida Buxoro amirligi. Qo'qon va Xiva xonliklari, ularga tegishli yarim mustaqil ma'muriy hududlar mavjud bo'lgan, bu hududlarda 3,5 mln.ga yaqin aholi istiqomat qilgan. Aholining 90% qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan va sug'oriladigan yerlar maydoni 1,6 – 1,8 mln.ga bo'lganligi taxmin qilinadi. Demak, o'sha davrda jon boshiga o'rtacha 0,45 – 0,5 ga sug'oriladigan yer to'g'ri kelgan. Sug'oriladigan yerlar, jumladan, bog'lar, uzumzorlar va dehqon qo'rg'on-tomorqalari, asta-sekin o'lik yerlar (suv chiqarib hali o'zlashtirilmagan yerlar) ni o'zlashtirish, lalmikor yerlarga suv chiqarish natijasida yuzaga kelgan [5].

XIX asr o'rtalarida va undan keyinroq ham dehqonchilikda yetishtirilgan ekinlarning ustuvor joylashishi qo'yidagicha bo'lgan: birinchi o'rinda don ekinlari, ikkinchi o'rinda bog'dorchilik va uzumchilik, uchinchi o'rinda sabzavot va poliz, to'rtinchi o'rinda chorvaga kerakli bo'lgan beda va boshqa ekinlar, beshinchi o'rinda paxta ekini bo'lgan. Mamlakatimizdagi asosiy yirik kanallar haqidagi ma'lumotlar 1.1.–jadvalda keltirilgan.

1.1.-jadval. RESPUBLIKADAGI ASOSIY YIRIK KANALLARI

<i>Kanallar nomi</i>	<i>Suv olish Manbai</i>	<i>Kanal boshidagi suv sarfi, m³/sek</i>	<i>Uzunligi, km</i>	<i>Foydalanish boshlangan yil</i>	<i>Maydoni (ming ga)</i>
Shahrixon	Qoradaryo	115	114,8	1987	141,0
Andijon	Qoradaryo	45	81,9	1903	46,7
Savvoy	Qoradaryo	25	47,8	1926	18,0
Paxtaobod	Qoradaryo	30	40,9	1936	17,4
Yuqori Ulug'nor	Qoradaryo	30	190,4	1960	9,7
Janubiy Farg'ona	Shaxrixon kanali	100	57,0	1939	75,8
Katta Namangan	Norin daryosi	61	90,0	1974	24,0
Katta Farg'ona	Norin va Qoradaryo	150/2134	249,0	1939	263,4
Katta Andijon	Norin daryosi	200	102,0	1970	70,2
Shimoliy Farg'ona	Norin daryosi	113	165,0	1940	74,0
Oxunboboyev nomli	Sirdaryo	80	48,4	1949	36,0
Janubiy Mirzacho'l	Sirdaryo	300	124,0	1960	290,5
Chap qirg'oq qorasuv	Chirchiq daryosi	160	594,0	1922	150,0
Parkent	Chirchiq daryosi	57	58,0	1979	40,0
Bo'zsuv	Chirchiq daryosi	290	138,0	1900	99,0
Yuqori Chirchiq	Chirchiq daryosi	87	35,0	1943	6,0
Eski Tuyaortar	Zarafshon daryosi	32	108,3	1912	32,0
O'ng qirg'oq	Zarafshon daryosi	117	71,4	1930	82,8
Darg'om	Zarafshon daryosi	120	10,2	1930	9,0
Eski Anhor	Zarafshon daryosi	60	88,0	1973	49,0
Zang	Surxondaryo	85	88,0	1955	49,3
Sherobod mashina kanali	Surxondaryo	150	12,7	1970	52,6
Amuzang kanali	Amudaryo	50	56,0	1973	143,0
Qarshi bosh kanali	Amudaryo	220	86,0	1972	260,0
Amu-Buxoro mashina kanalining	Amudaryo	300	186,0	1965	250,0
Toshsoqa	Amudaryo	480	100,0	1939	300,0
Urgancharna	Amudaryo	35	53,5	1937	9,7
Oktabrarna	Amudaryo	133	54,0	1933	14,0
Kattag'or	Amudaryo	75	16,6	1979	9,0
Raushan	Amudaryo	150	43,4	1975	7,9
Amu – Buxoro mashina kanali Shoxrud shaxobchasi	Amu–Buxoro mashina kanali	100	11,0	1937	91,7

Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi, atrof-muhitni himoya qilish, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlarining hayotga tadbiiq etilishi. Gidrotexnika inshootlari (GTI) xavfsizligi (murakkab tabiiy-texnik tizimlar sifatida), ularning kelajakdagi holatini bashorat qilish o'ta muhim, juda murakkab va o'ziga xos vazifa hisoblanadi. GTI baholanadigan barcha ko'rsatkichlar orasida ularni ishonchliligi va xavfsizligi muammosi eng asosiysi hisoblanadi. Ayniqsa, bu 1999-yilda O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunning hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 20-avgustdagi 398-sonli "Yirik va o'ta muhim suv xo'jaligi obyektlarini xavfsiz ishlashi va foydalanish davridagi ishonchliligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini qabul qilinishi bilan yana ham dolzarb masalaga aylandi.

"Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun 15 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida Qonunning maqsadi yoritilgan ya'ni gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

Qonunning 2-moddasi "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari" va 3-moddasi esa "Asosiy tushunchalar" debatalib, ularda gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat ekanligi, ushbu Qonunda esa asosiy tushunchalarga gidrotexnika inshootlari, foydalanuvchi tashkilot, favqulodda vaziyat, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi deklaratsiyasi, gidrotexnika inshootining xavfsizligi mezonlari, gidrotexnika inshooti avariya xavfining yo'l qo'yiladigan darajasi kabilar kirishi belgilab qo'yilgan va ularga tavsif keltirilgan.

Qonunning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi vakolatlari, 5-moddasida Mahalliy davlat hokimiyati organlarining gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi vakolatlari haqida so'z borsa, 6-modda "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazorati"ga bag'ishlangan.

Qonunning 7-moddasida gidrotexnika inshootlarining kadastrı, 8-moddasida gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan asosiy talablar, 9-moddada gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan foydalanuvchi tashkilotning majburiyatlari o'z ifodasini topgan. Gidrotexnika inshootining xavfsizligi deklaratsiyasi 10-moddada bayon qilingan bo'lib, unda gidrotexnika inshootini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, undan foydalanish, uni foydalanishdan chiqarish bosqichlarida, shuningdek, uni rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, tiklash yoxud konservatsiyalashdan keyin foydalanuvchi tashkilot gidrotexnika inshootining xavfsizligi deklaratsiyasini tuzish, deklaratsiyani tuzish tartibi haqida so'z boradi.


Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi deklaratsiyalarining davlat ekspertizasi Qonunning 11-moddasidan gidrotexnika inshootlarini tekshirish 13-moddada, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan avariya moddiy-texnika zahiralari yaratish va ulardan foydalanish 14-moddada, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik 15-moddada keltirilgan. "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 10-avgustdagi Qarori amalga kiritilgan. Mazkur Qarorga ko'ra "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni matbuotda e'lon qilingan kundan, ya'ni 1999-yil 20-avgustdan e'tiboran amalga kiritilishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması hukumat qarorlarini "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq lashtirish, vazirliklar va idoralar mazkur Qonunga zid bo'lgan o'z normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlash belgilab qo'yildi va ushbu Qonunning barcha moddalari bo'yicha

tegishli ishlar mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotimizning muhim bo'g'inlaridan bo'lgan qishloq va suv xo'jaligida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan qishloq va suv xo'jaligiga oid qonunlar, farmonlar hamda qarorlar alohida huquqiy munosabatlarini joriy etib, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq katta imkoniyatlarni ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-3226-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 28-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 290-sonli qarori qabul qilinib, unga ko'ra vazirlikka irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish prinsiplari asosida yer usti va suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor prinsiplarini joriy etish vazifasi yuklatilgan. Bevosita suv xo'jaligi tadbirlarini amalga oshiradigan muhandislik inshootlari gidrotexnikaviy, yoki gidrotexnika inshootlari deb ataladi [6].


Gidrotexnika inshootlarining vazifasi suv sarfini va sathini rostdash, uni manbadan ma'lum sifatda va istalgan vaqtda kerakli miqdorda olib, zarur joylarga (ekin maydonlari, gidroelektr stansiyalar va hokazolarga) yetkazib berishdan iborat. Gidrotexnika inshootlari joylashuviga ko'ra daryolar, dengizlar, ko'llar, hovuzlar, irrigatsiya shaxobchalari va yer ostida joylashgan turlarga bo'linadi (qarang: 1-rasm.).



1-rasm. Gidrotexnika inshootlarining vazifasi suv sarfini va sathini rostdash turlari

Suv xo'jaligi tarmoqlarining turlicha iqlimiy, geologik va gidrogeologik sharoitlarida ko'rilishi sababli gidrotexnika inshootlarining ham har xil konstruksiyalari mavjud. Yuqoridagi masalani o'rganishni osonlashtirish maqsadida ular o'ziga xos belgilari bo'yicha tasniflanadi:

- 1) xalq xo'jaligi tarmog'iga xizmat ko'rsatish;
- 2) foydalanish sharoitlari;
- 3) vazifasiga ko'ra;
- 4) mas'uliyati bo'yicha;
- 5) konstruksiyasi hamda materiali bo'yicha va boshqalar Gidrotexnika inshootlarining vazifasi, konstruksiya va materiallari bo'yicha toifalarga bo'linishi (qarang: 2-rasm).



2-rasm. Gidrotexnika inshootlarining konstruksiyalarini tasniflash

Ma'lumki gidrotexnika vazifasiga ko'ra quyidagi turli inshootlarga bo'linadi, bulardan:

- suv dimlovchi – ma'lum bosim hosil qilish, shu bosimni o'ziga qabul qilish (tog'onlar, dambalar, suv oqimini to'suvchi inshootlar va hokazo);
- boshqaruvchi – daryo oqimi bilan o'zanni, dengiz va ko'llarning qirg'oqlaridagi to'liq ta'sirini boshqaradi (yo'naltiruvchi dambalar, shporalar, qirg'oqni mustahkamlovchi inshootlar);
- suv oluvchi – suv manbalaridan suv oluvchi (suv oqimlari, havzalar);
- suv o'tkazuvchi – suvni bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish (kanallar, quvurlar, novlar, tunellar va boshqalar);
- suv tashlovchi – suv omborlari, havzalar va kanallardan suvlarni chiqarish va tashlash (qarang: 3-rasm).



3-rasm. Gidrotexnika vazifasiga ko'ra quyidagi inshootlarga bo'linadi

Kapitalligi bo'yicha barcha asosiy gidrotexnik inshootlari to'rtta sinfga bo'linadi. Yirik suv dimlash inshootlari, masalan, tog'onlarning mas'uliyatligi bo'yicha sinfi inshootning balandligi, zamindagi gruntning turi va avariya oqibatlarini bo'yicha amaldagi qurilish me'yorlari asosida qabul qilinadi. Meliorativ tizimlardagi inshootlar sug'oriladigan, yoki zax qochiriladigan maydonga xizmat ko'rsatish bo'yicha belgilanadi (qarang: 2-jadval).

2-jadval. Meliorativ tizimlardagi inshootlarning sinflari


Sug'oriladigan, yoki zax qochirish maydoni, ming ga		Doimiy inshootlarning kapitallik sinfi	
Sug'orish	Zax qochirish	Asosiy	Ikkinchi darajali
300 va undan katta	-	I	III
1000 va 3000 gacha	50 va undan kam	II	III
50 dan 100 gacha	50 va undan kam	III	IV

Agar asosiy gidrotexnika inshooti bir vaqtning o'zida xalq xo'jaligining bir necha sohalariga xizmat qilsa (masalan, energetika, transport, melioratsiya, suv ta'minoti sohalarini), inshootning sinfi vazifasi bo'yicha belgilangan eng yuqori sinfga teng qilib qabul qilinadi. Asosiy inshootlarning sinfi shuningdek, maxsus asoslashdan so'ng bir sinfga oshirilishi, yoki kamaytirilishi ham mumkin [2].

Konstruksiyasi va materiali bo'yicha gidrotexnika inshootlari gruntli, yog'ochli, toshli, betonli va temir-betonli bo'ladi. Yog'ochli inshootlar o'rmonga boy hududlarda quriladi. Katta gidrotexnika inshootlari qurilishida yog'och vaqtinchalik va yordamchi inshootlarni barpo etishda va qolip ishlari uchun material sifatida ishlatiladi. Metallardan gidrotexnika inshootlarining ko'priklari, quvurlari, zatvorlari qurishda keng foydalaniladi, u temir-beton konstruksiyalarda armatura sifatida ham ishlatiladi.

Ishlash sharoitlari va qurilishi bo'yicha gidrotexnika inshootlari daryodagi va irrigatsiya shoxobchalaridagi inshootlarga bo'linadi. Suv xo'jaligi masalalarini kompleks yechish uchun mo'ljallangan daryodagi inshootlar guruhiga quyidagilar kiradi (qarang: 4-rasm): 1) ustidan suv o'tkazuvchi va suv o'tkazmaydigan to'g'onlar; 2) suv oluvchi inshootlar va qurilmalar; 3) suv tashlovchi va suv chiqaruvchi; 4) gidroelektrostansiya binolari; 5) kema o'tkazuvchi shuluzlar; 6) o'tuvchi yo'llar, baliq qutqaruvchi qurilmalar; 7) cho'kindilarga qarshi kurashuvchi inshootlar va qurilmalar; 8) daryo o'zanini boshqaruvchi inshootlar; 9) muz va muz parchalarini o'tkazuvchi inshootlar [1].

DARYODAGI INSHOOTLAR GURUHI



4-rasm. Daryodagi inshootlar guruhi

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, irrigatsiya shaxobchalaridagi asosiy inshootlar, odatda, vazifasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: rostlovchi, suv o'tkazuvchi va tutashtiruvchi.

Shunday qilib aytganda, rostlovchi guruh inshootlariga quyidagilar kiradi: suv sarfini rostlovchi rostlagich va suv bo'lgichlari; suv sathini rostlovchi (dimlovchi); yuvuvchi va suv tashlovchi qurilmalar, tizimga beriladigan suv miqdorini o'lchaydigan suv o'lchash qurilmalar (avtomatlar, yarim avtomatlar, hisoblagichlar).

Shunga ko'ra, suv o'tkazuvchi inshootlarga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi: akveduklar, dukerlar, quvurlar, tunellar. Ular kanal trassasi bo'yicha suvni tabiiy va sun'iy to'siqlar bilan kesishgan joylardan o'tkazish uchun qurilishi lozim.

Demak kanal trassasi katta nishabli uchastkalardan o'tgan vaqtda o'zanni suvning yuvib ketish xavfidan saqlash maqsadida tutashtiruvchi inshootlaridan foydalanish lozim bo'ladi hamda shuni ta'kidlash lozimki, bu guruh inshootlariga sharsharalar, tezoqarlar, konsolli sharsharalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Телешев В.И., Лапин Г.Г., Григорьев Ю.А., Соловьев А.Н., Конько В.В., Емельяненко Б.М. Новые конструктивно-технологические решения плотины Зейской ГЭС. // Гидротехническое строительство, 2002, №11, с 24-28.

2. Ю.Р.Кривобородов. Влияние минеральных добавок на гидротацию глинозоста цемента/ Ю.Р.Кривобородов, А.А.Бойко. // Технология и технология силикатов. - 2011. - № 4. - С.14-16.

3. Joy M. Justice Evaluation of metakaolins for use as supplementary cementitious materials / JusticeJoy M. -USA, Georgia Institute of Technology, 2005.-149 p.

4. Зарипова Г.К., Салимова Д.Б. Исследование проблемы бетонных работ в гидротехническом строительстве. "Suv va yer resurslari" agrar-gidromeliorativ ilmiy-ommabop jurnal. 5(16)-son 2022-yil. – Бухоро: 124-130-betlar. <https://www.openconference.us/index.php/ISPADP/article/view/686>

5. Salimova D.B. Problems of Designing the Organization of Hydraulic Construction and its Need for Solutions. AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture Volume 2, Issue 1, 2024 ISSN (E): 2993-2637. <https://grnjournal.us/index.php/AJEMA/article/view/2499>

6. Салимова Д.Б. Ирригация и ривожлантириш жаҳонда сувни тежашнинг гаровидир // Министерство здравоохранения республики Узбекистан Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино Казахский национальный университет им. Аль-Фараби, Казахский национальный университет им. С.Д. Асфендиярова, Рязанский государственный медицинский университет имени академика И.П. Павлова. Научно-практической конференции с международным участием на тему: "Современные проблемы гигиены и медицинской экологии" сборник тезисов 28 ноября 2023 года. 152-154- бетлар.

BUYUK IPAK YO'LIDA AHOLI MIGRATSIYASI VA UNING ETNOMADANIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Sultanov Shohruh Eshberdiyevich,
Oriental universiteti tarix fakulteti dekani o'rinbosari
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.018>

Annotatsiya: Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arbni asrlar davomida bog'lab turgan keng savdo va madaniy almashinuv tarmoqlarining tarixiy dalilidir. Ushbu tarmoqning markazida aholining marshrut bo'ylab ko'chishi bo'lib, bu nafaqat tovarlar harakatini osonlashtirdi, balki murakkab etnik-madaniy aloqalarni ham rivojlantirdi. Ushbu maqolada Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasi hodisasi va uning etnik-madaniy munosabatlarning shakllanishiga chuqur ta'siri o'rganiladi. Tarixiy ma'lumotlarga, arxeologik dalillarga va zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda, ushbu maqola migratsiya dinamikasini, uning yaratgan madaniy tarqalishini va ushbu qadimiy savdo yo'li bilan bog'langan jamiyatlarda qoldirgan doimiy merosini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, migratsiya, aholi harakati, etnik-madaniy munosabatlar, madaniy tarqalish

Abstract: The Great Silk Road is a historical testament to the vast networks of trade and cultural exchange that connected East and West for centuries. At the heart of this network was the migration of people along the route, which not only facilitated the movement of goods, but also developed complex ethno-cultural relations. This article examines the phenomenon of population migration along the Silk Road and its deep impact on the formation of ethno-cultural relations. Drawing on historical data, archaeological evidence, and contemporary research, this article explores the dynamics of migration, the cultural spread it created, and the lasting legacy it left on societies linked by this ancient trade route.

Key words: Great Silk Road, migration, population movement, ethno-cultural relations, cultural diffusion

Аннотация: Великий Шелковый путь является историческим свидетельством обширных сетей торговли и культурного обмена, которые на протяжении веков связывали Восток и Запад. В основе этой сети лежала миграция людей по маршруту, которая не только облегчала перемещение товаров, но и развивала сложные этнокультурные связи. В данной статье рассматривается феномен миграции населения по Шелковому пути и ее глубокое влияние на формирование этнокультурных связей. Опираясь на исторические данные, археологические данные и современные исследования, эта статья исследует динамику миграции, культурное распространение, которое она создала, и прочное наследие, которое она оставила обществам, связанным этим древним торговым путем.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, миграция, перемещение населения, этнокультурные связи, культурная диффузия.

Kirish. Buyuk Ipak yo'li qadimiy savdo va madaniy almashinuvning eng yorqin timsollaridan biri bo'lib, keng masofalarni qamrab olgan hamda butun Osiyo va Yevropa sivilizatsiyalarini bog'laydi. Xitoydan O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan ushbu savdo yo'llari tarmog'i ming yildan ortiq vaqt davomida tovarlar, g'oyalar va odamlarning harakatini osonlashtirdi. Ipak yo'lining faoliyatida aholining migratsiyalari markaziy o'rinni egallagan bo'lib, u o'tgan hududlarning etnik-madaniy landshaftini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasi hodisasi u kesib o'tgan landshaftlar kabi rang-

barang va dinamik edi. O'rta Osiyo cho'llarida aylanib yurgan ko'chmanchi qabilalardan tortib vohadagi gavjum shaharlardagi o'troq jamoalargacha, turli etnik elatlarga mansub odamlar ko'p sabablarga ko'ra Ipak yo'li bo'ylab sayohat qilishgan. Iqtisodiy imkoniyatlar, geosiyosiy siljishlar, atrof-muhit omillari va madaniy almashinuv aholining ushbu qadimiy savdo yo'li bo'ylab harakatlanishiga yordam berdi.

Buyuk Ipak yo'lida aholi migratsiyasi dinamikasini tushunish uning yo'lida paydo bo'lgan madaniyat va jamiyatlarning boy gobelenini tushunish uchun zarurdir. Ushbu maqola migratsiya shakllarini, ko'chib kelayotgan aholi va o'troq jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni va bu almashinuvlarning etnik-madaniy munosabatlarga doimiy ta'sirini o'rganishga intiladi. Buyuk Ipak yo'li Sharqiy Osiyoni O'rta Yer dengizi dunyosi bilan bog'lovchi murakkab savdo yo'llari tarmog'i sifatida vujudga keldi va bir necha asrlar davomida keng madaniy va iqtisodiy almashinuvlarni rivojlantirdi. Uning kelib chiqishi miloddan avvalgi 2-asrda, Xitoyda Xan sulolasi davrida, xitoylar qo'shni mintaqalar bilan ipak savdosini boshlaganlarida kuzatilishi mumkin. Biroq aynan Xan sulolasi davrida Ipak yo'li Xitoyni Markaziy Osiyo va undan tashqarida bog'lovchi izchil yo'llar tizimi sifatida shakllana boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

“Buyuk Ipak yo'li” asrlar davomida ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib, tarix, arxeologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi turli fanlarni qamrab oluvchi boy adabiyotlarni ilhomlantirgan.

Kristofer I. Bekvitning “Ipak yo'li imperiyalari: Markaziy Yevrosiyoning bronza davridan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi”:

Bekvitning asosiy ishi Markaziy Yevrosiyoning keng qamrovli tarixini taqdim etadi, Ipak yo'lining rivojlanishi va uning mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy landshaftiga ta'sirini kuzatadi. Arxeologik dalillar, matn manbalari va lingvistik tahlillarga tayangan holda, Bekvit Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasi, madaniy almashinuv va davlat shakllanishi dinamikasini o'rganadi.

Valeri Xansenning «Ipak yo'li: yangi tarix»:

Xansenning kitobida Ipak yo'lining kelib chiqishi, rivojlanishi va merosini o'rganib, uning to'liq tavsifi berilgan. Hikoya hikoyalari va ilmiy tahlillar kombinatsiyasi orqali Xansen Ipak yo'lining madaniy xilma-xilligi va o'zaro bog'liqligini shakllantirishda aholi migratsiyasining rolini o'rganadi. U, shuningdek, yo'nalish bo'ylab etnik-madaniy munosabatlarni rivojlantirishda savdo, din va diplomatiya muhimligini ta'kidlaydi.

Syuzan Uitfeldning «Ipak yo'li bo'ylab hayot»:

Uitfeldning ishi Ipak yo'li bo'ylab kundalik hayotning yorqin tasvirini taqdim etadi, u ko'plab tarixiy manbalarga, jumladan sayohat qaydlari, savdo yozuvlari va arxeologik kashfiyotlarga asoslanadi. Uitfeld alohida shaxslar va jamoalarning amaliy tadqiqotlari orqali Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasi va madaniy almashinuvining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy dinamikasini o'rganadi va turli xil odamlarning hayotiy tajribalarini yoritadi.

Richard Foltzning «Ipak yo'li dinlari: antik davrdan XV asrgacha quruqlikdagi savdo va madaniy almashinuv»:

Foltzning kitobida Ipak yo'lining madaniy landshaftini shakllantirishda dinning roli ko'rib chiqilib, savdo yo'llari bo'ylab buddizm, nasroniylik, islom va boshqa dinlarning tarqalishiga e'tibor qaratilgan. Diniy matnlar, arxitektura qoldiqlari va moddiy madaniyatni qiyosiy tahlil qilish orqali Foltz Ipak yo'li bo'ylab diniy an'analarning xilma-xil gobelenini yaratish uchun diniy e'tiqod va amaliyotlar aholi migratsiyasi va madaniy tarqalish bilan qanday kesishganligini o'rganadi.

Anatoliy M. Xazanovning «Ko'chmanchilar va tashqi dunyo»:

Xazanovning muhim asarida ko'chmanchi jamiyatlar va ularning Ipak yo'li bo'yidagi o'troq sivilizatsiyalar bilan o'zaro aloqalari har tomonlama tahlil qilinadi. Xazanov etnografik tadqiqotlar va tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, ko'chmanchilarning savdogar, jangchi va

madaniy vositachilar rolini o'rganib, ularning Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasi, madaniy tarqalish va etnik-madaniy munosabatlar dinamikasiga qo'shgan hissasini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab aholining migratsiyasi va uning etnik-madaniy munosabatlarga ta'sirini o'rganish tarixiy tadqiqotlar, arxeologik tahlillar va madaniyatshunoslikni o'zida mujassam etgan ko'p tarmoqli yondashuvni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Ipak yo'li Tang sulolasi davrida (milodiy 618-907) Xitoy butun Yevroosiyo bo'ylab savdogarlar va sayohatchilarni o'ziga tortadigan qudratli iqtisodiy va madaniy markazga aylanganda o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Tan poytaxti Chang'an (hozirgi Sian) Ipak yo'lining sharqiy chekkasi bo'lib xizmat qilgan, Samarqand, Buxoro va Qashg'ar kabi shaharlar esa O'rta Osiyoda savdo va madaniy almashinuv markazlari sifatida gullab-yashnagan.

Ipak yo'li nafaqat ipak, balki turli xil tovarlar, jumladan ziravorlar, qimmatbaho metallar, kulolchilik va ekzotik hayvonlar almashinuvini osonlashtirdi. Ipak yo'li tovarlar savdosi bilan bir qatorda g'oyalar, texnologiyalar va dinlarning uzatilishiga ham yordam bergan. Masalan, buddizm Hindistondan Xitoyga Ipak yo'li orqali tarqaldi, nestorianlik xristianlik esa Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyoga yo'l oldi.

Ipak yo'lining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning turli etnik va madaniy guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishdagi roli edi. Xiongnu, so'g'diylar va turklar kabi ko'chmanchi qabilalar savdo tarmoqlarida muhim rol o'ynagan, ko'pincha Xitoy va G'arbning o'troq sivilizatsiyalari o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qilgan. Bu ko'chmanchi xalqlar mohir chavandozlar va savdogarlar bo'lib, O'rta Osiyo cho'llarining bepoyon kengliklarida suzib yurishga mohir edilar.

Ipak yo'li statik ob'ekt emas edi, lekin vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan siyosiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlarga javoban rivojlandi. Xan, Tan, Mo'g'ul imperiyalari kabi imperiyalarning yuksalishi va qulashi Ipak yo'li bo'ylab savdo va migratsiya dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xuddi shunday, Gobi cho'lining kengayishi va qisqarishi kabi iqlim o'zgarishlari ma'lum savdo yo'llari va aholi punktlarining hayotiyiligiga ta'sir ko'rsatdi.

Savdo va madaniy almashuv uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, Ipak yo'li o'z muammolaridan holi emas edi. Banditizm, siyosiy beqarorlik va tabiiy ofatlar marshrut bo'ylab sayohat qilayotgan savdogarlar va sayohatchilar uchun doimiy tahdidlarni keltirib chiqardi. Biroq foyda jozibasi va yangi ufqlar va'dasi odamlarni Ipak yo'liga tortishda davom etib, uning mustahkamligi va uzoq umr ko'rishini Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'priklar sifatida ta'minladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buyuk Ipak yo'lining tarixiy sharoiti Sharq va G'arbn bog'lovchi savdo yo'llarining keng tarmog'ining paydo bo'lishi, madaniy tarqalishni rag'batlantirish, Yevroosiyo bo'ylab tovarlar va odamlarning harakatlanishini osonlashtirish bilan tavsiflanadi. Ushbu tarixiy kontekstni tushunish Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasining ahamiyatini va uning etnik-madaniy munosabatlarga doimiy ta'sirini tushunish uchun juda muhimdir.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab aholining migratsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllangan ko'p qirrali hodisa edi. Migratsiya dinamikasi turli mintaqalar va davrlar bo'yicha o'zgarib turdi, bu odamlarning turli motivlari va tajribalarini aks ettirdi. Ipak yo'li bo'ylab migratsiya shakllariga bir qancha asosiy omillar yordam berdi:

Iqtisodiy imkoniyatlar: Ipak yo'li bo'ylab migratsiyaning asosiy omillaridan biri iqtisodiy imkoniyatlarga intilish edi. Savdogarlar va savdogarlar ipak, ziravorlar, qimmatbaho metallar va ekzotik tovarlar kabi tovarlarni ayirboshlashlari mumkin bo'lgan Yevroosiyoni kesib o'tgan daromadli savdo yo'llariga jalb qilingan. Ipak yo'li bo'yidagi aholi punktlari, xususan,

Samarqand, Buxoro va Qashg'ar kabi voha shaharlari migrantlar savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanishlari mumkin bo'lgan jonli savdo markazlari bo'lib xizmat qilgan.

Ko'chmanchilar harakati: Ipak yo'li bo'ylab ko'chish dinamikasida ko'chmanchi qabilalar katta rol o'ynagan. Xiongnu, so'g'diylar, turklar, mo'g'ullar kabi ko'chmanchilar O'rta Osiyo dashtlarini bosib o'tib, chorvachilik bilan shug'ullanib, yo'l bo'ylab vaqtinchalik manzilgohlar barpo etganlar. Bu ko'chmanchi xalqlar cho'l muhitining boyliklaridan foydalanishga mohir bo'lgan va ko'pincha o'troq sivilizatsiyalar o'rtasida sharq va g'arbga savdo qilishda vositachi bo'lib xizmat qilgan.

Atrof-muhit omillari: iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar kabi atrof-muhit sharoitlari Ipak yo'li bo'ylab migratsiya shakllariga ta'sir ko'rsatdi. Yomg'irning o'zgarishi, cho'llanish va Gobi cho'lining kengayishi ma'lum marshrutlarni o'tib bo'lmaydigan yoki yashash uchun yaroqsiz holga keltirishi mumkin, bu esa aholini yanada mehmondo'st muhit izlab ko'chib ketishga majbur qiladi. Aksincha, iqlim barqarorligi va farovonlik davrlari Ipak yo'li bo'ylab aholi punktlari va aholi o'sishini rag'batlantirishi mumkin.

Siyosiy beqarorlik va mojarolar: Ipak yo'li bo'ylab siyosiy to'ntarishlar va mojarolar ko'pincha aholining zo'ravonlik va beqarorlikdan boshpana izlab harakatlanishiga turtki bo'lgan. Xan, Tan, Mo'g'ul imperiyalari kabi imperiyalarning yuksalishi va qulashi Yevroosiyoning geosiyosiy landshaftini o'zgartirib, Ipak yo'li bo'ylab muhojirlar oqimiga ta'sir ko'rsatdi. Bosqinchilik va istilo ko'pincha aholining ko'chirilishiga va etnik chegaralarning qayta konfiguratsiyasiga olib keldi.

Madaniy almashinuv va diniy ziyorat: Iqtisodiy maqsadlardan tashqari, madaniy almashinuv va diniy ziyorat ham Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasini kuchaytirdi. Buddist rohiblar Hindistondan Xitoyga sayohat qilib, o'z ta'limotlarini yoyishdi va yo'l bo'ylab monastir jamoalarini tashkil etishdi. Xuddi shunday, turli e'tiqodli ziyoratchilar muqaddas qadamjolar va diniy markazlarga sayohat qilib, diniy e'tiqod va urf-odatlarining Evrosiyo bo'ylab tarqalishiga hissa qo'shdilar.

Urbanizatsiya va aholi punktlari namunalari: Chang'an, Samarqand va Konstantinopol kabi Ipak yo'li bo'ylab shahar markazlari ish, savdo imkoniyatlari va madaniy almashinuv izlayotgan muhojirlar uchun magnit bo'lib xizmat qilgan. Bu shaharlar xilma-xillik qozonlari bo'lib, u erda turli etnik va madaniy kelib chiqishi bo'lgan odamlar savdo, hunarmandchilik va intellektual faoliyatda birga yashagan va hamkorlik qilgan. Migrantlar oqimi ushbu shahar markazlarining kosmopolit xarakteriga hissa qo'shdi va ularning madaniy landshaftlarini boyitdi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab migratsiya dinamikasi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va siyosiy omillarning murakkab o'zaro ta'sirida shakllangan. Ipak yo'li bo'ylab aholining ko'chishi tovarlar, g'oyalar va madaniyatlar almashinuvini osonlashtirib, Yevroosiyoda turli-tuman va o'zaro bog'langan jamiyatlarning shakllanishiga hissa qo'shdi. Bu dinamikani tushunish Ipak yo'li bo'ylab insoniyat tarixining boy gobelenini va uning etnik-madaniy munosabatlarga doimiy ta'sirini tushunish uchun zarurdir.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab aholi migratsiyasining eng muhim natijalaridan biri madaniy tarqalish jarayoni bo'lib, odamlar, tovarlar va g'oyalar almashinuvi Evrosiyo bo'ylab turli madaniy elementlarning uyg'unlashishi va tarqalishiga olib keldi. Ipak yo'li bo'ylab madaniy tarqalish hayotning turli jabhalarida, jumladan, din, til, san'at, me'morchilik va oshxonada namoyon bo'lgan dinamik va ko'p qirrali hodisa edi.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab madaniy tarqalish Yevroosiyoda madaniy landshaftini shakllantirgan dinamik va o'zgaruvchan jarayon edi. Odamlar, tovarlar va g'oyalar almashinuvi orqali Ipak yo'li turli xil madaniy elementlarning uyg'unlashuvi va uzatilishini osonlashtirdi, bu din, til, san'at, me'morchilik va oshxonaning gibridlangan shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ipak yo'li bo'ylab madaniy tarqalish merosi bir vaqtlar u bog'langan mintaqalarning umumiy madaniy merosida aks-sado berishda davom etmoqda va aholi migratsiyasining etnik-madaniy

munosabatlarga doimiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab aholining ko'chishi turli etnik va madaniy guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, almashuvlar va o'zaro bog'liqlik bilan ajralib turadigan murakkab va dinamik etnik-madaniy munosabatlarga turtki bo'ldi. Bu munosabatlar savdo, migratsiya, istilo va diniy tarqalish kabi ko'plab omillar ta'sirida shakllangan va ular Ipak yo'li bo'ylab paydo bo'lgan madaniy xilma-xillikning boy gobeleniga hissa qo'shgan. Etnik-madaniy munosabatlarning bir nechta asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Ipak yo'li turli etnik, til va diniy kelib chiqishiga mansub odamlarning uchrashish joyi bo'lib xizmat qilgan, an'anaviy chegaralardan oshib ketgan o'zaro aloqalar va almashinuvlarni osonlashtirgan. Savdogarlar, sayyohlar, olimlar va hunarmandlar gavjum bozorlarda, karvonsaroylarda va shahar markazlarida uchrashib, savdo-sotiq, fikr-mulohaza va madaniy almashuvlar bilan shug'ullanishgan. Ushbu madaniyatlararo uchrashuvlar o'zaro tushunish, bag'rikenglik va inson tajribasining xilma-xilligini qadrlashga yordam berdi.

Ipak yo'li bo'ylab aholining ko'chishi ko'pincha millatlararo nikohlar va qarindoshlik tarmoqlarining shakllanishiga, etnik chegaralarning xiralashishiga va turli jamoalar o'rtasida ijtimoiy jipslikni mustahkamlashga olib keldi. Turli etnik guruhlar o'rtasidagi nikohlar madaniy almashinuv va integratsiyani osonlashtirdi, chunki turli kelib chiqishi bo'lgan shaxslar oilaviy rishtalar va umumiy o'ziga xosliklarni o'rnatdilar. Qarindoshlik tarmoqlari ijtimoiy tarmoqlar bo'lib xizmat qilgan, ular orqali odamlar notanish muhitda resurslar, imkoniyatlar va himoyadan foydalanishlari mumkin bo'lib, Ipak yo'li jamiyatlarining mustahkamligi va moslashuvchanligiga hissa qo'shgan.

Samarqand, Buxoro va Sian kabi Ipak yo'li bo'yidagi shahar markazlari madaniy xilma-xillik va kosmopolitizmning jonli markazlari bo'lib paydo bo'lib, ularda turli etnik va madaniy kelib chiqishiga mansub odamlar birga yashab, savdo, hunarmandchilik va intellektual sohalarda hamkorlik qilganlar. izlanishlar. Bu shaharlar Sharq va G'arb g'oyalari, texnologiyalari va badiiy an'analari birlashib, aralashib ketgan madaniy almashinuv qozonlari edi. Shahar elitalari ko'pincha san'at va fanlarning homiysi bo'lib, etnik va diniy chegaralarni kesib o'tgan yangilik va ijodkorlik muhitini qo'llab-quvvatlagan.

Ipak yo'li bo'ylab ko'chib kelayotgan aholi va o'troq jamoalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar madaniy duragaylik va sinkretizmni keltirib chiqardi, chunki turli madaniy an'analari yangi kontekstlarga uyg'unlashib, moslashgan. Masalan, diniy sinkretizm buddizm, nasroniylik, islom va mahalliy e'tiqod elementlarini o'z ichiga olgan gibrid e'tiqod tizimlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Xuddi shunday, badiiy va me'moriy uslublar turli madaniy an'analari elementlarini birlashtirib, natijada Ipak yo'li jamiyatlarining kosmopolit tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos gibrid shakllar yaratildi.

Ipak yo'lidagi etnik-madaniy munosabatlar keskinlik va to'qnashuvlardan holi emas edi, chunki bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan manfaatlar va o'ziga xosliklar savdo, siyosat va din kontekstida tez-tez to'qnash kelgan. Biroq, bu mojarolar hamkorlik va o'zaro manfaatlar davrlari bilan ham tinchlandi, chunki jamoalar madaniy xilma-xillik murakkabliklarida harakat qilishni va umumiy manfaatlar va maqsadlarga asoslangan ittifoqlar tuzishni o'rgandilar. Diplomatik almashinuvlar, savdo kelishuvlari va madaniy almashinuvlar Ipak yo'li jamiyatlari o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtirib, Evroosiyo bo'ylab o'zaro bog'liqlik va o'zaro bog'liqlik tuyg'usini kuchaytirdi.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab etnik-madaniy munosabatlar turli etnik va madaniy guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, almashinuv va moslashuvning dinamik o'zaro ta'siri bilan ajralib turardi. Aholi migratsiyasi madaniyatlararo uchrashuvlar, nikohlar va kosmopolit shahar markazlarining shakllanishiga yordam berdi, shu bilan birga madaniy gibridlik, sinkretizm va hamkorlikni rivojlantirdi. Ipak yo'li bo'ylab etnik-madaniy munosabatlarning murakkabligini anglash madaniy xilma-xillik va o'zgarishlar sharoitida insoniyat jamiyatlarining chidamliligi,

moslashuvi va ijodkorligi haqida qimmatli fikrlarni beradi.

Xulosa:

Buyuk Ipak yo'li ming yillikdan ko'proq vaqt davomida Evroosiyo etnik-madaniy landshaftini shakllantirgan aholi migratsiyasi va madaniy almashinuvining abadiy merosidan dalolat beradi. Ipak yo'li Xan sulolasidan kelib chiqib, 14-asrdagi tanazzulga qadar odamlar, tovarlar va g'oyalarning ulkan masofalar bo'ylab harakatlanishini osonlashtirgan, turli etnik va madaniy guruhlar o'rtasida o'zaro aloqalar, almashinuvlar va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirgan.

Ipak yo'li bo'ylab migratsiya dinamikasi iqtisodiy imkoniyatlar, siyosiy inqiloblar, atrof-muhit omillari va madaniy tarqalish bilan bog'liq bo'lib, kosmopolit shahar markazlari, jonli savdo tarmoqlari va boy madaniy duragaylarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aholi migratsiyasi madaniyatlararo to'qnashuvlar, nikohlar va qarindoshlik tarmoqlarining shakllanishiga yordam berdi, etnik chegaralarni yo'qotdi va turli jamoalar o'rtasida ijtimoiy jipslikni rivojlantirdi.

Ipak yo'li bo'ylab madaniy tarqalish diniy e'tiqodlar, tillar, badiiy an'analar va oshxona an'analarining uyg'unlashishi va o'tkazilishiga olib keldi, natijada Ipak yo'li jamiyatlarining kosmopolit xususiyatini aks ettiruvchi duragaylashgan madaniyat shakllari paydo bo'ldi. Ipak yo'li bo'ylab etnik-madaniy munosabatlar o'zaro ta'sir, almashish va moslashishning dinamik o'zaro ta'siri bilan ajralib turardi, chunki turli etnik va madaniy guruhlar madaniy xilmaxillik murakkabliklarida harakat qilishni o'rgandilar va umumiy manfaatlar va maqsadlarga asoslangan ittifoqlar o'rnatdilar.

“Ipak yo'li” saboqlari haqida fikr yuritar ekanmiz, o'zaro bog'langan dunyomizda tinch-totuv yashash va barqaror rivojlanishga ko'maklashishda muloqot, hamkorlik va o'zaro anglashuv muhimligini eslatib o'tamiz. Ipak yo'lini belgilab bergan hamkorlik va almashuv ruhi zamonamiz qiyinchiliklarini yengib o'tish, kelajak avlodlar uchun yanada inklyuziv va barkamol kelajakni barpo etish yo'lida inson zukkoligi va hamkorligi salohiyatini abadiy eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beckwith, Christopher I. «Empires of the Silk Road: A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present.» Princeton University Press, 2009.
2. Liu, Xinru. «The Silk Road in World History.» Oxford University Press, 2010.
3. Hansen, Valerie. «The Silk Road: A New History.» Oxford University Press, 2012.
4. Whitfield, Susan. «Life Along the Silk Road.» University of California Press, 1999.
5. Foltz, Richard. «Religions of the Silk Road: Overland Trade and Cultural Exchange from Antiquity to the Fifteenth Century.» Palgrave Macmillan, 2010.
6. Xinjiang Institute of Archaeology (Ed.). «The Silk Road: Trade, Travel, War and Faith.» White Star Publishers, 2009.
7. Grousset, René. «The Empire of the Steppes: A History of Central Asia.» Rutgers University Press, 1970.
8. Hirth, Friedrich. «China and the Roman Orient: Researches into Their Ancient and Medieval Relations as Represented in Old Chinese Records.» G.P. Putnam's Sons, 1885.
9. Khazanov, Anatoly M. «Nomads and the Outside World.» University of Wisconsin Press, 1984.
10. Scott, Cameron. «The Horse and the Silk Road: The Horse in the Ancient World.» Yale University Press, 2013.

СОЦИАЛИСТИК ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТИЗИМИНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

*Ризаев Бахтиёр Назарбоевич,
Бухоро давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси, тарих фанлари бўйича
фалсафа доктори(PhD), доцент
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.019>*

Аннотация: Социалистик тузум негизда қурилган совет ҳукумати ХХ аср жамиятда ўзига хос кураш тизимини ўртага чиқарди. Янги тузум қуроли пролетариат диктатурасининг эски тузум билан муносабати инқилоб, унинг асосини қарма-қаршилик ташиқил этган назарияни зўр бериб жорий этилишига олиб келди. Ушбу назария тармоқларга бўлинган бўлиб, унда социалистик қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариши тизими алоҳида ўринга эга. Шунинг билан бирга, совет ҳукумати ўртнатилган даврдан, тоунинг инқирозига қадар тараққиётга тўсиқ бўлган, утопия таърифига том маънода мос тушади. Назариянинг меъёрий - ҳуқуқий базасини ташиқил этувчи шарт-шароитлар, қонунчилик ташаббуслари мавзусидан тортиб, ижросигача бўлган таҳлиллар мазкур ишни ўзагини ташиқил этади.

Калит сўзлар: Қарор, фармон, фармоиш, директива, декларация, декрет, циркуляр, резолюциялар.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЦИАЛИСТИЧЕСКОЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ ПРОИЗВОДСТВА

*Ризаев Бахтиёр Назарбоевич доцент,
доктор философии по истории (PhD) кафедры “Всемирная история” Бухарского
государственного университета.*

Аннотация: Советская власть, построенная на основе социалистической системы, создала уникальную систему борьбы в обществе ХХ века. Отношение диктатуры пролетариата, оружия нового режима к старому режиму привело к насильственному внедрению социалистической теории революции, основанной на противостоянии. Эта теория была разделена на отрасли, в которых социалистическая система сельскохозяйственного производства занимает особое место. В то же время советское правительство с момента его создания до своего краха было препятствием на пути прогресса, что буквально соответствовало определению утопии. Основой данной работы является анализ условий, составляющих нормативно-правовую базу теории, законодательных инициатив.

Ключевые слова: Постановления, решение, указ, распоряжения, директива, декларация, декрет, циркуляр.

NORMATIVE AND LEGAL BASIS OF THE SOCIALIST AGRICULTURAL PRODUCTION SYSTEM

*Rizaev Bakhtier Nazarboevich,
associate professor, department of World History, Bukhara State University, doctor of
philosophy in history (PhD) Uzbekistan.*

Abstract: Soviet power, built on the basis of the socialist system, created a unique system of struggle in the society of the twentieth century. The relationship of the dictatorship of the proletariat, the weapon of the new regime, to the old regime led to the violent introduction of the socialist theory of revolution based on opposition. This theory is broken down into sectors

in which the socialist agricultural production system has a special place. At the same time, the Soviet government, from its creation until its collapse, was an obstacle to progress, which literally corresponded to the definition of utopia. The basis of this work is the analysis of the conditions that make up the legal framework of the theory, legislative initiatives, from topic to implementation.

Key words: Decision, decree, order, directive, declaration, decree, circular, regulations.

Кириш. Коммунистик партиясовет назариётчилари томонидан илгари сурилган ғоялар, ҳукумат раҳбарларининг халқ олдида чиқришлари давомида билдирилган таклиф ва тавсиялари асосида социалистик хўжалик қуришнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини яратиш ҳамда назоратини таъминлашга маъсул директив органга айланди. Қўш ҳокимиятчилик қарор топган совет ҳукуматида давлат ва хўжалик органлари умумий мақсадлардан келиб чиқиб, лекин партия танлаган йўлдан оғишмасдан боришга сафарбар этилди. Партия Марказий аппарати ўтказган конференция, пленум ва съездлар давомида муҳокама қилинган масалалар юзасидан директива, декларация, декрет, циркуляр, резолюциялар қабул қилиниб, меъёрий - ҳуқуқийбаъза мустаҳкамлаб борилди. Ҳукумат бошқарув тизимида амалга оширилган модернизация таъсирида (1936 йил, 1946-1947 й, 1954 ва 1965 йиллар) ҳуқуқий баъза янги номдаги ҳужжатлар билан тўлдирилди. Жумладан, қарор, фармон, фармоиш ва йўриқнома кабилардир.

Адабиётлар шарҳи. Ишнинг манбавий асосларини революцион қонунчилик муаллифлари томонидан таклиф этилган, социалистик ғоялар ифодаланган асарлар, совет ҳукумати қабул қилган туркум меъёрий – ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами, матбуот ва фундаментал тарихий адабиётлар ташкил этади.

Тадқиқот методологияси. Революцион қонунчилик тараққиёти формацион ёндошув мезони талаблари замирида таҳлилга тортилиб, тарихий-генетик метод асосида янги тузум билан эски тартиблар ўртасидаги муносабатлар – мутаносиблик, фарқлар, ўзгариш ҳамда янгликлар қарама-қаршлиги қиёфаси кўрсатиб берилади.

Таҳлил ва натижалар. Партия қабул қилган ва тасдиқланган расмий ҳужжатлар ўз навбатида совет, хўжалик органлари томонидан тўғридан - тўғри ижро учун қабул қилинган. Соҳа, тармоқлар кесимида ишни тўғри ташкил этиш ва ўзаро мувофиқликни таъминлашда турли инструкциялар, буйруқ ҳамда кўрсатмалар аҳамиятини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим бўлади.

Совет ҳукумати вертикал қурилиши тоталитар режимда фаолият юритиш ва буюракратик бошқарувни тақазо этади. Революцион қонунчилик ташаббусининг ўзига хослиги марказий давлат бошқарув органлари томонидан тайёрланган юридик актларда қуйи бўғиндаги маҳаллий бошқарув ҳамда хўжалик органлари фаолиятининг барча жиҳатларини тўла қамраб олишга қаратилгани билан ажралиб туради.

Социалистик қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш тизимида ўтишпойдевори ер тўғрисидаги декрет ҳамда ерни национализация қилиш қонунлари[1] қабул қилиниши билан қўйилди. Янги тизимҳуқуқий асослари назария талабларидан келиб чиқиб, амалиётда юзага келган камчиликлар туфайли мунтазам тузатишлар киритиб бориш одати билан олиб борилди. Амалда янги тизим мезонларини мунтазам мустаҳкамлаб бориш кўзда тутилди. Коммунистик партия ва совет ҳукумати томонидан аграр дастурларни амалга ошириш учун қабул қилинган бир қатор қарор ва декретлар юқоридаги фикрларга яққол мисол бўлди. 1917 йилнинг 3 ноябр санасида “Волость комитет тўғрисида”ги декрет қабул қилинди. Шу йилда соҳага алоқадор яна 3 та ҳужжат қабул қилинди [2, -Б. 80].

Ягона шахс (ҳукумат раҳбари) хохиширодаси билан яратилган ҳуқуқий баъза кейинчалик совет ҳукумати қонунчилигида қўшима изоҳларни талаб этилишига, оқибатда

“қонун ости” деб ном олган яна бир туркум ҳуқуқий жамланмани юзага келишига замин ҳозирлади. Тор доирадаги, чекланган тафаккур асосида қабул қилинган, назарий ғоялар билан йўғирилган қонунчилик амалиёти социалистик хўжалиқни ташкил этишда бир қатор тўсиқларга сабаб бўлди.

“Партиянинг коопреация иши тўғриси”даги қарорида юқоридаги фикрлар учун асос бўлишга арзигулик мисоллар топиш мумкин. Турли кўринишдаги кооперациялар ўртасидаги ўзаро алоқа ва жойларда уюшмалар ташкил этиш хўжалиқ юритиш зарурятидан келиб чиқади. Бирлашиш пролетариатнинг кооперация ишига салбий таъсир кўрсатмаса-да, бу турдаги ишлаб чиқариш ҳамкорлигидан ўта эҳтиёт бўлиш лозим, бу масала ҳали ноаниқ ва етарли тажриба йиғишни талаб этади [3, -Б. 51]. Модомики, революцион қонунчилик илдизлари XIX аср амалиётида синовдан ўтган ва йиғилган тажрибаларга таянилган экан, совет ҳокимияти ўрнатилган XX аср жамиятдаги табақалашув янада кучайиб, ижтимоий институтлар ўртасидаги конфликт кескин тус олганини ҳисобга олиш талаб этилган. Қишлоқда рўй берган табақаланишнинг ўзига хос хусусияти шундаки, ҳозирги вақтгача бу табақаланишнинг асосий элементлари ердангина иборат бўлмай, балки, кўпроқ, жамғариш қуролигава камқувват элементларни эксплуатация қилиш воситасига айланаётган савдо, чорва моллари ҳамда инвентарлардан иборат эди [4. –С. 34].

Тайёрланган юридик ҳужжатлар қуйи бўғинда сўз-сиз қабул қилинар экан, вақт ўтиши билан амалиётда уларнинг камчилиги аниқланиб, юқорига тушунтириш, хат, ҳисобот мазмунида билдириб турилди. Айни синовдан ўтган бошқарув принциплари дастлаб беихтиёр ҳукумат томонидан ўзлаштирилиб, такомиллашган кўринишда қайта татбиқ этилиши совет ҳукумати марказлаштириш сиёсати мувоффақияти омилларидан бирига айланди. Йирик коллектив қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш тизими қонунчилиги мазмуни Ўзбекистон аҳолиси учун тушунарсиз, баъзида ғайри табиий бўлиб туюлган. Марказ бошқарув дастакларни маҳаллий кадрларга ишонмас, партия ва ҳукумат қуйи бўғинларида ҳам рус миллатига мансуб бўлганларни жойлаштиришга жон жаҳди билан уринарди. Юзага келган вазиятда, советларнинг жойлардаги органлари маҳаллий фаоллар ва аҳоли билан зарур бўлган алоқани таъминлай олмадилар оқибатида, юқоридан юборилган директиваларни ҳаётга татбиқ этиш жараёни мураккаб кечди. Юқоридагиларни инобатга олиб, 1925-1930 йиллар фаолият юритган “Кошчи” уюшмаси қарорлар мазмунини аҳолига тушинтириш, аксинча қонунчиликда аниқланган камчилик ва нуқсонлар тўғрисида юқорига хабар берувчи кўприк ташкил этилди [5]. Уюшма қишлоққа ҳукумат сиёсатини ўтказиш воситаси сифатида советларнинг доимий диққат марказида бўлди.

Шунингдек, партия Марказий аппарати томонидан ўтиш даври қийинчиликлари ҳисобга олиниб, Иттифоқдош республика партия комитетлари ҳамда советларга расмий тушинтириш хатлари жўнатиб турилди. Жойларда маҳаллий давлат бошқарув органлари ўз фаолиятларини бевосита юқоридан юборилган хатлар асосида ташкил этиш тартиби шу заилда юзага келади. Чунончи, янги иқтисодий сиёсат борасида тарқалган миш-мишлар туфайли Ўзбекистон ҳукуматига юборилган хатда: “Республикада ўтказилаётган янги иқтисодий сиёсат бу маҳаллий феодал-патиархал элементларнинг эркин савдо ва пул капиталига ўтиши, пролетариат ва яримпролетариат оммани иқтисодий қулликка солиш ёхуд сиёсий бўйсундирилишини англамайди [6, -С. 223]” мазмунида тушинтириш берилди.

Халқ хўжалиги муаммоларни кўтариб чиқиш, уларнинг ечими борасида таклиф ва тавсиялар бериш оммалашган Сталин даври анъанаси СССР парчалангунга қадар ва ҳатто бугунги кунда ҳам (Россия Федерацияси ҳамда баъзи собиқ иттифоқдош

республикаларда) сақланиб қолгани эътиборга молик. Ушбу тавсиялар кўп ўтмасданхалк хўжалиги тармоқ муаммоларини бартараф этишга мўлжалланган нормалар шаклида расман ваколатли давлат ва хўжалик органлари томонида қарор кўринишда тасдиқланиб, амалиётга татбиқ этилади.

Сталин 1933 йил мамлакатда ғалла етиштириш масаласига бағишланган йиғилишда қилган чиқишида социалистик қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш тизимини комплекс таҳлил этиб, соҳадаги камчилик ва нуқсонлар, уларни бартараф этиш юзасидан ўз таклифларини илгари сурди. Жумладан, колхоз тизимига ўтилиши майда ишлаб чиқарувчиларининг хўжалик юритиш жараёнида юзага келадиган ташвишларини жамоавий тартибда хал этишга ўтиш демакдир. Колхозаъзоларнинг тенг маъсулиятлилиги ҳамда муаммоларни колхоз раҳбарияти томонидан хал этилиши, ва асосан деҳқонни ғалласиз қолиш хавфидан ҳимоялашга қодир бўлган универсал тизим сифатиданамоён бўлмоқда. Лекин, муаммо шундаки, юзлаб ёхуд минглаб деҳқон хўжаликларини бирлаштирган йирик қишлоқ ишлаб чиқариш тизими - колхоз фаолиятини иқтисодий қонуният асосида ташкил этиш мумкинми? Йўқ албатта! Колхоз барқарорлиги ишни режа асосида ҳамда совет бошқарув тизими қоидаларини тўлиқ тушиниб етишга қодир бўлган ёш, етарли малакага эга кадрларни жалб этган ҳолда эришиш мумкин [7, -С. 63]. Йиғилишда билдирилган фикр ва мулоҳазалар қисқа фурсатда қишлоқ хўжалиги тизими режа механизмининг ҳуқуқий асоси яралишига олиб келди. Оқибатда аста-секинлик билан маъмурий буйруқбозлик иллатлари билан тўлган, колхознинг деярли ҳар бир фаолияти қамраб олинган қонун лойиҳалар тайёрланиб, кўрсатгичларни аниқлашга киришилди. Кейинчалик ҳукумат раҳбари Н.С.Хрушев: “Қишлоқ хўжалиги соҳасида топшириқларни ҳаддан ташқари кўплиги, фаолияти бир неча кўрсатгичлар билан баҳоланиши, олиб борилаётган ислоҳатларимизга тўсиқ бўлмоқда....” - деб танқид қилганди. Дарҳақиқат, колхозлар йил давомида район қишлоқ хўжалиги органлари учун ўн минг индекаторли бўйича ҳисобот тайёрлашга мажбур этилган. Урушгача бўлган давр билан таққосланганда букўрсатгичлар қариб 8 баробарга оширилган [8, -С.90].

Вақт ўтиши билан қонунчиликда ўзига хос иерархия вужудга келди. Марказий бошқарув актлари умумий социалистик тамоиллар негизида мақсадга эришишнинг аниқ йўлини белгилаб берган бўлса, хўжалик органлари ўз фаолияти юзасидан социалистик халқ хўжалиги талабларига мослашган эластик қоидалар ишлаб чиқишга ихтисослашди.

Назария, қонунчилик ва амалиёт ўртасидаги номутаносиблик сабаби ҳуқуқий баъзани ниҳоятда кенг - кўлам ҳосил қилгани, уни мувофиқлаштиришнинг амалда имкони йўклиги билан изоҳланади.

Бир қарашда социалистик қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш тизими муайян давр, ҳуқуқий нормалар жойлардаги маҳаллий ҳукумат ва давлат бошқарув органлари ихтиёрига ином этилгандек бўлиб кўринади. Аслида эса олдиндан (Қарорлар тўғридан-тўғри, реал имкониятлар ҳисобга олмасдан қабул қилинган) марказдаги олий бошқарув органлари томонидан қабул қилинган қарорларни маҳаллий шарт-шароитларга мослаштириш ишларигина жойларда бажарилган. Иттифоқ шароитида қишлоқ хўжалиги соҳаси учун юқоридан татбиқ этилган директиваларга мослашиши жараёнида ўзига хос мураккабликлар юзага келади. ЦК МКнинг 4 пленуми ва ЎзКПнинг иккинчи қурултойи директиваларига асосан декерт тузиш чоғида бир қатор муаммоли вазиятларга дуч келинди. Декрет уч ой давомида тузилди, қайта тузилди, тўғирланди қийинчилик туғдирган асосий масала норма бўлди. Мусодара қилиниши керак бўлган помешчик ерлари Фарғонада 40 десятина, Самарқанд ва Тошкент учун эса 50 десятина белгиланган. Бундан ташқари, кулоқлардан мусодара қилиниши ва сақланиб қолиши лозим бўлган ерлар, иккинчи категориядаги шаҳар ва қишлоқ савдогарларига қарашли ерларни бутунлай тугатиш талаб этилган. Кўпчиликкатта хатога йўл қўйиб, масала моҳиятини тушиниб етмасдан, бу таклифни қўллаб - қувватлаб турибди, муаммо шундаки,

хўжаликларни тугатилиши катта ҳажмдаги ишсизлар армиясини юзага келтиради. Аини шу масала бизни жуда кўп тер тўкишга мажбур этди[9, -С. 394].

Қишлоқ хўжалиги йўналишида қабул қилинган қарорлар шу қадар кўп эдики, ҳатто тадқиқотчилар ҳужжатларни статистик ёндошув асосида таҳлил қилишга мажбур бўладилар. Н.С.Хрушевнинг 10 йиллик ҳукмронлиги даврида Коммунистик партиянинг 14та пленуми бевосита қишлоқ хўжалик соҳаси масаласи муҳокамаларига бағишлаб ташкил этилди. Шахсан биринчи секретар томонидан 1960 йил кузидан 1964 йил июнга қадар ЦК Президиумига қишлоқ хўжалиги соҳасини турли мауммолари кўтарилган 12 та махсус хат юборилди[10].

Ertakda parilar podshosining qizi bo‘lgan maymun pariga yigit uylanish taklifini berganda “men er qilmayman, bo‘lmasa meni o‘ldirishadi” degan gapidan xalqda parilar odamzodga tegmasligi, aks holda parilar olamiga dog‘ tegishi haqidagi qarashlar qadimiy inonch-e‘tiqodlar bilan bog‘liq. Fikrimizni ushbu afsona tasdiqlaydi: “Gulbuloq ota katta g‘or, toshi (oldida) xuddi ayvondek. Ustida katta tug‘dona daraxti bor. Hovuzi qozonning og‘zicha. Hovuzining suvi kamaymaydiyam, toshmaydiyam. Suviga odam qonmaydi. Suvu ovqatni ko‘p yegizadi. Gulbuloq ota g‘orining uch-to‘rt quloch joyigacha odam siqilib kira oladi. Keyin (davomiga) kirolmaydi. Bir odam kiraman deb qisilib qolgan ekan. Bundan yuz yilcha burun bir qiz shu g‘orning ichiga kirib chiqar ekan. Olma, uzum olib chiqar ekan. G‘orning ichi bog‘, bir daryo oqayapti, tashqaridagi buloq shu daryoning suvidan, xurjunlarda oltin to‘la osig‘lik turibdi, deb aytarkan. Bu g‘orning bir uchi hazrati Langar otadan chiqadi. Bir tomoni Yakka pistadan chiqadi, deyishadi odamlar. Odamlar qizni Bibiqiz deyishar ekan. Shu qiz voyaga yetib, nikoh o‘qilayotgan vaqti o‘z-o‘zidan yonib ketgan ekan. Bu – yolg‘on gap emas. Shu qizni ko‘rgan odamlardan biz eshitganmiz”. Ushbu afsonani yozib oluvchi olim Sh.Turdimov bu holatni quyidagicha izohlaydi: “Chiltanlar makoni – Gulbuloq otaga kirib-chiquvchi Bibiqizning nikoh vaqti yonib ketishi, ularning taqiqini buzganligi sababli yuz bergan”[2].

“Bir tola soch” evaziga homiy bilan ramziy bog‘lanish, parining ruhiga egalik qilish huquqi yigitni raqib – akalar zulmidan omon saqlaydi. Bizningcha, maymun paridahomiy (marosimni o‘tkazuvchi va boshqaruvchi) ruh va zoomorfik shakl birlashib ketgan.

“Kallasi katta boyvachcha”ning homiysi bo‘lgan cho‘loq bo‘ri obrazining jezdan yasalgan haykali haqida tarixchi olim A.Muhammadjonov quyidagilarni qayd etadi: “O‘zRFA tarix muzeyi esponatlar xazinasida urug‘ totemi – bo‘ri, uning ustida urug‘ning bosh rahnamosi ayol, so‘ngra uning orqasida katta boshli o‘g‘lonning haykalisaqlanadi. Arxeolog L.M.Rutkovskaya olib borgan tadqiqotlarga asoslangan folklorshunos olim Hodi Zarif topilmani islomgacha bo‘lgan davrga oid ekanini qayd etadi. O‘zbek xalq ertaklari orasida keng tarqalgan “cho‘loq bo‘ri” hikoyasi mazmunini haykalning umumtasviri bilan taqqoslab, ushbu ikki turdagi ma‘naviy qadriyatlar o‘tmishimizning bir necha ming yilliklar qa‘ridan to hozirgi kunlargacha haykal va tarixiy ertak shakllarida yetib kelganini ta‘kidlaydi”[3]. 1951 yilda Toshkent viloyatining Bo‘ka tumanidan topilgan bu topilma va uning tarixiy asoslarini H.Zarif “Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganish masalasiga doir”[4] maqolasida tahlil qiladi. Olim bronza haykalda va ertakda tasvirlangan qahramonning tashqi qiyofasiga e‘tibor qaratadi. Kallasi katta boyvachcha “cho‘loq bo‘rining ustiga minib yuradi va shundagina muvaffaqiyat qozonadi. Bronza haykalda qahramon qizni cho‘loq bo‘ri yordami bilan olib kelayotir. Ertakda aytilishicha ham, bo‘ri – cho‘loq. Qahramonning ko‘zini ko‘r qiladilar. Haykalda ham kallasi katta aqramonning bir ko‘zi ko‘r”.

Iqtiboslardagi fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, haykal va ertak asosi bir-biriga juda uyg‘un. Bir so‘z bilan aytganda, haykalsifatida ishlanib saqlangan ushbu topilma oddiy san‘at asari emas, balki xalqning tafakkur tushunchasini ham anglatib, davrlar o‘tishi bilan ertak shaklida ma‘naviy ongda yashab qolgan.

“Xolmirzajon” va “Ota vasiyati” ertaklarida kenja o‘g‘ilga o‘z otasi homiy vazifasida kelib, uni vasiyatlarini bajarish orqali qahramon murod-maqsadiga yetadi. Otaning qabrini

qo‘riqlash, uning vasiyatlarini bajarish kenja o‘g‘ilga bitmas-tuganmas boylik va kuch-qudrat ato etadi. Bu ertaklarda otalar oddiy odam emas, mifologik sub’ekt ekanligi, o‘lgandan keyin bu vazifalar vasiyatni bajargan o‘g‘liga o‘tishida ko‘rinadi. Qabr ruhlar olami bilan aloqador makon bo‘lib, ota qabrga qo‘yilgach, birinchi kun “oq ot osmondan yaroq-aslaha, kiyim-kechak bilan tushib, go‘rni uch marta aylanadi”. Ikkinchi kun qora ot, uchinchi kun saman otlar ham xuddi shunday qilib, ular yigitga otasi tirikligida uning xizmatida bo‘lganliklarini aytib, nishona sifatida unga yollaridan bir tola beradilar. Shu o‘rinda otaning homiyligi bevosita ot bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Uch o‘g‘il, uch kecha va uch ot sarguzashti uchlik – ota – ot – kenja o‘g‘il tizimida rivojlanadi.

“Xolmirzajon” ertagi boyning uch xotini va ulardan bir o‘g‘il, bir qizi borligi hamda otaning o‘limi yaqinlashib qolgani xabari bilan boshlanadi: “...boy o‘g‘illarini chaqirib, nasihat qildi. Katta o‘g‘liga: ey o‘g‘lim, men ertaga juma kuni erta bilan olamdan o‘taman. Shu payt bir gado keladi, sen singlingni shu gadoga chiqarib ber, senga ikki xazina tillani bag‘ishldim, - dedi. Ikkinchi o‘g‘liga: - Ey o‘g‘lim, meni taxtaga olganda, bir gadoy keladi, shu vaqtda sen ham singlingni unga chiqarib ber, senga ham ikki xazina tilla berdim, - dedi. Uchinchi o‘g‘li Xolmirzajonni chaqirib: - Ey o‘g‘lim, meni tobutga solish paytida bir gadoy keladi, sen ham singlingni chiqarib bergin, senga ham ikki xaina tilla berdim. So‘ngra o‘zing go‘ringa borib, uch kun posbonlik qilgin” deya vasiyat qiladi. Bu ertak ham uch o‘g‘il, uch qiz, uch gado (dev), uch sinov (xafrang qush, bulbuligo‘yo, ming bir xolli ot) doirasida rivojlanib, voqealar ota – ot – kenja o‘g‘il chizig‘i bo‘ylab sodir bo‘ladi.

Ushbu ertaklardagi qabr qo‘riqlash qadimda ajdodlar ruhiga sig‘inish, ulardan madad olish kabi marosim bilan bog‘liq bo‘lib, an’anani bajaruvchi kenja o‘g‘ilning murodga yetishuvida otlar va devlar (opalarining erlari) ko‘makka keladilar. Ikkala ertakda ham ot to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki otasi orqali homiylik qilishi kuzatiladi. Bu esa epik homiy qahramonga hech qanday shartlarsiz yordam beradi degan qarashlarga mos tushmaydi. Ertakda otning yigitga yordami otasining qabrini qo‘riqlagani evaziga sodir bo‘ladi. Shu sababdan otni o‘lgan otaning ruhi timsoli, qahramon ko‘makchisi deyish o‘rinli deb o‘ylaymiz. Ota-bobolar oldidagi burchni halol ado etuvchi kenja o‘g‘il marosim o‘tkazuvchi va an‘analar davomchisi sifatida gavdalanadi. Ertakdagi obrazlar mifologik xsusiyat kasb etsa-da, uning syujeti hayotiy munosabatlarni ko‘rsatish asosida rivojlangan.

Sehrli uzuk yoki toshga ega bo‘lgan ertak (“Mehrigiyo”, “To‘ti labbay o‘ti”, “Oq ilonning amri bilan”, “Nigini shohi moron”, “Erinaman kal”, “Negiz uzuk”) qahramonlari bu predmetlarni ilondan uning bolasini qutqargani evaziga oladilar. “Mehrigiyo” qahramoni ilonlar podshosidan “tilingizning tagidagi mehriyoyingizni bering” deb so‘raydi, chunki unda sir ko‘p bo‘lib, yigitni mushkul ishlardan qutqaradi. Uning tilsim so‘zi “Labbay tosh, men senga yo‘ldosh” bo‘lib, bundan mehriyoning kichkina sehrli toshligi ayon bo‘ladi. “To‘ti labbay o‘ti” ertagi qahramoni qushlar podshosi bo‘lmish laylakning o‘g‘lini tuzoqdan qutqargani evaziga to‘tining labbay o‘tiga erishadi. Qushlar podshosi “o‘zi mayizdek keladigan narsa”ni qahramonning tilini tagiga solib qo‘yadi. “Oq ilonning amri bilan” va “Erinaman kal” ertaklari qahramonlari oq ilonni qutqargani evaziga oq toshchaga ega bo‘ladi. “Erinaman kal” ertagida tosh predmeti tushib qolsa-da, ammo tilsimli so‘zda o‘xshashlik mavjud: “Xudoning amri bilan, oq ilonning zamri bilan” (“Oq ilonning amri bilan”), “Bir xudoning amri bilan, oq ilonning dami bilan” (“Erinaman kal”). Ushbuertaklarda sehrli buyum tosh bo‘lsa, “Negiz uzuk” va “Nigini shohi moron” ertaklarida qahramonga sehrli uzuk taqdim etiladi. Bu xil ertaklarda predmetlar turlicha bo‘lsa-da, syujet rivoji, ko‘makchilar turi va tilsim so‘zlar bir xillik kasb etadi va oq ilon qahramonga sehrli buyum taqdim etuvchi homiy ko‘rinishida keladi. Sehrli ertaklarda oq ilon yer osti boyliklari egasi va ilonlar podshosi sifatida gavdalanadi. O‘zbek folklorida ilon obrazining genezisi va poetikasini o‘rgangan olima D.Fayzieva turli janrlar kesimida ilonni ajdar bilan sinkretik tarzda tadqiq etgan[5]. Bizningcha, sehrli ertak matnidagi ajdar hamda ilon alohida-alohida obraz bo‘lib, qahramonga munosabati va funksiyalari ham

ikki xillik kasb etadi. Ilon obrazida qahramonga homiylik qilish ustuvor bo'lsa, ajdarda raqiblik xususiyati ko'zga tashlanadi. Oq ilonning homiyligi qahramonni kuchli, polvon qilmaydi yoki ajdar bilan olishuvga boshlamaydi. Asosan, yigitning farovon turmushini ta'minlagani sababli ilon homiyligini oila, uy, o'choq bilan bog'liq degan fikrdamiz.

Ko'rsatilgan yordam evaziga homiylik qilish funksiyasi nafaqat ilon, balki baliq bilan bog'liq ertaklarda ham ko'zga tashlanadi. "Oltin baliq", "Ahmadjon va Sohibjon", "Kungurador baliq" ertaklarida qutqarilgan oltin baliqlar odam qiyofasiga kirib, qahramonga yordam beradilar. Baliqning suv osti dunyosida yashashi qadimda u bilan bog'liq mifik qarashlar keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Baliq kultining qadimdan keng tarqalgani haqida G.Snesarov tadqiqotlarida uchratish mumkin[6]. Yigitni baliqni yemay, uni daryoga tashlab yuborishi motivi mohiyatida baliqni iste'mol qilishga qo'yilgan taqiq izlarini ko'rish mumkin. J.Frezер "Har bir baliqda bir odamning joni mavjud bo'ladi, agar baliq tutilsa, bir odam o'ladi" degan tushunchaning tarqalganligi haqida aytib o'tgan[7]. Baliqqa ajdodlar kulti sifatida qarash, muqaddas joylardagi baliqlarni tutmaslik va ularni iste'mol qilmaslik haqidagi xalq qarashlari bugun ham saqlanib qolgan: "Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi Satkak ota ziyoratgohi buloqlaridagi baliqlarga mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyo sifatida munosabat bildiradi. Shu sababga ko'ra bu baliqlarni o'ldirish yoki ushlash og'ir oqibatlariga olib keladi deb qaralgan"[8].

Ertakda qahramonning makoni ham daryo bo'yida joylashishi muhim ma'lumot hisoblanadi. Suv havzasi bo'yida yashovchi odamlar tomonidan yuqorida keltirilgan iqtibosdagi fikrlar kabi baliqlarni muqaddaslashtirish va ulardan ruhiy ko'mak olish an'analari shakllangan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 129.
2. Турдимов Ш. Қирқ чилтан пирлар бор // Мактабгача тарбия. – Тошкент, 1992. – № 5-6. – Б.22-24.
3. Муҳаммаджонов А. Тарихфалсафаси -маънавият кўзгуси. Тошкент, Ўзбекитон. 2015. - Б.70
4. Зарифов Х. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958. - №1. – Б. 25-30
5. Файзиёва Д. Ўзбек фольклорида илон образи. – Тошкент, 2004. – 128 б.
6. Снесаров Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии ... – С.82
7. Фрезер Ж. Золотая ветвь ... – С.761
8. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Т., 2007. Б. 30

O'QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK O'ZIGA XOSLIGI

*Bekberdiyeva Gulbahor Ortig'aliyevna,
University of business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.025>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari haqida so'z yuritilgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar, kasbiy tayyorgarlik, jamiyat va shaxs manfaatlari, strategik vazifalar, mutaxassislik, kasbiy sifatleri.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ

*Бекбердиева Гулбахор Ортигалиевна,
преподаватель негосударственного высшего учебного заведения "Университет
бизнеса и науки"*

Аннотация: В статье рассмотрены педагогические основы профессиональной подготовки будущих учителей и даны методические рекомендации.

Ключевые слова: образование, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения, умения, профессиональная подготовка, интересы общества и личности, стратегические задачи, специализация, профессиональные качества.

PEDAGOGICAL SPECIFICITY OF PROFESSIONAL TRAINING OF TEACHERS

*Bekberdiyeva Gulbakhor Ortigaliyevna,
Teacher of the University of Business and Science non-state higher education institution*

Annotation: This article discusses the pedagogical basis of professional training of future teachers and provides methodological recommendations.

Keywords: education, professional activity, professional knowledge, skills, abilities, professional training, interests of society and the individual, strategic tasks, specialization, professional qualities.


KIRISH. Iqtisodiyotning globallasuvi O'zbekiston Respublikasida axborot jamiyatining shakllanishi va uning oliy ta'lim tizimining jahon miqyosidagi integratsiyasi bizning pedagogik fanlarimiz oldiga o'zbek an'anaviy ilm-fan sohasini dunyoda qabul qilingan pedagogik tushunchalarni milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda ta'lim tizimiga moslashtirish vazifasini qo'yadi. Xususan, ta'limning bilim paradigmasini kompetentlik yondashuvi nuqtai-nazaridan takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Amaliy – qayta o'zgartirish faoliyati bo'yicha malaka va ko'nikmalar, mehnat texnikalarini va texnologiyalarini yuqori darajada egallaganlik;

- Qadriyatlardan xabardorlik – madaniy-ma'naviy qadriyatlarning ustunligiga tayanganlik.
- Insonning intellektual qobiliyatlari shaxsda mavjud bo'lgan intellektual sifatlarda ko'rinadi, bu sifatlarga ijodkorlik, tashabbus, aqlning intellektual jihatdan o'ziga xosligi, bilim orttirish va motivatsion omillarning ajralmas birligi sifatidagi shaxsning kompetentligini kiritishimiz mumkin.

- Kasbiy ijodkorlik – bu yangi g'oyalarni yuzaga keltirish va muayyan faoliyatda ularni amalga oshirish jarayonidir. Ijodiy ish faoliyatida o'z-o'zini idora qilish, o'zining intellektual faoliyatini erkin boshqara olish, maqsadga muvofiq ravishda rejalashtira olish, bilim orttirish

vazifalarini mustaqil ravishda hal qila bilish qobiliyatlari muhim o‘rin tutadi.



Intellectual inson quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: a) turli xil tizimli bilimlarga egalik; b) uddaburonlik; v) tezkorlik, zarur vaziyatlarda bilimlarini tez ishga sola bilish; g) nazariy qoidalarni amaliyotga tatbiq etish shakllari va vositalarid) tayanch elementlarni ajrata bilish.

Intellectual kompetentlikda shaxsda bilim orttirish faoliyati ustun turishini, maksimal darajada bilim to'plashga intilishini anglatuvchi "erudit madaniyati" ni alohida ta'kidlab o'tiladi. Lekin, A. Molning yozishicha, "ikkixil eruditsiyani bir biridan farqlash zarur: shunchaki madaniy dunyoqarashmaydonini kengaytirish, boshqacha qilib aytganda, aqlxazinasidagi mavjud elementlar sonini ko'paytirish bir tomonda va assotsiasiyalar qatlamining qalinligi va chuqurligi bilan belgilanadigan, ijtimoiy yoki individual organism tomonidan tafakkurjarayonida barpo qilinadigan va keyinchalik xotirada saqlab qolinadigan ma'lumotlar boshqa tomondadir" Kasbiy kompetensiyalarni ko'rib chiqib, ko'pchilik tadqiqotchilar quyidagilarni alohida ta'kidlaydilar:

1) oddiy (bazaviy) kompetensiyalar (faoliyatning muayyan turlarida namoyon bo'ladigan va oson mustaxkamlanadigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga asoslangan holda shakllantiriladigan)

2) tayanch kompetensiyalar hisobga olish va o'lchash uchun o'ta qiyin bo'lib, faoliyatning barcha turlarida, shaxsning atrof olam bilan barcha munosabatlarida namoyon bo'ladi, shaxsning ma'naviy dunyosini va uning faoliyati mazmunini aks ettiradi.

Ba'zi tadqiqotlarda boshqacha ta'riflar mavjud: standart kompetensiyalar bularsiz shaxsning yoki tashkilotning normal faoliyati mumkin emas; tayanch

kompetensiyalar – ijtimoiy – iqtisodiy bozorda ularni turdosh vakillarga nisbatan yuqoriroq pog'onalarga ko'tarib, raqobatbardoshligini ta'minlaydi; etakchi kompetensiyalar – bu kelajakni "yaratish", innovatsiyalarda, kreativlikda, ilgariga intiluvchanlikda, murosakorlikdan namoyon bo'ladi. Eng samarali ishlayotgan pedagoglarning faoliyatini kuzatish va kelajakdagi ehtiyojlarni modellashtirish natijasida kompetensiyaning pedagog faoliyatining va shaxsining "bilmoq, bajarmoq, ega bo'lmoq" degan uch asosiy bo'g'iniga asoslangan bir qator turlari aniqlangan. Shundan boshlab o'qituvchining shaxsiy sifatlarining uning kasbiy kompetentligiga ta'siri barcha tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilib kelmoqda. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga kompetentlik yondoshuvlarni ishlab chiqishgan. I.L. Zimnyaya katta hissa qo'shgan. U pedagog shaxsining barcha sifatlarini ob'ektiv va sub'ektiv sifatlariga ajratgan: ob'ektiv sifatleri – bu o'qituvchining o'z fanini bilish darajasi, fan metodologiyasini egallaganlik darajasi va ilmiy bilimlarining chuqurligi, umumiy didaktik va xususiy metodik tamoyillarni egallaganligi, bolalar psixologiyasini yaxshi bilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq

qabul qilishi; sub'ektivlari: pedagoglik san'ati, pedagogik iste'dod, ijodkorlik va h.k. N.I. Almazova pedagogningkasbiy kompetensiyasini o'rganishda o'qitishning samaradorligini oshirish imkonini beradigan ko'nikmalarni va pedagogning shaxsiy sifatlarini guruhlariga bo'lib chiqdi va shunday xulosa chiqardi: "Pedagogning kasbiy kompetensiyasi – bu pedagogning mehnati bo'lib, unda pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot etarlicha yuqori darajada amalga oshiriladi, o'qituvchining shaxsi namoyon bo'ladi, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxshi natijalarga erishiladi" Zamonaviy tadqiqotchilar oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisiningkompetensiyasini tasniflashga katta e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, T.E. Isaeva o'zining "XXI asr menedjerining tayanch kompetensiyalari" kursida quyidagi tayanch kompetensiyalarni ajratib ko'rsatadi: strategik; ijtimoiy; funksional; boshqarish; kasbiy zamonaviy pedagogik amaliyotda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari vujudga kelishining asosiy jihatlarni ta'riflashning imkoni bo'lmagani kabi, mazkur maqola doirasida ham ularni tasniflashning batafsil tahlilini berib bo'lmaydi. Biroq, bunda asosiy yo'nalishni aniqlab olish muhimdir: a) oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun eng muhim deb e'tirof etilgan kompetensiyaning mazmunini aniqlashtirish;

b) zamonaviy oliy ta'limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo'llari va vositalari, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- talabalarning kasbiy yo'naltirilganlik darajasini, kasbiy yo'naltirilganligini va tayyorgarligini, individuaxususiyatlarini, shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tanlab olish uchun taklif

etiladigan muammoli-vaziyatli topshiriqlarning variativligi (murakkablik va mustaqillik darajasiga ko'ra variativlik);

- ishni bajarishning jamoaviy (talabalar guruhi) va individual shakllarini uyg'unlashtirish asosida talabalarning mustaqilligini rivojlantirish;

- talabalarning bajargan ishlarini va kasbiy tayyorgarlik darajalarini o'zaro tekshirishlarini, o'z-o'zini nazorat etishlarini va tahlil etishlarini rag'batlantirish;

- talabalarni ijodiy faoliyatning turli shakllariga va o'z-o'zini boshqarishga keng jalb etish;

- talabalarning respublika va oliy ta'lim muassasasi miqyosida tashkil etilayotgan ma'naviy va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishlari. Oliy ta'lim muassasasi axborot manbai sifatida emas, balki ma'naviy-madaniy qadriyatlarining milliy va umuminsoniy tamoyillari bilan talaba orasidagi vositachi vazifasini bajargan taqdirdagina,

- Birinchidan, talabaning shaxsiy qiziqish, ijodkorlik, muloqot, o'qish va bilimlar orttirish faoliyatlarini o'z ichiga hayot faoliyati sifatidagi ,

- ikkinchidan, madaniyatning bugungikundagi holati va tarixiy rivojlanishini egallashning usuli sifatidagi o'quv jarayoni mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning real shart-sharoitlariga aylanishi mumkin. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining o'zi pedagogik fanlarda nafaqat mustaxkam joy egalladi, balki pedagog-amaliyotchilarning keng doiralari tomonidan ham tobora chuqurroqo'rganilmoqda. Kasbiy kompetentlikni tadqiq etishda kasbiy kompetensiyalarning quyidagi guruhlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun zarur deb hisoblanadi: – gnostik – ishlab chiqarishga oid yangi bilimlarni egallay olish, o'z shaxsiy tajribasini hamda ishlab chiqarish ilg'orlari va novatorlari tajribasini umumlashtirish va tizimlashtira olish; – loyihalashtirish – texnik va texnologik tizimlarni, tikuv buyumlari ob'ektlarini yaratish, kasbiy faoliyatni joriy va istiqbolli rejalashtirish, texnologik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish tizimini loyihalashtirish; – tashkilotchilik – muhandislik g'oyalarini amaliyotga joriy eta bilish, jamoaga etakchilik qila olish; – texnologik – texnologik jarayonlarni tashkil etish, chizmalar va texnologik xaritalarni o'qiy olish, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan imkoniyatlar va sharoitlarni, asbob-uskuna va jixozlarning texnik tavsiflarini aniqlay bilish; – konstruktorlik – buyumlarni tayyorlash bo'yicha hisoblash grafik ishlarni bajara olish, eskizlar va chizmalarni bajara olish, texnik shartlarga mos ravishda texnologik jarayonni yo'lga qo'ya bilish, nosozliklarni bartaraf

etish uchun tadbirlar tizimini aniqlay olish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning ob'ektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика. – 2005.

2. Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика. – 2005.

3. Моль А. Социодинамика культуры. – М.: 1993. с.51.

4. Базаров Т.Ю. Компетенция будущего: Квалификация? Компетентность (критерии качества). Зимняя И.Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. -2004. 13-б.

5. Алмазова Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной компетентности при обучении иностранному языку в неязыковом вузе. Авт. дисс. на соискание ученой степени док.пед.наук. Санкт-Петербург, 2003. – 47 стр.;

6. Базаров Т.Ю. Компетенция будущего: Квалификация? Компетентность (критерии качества).;

7. Зимняя И.Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. -2004.;

8. Моль А. Социодинамика культуры. – М.: 1993. с.51.

9. Базаров Т.Ю. Компетенция будущего: Квалификация? Компетентность (критерии качества). 157-б.

10. Зимняя И.Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. -2004.

ON THE LINGUISTIC EXPRESSION OF THE CONCEPT «PERSON» IN ENGLISH AND UZBEK

Bo 'riyeva Nilufar Gofur kizi

Karshi Institute of Engineering and Economics, is an English teacher at the «Foreign Languages» department.

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.026>

Annotation. Despite the fact that many studies in the field of the concept have been conducted in recent years, a clear understanding of what the concept itself is and what category it belongs to has not been formed, and a single methodology for their research has not yet been created. The importance of the comparative analysis of the personality concept is recognized in fields such as psychology, sociolinguistics, and biology in addition to linguistics. We can consider the importance of the person in sociology, that the person is the main tool that drives a specific social theory. This research provides a deeper understanding of how language reflects and shapes an individual's cultural perceptions in English and Uzbek languages and cultural contexts.

Key words: Concept, personality concept, comparative analysis, linguistic, verbalization, cultural and cognitive aspects, linguistics, semantic range, linguistic culture; lexical equivalent

О ЯЗЫКОВОМ ВЫРАЖЕНИИ КОНЦЕПТА «ЧЕЛОВЕК» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Бориева Нилуфар Гофур кизи,

Каршинского инженерно-экономического института, преподаватель английского языка на кафедре «Иностранные языки».

Аннотация. Несмотря на то, что в последние годы было проведено множество исследований в области концепта, не сформировалось четкого понимания того, что представляет собой сам концепт и к какой категории он относится, а также не сложилась единая методология их исследования. Важность сравнительного анализа концепции личности признается не только в лингвистике, но и в таких областях, как психология, социолингвистика и биология. Мы можем принять во внимание важность личности в социологии, поскольку личность является основным инструментом, управляющим конкретной социальной теорией. Это исследование обеспечивает более глубокое понимание того, как язык отражает и формирует культурное восприятие человека на английском и узбекском языках и в культурных контекстах.

Ключевые слова: Концепт, концепция личности, сопоставительный анализ, языкознание, вербализация, культурно-когнитивный аспекты, языкознание, семантический диапазон, лингвокультура; лексический эквивалент

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA "SHAXS" TUSHUNCHASINI LINGVISTIK IFODALANISHI HAQIDA

Bo 'riyeva Nilufar G'ofur qizi,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Chet tillari" kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. So 'nggi yillarda kontseptsiya sohasida ko 'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, kontseptsiyaning o 'zi nima ekanligi va u qaysi toifaga tegishli ekanligi haqida aniq tushuncha shakllanmagan va ularni tadqiq qilishning yagona metodologiyasi hali ham shakllanmagan. yaratilgan. Shaxs tushunchasini qiyosiy tahlil qilishning ahamiyati tilshunoslik bilan bir qatorda psixologiya, sotsiolingvistika, biologiya kabi sohalarda ham e 'tirof etilgan. Sotsiologiyada shaxsning ahamiyatini, shaxsning muayyan ijtimoiy nazariyani harakatga keltiruvchi asosiy vosita ekanligini ko 'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ingliz va o 'zbek tillarida hamda madaniy kontekstlarda til shaxsning madaniy tasavvurlarini qanday aks ettirishi va shakllantirishini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Tushuncha, shaxs tushunchasi, qiyosiy tahlil, lingvistik, verbalizatsiya, madaniy-kognitiv jihatlar, tilshunoslik, semantik diapazon, til madaniyati, leksik ekvivalent

Introduction. A concept is a thing that does not undergo changes in the semantics of a word sign, but, on the contrary, creates and defines the practical possibilities of language and speech, and directs the thoughts of speakers in this language. The first form of concept manifestation is images. The meaning of the concept is the symbol of the shape.

Over the next few years, Uzbek linguistics is developing and improving in our country. Linguistics plays an important role in the mutual integration of other sciences. For this reason, the word concept, which is considered to be a philosophical concept, has recently been given importance as an object of study in linguistics. We will try to explain the full definition of the concept, the concept of honesty, and clarify its conceptual basis. The concept is a unit of the linguistic field in modern linguistics, as it reflects knowledge about language, society and its culture. Concepts reflect the culture in the language and form the image of the world in the human mind. The concept is an operational content unit of thinking, a unit or quantum of systematized knowledge. The knowledge they get is experience, a person's perception of real existence.

Analysis of literature on the topic.

In the field of English language and literature, the concept of language itself is a fundamental area of study. Linguists and literary scholars analyze the structure, function, and evolution of language, as well as its role in communication and expression. Concepts such as syntax, semantics, phonetics, and pragmatics are essential for understanding how language works and how it is used in literature.

Literary analysis also involves the study of literary concepts such as plot, character, setting, theme, and symbolism. These concepts help readers and scholars understand the structure and meaning of literary works, as well as the techniques used by authors to convey their ideas and emotions.

The concept of genre is also important in English literature, as it helps categorize and analyze different types of literary works, such as poetry, drama, fiction, and non-fiction. Understanding genre conventions and expectations can provide insight into the purpose and style of a particular literary work.

Concepts related to literary theory, such as postcolonialism, feminism, structuralism, and deconstruction, are also crucial for analyzing literature from different perspectives and uncovering hidden meanings and power dynamics within texts.

Overall, the study of English language and literature involves a deep analysis of various concepts that are essential for understanding language, communication, and the art of storytelling. It is also possible to see that the core is considered «as the brightest image component of the concept». The term concept was first introduced in Russian linguistics by the philosopher S.A. Askoldov-Alekseyev. According to his interpretation: «a general understanding as a concept or product of thought replaces many things of the same kind in our thinking process.» D.S. Likhachev based on this definition, implemented the concept of the field of concept. But he, unlike S.A. Askoldov-Alekseyev, believes that, firstly, the concept applies separately to each main (lexical) meaning of the word, and, secondly, «we use the concept in our written and spoken offers to consider it as a special «algebraic» expression of the meaning we use in our speech, because a person does not have time to understand the meaning in all its complexity, sometimes he cannot understand it, and sometimes he does not understand such a meaning by himself. «interprets» .

One of the central concepts of cognitive linguistics remains to this day rather vague and contradictory, in which the features that different researchers consider to belong to this concept are often mutually exclusive. This concept:

- is a category, unit and structure at the same time, and acquires an individual and social tone at the same time:
- is an idea that includes “Abstract, specific-associative and evaluative symbols, as well

as the total history of the concept”[1];

- “is an Abstract scientific concept developed on the basis of a vital concept”[2];
- “perception and interpretation of the objective essence and concept as the minimum content of meaning”[3];
- - “memory is the mental vocabulary, the conceptual system and language of the brain, the operational unit of the overall world view, the quantum of knowledge[4];
- - it is a “perceptual-cognitive-affective derivative» of an individual nature «in a dynamic manner that acts objectively in the human mind”[5];
- “an operational unit of thought, a unit of collective knowledge expressed in language and having an ethnocultural identity (leading to higher spiritual values)”[6];

There are also different views on the interaction of concepts and mutual cooperation. However, it should be noted that the mechanisms providing such connections have not been described in detail so far. L.S. According to Likhachyov, concepts are connected with each other and structurally form conceptual areas determined by «a person’s cultural level, his belonging to a certain community of people, individuality»[7].

Research methodology.

In our judgments, we have to admit, following strict logic, that to the extent that the native language systems of representatives of different language communities differ, their minds and thinking also have a different structure and organization. I mean, the mind of a native speaker of Uzbek is different from the mind of a German or French. In that case, in the environment of two or even three different languages, for example. What is the mind and thinking of someone who grew up in conditions like in India or Algeria? In the conditions where both languages - Hindi and English - are considered mother tongues, reality is «divided into two» according to what language system? What if a person’s native language does not have a grammatical category that exists in the other language (such as the gerund in English)?

In lexical fragments, the concept of «person» in English is represented by various lexical compounds such as «insan», «individual», «person». Each term can have different meanings related to the concept of person.

Semantically: Understanding the semantic range of words related to «person» in English involves understanding how different terms can emphasize aspects such as individuality, humanity, mortality, or social roles.

Pronominal Representation: English also represents the concept of «person» through pronouns such as «he,» «she,» «they,» and «it,» each of which reflects grammatical, gender, and animate differences.

Cultural Connotations: The concept of «person» is embedded in cultural and social norms, which influence its expression in language. For example, English may have specific terms or expressions related to individuality, personal identity, and social roles that reflect cultural values.

Cognitive Aspects: The linguistic expression of the concept of «person» also reflects cognitive associations, such as the distinction between animate and inanimate beings, gender-specific language, and an egalitarian view of the individual.

We can definitely say that without language there is no thought and consciousness, because in this case there is no man himself, but the question of how the construction of language corresponds to the construction of thought or consciousness has not yet been answered. In modern science, it is not an easy task to raise the question of direct correspondence between language and consciousness due to the very limited knowledge of the processes of the human brain.

Also, the fact that consciousness, thinking and language belong to different phenomenological fields cannot confirm the thesis that thinking and consciousness are isomorphic to language. For example, despite the fact that the patterns on the frosted window glass and the ice crystals that form them are located in the same structural area, they still apply in different phenomenological areas; as well as the wonders of computer graphics and the computer’s operations on conditional ones and zeros are non-intersecting phenomenological fields. Problems arise when

we unknowingly wait for direct correspondences in different phenomenological fields and think that the correspondences established in the field of linguistic phenomena will also be true in the field of psychological or neurophysiological phenomena.

Analysis and results.

In English. The concept of a «person» is a complex and multifaceted idea that encompasses various dimensions, including philosophical, legal, psychological, and social perspectives. Here are some key aspects of the concept of a person:

Philosophical Perspective:

Personhood: Philosophers have explored the concept of personhood, often emphasizing qualities such as self-awareness, rationality, consciousness, and moral agency. The question of what makes an entity a «person» has been central to debates in ethics and metaphysics.

Legal Perspective:

Legal Rights and Responsibilities: In legal terms, a person is often defined as an individual or entity with legal rights and responsibilities. This includes the capacity to enter into contracts, own property, and be held accountable for one's actions. Legal personhood is not limited to humans and can also extend to corporations and other entities.

Psychological Perspective:

Psychological Attributes: Psychologists study various attributes that contribute to the concept of a person, such as cognition, emotions, and social behavior. The development of a sense of self and the ability to relate to others are significant psychological aspects of personhood.

Social Perspective:

Social Identity: Within a social context, personhood is often linked to identity and social roles. Cultural and societal norms shape expectations regarding individual behavior and the rights and responsibilities associated with being a person.

Biological Perspective:

Biological Being: From a biological standpoint, a person is typically understood as a human being. The definition of personhood in terms of biology has been a topic of debate, especially in discussions related to the beginning of life, such as in debates about abortion.

Ethical and Moral Considerations:

Moral Agents: The concept of personhood is closely tied to ethical considerations. Ethical theories often distinguish between beings that are moral agents, capable of making ethical decisions, and those that are not. This plays a role in discussions about moral responsibility.

Cultural and Historical Variability:

Cultural Definitions: The concept of personhood can vary across cultures and historical periods. Different societies may have distinct criteria for what qualifies as a person, and these criteria can evolve over time.

Intersectionality:

Intersectional Dimensions: Personhood is often understood in intersectional terms, considering factors such as race, gender, sexuality, and other social categories. This recognizes that the experience and recognition of personhood can be influenced by multiple factors.

The concept of a person is multifaceted and involves philosophical, legal, psychological, social, and cultural dimensions. It reflects a complex interplay of attributes, roles, and rights that define individual identity and agency within various contexts.

When classifying lexemes into semantically meaningful fields, meaning aspects are taken into account. This field creates smaller fields around it: lexical symbols representing the names of a person, plant, animal, mountain, hill, battle, and lexical units representing a religious concept. Their distinctive feature is that the basis of the content field is lexemes and their symbols. For example, the work «Temurnoma» contains the names of more than 500 persons. It is possible to create new meaningful fields by combining several themes around the lexeme of a single person: in the center of the work is Amir Temur, that is, a single person, and around him are blood relatives, amir's wives, concubines, children, comrades-in-arms, army soldiers, etc. friends, ambassadors, enemies, etc.

Conclusion

So, around the lexeme «person» (based on the names of persons mentioned in the work) the above meaningful fields have appeared. These themes are «field» in relation to the person's archiseme, but when divided into thematic groups, each of them functions as a macro-field. For example, Alqissa, Taragai Bahadir was a Karayur nuyondin. Kazan Khan was such a tyrant that if he wanted someone, he would first bequeath his wife and children and then go to Kazan Khan. Amir Choku became a state in Barlos. But Malikshakh was a very rich man. There were all types of goods. Among the people of Chigatoy, there was no great and traditional wrestler. From the above examples, it became clear that personal names are combined into thematic groups based on the anthropocentric principle and on the basis of the content area. And in turn, the groups are divided into groups, and the example of a chain is studied in connection. When lexemes are analyzed in this way, hyperonym-hyponym relations also emerge. Language cannot exist without people and people, and therefore without society. Language serves society and enables its members to communicate.

Highlighting the fact that all phenomena of language depend on humans (anthropocentricity) is a global tradition of current linguistics. It is known that language is highly anthropocentric. Most of his vocabulary is devoted to a person - his inner world, understanding of the external world, physical and mental activities, his goals, connections with other people, relationships with them, evaluation of events, rules and situations. Language is anthropocentric, because it is intended for man, and the expression of all objects and events in the external world is intended for him; this is a common feature of all languages. It is impossible to know the language by itself without going beyond its limits, without turning to its creator, owner, user - a person, a person of a specific language. It is necessary to emphasize that if the question of the interaction of a person in language and culture is transformed into the perspective of a real «linguistically expressed language person», it becomes the subject of linguistic and cultural studies. Referring to the person who is the creator, owner, and user of the language with its own linguistic landscape, it confirms that linguistic and cultural studies is oriented towards the human, or rather, the cultural factor in the language and the linguistic factor in the person. So, linguistic and cultural studies is actually an anthropological paradigm of human science. The anthropocentricity of linguistics and cultural studies as a scientific discipline is expressed by the general tradition of the development of social knowledge. The concept of «person factor in language» is inseparable from the concept of «linguistic landscape of the world», which is well known in current linguistic studies.

References:

1. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: Академический проект. Изд. 2-е, испр. и доп. -2001. –С. 990.
2. Соломоник А. Семиотика и лингвистика. М.: Молодая гвардия, 1995. –С. 243.
3. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // ИРАН СЛЯ. -1993. -№1. –С. 281.
4. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З. Краткий словарь когнитивных терминов. –М, 1996: –С.90.
5. Залевская А.А. - Психолингвистические исследования Гнозис 2005. –С. 624.
6. Воркачев С. Г. Счастье как лингвокультурный концепт Текст.: монография. Москва: Гнозис, 2004. – С.51.
7. Лихачев Д.С. Концепт русского языка // ИРАН СЛЯ. -1993. -№1. –С. 25-28

INGLIZ BOLALAR O'YIN FOLKLORIDA LINGVOKULTUREMALARNING AKS ETISHI

Eshkobilova Feruza Urazovna,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.027>

Annotatsiya. Har bir xalqning og'zaki ijodida bolalar folklori va uning tarkibida esa o'yin folklori namunalari o'ziga xos badiiy-estetik hodisa sifatida muayyan o'ringa ega. Ular xalq ijtimoiy-madaniy hayotida alohida mavqe kasb etadi va uning turli qirralarini lingvomadaniy aspektida o'zida ifodalab keladi. Mana shunisi bilan bolalar o'yin folklori ham xalq madaniyati asoslarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda qo'llangan lingvokulteramalar orqali bolalar o'yin folklorining madaniy hayotdagi o'rni va badiiy-estetik ahamiyatini to'la ochish mumkin. Bunda, albatta, til va madaniyat hamda shaxs birligi asosida ular o'rtasidagi munosabatlar mohiyati va talablari o'zaro bog'liqlikda ochiladi.

Kalit so'zlar: bolalar o'yin folklori, lingvokulterema, badiiy-estetik, o'yin qo'shiqlar, lingvokulturologiya, antroponim, sujet.

ОТРАЖЕНИЕ ЛИНГВИСТИКИ В АНГЛИЙСКОМ ДЕТСКОМ ИГРОВОМ ФОЛЬКЛЕРЕ

Эшкобилова Феруза Уразовна,
преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация. Детский фольклор и образцы игрового фольклора занимают особое место в устном творчестве каждого народа как уникальное художественно-эстетическое явление. Они занимают особое положение в социокультурной жизни народа и выражают различные ее стороны в лингвокультурном аспекте. Таким образом, детский игровой фольклор имеет важное значение и в освещении основ народной культуры. Роль детского игрового фольклора в культурной жизни и художественно-эстетическое значение в полной мере раскрываются через используемые в нем лингвокультурные выражения. При этом, конечно, характер и потребности отношений между ними, основанные на единстве языка и культуры и личности, раскрываются во взаимообусловленности.

Ключевые слова: фольклор детской игры, лингвокултерема, художественно-эстетический, игровые песни, лингвокультурология, антропоним, сюжет.

REFLECTION OF LINGUISTICS IN ENGLISH CHILDREN'S GAME FOLKLORE

Eshkobilova Feruza Urazovna,
Karshi State University teacher

Abstract. Children's folklore and examples of game folklore have a special place in the oral creativity of each nation as a unique artistic and aesthetic phenomenon. They occupy a special position in the socio-cultural life of the people and express its various aspects in the linguistic and cultural aspect. Thus, children's game folklore is also important in illuminating the foundations of folk culture. The place of children's play folklore in the cultural life and artistic-aesthetic significance can be fully revealed through the linguocultural expressions used in them. In this, of course, the nature and requirements of the relations between them, based on the unity of the language and culture and the personality, are revealed in mutual dependence.

Key words: folklore of children's play, linguoculterema, artistic-aesthetic, play songs, linguoculturalology, anthroponym, plot.

Kirish. Bolalarning qiziqish va intilishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar ularning hayotida muhim o‘ringa ega. Bolalar hayotini o‘yinlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli qaysi millat bo‘lmasin, uning folklorida bolalar o‘yin folklori alohida o‘rin tutadi. Hamma xalqlarda o‘yinlar o‘sha millatning bebaho madaniy boyligi sifatida uning milliy-madaniy turmush tarzi, urf-odatlarini, ruhiy olami, dunyoqarashi, axloqiy-estetik qarashlarini o‘zida aks ettirishi tufayli uning milliy qiyofasi, o‘tmishi, buguni va ertasini namoyon etib turadi. Shu bilan xalq tarixi va madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Bolalar o‘yin folklorida lingvokulturremalarning alohida o‘rni bor, ularni tadqiq qilish tilshunoslik ilmi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki folklor xalq tilida yaratilishi bois ularda tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligi aks etadi. Madaniyatni esa inson yaratadi. V.A. Maslova bu borada “bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o‘rganadi. Muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o‘rganilishi kerak” degan fikrni ta’kidlaydi[1].

“Baa, Baa, Black Sheep” inglizcha bolalarcha o‘yin-qo‘shiq bo‘lib, uning eng birinchi bosma nusxasi e’lon qilinishi taxminan 1744-yilga to‘g‘ri keladi. Ketrin Elves Tomas o‘zining “Ona g‘oz bilan bog‘liq haqiqatlar” asarida (1930) ushbu o‘yin-qo‘shiqning qadimda jun bilan bog‘liq og‘ir soliq solinishi tufayli xalq noroziligi kelib chiqishi munosabati bilan yaratilgani aytiladi. Bu esa XV asrgacha saqlanib qolgan va 1275-yildagi (o‘rta asrlardagi) ingliz “Buyuk” yoki “Eski odat” – jun solig‘iga ishora qilish uchun keltirilganidan darak beradi. Shuningdek, mazkur o‘yin-qo‘shiq qul savdosiga, xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining janubiy qismiga aloqasi borligi, bundabeg‘araz va siyosatdan yiroq bolalar qo‘shiqlaridan foydalanish qo‘l kelgani, ammo bu haqda hech qanday tarixiy dalillar yo‘qligi ta’kidlanadi. Qora qo‘yning junini bo‘yamasdan qora mato sifatida foydalanish mumkinligi sababli uni qadrlashgan.

Ingliz o‘yin qo‘shig‘i:	Tarjimasi:
Bah, Bah, a black Sheep, Have you any Wool? Yes merry have I, Three bags full, One for my Master, One for my Dame, One for my little boy That lives in the lane.	Ba, Ba, qora qo‘y, Sizda jun bormi? Ha, xursandman, Uchta sumka to‘la, Biri ustozim uchun, Biri xotinim uchun, Kichkina o‘g‘lim uchun bitta Bu ko‘chada yashaydi[2].

Iona Opi (1923-2017) va Piter Opi (1918-1982) bolalar folklori hamda an’anaviy o‘yinlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lgan folklorshunos er-xotinlardir. Ular o‘z ishini 1940-yillardan boshlab, Buyuk Britaniya bo‘ylab bolalar qo‘shiqlari va o‘yinlarini to‘plash hamda kataloglashtirish bilan shug‘ullanishgan. Ularning izlanishlari natijasida “Maktab o‘quvchilarining ta’limoti va tili” (1959), “Ko‘cha va bolalar maydonchasidagi bolalar o‘yinlari” (1969), “Klassik ertaklar” (1974) kabi bir qancha qimmatli kitoblar yaratildi. Opilar bu boradagi materiallarni to‘plashga jiddiy e’tibor berishgan va to‘plangan materiallarning haqiqiylikini saqlashga alohida diqqat qaratishgan. Ular bolalar xalq og‘zaki ijodi madaniy merosning muhim qismi bo‘lib, yaratilgan va yetkazilgan bunday manbalar ijtimoiy va tarixiy sharoit haqida tushuncha beradi, deb hisoblashgan. Opilar ijodi folklor, antropologiya va ta’lim

sohalaridagi olimlar avlodlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Opilar kitobidagi bolalar folklor qo'shiqlari va o'yin-qo'shiqlaridan ba'zi namunalar quyidagilardir:

“Miss Meri Mak, Mak, Mak” (“Maktab o'quvchilarining bilimi va tili”dan).

“Apelsinlar va limonlar, Sent-Klementning qo'ng'iroqlarini ayting” (“Oksford bolalar bog'chasi qo'shiq kitobi”dan).

“London ko'prigi qulab tushmoqda”. (“Ko'cha va o'yin maydonchasidagi bolalar o'yinlari”dan).

“Atirgul uzuklarini qo'ng'iroq qiling, cho'ntak to'la bo'lsin” (“Klassik ertaklar”dan).

“Eeny, meeny, miny, moe”. (“Maktab o'quvchilarining bilimi va tili”dan).

Bu qo'shiq va o'yin-qo'shiqlar Opilar hujjatlashtirib, tahlil qilgan katta bolalar folklor to'plamining kichik bir namunasi.

G.G. Slishkinga ko'ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'I, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigмага tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”[9].

Har bir bolalar o'yini ma'lum bir tarixiy sharoitda, xalqning urf-odat, madaniyatini o'zida aks ettirgan holda paydo bo'lgani tufayli lingvokulturologiya bolalar folklori namunalarini ham lingvistik, ham etnofolkloristik, ham madaniy jihatdan o'rganishga imkon beradi.

Asliyatda	Tarjimasi
Rain, rain, Go away.	Yomg'ir, yomg'ir , Uzoqqa ket.
Come again another day, Little Arthur wants to play.	Boshqa kuni yana kel, Kichik Artur o'ynashni xohlaydi.

Yuqoridagi qo'shiqda Artur ismining qo'llanganiga qarab, uning ingliz xalqiga aloqadorligini tez ilg'ash mumkin. Chunki bu ism (antroponim) ingliz xalqiga xosdir. Antroponimlar muayyan xalq madaniyatiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklardan hisoblanadi.

Ingliz bolalar folklori ko'plab bolalar qo'shiqlari, o'yin qo'shiqlarini o'z ichiga oladi. Eng mashhur bolalar qo'shiqlaridan biri to'rtlik shaklidagi “Humpty Dumpty” qo'shig'i bo'lib, u dastlab topishmoq ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shiq shaklida aytilgan. XVII asrda “humpty dumpty” – “qaynatilgan konyak” ma'nosida ham ishlatilgan, XVIII asrda bu atama qo'pol odam jargonidan foydalanilib, kelib chiqishi yiqilib tushgan qo'pol odam tuzalmas darajada shikastlanmasligi mumkin, lekin tuxum esa tuzatib bo'lmas darajada zarar ko'radi degan ma'no bilan bog'liq:

Humpty Dumpty, sat on a wall.

Humpty Dumpty, had a great fall

All the king's horses and all the king's men,

Couldn't put Humpty Dumpty together again. (An egg)

Tarjimasi:

Humpty Dumpty devorga o'tirdi,

Humpty Dumpty ajoyib yiqildi.

Qirolning barcha otlari va qirolning barcha odamlari,

Humpty Dumptyni qayta birlashtira olmadilar. (Tuxum)[5].

Ingliz bolalar folklor o'yin folklorining turli janrlardagi namunalari ingliz madaniyatining asosiy qismi bo'lib kelgan. Ular har xil janrlarda bo'lib, bolalar o'yin qo'shiqlaridan tortib, sanash qo'shiqlarigacha namoyon bo'ladi. Har bir janr turli maqsadlarga xizmat qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

O'yin qo'shiqlar ingliz bolalar folklorining alohida janri bo'lib, ular ko'pincha o'yin jarayonida o'yin maydonchalarida kuylanadi.

Ingliz bolalarining "Ring-a-ring-a-rosies" ("Jiringla jiringla atirgullar") nomi bilan keng tarqalgan o'yin-qo'shig'i 1665-yilda Angliyada sodir bo'lgan Buyuk vabo yoki Angliyada "Bubon vabosi"ning avj olishi bilan bog'liq. Bolalar qo'shiqlari bo'yicha yetakchi olimlar Piter va Iona Opi zamonaviy inglizcha versiyalardagi o'zgarma qo'shiq shakli Buyuk vabodan boshlangan deb aytish imkoniyatini berishini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, pushti toshmalar o'latning alomati bo'lib, o'tlarning tuyoqlari himoya sifatida va kasallikning hidini yo'q qilish uchun ishlatilgan. Aksirish yoki yo'talish oxirgi halokatli alomat edi va "hamma yiqilishi" aynan kasallikning halokatliligini ko'rsatish alomati hisoblanadi.

Ring-a-ring-a-rosies

A pocket full of posies

A tissue, a tissue

We all fall down

The king has sent his daughter

To fetch a pail of water

A tissue, a tissue

We all fall down

O'yin-qo'shiq matni "Jiringla-jiringla atirgullar" da'vati bilan boshlanadi. Atirgullar bilan cho'ntaklar to'laligi aytiladi. Qo'shiq o'ziga xos sujetga ega. Unda aytilishicha, podshoh qizini bir chelak suv olib kelish uchun yuboribdi. Qo'rg'ondagi xalq kuylamoqda. To'y qo'ng'iroqlari chalinmoqda. O'g'il-qizlar qo'shiq aytishmoqda. Ammo hamma aksirayapti. Demak, xalq kasal. Hamma yiqiladi (vabodan halok bo'ladi).

Quyidagi ingliz bolalarining barmoq bilan o'ynaladigan o'yin qo'shig'ida ingliz maydon raqslari ijrosiga xos belgilar mujassamlantirgani diqqatni tortadi. Jumladan:

Tommy Thumb is up and Tommy Thumb is down,

Tommy Thumb will dance around the town.

Dance him on your shoulders, dance him on your head,

Dance him on your knees, and tuck him into bed.

Tarjimasi:

Tommy Thumb ko'tarildi va Tommy Thumb pastga tushdi,

Tommy Thumb shahar bo'ylab raqsga tushdi.

Uni yelkangizda raqsga tushiring, boshingizda raqsga tushiring,

Uni tizzangizda raqsga tushiring va to'shakka yotqiz.

Inglizlar oshxonasida loviya eng ko'p iste'mol qilanadigan dukkakli ekin mahsulotlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, ingliz bolalari qo'shiqlarida loviyani yeyishga o'rgagish undov motivi uchrashi kuzatiladi:

Ingliz bolalar o'yin qo'shig'i	Tarjimasi:
<i>Beans, beans, they're good for your heart,</i>	<i>Loviya, loviya, ular yuragingizga yaxshi,</i>
<i>The more you eat, the more you... start!</i>	<i>Qancha ko'p ovqatlansangiz, shuncha ko'p ... boshlaysiz!</i>
<i>The more you start, the better you feel,</i>	<i>Qanchalik ko'p boshlasangiz, shunchalik o'zingizni yaxshi his qilasz,</i>
<i>So eat your beans with every meal!</i>	<i>Shunday ekan, har ovqat bilan loviya yeng!</i>

Ingliz xalqiga xos bo'lgan va shu xalq orasida yaratilgan o'yinlar va ularning qo'shiqlaridan biri "London Bridge Is Falling Down" ("London ko'prigi qulab tushyapti" o'yin-qo'shig'i ijosida o'yin ishtirokchilari bir-biriga qaragan ikkita chiziq bo'ylab qo'llari bilan kamar hosil qilib, uni yuqoriga baland ko'tarib turadilar. Bir yoki bir nechta o'yinchilar "ko'prik" ostidan o'tayotganda ushbu o'yin qo'shiq kuylanadi. Qo'shiqning har bir bandi so'ngida takrorlanib kelayotgan "Mening go'zal xonimim" birikmasidan so'ng kamar ostidan o'tayotgan o'yinchini ushlab olish uchun "ko'prik" tushiriladi va o'sha bola o'yindan chiqib turadi.

"Britaniya buldogi" ("British bulldog") o'yinida o'rtada kutib turgan "buldoglar" tomonidan ushlanmasdan, o'yin maydonining bir chetidan ikkinchi chetiga yugurib kelish sharti belgilangan. Oxirgi qolgan o'yinchi g'olib hisoblanadi.

"Chig'anoqlarni yig'ish" o'yini ingliz bolalari yashash joyi tabiatidan kelib chiqqan o'yindir. Unda dengiz qirg'og'ida sayr qilib, chig'anoqlarning turli shakllari, rangiga ko'ra topishga harakat qilinadi.

Xullas, har bir xalqning milliy jonli tilida yaratilgan bolalar o'yin folklori namunalari lingvokulturmalar turli ko'rinishda ko'p uchraydi. Ularda bolalar hayoti bilan bog'liq milliy-madaniy tushunchalar lingvokulturema bo'lib keladi. Ingliz va o'zbek xalqlarining bolalar o'yinlari ba'zan mavzusi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatidan o'zaro yaqinlik kasb etsa ham, ularda ikkala xalqning til imkoniyatlari, areal belgilari, o'ziga xos urf-odat, an'ana va marosimlarining mohiyati aks etishi jihatidan bir qator tafovutlarga ham ega.

Adabiyotlar

1. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: Фан, 1998. – 96 б.
2. Iona Opie and Peter Opie. The Singing Game. – Oxford university press, 1985. – 544 p.
3. Iona Opie and Peter Opie. The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes. – Oxford University Press, 1997. – 592 p.
4. James William Elliot. National nursery rhymes and nursery songs. – London: George Routledge and sons, 1873. – 110 p.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М.: Издательский центр Академия, 2001. – 208 с.
6. Mother Goose's Nursery Rhymes. A collection of Alphabets, Rhymes, Tales and Jingles. London. George Routledge and sons. – New York: Broome street, 1877. – 320 p.
7. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.–250 б.
8. Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори табиати. – Т.: Фан, 2008. – 120 б.
9. Слишкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Издательский центр "Академия", 2000.
10. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: "Турон замин зиё", 2015.

FITRAT- SHARQ ADABIYOTI TADQIQOTCHISI

Saodat Fayziyeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.028>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotining yirik namoyondasi Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslik asarlaridagi Sharq adabiyoti masalalari, ularga olimning qanday rakursda baho bergani va mulohazalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyotshunosligi, Navoiy, Fitrat, chig'atoy adabiyoti, Yassaviy, Bedil.

ФИТРАТ – ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Саодат Файзиевой,

Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои. электронная почта: saodatfayziyeva@gmail.com

Аннотация: В данной статье с точки зрения ученого и его комментариев анализируются вопросы восточной литературы в творчестве Абдурауфа Фитрата, крупного представителя современной литературы.

Ключевые слова: жадидское литературоведение, Навои, Фитрат, Чигатайская литература, Яссави, Бедил.

FITRAT - RESEARCHER OF EASTERN LITERATURE

Doctoral student of Saodat Fayziyeva

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Annotation: In this article, the issues of Eastern literature in the literary works of Abdurauf Fitrat, a major exponent of modern literature, are analyzed from the perspective of the scientist and his comments.

Key words: jadid literary studies, Navoi, Fitrat, Chigatai literature, Yassavi, Bedil.

XX asr boshlaridagi jahon adabiyotshunosligida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelishni boshladi, chunki endi adabiyot ilmi bir milliy madaniyat doirasidan umumjahon tajribasini o'zida jamlagan estetik tafakkur yig'indisi darajasiga ko'tarildi. O'zbek adabiyoti tarixida bu paytda ma'rifatchilik adabiyotining mantiqiy davomi bo'lgan, shu bilan birga mutlaqo boshqa o'zanni boshlagan jadid adabiyoti davri edi. Jadid adabiyoti davri o'zbek milliy adabiyoti uchun ilk tamal toshini qo'ygan davr bo'ldi. Sababi, aynan mana shu bosqichda adabiyotshunoslik bilan shug'ullangan adabiyot vakillarining qarashlarida asarlarni tom ma'noda ilmiy darajada tadqiq qiladigan, mavjud voqelikka faqat shaxsiy fikr bildirish orqali emas, balki jahon adabiyotshunosligi tamoyillaridan, nazariyalardan kelib chiqib baho beradigan tanqidchilar shakllandi. Abdurauf Fitrat mana shu adabiyotshunoslarning eng old qatoridan joy olgan jadid namoyondalaridan biri edi. U o'z asarlarida jahon adabiyoti qoliplaridan foydalanishga, o'zbek adabiyotining nufuzini ko'tarishga harakat qilib yashagan.

Fitratning adabiyotshunoslik olamidagi faoliyatining boshlanishi, kamolotga yetish davri ham xuddi badiiy ijodni boshlagan davri singari favqulodda qarama-qarshi kuchlar ayni avjiga chiqqan, bir-birini inkor etadigan nuqtayi nazarlar yaqqol ko'zga tashlanadigan murakkab bir davrga to'g'ri keldi. Adabiy tashkilotlarning o'zaro kurashlari yetmaganiday, ularning a'zolari o'rtasida ham ko'z ilg'amas mayda masalalar yuzasidan turli bahs-munozaralar kuchaygan sari milliy matbuot sahifalarida turli mavzularda adabiy bahslar, nazariy mulohazalar ko'paygandan

ko'paydi. Fitratning adabiyotshunos sifatidagi faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, u nafaqat hali prinsiplari to'liq shakllanmagan adabiyot nazariyasi uchun, balki adabiyot tarixi va manbashunoslik sohalari uchun ham ancha mashaqqatli mehnat qilganini ko'ramiz.

Fitratning adabiyotshunoslik bo'yicha yozilgan asarlari ichida ayniqsa, Sharq adabiyoti masalalari muhim o'rin egallaydi. G'arbdagi adabiy jarayondan farqli o'laroq bizda hali ijodkor biografiyasini yaratishunsurlari to'liq shakllanmagan, qaysi asar kimga tegishli ekanligining o'zi ham yillab bahslarga sabab bo'ladigan bir paytda Fitrat adabiyot ixlosmandlarini bir necha Sharq adabiyoti vakillarining shaxsiyati va asarlari bibliografiyasi bilan yaqindan tanishtirdi. Uning Sharq adabiyoti bilan bog'liq tadqiqotlari sirasiga "Mirza Bedil" (Tong. 1920), "Qutadg'u bilig" (1925), "Navoiyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to'g'risida" ("Maorif va o'qitg'uvchi" jurnali 1926-yil, 12-son), "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (1927), "Ahmad Yassaviy" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali, 1927), "O'zbek shoiri Turdi" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali, 1928), "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali, 1928), "Hibbat ul-haqoyiq" ("Maorif va o'qitg'uchi" jurnali, 1928), "Muhammad Solih" (Alanga. 1929), "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash" (Alanga. 1929), "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" (Alanga. 1930), "Mashrab" (1930) kabi maqola, qo'llanma va darsliklarini misol keltirish mumkin.

Fitratning Bedil mavzusiga qo'l urishi XX asrning 10- yillariga to'g'ri keladi, chunki jadidchilikning zamirida, ayniqsa, Buxoro jadidlarining falsafiy qarashlariga ma'lum ma'noda Bedil falsafasi asos bo'lgandir. Shunga qaramay, Fitratning bu mavzudagi maxsus asari 1920-yil "Mirza Bedil" nomli maqola sifatida "Tong" jurnalida (2- son) e'lon qilingan. Bu maqola keyinchalik kattaroq tadqiqotning yaratilishiga asos bo'lgan: Fitrat Moskvada ekan, Bedil ijodi bilan bog'liq yangi manbalarni ko'rish natijasida badiha usulida yozilgan "Bedil (Bir majlisda)" asari tug'ildi. U Nazir To'raqulov so'zboshisi bilan ("Darvesh" imzosi ostida) Moskvada, Millat ishlari Komissarligi qoshidagi markaziy "Sharq" nashriyoti tomonidan arab yozuvida 1923- yilda chop etilgan.

Mumtoz adabiyotning falsafaga bog'langan nuqtasi aynan Bedil ijodida ko'zga tashlanishini Fitrat alohida ta'kidlaydi. Aynan mana shu maqola keyinchalik shu mavzuda yozilgan boshqa maqolalarga, xususan, Miyon Buzruk Solihovning "Bedil" tadqiqotiga asos bo'lgan, deyishimiz mumkin.

Ilm olamida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining ikki nusxasi (Qohira, Vena nusxalari) mavjud edi. Fitratning sa'y- harakatlari tufayli bu asarning uchinchi nusxasi Namanganda topildi va shu munosabat bilan Fitrat "Qutadg'u bilig" nomli maqola yozadi. Ushbu maqola "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 1925- yil 2- sonida chop etilgan. Fitrat bu maqolani yozish bilan cheklanmay, keyinroq birinchilardan bo'lib, o'zining "O'zbek adabiyoti namunalari" (1- jild) majmuasida mana shu buyuk asardan bir necha parchalar e'lon qilgan, uni zamonaviy o'zbek tiliga o'girib, tushunarsiz so'zlar uchun izoh bergan edi.

Maqolada Fitrat avvalo asarning oldingi ikkita nusxasining topilishi haqida ma'lumot beradi. Fitrat topgan nusxani, aslida, eng avval Zaki Validiy ko'rgan edi, ammo u asar nusxasini qo'lga kirita olmagan. Bunga erishgan Fitrat asar nomini "Baxtliklanish bilimi" deb baholagan edi. Bu asarning 3- nusxasi topilishi butun fan olami uchun katta voqea bo'lgan desak, adashmaymiz.

Fitrat qalamiga mansub "Navoiyning forsiy shoirligi i ham uning forsiy devoni to'g'risida" maqolasida, asosan, Navoiyning forsiycha she'rlari va Vadud Mahmudning harakatlari natijasida Muso Saidjonovning shaxsiy kutubxonasidan topilgan shoirning forsiy devoni haqida ma'lumot beriladi. Lekin Fitrat chuqur tekshiruvlar natijasida Foni taxallusi bilan tartib berilgan bu devon Navoiyga tegishli emasligini aniqlaydi. Shuningdek, maqolada olim Navoiyning fors tilida yozgan she'rlari olti ming baytdan iborat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi.

Fitrat 1927- yil "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining 6-7-8- sonlarida hamda 1928- yil 5-6-sonlarida o'zining "Ahmad Yassaviy" va "Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar"

maqolalarini e'lon qilgan. Abdurauf Fitrat ilk maqolasining muqaddimasida “O‘zbek adabiyoti tarixini yozib turg‘onim munosabati bilan Ahmad Yassaviy bilan ancha mashg‘ul bo‘lushg‘a to‘g‘ri keldi...”- deb yozadi. Olimning ushbu so‘zlaridan ham ma‘lum bo‘lmoqdaki, bu ikki maqola uning bir necha yillik izlanishlari, fikr- o‘ylarining mahsuli bo‘lgan.

Fitrat o‘z maqolasida “Ahmad Yassaviy to‘g‘risida matbuotimizda bir- ikki yo‘la gaplar bo‘lub o‘tkan edi” deb yozadi. Fitrat bu gapi bilan XX asr boshida matbuotda e‘lon qilingan rus olimlari N. Mallitskiy, N. Veselovskiy, N. Likoshin, A. Semenov, A. Garritskiy; tatar ziyolilari Oltiaskar Kalinin, Ahmad Sardor va Abdurahmon Sa‘diy kabilarning maqolalarini nazarda tutgan.

Fitrat yuqoridagi maqolalarning ko‘piga tanqidiy ko‘z bilan qaragan: “Ular quruq maxtachlar ham anchagina falsafalardan to‘ldirilg‘an; shuning uchun Ahmad Yassaviyning hikmatlarini bo‘lg‘oni kabi tasvir qilib berish xizmatidan ojiz maqolalar edi”, deganda u bir jihatdan haqli edi. Chunki bu maqolalarning aksari u yoki bu munosabat bilan yozilgan bo‘lib, Ahmad Yassaviy hikmatlarining ma‘no- mohiyati va muallifning tarixiy xizmatlarini to‘la ochib bera olish qudratiga ega emas edi.

“Ahmad Yassaviy” maqolasidan ma‘lum bo‘lishicha, Abdurauf Fitrat tasavvuf ta‘limoti va uning tarixi, Yassaviy yashagan davr, ijtimoiy, ma‘naviy muhit, ulug‘ pirning hayot sahifalari, oilasi, bolaligi, ilm tahsili, yassaviylik tariqatiga asos solishi, “Devoni Hikmat” tarixi, hikmatlarning ma‘no- mohiyati, adabiy qimmat, yassaviylikning ta‘siri, mafkurasi, Ahmad Yassaviyda tasavvuf darajasi kabi masalalarni chuqur o‘rganib chiqqan va bular xususida yangi fikr- qarashlarini bayon etgan. Maqolasini tasavvufga doir umumiy bir kirish bilan boshlar ekan, olim tasavvuf maslagining yuzaga kelishini mustamlakachilarning mahkumlarga qilgan adolatsizliklaridan kelib chiqqan “aksi ta‘sir” bilan bog‘laydi.

Tasavvufning amaliy ko‘rinishi bo‘lgan tariqatlar har birmintaqaning jug‘rofiy va ijtimoiy shart- sharoiti, an‘ana va urf- odatlariga ko‘ra moslashdi va rivoj topdi. Shular qatori Ahmad Yassaviy ham o‘z ona vatanida turkiy xalqlar orasida birinchi bo‘lib yassaviylik tariqatiga asos soldi.

Fitratning mazkur maqolalarini tadqiq etgan U. Jo‘raqulov olimning yuqoridagi fikrlariga shunday qo‘shimcha qiladi: “Bunga (Fitratning fikriga) qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, tasavvuf nafaqat din nomidan qilingan adolatsizliklar natijasida, balki Ollohga va uning rasuliga bo‘lgan chuqur muhabbat tufayli paydo bo‘ldi, rivojlandi”.

Fitrat Ahmad Yassaviyni Xalloy, Bedil kabi “yuqori bosqichdag‘i mutasavviflar” darajasidan emas, balki “zohid” darajasidagi mutasavviflardan sanaydi. Bunga esa Bedil va Hindiy kabi shoirlarning shathiyot turidagi majoziy she‘rlarini, Xalloyning dorga osilish voqeasini misol keltiradi hamda bunday vajd so‘zlarning Ahmad Yassaviyda uchramasligini, uning “so‘fiylar kabi ta‘vilga yondashmasligini, Islomda bo‘lg‘on narsalarning hammasini bo‘lg‘on kabi qabul qilishini” asos qilib ko‘rsatadi. Olim Nodirxon Hasanning fikricha, Fitratning bunday xulosalar chiqarishiga uning sho‘ro mafkurasi bilan murosaga borganligi sabab bo‘lgan.

Fitratning “Yassaviylik tariqatining tarixiy shakllanish va tarqalish jarayonlariga doir kuzatishlari ham diqqatga loyiqdir. Fitratning “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” nomli ikkinchi maqolasi ham yassaviyshunoslikda alohida ahamiyatga molik bir tadqiqotdir. Olim bu maqolasini O‘rta Osiyo turkiy adabiyotining so‘nggi maktablari orasida juda nufuzli, katta o‘rin tutib kelganligini, bu maktab asrlar mobaynida turkiy xalqlar orasida xonaqoh- ibodat adabiyoti sifatida rivoj topib, davom etganligini qayd etish bilan boshlaydi. Fitratning fikricha, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida uchta adabiy maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan birinchisi Ahmad Yassaviy, ikkinchisi Alisher Navoiy va uchinchisi Amir Umarxon adabiy maktablari edi. Yassaviy maktabining narigi maktablardan eng asosiy farqi uning xonaqoh, ya‘ni ibodat adabiyoti bo‘lganligidir. Fitrat Yassaviy izdoshlari haqida gapirar ekan, bir o‘rinda negadir ularning asarlari bugun “maydonda qolmag‘on” deya xulosa chiqaradi. Vaholangki, bugungi tekshirishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Yassaviy maktabiga mansub

ko'plab izdoshlarning ijod namunalari jahon kitob xazinalarida, shuningdek, mamlakatimiz kutubxonalarida ham mavjud. "Devoni hikmat" to'plamlarida Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan bir qatorda o'nlab izdoshlarining she'rlari ham o'rin olgan. Turli to'plam, bayoz va majmualarida Yassaviy izdoshlarining diniy- didaktik mazmundagi ko'plab she'riy qissa, hikoyat, doston, jangnoma, vafotnoma va me'rojnomalarni tez- tez uchratishimiz mumkin. Fitrat Yassaviy va yassaviylik mavzusidagi tadqiqotini yaratishga katta tayyorgarlik ko'rgan. "Devoni hikmat"ning qo'lyozma va toshbosma nusxalarini o'rganib chiqqan. Shulardan xulosa qilsak, Fitratning Yassaviy va yassaviylik maktabi shoirlariga doir mazkur maqolalari ulug' olimi tomonidan XX asr boshida yaratilgan ilk tadqiqot sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolishi shubhasiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat o'zining adabiyotshunoslik faoliyati davomida Sharq adabiyoti bo'yicha e'tiborga molik ishlarni amalga oshirgan, u qaysidir mavzuning ilk tadqiqotchisi o'laroq o'zidan keyingi tadqiqotlarga zamin yaratgan bo'lsa (masalan, "Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to'g'risida" maqolasi e'lon qilinganidan keyin 1926-yilda Bokuda "Navoiy" nomli maqolalar to'plami chop etilgan bo'lib, undan Ismoil Hikmat, Cho'ponzoda, Mirza Muhsin Ibrohimiy kabilarning tadqiqotlari ham o'rin olgan edi, 1928-yilda esa Leningradda "Mir Alisher" nomli kitob bosilgan), qaysidir mavzuda zamondosh olimlarning tadqiqotlaridagi xato va kamchiliklarni tuzatishga harakat qilgan, qaysidir maqolasi bilan keyingi kattaroq ishlari- kitob yoki qo'llanmalar uchun zamin yaratgan bo'lsa, qaysidir tekshirishi bilan adabiyot tarixiga xato ma'lumotlar kiritilishining oldini olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болтабоев Х. XX аср бошлари адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Тошкент: 1996.
2. Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик.- Тошкент: Маънавият, 2000.- Т.2.- 205 б.
3. Фитрат А. Танланган асарлар: 5 томлик. - Тошкент: Маънавият, 2000.- Т. 4.- 334 б.
4. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати.- Тошкент: ТошДУ.
5. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.- Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
6. Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. ИИ жилд.- Тошкент: Фан, 2007.
7. Турдиев Ш., Қориев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. - Тошкент: Фан, 1967.
8. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Аlisher Navoiy davri). - Тошкент: Академнашр, 2013.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BAXT KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Haydarov Anvar Askarovich,
BuxDu professori

Yodgorova Maftuna Ulug'bekovna,
I bosqich magistr
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.029>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzularidan birikonsept tushunchasi hamda baxt konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda ifoda etilishi yoritilgan. Harbirmillatda konseptlar o'sha xalq urf-odatlarini, an'analari, dini va tilidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Ammo ba'zi tushunchalar umumiy ma'no kasb etishi ham mumkin. Quyida shunday konseptlardan biri baxt konseptining ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilamiz. Kalit so'zlar: konsept, frazeologizm, ibora, metafora, milliylik, milliy-madaniy.

ОТРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТ СЧАСТЬЯ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Хайдаров Анвар Аскарлович,
БГУ профессор

Едгорова Мафтунa Улугбековна,
БГУ магистр

Аннотация. В данной статье освещается одна из актуальных тем сегодняшнего дня концепт, а также выражение концепт счастье во фразеологизмах на английском и узбекском языках. В каждой нации концепт различаются в зависимости от обычаев, традиций, религии и языка этого народа. Но некоторые концепты также могут иметь общее значение. Ниже мы разберем одно из таких концепты счастья на английском и узбекском языках. Ключевые слова: концепт, фразеологизм, словосочетание, метафора, национальностью, национально-культурная.

EXPRESSION OF THE CONCEPT OF HAPPINESS IN PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Haydarov Anvar Askarovich,
BSU professor

Yodgorova Maftuna Ulugbekovna,
1st grade Master student

Abstract. This article covers the notion of concept, which is one of the relevant topics of today, and the expression of the concept of happiness in phraseological units in English and Uzbek. In each nation, concepts are differentiated based on the customs, traditions, religion, and language of that people. But it is also possible that some concepts acquire a common meaning. Below we will analyze the concept of happiness in English and Uzbek languages.

Keywords: concept, phraseologies, phrase, metaphor, nationality, national-cultural

Kirish. Bugungi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri – konseptdir. Konsept atamasi XX asrning 90-yillariga kelib keng qo'llanila boshlagan. U tushuncha so'zi bilan ma'nodosh bo'lsada, ayrim holatlarda bir-biri bilan farqlanadi va kengroq ma'nolarni o'zida ifoda etadi. Konsept nafaqat iyerarxik tizimning lingvomadaniy sohalariga asoslanib qolmay, balki biror bir xalq madaniyatini o'zida aks ettiradi. Konsept – insonning bilim va tajribasi namoyon bo'ladigan va u bilan o'z faoliyatini ko'rsatadigan abstrakt birlikdir. Kognitivtilshunoslikinsonningtafakkuriqandayrivojlanishinio'rganadi. Dolzarbliigi. Dunyoni tushunish va uni til orqali o'rganishni tadqiq etuvchi sohadir.[4;45] So'zlar ularning ma'nolari va ularningkonseptlarma'nolariorqalimunosatini o'rganadi.Zamonaviykognitivtilshunoslikning vujudgakelishiamerikalikolimlarJ.Miller,J.Bruner,J.Lakoff,R.Langakervaboshqalarningilmiy ishlaribilanbog'liq. Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasidir.Tilshunoslikda “konsept” atamasiXXasrningbirinchiyarmidapaydobo'ldi.Hozirgaqadarushbuatama uchun yagona izoh tilshunoslikda mavjud emas.N.D.Artyunovaning fikricha, “Konsept insonni o'rab turgan olamni anglashnatijasidaorttirilganbilimlariyg'indisivatajribasidamavhumbirlikninamoyon etadi”.Harbirmillatda konseptlar o'sha xalq urf-odatlarini, an'analari, dini va tilidan kelib chiqqan holda farqlanadi.[6;22]

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlarga ko'ra “Baxt” konseptini kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. Baxt terminiga o'zbek tili izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: Baxt- kishining o'z faoliyat natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu umidning ushalihi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy ahloqiy tushuncha. [3;178] Boshqa ma'nosi esa, hayot (turmush)dan to'la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut. El-yurt saodati, butun insoniyat farog'ati haqida qayg'urish insonni baxt tomon yetaklaydi. Baxt havoda esmaydi, u ko'p mehnat qilgangagina nasib etadi, Har bir shaxs o'z baxt-saodati ijodkoridir. Baxtiyorlik hamma uchun bir qolip va andoza bo'lavermaydi. Uni inson o'z ilmi, dunyoqarashi, tushunchasi va e'tiqodiga ko'ra belgilaydi. Baxtni bir ma'noda “Inson orzularining ushalihi” deb talqin etish mumkin.”[7;85] Baxt leksemasiningvariant aspekti invariant jihatidan keng.Ya'nibaxtso'zininginvarianti“kishininghayotdanto'laqoniqishholati” bo'lsa,insonlarninghayotdanto'laqoniqayotganlarinibilishdarajalariturlikanligihisobigavariantlarihamko'p:“baxt – sog'lik”, “baxt – mavjudlik”, “baxt – sevgi”, “baxt – xotirjamlik”, “baxt – oila”, “baxt – bu xursandchilik” kabi. Ushbu fikrimizni dalillashi mumkin bo'lgan quyidagi matnga e'tibor qarating: Agar baxt haqida o'ylasam, o'sha uyimizni ko'p eslayman. Bittagina xonada yashardik. Biz uchun hech qanday g'am-tashvish yo'q edi. O'sha shirin damlardan o'tadiganini men hali uchratgim yo'q. Senam shuni hech o'ylaysanmi?[2;18-30]

Baxt, madaniyatlar va tillardan ustun bo'lgan qiyin, ammo qadrlil tuyg'u, turli xil lingvistik landshaftlarda turli shakllarda o'z ifodasini topadi. Belgilangan ma'nolarga ega so'zlar va iboralardan tashkil topgan ushbu birliklar jamiyatning qadriyatlarini, e'tiqodlari va ustuvorliklari to'g'risida tushuncha beradi. Til jamiyatning qadriyatlarini va ustuvorliklarini aks ettiruvchi oyna bo'lib xizmat qiladi. Frazeologik birliklar yoki idiomatik iboralar madaniy tushunchaning boy manbaidir. Masalan, ingliz tilida «on cloud nine» yoki «walking on sunshine» kabi iboralar insonning baxtdan porlayotgan holatlari yoki yorqin hayot tajribalari bilan bog'liqligini yorqin aks ettiradi. Ko'pgina frazeologik birliklarda baxtning mohiyatini yetkazish uchun metafora va yorqin tasvirlar qo'llaniladi. Baxt bilan bog'liq frazeologik birliklar ko'pincha farovonlik atrofida ijtimoiy tuzilmalar va umidlarni aks ettiradi. Baxt, hamma tomonidan orzu qilinadigan holat, ingliz tilida turli yo'llar bilan o'z ifodasini topadi. Ushbu lingvistik landshaftning maftunkor jihatlaridan biri bu baxtning mohiyatini yorqin qamrab oladigan frazeologik birliklarning ko'pligi, rang-barang idiomatik iboralarning mavjudligidir. Baxt haqida gap ketganda, bu evfemizmlar ko'pincha tilga olinadi:

“Tickled pink”- I suggest picking some flowers for your girlfriend. I'm sure she'll be tickled pink and she won't refuse your proposal.[1;45]

«On cloud nine»- He was on cloud nine after she agreed to marry him. kabi iboralar

quvonch va shodlikning yorqin holatlarini ifodalaydi. Bu iboralar nafaqat baxt tuyg'usini bildiradi, balki kundalik suhbatga quvonch hissini ham qo'shadi. Metaforalar tildagi emotsional-ekspressivlikni kuchaytiruvchi vositalar bo'lib, murakkab his-tuyg'ularni yorqin tasvirlar orqali yetkazishga imkon beradi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash his-tuyg'ular "boshi ko'kka yetdi", "do'ppisini osmonga otdi" kabi idiomatik iboralar orqali ifodalanadi. Bu iboralar insonlarning baxtdan porlayotganini aks ettiradi, quvonch va minnatdorchilik lahzalarini qadrlash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu lingvistik birliklar o'zbek dunyoqarashi haqida tushuncha beradi, baxt, osoyishtalik va quvonch bilan to'la hayotga bo'lgan chuqur istakni ochib beradi. Baxt tushunchasini ingliz va o'zbek tillarida ifodalashda metafora va ramziylik kuchli rol o'ynaydi. Ingliz tilida «in seventh heaven» yoki «on top of the world» kabi iboralar iliqlik, yorqinlik va ijobiylik tuyg'ularini uyg'otish uchun metaforadan foydalanadi. Ushbu metaforalar baxtning o'zgaruvchan kuchini ta'kidlab, hayotimizni quvonch va nur bilan yoritadi. O'zbek tilida shunga o'xshash his-tuyg'ular "baxt dengizida suzish" yoki «baxtdan sarmast» kabi metaforik iboralar orqali ifodalanadi. Baxtning ifodasi tillar va madaniyatlarda turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi mavzular va motivlar universal bo'lib qolmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida baxt ifodalari ko'pincha sevgi, do'stlik va oilaviy hotirjamlik mavzularida aylanadi. Yaqinlaringiz bilan vaqt o'tkazish quvonchi bo'ladimi yoki o'z maqsadlariga erishishdan qoniqish bo'ladimi, baxt-bu lingvistik va madaniy chegaralardan oshib ketadigan umuminsoniy tajriba. Ingliz tili frazeologik birliklarning butun guruhini "baxtli vaqt, hayotdagi baxtli vaqt" umumiy ma'nosiga ega bo'lib, har bir alohida frazeologik birlikda ko'rsatilgan, baxtli kun, baxtli ikki hafta, baxtli daqiqa, baxtli vaqtni bildiradi: day out –eng yaxshi kun (hayotdagi); g'alaba kuni halkyon kunlari -sokin, osoyishta kunlar, baxtli vaqt [halcyon -qirollik; bu. qadimiy rivoyatga ko'ra, qirol baliqchi qishki kun to'xtashi paytida dengizda suzib yurgan uyada jo'jalarini chiqargan va o'sha paytda dengiz taxminan ikki hafta davomida butunlay tinch edi]; a high spot –baxtli daqiqa, ajoyib voqea; red-letter day (qizil harflar bilan belgilangan kun)-tantanali, quvonchli, baxtli, unutilmas kun [asl. kalendarida qizil rang bilan belgilangan davlat bayrami]; sweet seventeen –baxtli qiz vaqti (o'n etti yosh). [5;201]

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida baxt ifodasi insonning his-tuyg'ulari va kechinmalari haqida ajoyib tasavvur beradi. Iboralar, madaniy tushunchalar, metafora va ramziylik orqali biz baxtning mohiyatini barcha murakkabligi bilan qamrab olamiz. Tillar va madaniyatlararo baxtga intilish abadiy va universal izlanish bo'lib qoladi va bizni quvonch, mamnunlik va qoniqish bilan to'la hayotga bo'lgan umumiy istagimizda birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Fictional character: Vincent Crummies". "Nicholas Nickleby", www. imd.com.2002. 45p.
2. Hakimova, M. K. 2021. "Abstract nouns meaning «situation state» in uzbek". Uzbekistan: Language and Culture 2: 18-30b.
3. O'zbek Tilining Izohli Lug'ati (B) "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.-1996.178b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax. Sangzor nashriyoti.2006, 45b.
5. The Pan Dictionary of Synonyms and Antonyms/ed. by L. Urdang, M. Manser. London; Syd-ney: Pan Books: Laurence Urdang Inc. 1980. 201p.
6. Tursunov, M. (2022). Proverb as an essential lexical unit representing national culture and identity. Центр научных публикаций (buxdu.Uz) 22b.
7. Z.M. Magrfova O'zbek tilining izohli lug'ati. M.-1981. 85b.

SO'ZLARARO MA'NOVIY MUNOSABAT TURLARI (ANTONIMIYA HODISASI MISOLIDA)

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti professori

Barnoyeva Madinabonu Akbarovna
I bosqich magistr
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.030>

Annotatsiya: Ushbu maqolada voqea konteksti misolida o'rganilgan antonimiya hodisasiga asosiy e'tibor qaratilib, og'zaki so'z munosabatlari mavzusi ko'rib chiqiladi. Mualliflar so'z o'zaro munosabatlarining turli ko'rinishlariga, jumladan, antonimiyaga e'tibor beradilar va ularni muayyan voqealar kontekstida tadqiq qiladilar. Antonimlarning aloqaning turli sohalarida va turli vaziyatlarda qo'llanilishiga misollar keltirilgan. Maqolaning maqsadi - antonimiya hodisasini voqealar kontekstida tahlil qilish va uning ma'no va auditoriyaga ta'sirini shakllantirishdagi rolini aniqlash. Olingan natijalar lingvistik aloqa mexanizmlarini tushunish va turli xil ma'no soylarini etkazish uchun og'zaki vositalardan foydalanish uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: so'z o'zaro munosabat, antonimiya, hodisa konteksti, lingvistik aloqa, verbal vositalar, semantik soylar, leksik komponentlar, so'z o'zaro munosabatlari, hodisa konteksti, lingvistik antonimiya

ТИПЫ МЕЖСЛОВЕСНЫХ СЕМАНТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ЯВЛЕНИЯ АНТОНОМИИ)

Хайдаров Анвар Аскарлович
профессор Бухарского государственного университета

Барноева Мадинабону Барноева
магистр I курса

Аннотация: В данной статье рассматривается тема словесных междусловных отношений, с основным фокусом на явлении антонимии, исследуемом на примере событийного контекста. Авторы обращают внимание на различные типы межсловных отношений, включая антонимию, и исследуют их в контексте конкретных событий. Приводятся примеры использования антонимов в различных сферах коммуникации и в разнообразных ситуациях. Целью статьи является анализ явления антонимии в контексте событий и выявление его роли в формировании смысла и воздействии на аудиторию. Полученные результаты могут быть полезны для понимания механизмов языковой коммуникации и использования словесных средств для передачи различных смысловых оттенков.

Ключевые слова: словесные междусловные отношения, антонимия, событийный контекст, языковая коммуникация, словесные средства, смысловые оттенки, лексические компоненты, междусловные отношения, контекст событий, языковая антонимия

TYPES OF SEMANTIC RELATIONSHIPS BETWEEN WORDS (AS AN EXAMPLE OF THE PHENOMENON OF ANTONYMY)

Haydarov Anvar Askarovich,
professor at Bukhara state university

Barnoeva Madinabonu Akbarovna,
master's degree student

Abstract: this article explores types of semantic relationships between words, with a primary focus on the phenomenon of antonymy examined within the context of events. The authors pay attention to various types of interword relations, including antonymy, and investigate them

within the framework of specific events. Examples of antonymy usage in different spheres of communication and diverse situations are provided. The aim of the article is to analyze the phenomenon of antonymy in the context of events and identify its role in shaping meaning and influencing the audience. The obtained results can be valuable for understanding the mechanisms of language communication and the use of verbal means to convey different shades of meaning.

Keywords: interword semantic relations, antonymy, event context, linguistic communication, verbal means, shades of meaning, lexical components, interword relations, event context, linguistic antonymy.

Kirish. Tilshunoslikda, antonimiya kontekstda so'zlararo semantik bog'lanish jihatlarini o'rganishning muhimligi bilan dolzarblik kasb etadi. Antonimiya so'zlarning ma'nolarini qarama-qarshi qo'yish hodisasi sifatida har qanday tilning lug'at tarkibini tuzishda asosiy rol o'ynaydi va dunyoning lingvistik rasmini tushunishning asosiy elementidir.

Antonimik munosabatlarni o'rganish lingvistik tashkilot mexanizmlari, shuningdek, turli tillarda qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash usullarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu nazariy tilshunoslik uchun ham, tarjima, chet tillarini o'qitish va hisoblash tilshunosligi kabi amaliy sohalar uchun ham muhimdir.

So'zlararo semantik munosabatlar kontekstida antonimiyani tahlil qilish madaniy idrok va tafakkurning xususiyatlarini ochib berishi mumkin, chunki antonimik juftliklar ko'pincha ma'lum bir til hamjamiyatiga xos bo'lgan asosiy kontseptual qarama-qarshiliklarni aks ettiradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan mavzuni o'rganish lingvistik semantikaning universal va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi. Antonimiya nazariyasi doimiy ravishda takomillashtirilib, rivojlanib boradi, chunki tilning butun tizimi ham uzluksiz rivojlanib boradi. Ayniqsa, tilning leksik tizimi o'zgarishlarga uchraydi. So'zlarning, frazeologik birliklarning har qanday o'zgarishi yoki so'zning yangi iborada qo'llanilishi yangi antonimik qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga va so'zning qarama-qarshi ma'nosini yo'qotishiga yoki so'zning butunlay yo'qolishiga olib keladi. Tilda antonimik juftlarning bir qismi o'zgaradi. Shunga qaramay, yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishi va polisemiyaning rivojlanishi tufayli antonimiya doimiy ravishda boyib boradi.

Antonimiya sohalari yagona semantik asosga ega - bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar yoki iboralar semantikasi orqali hosil bo'lgan ma'no va ma'nolarning qarama-qarshiligi.

E.R.Mardiyeva "Rus tilidagi frazeologik antonimlar lug'atini tuzish tamoyillari" nomli dissertatsiya ishida [6]. frazeologik antonimlarni o'z ichiga olgan lug'atlarni yaratish metodikasiga e'tibor qaratadi. Uning yondashuvi tilning dinamik tabiatini hisobga olish muhimligini va antonimik munosabatlarning hozirgi holatini aks ettirish uchun lug'atlarni doimiy ravishda yangilab turish zarurligini ta'kidlaydi.

A.N.Tixonov va S.A.Emelyanovanning "Antonimlar va so'z yasalihi" ishlarida [9] antonimiya va so'z yasalihi jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganiladi. Mualliflar so'z yasalihi mexanizmlari antonimlarni yaratishga qanday hissa qo'shishini va bu lug'at rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini muhokama qiladilar.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklar va antonimiyani o'rganishga o'zbek olimlari, jumladan, Sh.Rahmatullaev, K.Bozorboyev, A.Mamatov, N.Abbosxon va B.Yo'ldoshev [1,2,5,12] katta hissa qo'shganlar. Ularning ishlarida madaniy va lingvistik xususiyatlar antonimik juftlarning shakllanishiga qanday ta'sir etishi, bu juftliklar o'zbek lug'at va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Boshqa manbalarga murojaat qilinsa, jumladan, ingush tilining lingvistik terminologiyasi sohasida antonimiya eng keng tarqalgan semantik hodisalardan biri bo'lib, lingvistik tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligi va murakkabligini aks ettiradi. Ilmiy tadqiqotlar [10] ta'kidlaganidek, terminologiyadagi antonimiya fandagi zarur va muqarrar hodisalarni ifodalash vositasiga aylangan. Ingush tilining lingvistik terminologiyasidagi antonimik munosabatlar umumiy adabiy lug'atdagi o'xshash munosabatlardan hech narsa

bilan farq qilmaydi. Xuddi lug'atda bo'lgani kabi, terminologiyada atamalarning semantik qarama-qarshiligi va grammatik o'zaro bog'liqligi hisobga olinadi.

Antonimlar asosidagi qarama-qarshilik nafaqat leksik birliklarning semantik xususiyatlaridan kelib chiqadi, balki obyektiv olamdagi qarama-qarshiliklarni ham aks ettiradi. Antonimiya terminologiyaga ham umumiy adabiy lug'atdan kam emas, balki undan ham ko'proq xosdir. Bu antonimik munosabatlarning o'ziga xosligini belgilovchi ilmiy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

Antonimlar o'z ma'nosi uchun eng umumiy va muhim semantik xususiyatga ko'ra qarama-qarshi bo'lgan va tegishli leksik-semantik paradigmaning chekka nuqtalarida joylashgan so'zlar deb tan olinishi mumkin. Antonimiya hodisasi terminologik lug'atga xos bo'lib, terminologiyada umumiy lug'atdagidan kam bo'lmagan antonimlar mavjud. Bu tushunchalarning qarama-qarshiligi narsa va hodisalarni ilmiy tavsiflashning muhim qismi bo'lib, ularning xossa va sifatlarini o'lchash va tavsiflash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Terminologiyada antonimiyaning paydo bo'lishining zaruriy shartlari sifatida tilda aks ettirilgan mantiqiy va antonimik ma'nolarda qarama-qarshi tushunchalarda namoyon bo'ladigan muhim farqlarning mavjudligi ajralib turadi. Qarama-qarshi, ammo solishtirma tushunchalarni ifodalovchi so'zlar antonimlardir. Ularni qarama-qarshilik xususiyatiga ko'ra turli sinflarga, jumladan, sifat, to'ldiruvchi va qarama-qarshi harakat yo'nalishlariga bo'lish mumkin.

Antonimiya sohasidagi tadqiqotlar, ayniqsa, o'zbek tili kontekstida olib borilgan tadqiqotlarda antonimik munosabatlarning statik emasligi, madaniy va til o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Bu esa tilning doimo o'zgarib turadigan tabiatini hisobga olgan holda leksikografiya va til tahliliga dinamik yondashishning ahamiyatini kuchaytiradi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot boshida ma'lumotlar turli manbalardan, masalan, lingvistik ma'lumotlar bazalari, lug'atlar, matnlar va ilmiy maqolalardan to'plangan. Shundan so'ng, klassik va zamonaviy tadqiqotlar, shuningdek, rus va o'zbek tillaridagi manbalarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning tizimli tanlanishi amalga oshirildi.

Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, qiyosiy tadqiqot usullarini qo'llash, shuningdek, matnni sifat va miqdoriy tahlil qilish kabi tahlillar o'tkazildi. Ma'lumotlar tasniflangan, ularning semantik va tarkibiy xususiyatlari o'rganilgan.

Olingan natijalar antonimiya va frazeologiyaga oid nazariy tushunchalarni, shuningdek, zamonaviy lingvistik yondashuvlarni hisobga olgan holda sharhladi. Tahlil natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun ma'lumotlar va tekshirish usullari, jumladan, tilshunoslik sohasidagi mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar qo'llanildi.

Natijalar va uning muhokamasi. Antonimiya, antonimlarning qarama-qarshi munosabatlariga qurilgan frazeologik ifodalardan biri. Bu iboralarning ayrimlari leksik antonimlar yordamida ifodalangan. Masalan, «daryoga ho'l olib borib, quruq qaytarib keladi», «yegani oldida, yemagani ortida», «it yotish, Mirza turish», «kulidan kirib, kosovidan chiqadi», «oq it kirib, qora it chiqadi» va boshqalar. Qiyoslang: ho'l-quruq, oldida-ortida, yotmoq — turmoq, kirmoq-chiqmoq. Boshqa frazeologik antonimlar tarkibida mavjud emas. Masalan, «dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi», «men bog'dan kelsam, u tog'dan keladi», «ninaning uchidek gap bo'lsa, tuyadek qiladi», «yuzi kulsa ham ichi kuyadi», «osmonga chiqsa oyog'idan, yerga kirs qulog'idan tortaman» va hokazo. Bunday misollarda antonimiya frazeologik birlikdan qo'sh leksik ma'no asosida farqlanadi.

Antonimik frazeologik birliklar juftligi orqali hosil bo'lgan antonimiya ikki mustaqil frazeologik birlikning qarama-qarshi ma'nolari o'rtasidagi munosabat natijasida vujudga keladi. Masalan, «dunyoga kelmoq — dunyodan ketmoq», «gapida turmoq — so'zidan qaytmoq» va hokazo. O'zbek so'zlashuv nutqining frazeologik birliklarini o'rgangan olim K.Bozorboyev o'zaro antonimik frazeologik birliklar ana shu frazeologik birliklar tarkibiga kirgan alohida leksik ma'nodagi antonimik so'zlar asosida aniqlanadi, deb ta'kidlagan.

Ba'zan antonimiya frazeologiyada bir xil leksik komponentlardan tashkil topgan frazemalar turkiy tillarga xos bo'lgan inkor ma'noli (-ma) affiksi yordamida aniqlanishi mumkin bo'lganda ham uchraydi. Bunga misollar keltiramiz:

Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar.

Bilsa hazil, bilmasa chin.

Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi.

Ko'zi qiydi — ko'zi qiymadi.

Bunday antonimik frazemalarda leksik komponentlar takrorlanmaydi. Masalan, «istarasi issiq» bu narsa tashqi ko'rinishida yoqimli bo'lganda, «so'xtasi sovuq» jozibalilikni bildiradi. Masalan:

Ko'kka ko'tarmoq — erga urmoq.

Hayoliga kelmoq — yodidan ko'tarilmoq.

Qarama-qarshi obraz va hodisalar asosida tuzilgan frazeologik birliklar ham mavjud.

Masalan:

Sho'rqishloqliklar fe'li qattiq, ko'ngli yumshoq xalq, so'ka turib alqaydi, ura turib yig'laydi.

Bu misollar antonimik frazeologik birliklarning qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashi hamda hodisa va obrazlardagi tizim ichidagi munosabatlar va ziddiyatlarga asoslanishini ko'rsatadi.

Xulosa. Frazeologik antonimlar leksik antonimlardan faqat frazemalarning asosiy komponentlari doimo bevosita antonimik munosabatda bo'lavermasligi, balki umumiy frazeologik ma'noning antonimik ma'noga mos kelishi bilan ham farqlanadi. Bu xususiyat leksik antonimlarga qaraganda frazeologik antonimlarni tushunishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, frazeologik antonimlar tilda leksik antonimlarga nisbatan kam uchraydi, bu ularni o'rganish va tahlil qilish zaruratini taqazo etadi.

Frazeologik antonimlar ularga bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlarni aniq va ifodali etkazish va qahramonlarning xarakterini ochish, shuningdek, sodir bo'layotgan voqealarning mohiyatini ta'kidlash imkonini beradi. Frazemalarning antonimiyasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ularning lug'aviy tarkibining doimo o'zgarib, til jamiyati konteksti va ehtiyojlariga moslashib borishidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilidagi frazemalarning antonimiyasidagi o'zgarishlarni o'rganish muhimligini qayd etgan holda B. I. Boltayeva va F. X. Shukurova kabi olimlarning ilmiy xulosalariga qo'shilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abbosxon N. Sho'rqishloq. — T. : 1999. — B.15-18
2. Bozorboyev K. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari. Filologiya fanlari nomzodi diss...avtoreferati. Samarqand, 2001. — B.12-15
3. Kononov A. N. Zamonaviy o'zbek adabiy tili grammatikasi. — M., L.: 1960. — B.30-35
4. Mamasoliyev I. U. Antonimik guruhlar va ularni maktabda o'rganish // Til va adabiyotni o'qitish. — T. : 2001. №2. — B.60-65
5. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shaklanishi masalalari. Filologiya fanlari doktori diss...avtoreferati. 2000. — B.32-34
6. Mardiyeva E. R. Rus tilining frazeologik antonimlari lug'atini tuzish tamoyillari. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. — Ufa.: 2003. — B.88-93
7. Oymomaning qirq ertagi. — T. : 2013. — B.5-10
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. — T. : 1978. — B.34-39
9. Tixonov A. N., Emelyanova S. A. Antonimlar va so'z yasalishi. // Rus va umumiy tilshunoslik masalalari. — T. : Toshkent universitetining ilmiy asarlari to'plami. 1976. № 50. — B.22-27
10. Vinogradov V. V. Rus tili. So'zning grammatik ta'limoti. — M.: Fan, 1986. — B.45-51
11. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeolog birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori diss...avtoreferati. — T. : 1993. — B.28-32

WAYS OF EXPRESSION OF SIMILE IN THE ENGLISH LANGUAGE AND GENERAL NOTIONS ON STYLISTIC DEVICES

*Hikmatova Aziza Quvvat qizi,
the second year student of BSU*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.031>

Abstract: This article describes simile in the English language and gives general notions on stylistic devices; theoretical information represented by the author is proved by means of the examples presented.

Key words: style, correspondence, language, theory, communication, construction, function, meaning, context, transfer, connotation, additional meaning, text.

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilida o'xshatishni tavsiflaydi va stilistik qurilmalar haqida umumiy tushunchalarni beradi; muallif tomonidan taqdim etilgan nazariy ma'lumotlar keltirilgan misollar orqali isbotlangan.

Kalit sózlar: uslub, o'xshashlik, til, nazariya, aloqa, qurilish, vazifa, ma'no, kontekst, ko'chirish, konnotatsiya, qo'shimcha ma'no, matn.

Аннотация: В этой статье описывается сравнение в английском языке и даются общие представления о стилистических приемах; теоретическая информация, изложенная автором, подтверждается посредством представленных примеров.

Ключевые слова: стиль, соответствие, язык, теория, коммуникация, конструкция, функция, значение, контекст, передача, коннотация, дополнительный смысл, текст.

Introduction. The word style is derived from Latin word “stylos” which meant a short stick sharp at one and flat at the other used by Romans for writing on wax tablets. Now the word “style” is used in so many senses that it has become a breeding ground for ambiguity. The word is applied to the teaching of how to write a composition, its also used to reveal the correspondence between thought and expression; it frequently denotes an individual manner of making use of language, it sometimes refers to more general, Abstract notions thus inevitably becoming vague and obscure, for example, “Style is the man himself”, “Style is depth”, “Style is deviations”, “Style is choice” and others.

All the ideas directly or indirectly bear on issues in stylistics. Some of them become very useful by revealing the springs which make up utterance emphatic, effective and goal-directed. It will therefore not come amiss to quote certain interesting observations regarding style made by different writers from different angles. Some of the observations are dressed up as epigrams or sententious maxims like the ones quoted above.

Methods of investigation. Some linguists consider that the word “style” and the subject of linguistics confined to the study of the effects of the message, its impact on the reader. Thus Michael Riffaterre writes that “Stylistics will be linguistics of the effects of the message, of the output of the act of communication, of its attention – compelling function”. This point of view has clearly been reached under the influence of recent developments in the general theory of information. Language being one of the means of communication, is regarded in the above quotation from a pragmatic point of view. Stylistics in that case is regarded as a language science which deals with the results of the act of communication.

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.034>*

Annotatsiya. Ta'lim jarayonining asosini o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil qilish belgilab beradi. Ta'lim jarayonini boshqarish, o'quvchilarni to'g'ri yo'lga boshlash, ularda bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshirish, ta'lim va tarbiya jarayonini uzviy ravishda birgalikda olib borgan holda har bir o'quvchidan yurt koriga yaraydigan yetuk kadr tayyorlash o'qituvchi faoliyatining asosini tashkil etadi. Pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, albatta, o'qituvchidan ko'p mashaqqatni talab etadi. Bir jarayonning o'zida ko'p funksiyani birdaniga bajarish uchun o'qituvchida yetarli mahorat, kasbiy sifatlar bo'lishi lozim. Mehnat bozorida talabgir o'qituvchini shakllantirishda kasbiy kompetensiya muhim ahamiyatga ega. Zero, kasbiy kompetensiyasi yaxshi shakllangan pedagogda pedagogik mahorat yuqori bo'ladi. Kasbiy faoliyatini mukammal tarzda tashkil etadi. Shu bilan birgalikda, jarayonga doir har bir bo'g'inni standartlarga asosan bajarish bilangina cheklanib qolmay, doimo yangilik kiritishga, jahon andozalarini chuqur o'rgangan holda amaliy jarayonda tadbir qilishga harakat qiladi. Mazkur maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda qanday metod, topshiriqlardan foydalanish yuqori samara berishi yoritib beradi. Metod, vosita va topshiriqlardan foydalanish to'g'risida metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, metod, topshiriq, usul, vosita, "Assesment" metodi, "Insert" metodi, "Muammoli vaziyat" metodi, integrativ-kognitiv topshiriq.

МЕТОДЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Каримова Камола Комил кизи

*Факультет дошкольного и начального образования, докторант по специальности
теория и методика воспитания и обучения (начальное образование).*

Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация. Основа образовательного процесса определяется правильной организацией совместной деятельности преподавателя и учащихся. Управление учебным процессом, наведение учащихся на правильный путь, повышение их энтузиазма к учебе, подготовка из каждого учащегося зрелых кадров, пригодных для работы страны, при совместном проведении процесса обучения и воспитания является основой деятельности учителя. Правильная организация педагогической деятельности, безусловно, требует от учителя больших усилий. Чтобы выполнять сразу множество функций в одном процессе, преподаватель должен обладать достаточными навыками и профессиональными качествами. Профессиональная компетентность имеет важное значение в формировании востребованного на рынке труда педагога. Ведь педагог со сформированной профессиональной компетентностью обладает высоким педагогическим мастерством. Прекрасно организует свою профессиональную деятельность. При этом он не ограничивается выполнением каждого этапа процесса по стандартам, а всегда старается внедрять инновации, применять мировые

стандарты в практическом процессе. В данной статье объясняется, как использование методов и заданий может быть высокоэффективным в развитии профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. Даны методические рекомендации по использованию методов, инструментов и задач.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, метод, задание, метод, инструмент, метод «Ассесмент», метод «Инсерт», метод «Проблемная ситуация», интегративно-познавательное задание.

METHODS, METHODS AND TOOLS OF PROFESSIONAL COMPETENCE IMPROVEMENT IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Karimova Kamola Komil qizi,

Pre-school and primary education faculty, doctoral student, majoring in the theory and methodology of education and training (primary education).

Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. The basis of the educational process is determined by the correct organization of the joint activities of the teacher and students. Management of the educational process, starting the students on the right path, increasing their enthusiasm for learning, and preparing a mature staff suitable for the work of the country from each student, while conducting the education and upbringing process together, is the basis of the teacher's activity. The correct organization of pedagogical activities certainly requires a lot of effort from the teacher. In order to perform many functions at once in one process, the teacher must have sufficient skills and professional qualities. Professional competence is important in the formation of a teacher in demand in the labor market. After all, a pedagogue with well-formed professional competence has high pedagogical skills. He organizes his professional activities perfectly. At the same time, he does not limit himself to carrying out every step of the process according to the standards, but always tries to introduce innovations, to apply the world standards in the practical process. This article explains how the use of methods and tasks can be highly effective in developing professional competence of future primary school teachers. Methodical recommendations on the use of methods, tools and tasks were given.

Keywords: professional competence, method, assignment, method, tool, «Assessment» method, «Insert» method, «Problem situation» method, integrative-cognitive assignment.

KIRISH. Millat ravnaqi va insoniyat kamolotini belgilab beruvchi yetakchi tamoyillaridan biri ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatdagi maktab ta'limini tubdan yaxshilash, samaradorligini oshirish, muallimga munosib shart-sharoit yaratish borasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dolzarb masalalardan biri o'quvchilardagi bilim sifatini oshirish bilan birgalikda ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni yuqori saviyada shakllantirish bo'lib bormoqda. O'quvchiga jarayonning subyektivi sifatida qarash, ularning har bir muammosi, imkoniyatini chuqur tahlil qilgan holda ular bilan jarayonga kirishish muhim masala sanaladi. Jahon standartlariga munosib javob bera oladigan o'quvchini tarbiyalashda o'qituvchining o'rni beqiyos. Shu jihatni inobatga olgan holda, maktabdagi ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan muhim mezon sifatida o'quvchi shaxsini mukammal tarzda shakllantirish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ulardagi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni ko'rsatishimiz mumkin. Zero, oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lg'usipedagogning kasbiy kompetensiyasi hamda kasbiy mahoratlarini shakllantirib berish uchun yetarli shart-sharoit yaratish maktab ta'limi yaxshilanishiga, davr talabiga mos ta'lim oluvchini yuzaga keltirishda katta xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Bugungi kun o'qituvchisi mutaxassis, ham o'rgatuvchi,

ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni, o'z ustida tinimsiz ishlashi, doim izlanib yashashi kerak",- deya aytgan so'zlari ham pedagoglar faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilayotgan har bir jarayonni yana bir bor tasdiqlaganini ko'rishimiz mumkin.


Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham pedagogda kasbiy kompetensiya, mahoratni takomillashtirish uchun ma'lum miqdorda asos bo'lib xizmat qiladi.

METODLAR

Kasbiy kompetentlikni egallashda o'z ustida ishlash va shu bilan birga o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash mezonlari orqali o'zini-o'zi rivojlantirishning vazifalari belgilanadi. Zero, o'z ish faoliyatini xolisona o'zi tahlil qila olgan va baholay bilgan pedagoggina ko'pgina yutuqlarga erisha oladi. Ish faoliyatini samarali tarzda tashkil eta oladi.

O'z ustida ishlash deganda, ma'lum bir shaxs yoki mutaxassisning o'zini ijtimoiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirishi, kamolotga erishish maqsadida izchil, muntazam, tizimli harakat qilishni tushunish mumkin.

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi.(1-rasm)



1-rasm. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik.

Ko'rib turganimizdek, o'z ustida ishlash bosqichlari izchil, muntazam, tizimli tarzda amalga oshirilsa, o'qituvchida kasbiy kompetensiya rivojlanishi ham ma'lum darajada kafolatlanishi bejiz emas. Pedagog o'z faoliyatini to'liq nazoratga olgan holda tashkil etsa, kamchiliklarni bartaraf etish orqali yuqoriga intilsa, undagi kompetensiyaviylik, pedagogik bilimdonlik ham oshib boradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy bilim orqali kasbiy faoliyatni tashkil etishi va ularning uyg'unligida erishilgan kasbiy tajriba orqali jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi va bir qator kasbiy malakalarni, kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi joiz. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi egallagan mahoratidan foydalangan holda o'zida shakllantirgan ko'nikmalari, mavjud shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalari darajasini egallash yo'nalishlarini belgilab olish lozim:

1. Pedagog tomonidan olinadigan bilimlar mavjud kasbiy faoliyatning quyidagi

jarayonlarida aks ettiriladi:

a) atrof muhitdan olinayotgan hamda foydalanilayotgan axborotlarning mavjud hajmi hamda uning murakkabligi;

b) olinayotgan bilimlarning yangiligi va innovatsionligi;

c) mavjud nazariy va amaliy bilimlarning bir biriga nisbati.

2. Pedagogning mahorati hamda amaliy ko'nikmalari quyidagilar bilan ifodalanadi:

a) kasbiy faoliyatni to'liq bajarish imkoniyatining turlichaligi, belgilangan vazifalarni bajarish imkoniyatlarini tanlay olish zarurati va uning asosiy yo'li hamda yo'nalishlarini ishlab chiqish;

3. Mavjud kompetensiyalar quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

a) mustaqil ishlash imkoniyati;

b) faoliyat ko'lami.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladigan metod va topshiriqlarni ta'kidlab o'tishni lozim deb topdik. Jarayonni tizimli ravishda olib borishni rejalashtirish, uni amalga oshirish samarasini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida turli metod, usul va topshiriqlarni qo'llash o'zining natijasini ko'rsatishi ehtimoldan holi emas. Shu o'rinda, bir nechta metodlarni mazmuniga asosan kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan bir nechta metodni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Ma'lum bir ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishiga ko'ra umumiylik kasb etadigan metodlarni sanaydigan bo'lsak, vaziyatni baholash va uni to'g'ri tahlil qilish imkoniyatini beradigan "Muammoli vaziyat", "Akademik munozara", "Bumerang", "Sinektika" kabi metodlarni; ma'lum bir jarayonning yoki o'rganiladigan tushunchaning afzalliklari, kamchiliklarini ochib berishga xizmat qiladigan "SWOT" tahlili, "T-sxema"; metod ishtirokchilarda har tomonlama chuqur izlanish olib borish, berilgan tushuncha borasida har tomonlama bilim, ko'nima va kompetensiyalarni shakllantirish va bor malakalarini qo'llash xizmat qiladigan "Pinbord", "FSMU", "Qora quti", "Kubik", "Nilufar guli", "Tushunchalar tahlili" kabi metodlarni aytishimiz mumkin.

NATIJALAR. Metodlar qo'llanilishi va ularning yordamida bo'lajak o'qituvchilarda qanday kompetensiya va ko'nikmalar shakllanishi hamda rivojlanishi haqida so'z yuritish maqsadida bir nechta tavsiyalar berib o'tish lozim. Quyida metodlar tavsifi va ular orqali bo'lajak o'qituvchi qanday yutuq va ustunliklarga erishishi haqida so'z yuritiladi.(2-jadval)

METOD	TAVSIFI	KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI
"Kritik(keskin) vaziyat tahlili" metodi	muayyan bir vaziyatga qisqacha tushuncha beiladi va muayyan qatnashuvchilar u vaziyatni o'rganib chiqadilar.	Ushbu metodning kasbiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati shundan iboratki, bu metod orqali bo'lajak o'qituvchilar pedagogik jarayonda yuzaga keladigan keskin holatlarda o'zini qanday tutish, vaziyatni qanday yumshatish va qanday qilib muammoni hal qilish masalalariga doir kompetensiyalarni o'zlarida shakllantirib boradilar.

<p>“Rezyume” (yelpig'ich) metodi</p>	<p>Metod yordamida o'quvchi yoki talabalarda taqqoslash, solishtirish, yutuq va kamchiliklarini baholash hamda birgalikda xulosa chiqarish malakalarini rivojlantiradi.</p>	<p>Mazkur metod orqali o'qituvchilar orasida yangiliklar, innovatsiyalar va eng asosiysi xorij tajribalaridan namunalarni keng tahlil qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bo'lajak pedagoglar jarayonni har tomonlama chuqu tahlil qiladilar. Afzalliklari hamda kamchiliklarini o'rganib chiqadilar. Va shu bilan birgalikda kamchiliklarni bartaraf etgan holda o'zlari amaliyotda joriy qilishga harakat qiladilar. Bu ularda ko'pgina kompetensiyalar shakllanishiga turtki bo'ladi.</p>
<p>“Insert” metodi</p>	<p>Bu metod samarali o'qish va fikr matnda belgilashning interaktiv tizimidir. U ta'lim oluvchilarda bilim haqida ma'lum darajada ma'lumot olishga qaratilgan. Qanday bilimga ega, kamchiliklari va qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor berish kerakligini belgilab beruvchi metod sanaladi.</p>	<p>“Insert” metodi yordamida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish yanada yuqori darajaga ko'tarilishi mumkin. Bu metodni o'tkazish yordamida ularning ma'lumot bazasidagi holat, tushunishi qiyin bo'lgan jihatlarni o'rganish, turli holatlarga doir qanday ko'nikma va malakaga ega ekanliklarini aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bu metod orqali bo'lajak pedagogni har tomonlama o'rganish va uni kamchiliklarini</p>
<p>“Sinkveyn” metodi</p>	<p>Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor va qudratli qurol hisoblanadi.</p>	<p>tuzatgan holda yetuk kadr sifatida tayyorlashga zamin yaratiladi.</p> <p>Ushbu metodning kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan ustun tomoni sifatida, yangi tushunchalarni turli jihatdan tezkor ravishda tahlil qilish imkoniyatini berishi bilan baholashimiz mumkin. Keltirilgan tushunchaga doir sifatlarni, harakat fe'llarini unga sinonim so'zni topa olish ko'nikmasi barchada ham shakllangan emas. Shu masalalarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan bo'lajak o'qituvchilarda yetarlicha imkoniyat yuzaga kelishi uning afzalliklarini ko'rsatadi.</p>

2-jadval. Metodlar tasnifi hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ularning ahamiyati. Bundan tashqari, “Assesment” metodi ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'p qirrali kompetensiya va malakalarni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. “Assesment” metodi jadval ko'rinishida bo'lib, unda test topshiriqlari, muammoli vaziyat,

symptom, amaliy ko‘nikma kabilar joylashtirilgan bo‘ladi. Bu metod bo‘lg‘usi pedagogdan mavjud bilimlarini ko‘rsatish. Muammoli holatga to‘g‘ri yechim topa olish, tushunchalarni izohlash va ma‘lum mavzuga doir amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishni talab etadi.

Masalan:(3-jadval)

Test	Muammoli vaziyat
Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi egallashi lozim bo‘lgan mavzular yuzasidan ma‘lum miqdordagi test topshiriqlari tuziladi	Pedagogik jarayonda yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlar, psixologik keskin ziddiyatlar borasida keltirigan muammoli vaziyat keltiriladi va ulardan shu muammoga munosib yechim topish kerakligi talab etiladi.
Simptom	Amaliy ko‘nikma
Ma‘lum bir tushunchalarga izoh berilishi, yoritilishi hamda ilmiy asoslanishiga doir bir necha atamalar keltirib o‘tiladi.	Metodik jihatdan egallashi kerak bo‘lgan masalalar yuzasidan jadval, chizma va ma‘lum bir holatlarni solishtirish hamda umumlashtirishga doir topshiriqlar beriladi.

3-jadval. “Assesment” metodining kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda qo‘llashning ahamiyati

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni muayyan darajada kafolatlab beradigan jihatlar sifatida topshiriqlarni ham aytishimiz mumkin. Topshiriqlar, ayniqsa, integrativ-kognitiv xususiyatga ega bo‘lsa, topshiriqning amaliy ahamiyati juqa yuqori bo‘ladi. Shu o‘rinda, avvalo, integrativ va kognitiv atamalariga ta‘rif berib o‘tish ayni muddao hisoblanadi.

Integrativ- integrativ-shaxsiy mezonlar: integrativ-shaxsiy – ma‘lum bir fanni boshqa fanlar bilan integratsiya va inkorporatsiyalash qobiliyati, ijodiy salohiyat, kasbiy o‘shiga intilish xususiyatlarining tashkil toptirilishi.

Kognitiv- talabalarining psixologik-pedagogik bilimlari-boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual, psixofiziologik xususiyatlarini, o‘quv jarayonini tashkil qilish shakl, metod va vositalarini, didaktik, masofaviy tajribalar orqali o‘quvchilarni tashxislashning asosiy metodikasini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi lozim.

Keltirib o‘tilgan tavsiflarni tahlil qilish orqali integrativ-kognitiv topshiriqlar yuzasida bir necha tavsiyalar keltirish mumkin. Mazkur topshiriqlar yordamida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik, nazariy hamda amaliy jihatdan mukammal tayyorgaligi, undagi ko‘nikmalarning yetarililigi, hozirgi kunda dolzarb masalaga aylib borayotgan chet tili bo‘yicha bilim darajasining yuqoriligi, innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari borasidagi bilimlarini tekshirish, psixologik va pedagogik jihatdan tayyorgarlik darajalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

MULOHAZALAR. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning ahamiyati borasida bir qancha olimlar o‘zlarining ishlaridama‘lumot va tavsiyalar berib o‘tganlar,

Musurmonova A., Isaqulova N.J, Jumaniyozova M.T., Jumayev A.Sh. lar o‘zlarining “Umumiy pedagogika” nomli darsliklarida “Assesment” metodi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi borasida fikr va mulohazalar keltirilgan. Unga ko‘ra, metod yordamida talabalarda baholanishi lozim bo‘lgan kasbiy kompetentlik sifatleri ro‘yxatini tuzish, kasbiy kompetentlik jihatlari namoyon bo‘ladigan faoliyat turlarini

modellashtirish imkonini beruvchi holatlar, muammoli vaziyatlar tizimini ishlab chiqish, kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi ma'lum bir kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni tartiblash bo'lajak o'qituvchilarda rivojlanishi lozim bo'lgan kasbiy kompetentlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.[4;181-b.]

Bundan tashqari pedagogik texnologiyalarning bo'lajak pedagogdagi kasbiy kompetentlikni namoyon etishi va bu bilan birgalikda rivojlanishi haqida ham so'z boradi.

Saidova M.J. o'zlarining ilmiy maqolalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mezonlari va asoslari haqida o'zlarining qarashlarini keltirib o'tganlar.

Ularning olib borgan izlanishlariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini 3 guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Pedagogik rivojlanish bosqichlari;
2. Tanlangan faoliyat usullari;
3. Amalga oshirish mazmuni.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini takomillashtirish mazmuni bir necha mazmun va bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini mustaqil ta'lim olishga qaratilgan uzviy bosqichli jarayonlar orqali amalga oshirish:

- mustaqil ta'lim olish mezonlarini ishlab chiqish;
- mustaqil ta'lim olish mazmunini tizimlashtirish (darslik, sayt, veb-kvest materiallari);
- mustaqil ta'lim olish shaklini aniqlash;
- mustaqil ta'lim olish natijasini bashoratlash.

1. Kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini mahorat darslarini o'tish va yangi muhitni hosil qilish orqali amalga oshirish:

- nazariy bilimlar mazmunini tizimlashtirish;
- olgan bilimlarni amaliyot faoliyatida sinab ko'rish;
- amaliyotda sinalgan tajribalar individullashtirilishiga e'tibor berish;
- sinalgan amaliy bilimlarni kamchiligini aniqlash va qayta amaliy dars singari o'tib berish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini quyidagi uyg'ullikka ega deyish mumkin. (4-jadval)

(4-jadval)

Kasbiy kompetensiya	Metodik kompetensiya	Kasbiy-metodik kompetensiya
O'ziga xos, o'zgachalik	Faoliyatni loyihalashtirish	Ta'lim berish va jarayonni modernizatsiya qilish
Nazariy hamda amaliy bilimni o'zlashtirishdagi intiluvchanlik	Darsning ham nazariy ham amaliy jihatlari o'zlashtirganligi	Olingan nazariy bilimlar asosida mustaqil ta'lim olish, turli mahorat darslarini chuqur tahlil qilish asosida tashkil eta olish
Amaliy mahorat	Darsni o'tishdagi barcha bosqichlarni amal qilish	Faoliyatni tashkil etishdan avval jarayonni dinamikasini hisobga olish va boshlang'ich ta'limga oid yangiliklarni qo'llash
Kreativlik	Mavzuni tushuntirish Metodikadi:	Ta'lim jarayonidagi ijodiy yondashuvchmi takomillashtirish va unda individualikka erishish
Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalana olish	Raqamli Texnologiyalardan foydalangan holda yangi bilimlarni egallash	Masofaviy sharoitda olingan bilimlarni amaliy jihatdan qo'llay olish

4-jadval. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini quyidagi uyg'unligi. Saidova M.J. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirishning modifikatsion imkoniyatlari.

Kasbiy-metodik kompetensiya rivojlantirish mezanizmining komponentlari orasida bir-birini to'ldiradigan va bosqichma-bosqich mukammal bilim va ko'nikma hosil qilishga intilish jihatlari kuzatish mumkin. Bu esa, albatta, quyidan yuqori tomon harakatlanish ko'rsatadi.[18;604-b.]

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim jarayoni sifatini yuqori saviyada tashkil etish, avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni rivojlantirish lozim. Darhaqiqat, boshlang'ich olingan bilim o'quvchilarda keyingi bosqichlardagi barcha bilimlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilk bilimlar nafaqat o'quvchining maktabdagi o'rni balki jamiyatdagi o'z o'rniga ega shaxs bo'lib shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni takomillashtirish birinchi o'rinda bajarilishi lozim bo'lgan vazifaga aylanishi lozim.

Shu jarayonni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan tavsiyalar berib o'tadigan bo'lsak: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi kasbiy kompetentlikni oshirishga xizmat qiladigan metodik qo'llanma va darsliklarni ishlab chiqish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun barcha kerakli sharoit va qulayliklarni yaratish;

kasbiy kompetensiya rivojlanishiga yordam beradigan metod, usul va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlagan holda jarayonni tashkil qilishda metodik, pedagogik, psixologik, shaxsiy, innovatsion hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi jihatlarga yanada ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida" PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/doss/4312785>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 287-sonli Qarori. <https://lex.uz/doss/4814154>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni. <http://lex.uz/docs/-5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni. <http://lex.uz/docs/-4312785>

3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -Toshkent. 120 b.

4. Musurmonova A., Isaqulova N.J, Jumaniyozova M.T., Jumayev A.Sh. (2020) Umumiy pedagogika. Darslik.-Toshkent "Innovatsiya-Ziyo".-194 b.

5. Asadov Y.M. (2014) Boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi // Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. -Toshkent. -10 -14 b

6. Xutorskoy A.V. (2003) Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnost-no-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya // Nar. Obrazovaniye. - Moskva. -№ 2. - S. 58-64.

7. Markova, A.K. (1990) Psixologicheskiy analiz professional'noy kompetentnosti uchitelya Tekst. / A.K. Markova // Sovetskaya pedagogika. № 8. - S. 82-87. - ISSN 0869-56IX.

8. Bolotov V.A., Serikov V.V. (2003) Kompetentnostnaya model: Ot idei k obrazovatelnoy programroy. Pedagogika. № 3.

9. Slastenin V.A. (2002) Obshaya pedagogika. -Moskva.

10. Daminov O., Tulaev B., Khimmataliev D., Shakov V., Kurbonova Z. (2020). The Role of Competence and Competent In Preparing Professional Training Teachers For Professional Activity. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9s), 6338-6349. Retrieved from <http://serss.org/journals/index.php/IJAST/article/view/20245>
11. Himmataliyev D.O. (2020) Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi. //Oliy ta'lim. Toshkent. №7. -23-b.
12. Ibragimova F.X. (2018) Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini angliya madaniyatiga qiziqishlarini shakllantirish orqali takomillashtirish. Diss...avtor... Toshkent. 11- b.
13. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. (2021) An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics //Middle European Scientific Bulletin.– Toshkent. 8. – C. 174.
14. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. (2021) Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin.. – T. 8. – C. 173.
15. Saidova M. J. (2022) MODERN CONDITIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH DISTANCE LEARNING //Conference Zone.– C. 16-21.
16. Saidova M. J. (2022) DIRECTIONS AND CONTENT OF THE ORGANIZATION OF DISTANCE LEARNING //Conference Zone.– C. 7-15.
17. Saidova M. J. (2022) MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOGS jurnali.– T. 1. – №. 1. – C. 43-46.
18. Saidova M.J. (2022) Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari // Sovremennyye innovatsionnyye issledovaniya aktual'nyye problemy i razvitiye tendentsii: resheniya i perspektivi.. – T. 1. – №. 1. – C. 101-104. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8040089>

SHARQONA DIPLOMATIYADA TORTIQLAR QABULI

Klichev Oybek Abdurasuovich

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari doktori (DSc)

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.035>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot O'zbekiston Milliy arxivi, Rossiya imperiyasitashqi siyosat arxivi hamda Rossiya davlat harbiy tarix arxividagi saqlanib kelinayotgan hujjatlarga asoslanib, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi oliy darajadagi sovg'a almashinuv masalalariga bag'ishlanadi. Sharqona diplomatik protokolning ajralmas qismi hisoblangan tortiqlarni topshirishda amal qilingan qoidalarni o'zgartirish, ixchamlashtirish kabi jihatlar hukumatlararo darajada hal etilishiga daxldor ma'lumotlar ushbu izlanishdatahlil etilgan.

Kalit so'zlar: P.M.Lessar, Turkiston general-gubernatori, amir, Sankt-Peterburg, oliy tortiqlar, siyosiy agent, Abdulahadxon, medal, an'ana, A.B.Vrevskiy.

ПРИЕМ ПОДАРКОВ ВОСТОЧНОЙ ДИПЛОМАТИИ

Аннотация: На основе документов, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана, Архиве внешней политики Российской империи и Российском государственном военно-историческом архиве, данное исследование посвящено вопросам обмена подарками между Бухарским эмиратом и Российской империей. В данном исследовании на межправительственном уровне анализируется информация, связанная с решением таких аспектов, как изменение и упорядочение правил, используемых при передаче даров, которые являются неотъемлемой частью Восточного дипломатического протокола.

Ключевые слова: П. М. Лессар, Туркестанский генерал-губернатор, эмир, Санкт-Петербург, высшие чиновники, политический агент, Абдулахад-хан, медаль, традиция, А. Б. Вревский.

RECEIVING GIFTS IN EASTERN DIPLOMACY

Abstract: This study will focus on the exchange of top-level gifts between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire on the basis of documents stored in the National Archive of Uzbekistan, the Archive of Foreign Policy of the Russian Empire and the Russian State Military Historical Archive. This study analyzed data related to intergovernmental decisions on such aspects as changing and compressing the rules applicable to the transfer of tokens, which are considered an integral part of the Eastern Diplomatic Protocol.

Keywords: P.M. Lessar, Turkestan Governor-General, Emir, St. Petersburg, senior officials, political agent, Abdulahad Khan, medal, tradition, A. B. Vrevsky.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida O'rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy muvozanatda o'zgarishlar yuz berdi. Mintaqada Rossiya imperiyasining nufuzi hamda ta'siri kuchayib bordi. Pirovardida, xonliklar va Buxoro amirligi imperiya ma'murlari bilan muloqotni amalga oshirishda – elchilik missiyalaridan unumli foydalanishni davom ettirishgan. Maqsadlar, manfaatlar aniq bo'lgani bilan diplomatik muloqot o'z qoidalari asosida olib borildi. Manfaatli doiralar elchilik missiyalarida ham ustunlikka ega bo'lishga intilganlar. Bu Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi sovg'a almashinuv tartiblari bilan bog'liq jarayonlarida ham namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Milliy arxivi, Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi hamda Rossiya davlat harbiy tarix arxividagi izlanishlarimiz mazkur masalaning ayrim jihatlariga oydinlik kiritdi. Diplomatik aloqalarda sovg'a almashinuvi

umumqabul qilingan tartib va qoidalar asosida olib borilishi barcha davrlarda o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda. Diplomatik tortiqlar turli madaniyat hamda an'analarning o'ziga xosligidan darak bersa, ikkinchi tarafdin, o'zaro hurmat va e'tibor namunasi hisoblanadi. Qolaversa, tortiqlarni taqdim etish jarayoni, ulardan voz kechish yoki ixchamlashtirish taraflarning o'zaro kelishuvi, roziligi asosida amalga oshirilishi darkor. Mazkur masala XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi sovg'a almashinuvida amirlik ma'muriyati va imperiya vakillari muhokamalariga sabab bo'lgan. Davlatlararo yozishmalar darajasiga ko'tarilgan tortiq almashinuv masalasidan ayrim namunalar va tahliliy qarashlarimizni taqdim etishni joiz deb hisoblaymiz.

Muhokama va natijalar. Buxoro amiri Abdulahad 1890-yil 19-noyabr sanasida Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiy nomiga yozgan maktubida ikki davlat o'rtasidagi sovg'a almashinuvi to'g'risida quyidagilarni bayon etgan:

« ...Do'st hamda dushmanlarimizning ko'z o'ngida, mavjud an'analimizga qaratilgan e'tibor hamda marhum otamiz tomonidan qabul qilingan tartib va urf-odatlarimiz asosida siyosiy agent hamda uning yordamchisi uchun sovg'alarni hozirlagan edik. Biz imperator hukumati va Buxoroyi sharif o'rtasida o'rnatilgan do'stona munosabatlarga asoslanib huzurimizga Buyuk hukmdor imperatorning yuqori martabali shaxs va mansabdorlarining har biriga sovg'alarni taqdim etganmiz. Bugun esa biz bilan uchrashadigan mazkur shaxslar ularga taqdim etayotgan tortiqlarimizni qabul qilmayaptilar»[1]. Amir o'z fikrlarini davom ettirgan holda uning otasi Amir Muzaffar zamonida joriy etilgan ushbu tadbirning amalga oshirilishiga qarshilik qilinmasligini qayd etadi.

Mazkur fikrlar amirlik hukumati sovg'a almashinuvining bekor qilinishiga qarshi bo'lganligini ko'rsatadi. Bunga ham siyosiy, ham ijtimoiy omillar xizmat qilgan desak, xato bo'lmaydi. Chunki sovg'a almashinuvi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning ramzidir. Shuningdek, ushbu ramz mavjudligining o'zi yoki undan voz kechilishi mamlakatdagi siyosiy doira vakillarining ijtimoiy qarashlariga ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi. Natijada, general-gubernator ushbu tartibning bekor qilinishiga qarshi emasligini bayon etgan hamda o'z fikrlarini rus aholi qatlamlarining amirlik hududiga tashriflari ko'paygani bilan izohlab, bu o'z navbatida hukumatlararo munosabatlarga ta'sir etmasdan qo'yimasliginida'kidlaydi.

Yozishmalar orasida siyosiy agentning quyidagi fikrlarini ham uchratishimiz mumkin: «Sharqda mavjud sovg'a berish odati na rus va na boshqa madaniyatlashgan xalqlar tushunchasiga mos kelmasligidan kelib chiqib, uni normal holat sifatida baholab bo'lmaydi. O'rta Osiyo davlatlari bilan munosabatlarning dastlabki davrida biz buni zaruriy imtiyoz-shart deb qabul qilgan edik. Ammo uni ixchamlashtirish maqsadga muvofiqdir»[2]. Bu sovg'a almashinuvi tartibini ixchamlashtirish zarurati siyosiy agent P.M.Lessarning shaxsiy tashabbusi ekanligini ko'rsatadi.

Siyosiy agent P.M.Lessar 1894-yil iyunda ham mazkur masalaga murojaat qilib, o'zining quyidagi takliflarini bildiradi.

1. Ikki mamlakat elchilik vakillari o'rtasidagi sovg'alar almashinuviga ruxsat berish bilan birga, ularni bosqichma-bosqich kamaytirish;

2. Buxoro amirligiga tashrif buyurgan hech bir rus imperiyasi amaldori amir va amirlik hukumati amaldorlaridan sovg'alarni olmasligi zarur[3].

So'ngra, ikkinchi taklif qabul qilinmagan taqdirda amir tomonidan taqdim etilgan sovg'alarni Buxoro amirligi hududida sotmaslik kerakligi ham ta'kidlanadi. Siyosiy agentning ushbu takliflari general-gubernator A.B.Vrevskiy tomonidan ma'qullanmagan. U buni mazkur masalalarning hal etilishi hali o'rinsiz ekanligi, ushbu masalaning ko'tarilishi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qilishi va mavjud an'analarning buzilishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlagan.

Rossiya Federatsiyasidagi arxiv jamg'armalaridagi hujjatlarni tadqiq etish jarayonida,

amirlik va imperiya hukumatlari o'rtasidagi sovg'a almashinuvi bilan bog'liq masala Harbiy vazirlik Bosh shtabida 1898-yilda ham ko'tarilganligi aniqlandi.

Buxoro amirining rus amaldorlariga taqdim etayotgan sovg'alar masalasiga Bosh shtab quyidagicha qaragan: 1898-yil 30-aprelda "Buxoro amirining sovg'alari to'g'risida" degan tahliliy hujjat tayyorlanib, unda rus ma'murlariga amirlik hukumati tomonidan taqdim etiladigan sovg'alar quyidagi guruhlariga ajratilgan[4]:

1. Davriy sovg'alar - Bunday turdagi sovg'alarga Turkiston general-gubernatori ikki mamlakat munosabatlarining ramzi va hududning mavjud an'anasi sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi.

Hujjatda bu turdagi sovg'alarga general-gubernatorlik nomidan yuboriladigan elchilik vakillari orqali javob qaytarilishi kerakligi qayd etiladi. Javob sovg'alarini xarid qilish uchun general-gubernatorlik xarajatlar smetasidagi 14500 rubllik - elchilik vakillari uchun ajratmalardan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Buxoro amiri va beklari tomonidan rus manzilgohlari vakillariga taqdim etiladigan sovg'alar - Imperiya ma'murlari amirlik hukumati vakillaridan shu hududda o'z obro' va ta'sir doiralariга putur yetkazishi mumkinligi uchun ham bu sovg'alarni olmasliklari kerakligi ta'kidlanadi.

3. General-gubernator tomonidan amirlik hududiga xizmat safariga yuborilgan xodimlarga beriladigan sovg'alar - Bu turdagi sovg'alar amir qabulida bo'lgan ruslar hamda mahalliy aholi vakillari uchun berilganligini inobatga olib, bunga an'anaviy sovg'a almashinuvi sifatida qaralgan. Bosh shtab bunday sovg'a almashinuvi ko'p hollarda hech qanday muhim masala yoki sabablarsiz rus amaldor va mansabdorlariga berilishidan kelib chiqib, hudud ma'murlari va aholi ko'z o'ngida imperiya hukumati nufuziga ta'sir etmasdan qolmasligini ta'kidlaydi.

4. Buxoro amirlari tomonidan Sankt-Peterburg shahriga amalga oshirilgan tashriflar davomida yuqori martabali amaldorlarga taqdim etilgan sovg'alar - Bosh shtabda bu masala, dastlab 1893-yilda ko'tarilgan bo'lib, imperiya hukumati bu ish faqat amirning xohishi va istagiga bog'liq degan xulosaga keladi. Bunday turdagi sovg'alarga Imperator uning oila a'zolari va turli martabali vazirlar ega bo'lishgan.

5. Buxoro amiri huzurida vaqtinchalik ya'ni Sankt-Peterburg va Kavkaz tashriflari davrida biriktirilgan amaldorlarga taqdim etiladigan sovg'alar - Bular shaxsiy xarakterga ega tortiq hisoblanadi. Ular imperator va Turkiston general-gubernatori tomonidan amirning tashriflari davrida unga biriktirilgan hamroh, tarjimon va amaldorlarga safar davomida taqdim etilgan. Bosh shtab bu turdagi tortiqlarni amirning shaxsiy tashabbusi deb qabul qilgan[5].

Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi rus amaldor va ma'murlarining amirlik hukumati tomonidan sovg'alar bilan taqdirlanishiga doir masala dastlab 1890-yilda ko'tarilib, 1894-yilda takliflar bildirish shaklida yakunlanganligini ko'rishimiz mumkin. Hujjatlar tahlili, keyinchalik ushbu masala 1898-yilning sentabr oyida yana muhokama etilganligini ko'rsatmoqda. Bunda mavjud tartib Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o'rtasidagi elchilik almashinuvi yiliga bir marta etib belgilanishi kabi yangi bandlar bilan to'ldirilganligini ham ko'rsatdi[6].

Imperiya hukumati 1898-yilda general-gubernatorlik hamda amirlik o'rtasida elchilik amaliyotini qisqartirish, sovg'a almashinuvini imkon qadar tugatish masalasiga ichki siyosatini mustaqil yuritayotgan Buxoro amiriga cheklov sifatida qaralmasligi kerakligini ta'kidlasada, aslida bunga iqtisodiy xarajatlardan qutulish sifatida qaragan. Shu uchun bo'lsa kerak, siyosiy agent imperiya hukumatining sovg'alar almashinuvini bekor qilishni rus tartiblariga moslashuv deb qabul qilish va shunday tushuntirish tarafdori bo'lgan. Ammo amirlikdagi mavjud sharqona odatga rioya etilmasdan qolinmagan.

Siyosiy agent fikricha, Buxoro amirisovg'a tariqasida rus ma'murlariga asosan to'n va mato parchalarini taqdim etgan, amaldorlar esa ulardan deyarli foydalanishmagan. Natijada, sovg'alar rus ma'muri turgan manzilga yetkazilganidan so'ng, bir guruh savdogarlar u yerga

tashrif buyurib, sovg'alarni sotib olishgan. Buni siyosiy agent Amir ushbu amaldorlarga sovg'a o'rnida pul taqdim etdi, deb qabul qilgan. Ammo, uning bunday qarashini o'rinli deb bo'lmaydi. U o'z fikriniamirlik aholisi orasidagi «amaldor katta va nufuzli bo'lsa sovg'alar qimmatroq bo'ladi, kichikroq kam nufuzli bo'lsa pastroq bo'ladi» degan turli xil hazillar bilan asoslashga intiladi. Sharqda amaldorning nufuzidan kelib chiqib sovg'a berish odati mavjud bo'lgan, buni inkor etib bo'lmaydi. Qolaversa, bu tajriba Rossiya imperiyasida ham amalda bo'lib, hukumat vakillari shaxsning nufuziga qarab unga unvon, medal va sovg'alarni taqdim etishgan.

Buxoro amiri tomonidan taqdim etiladigan sovg'alar almashinuvini tartibga solish bilan bog'liq masala 1910-yilda ham ko'tariladi[7]. Endigi navbat bevosita Buxoro amiri tomonidan imperiyadagi hukumat vakillariga orden va medallarnihadya etish masalasiga qaratiladi. Ushbu tartibga asosan, Buxoro amiri o'z tashabbusi va xohishiga ko'ra orden va medallarni taqdim etishi belgilangan. Nomzodlarni tasdiqlash ham amirning vakolatiga kirgan. Imperiya hukumati vakillari esa orden va medallarga munosib shaxslarning ro'yxatlarini shakllantirish va taqdim etish ishlarini amalga oshirganlar.

Xulosa.

Buxoro amiri va Rossiya imperatori, Turkiston general-gubernatori, qolaversa, Buxorodagi imperator siyosiy agentligi o'rtasidagi uchrashuvlarda o'zaro sovg'a almashinuv tadbirlari masalasida 1890, 1894, 1898 hamda 1910- yillarda hukumatlararo yozishmalar olib borilgan.

Hukumatlararo muloqot natijasida, imperiya ma'murlari amir tomonidan taqdim etiladigan sovg'alarni qabul qilishni tartiblashtirish zarurligi xususida xulosaga kelishgan. Ammo, mahalliy an'analarning ajralmas qismi hisoblangan mazkur tadbirni bekor qilishga qaratilgan urinishlar natija bermaganligi ma'lum.

Buxoro amirligi, qolaversa sharq mintaqasi davlatlarining diplomatik munosabatlarida hudud xususiyati, madaniy o'ziga xoslik kabi faktorlar ustunlikka erishgani ham xarakterlidir. Ko'p hollarda, diplomatik sovg'a almashinuvini tartibga solishga qaratilgan tadbirlarning joriy etilishiga qaramasdan uni hal etishda sharqona urf-odatlariga rioya etish amaliyoti ustunlikka erishgan edi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda –O'zbekiston MA), I-1-fond, 29-ro'yxat, 914- yig'majild, 6- varaq.
2. O'zbekiston MA, I-1-fond, 29-ro'yxat, 914 - yig'majild, 20-varaq.
3. O'zbekiston MA, I-1-fond, 29-ro'yxat, 1141- yig'majild, 4-5 varaqlar.
4. Rossiya davlat harbiy tarix arxivi (keyingi o'rinlarda– RDHTA), 400-fond, 1-ro'yxat, 2313- yig'majild, 4- varaq.
5. RDHTA, 400-fond, 1-ro'yxat, 2313- yig'majild, 5- varaq.
6. RDHTA, 400-fond, 1-ro'yxat, 2313- yig'majild, 33-34 varaqlar.
7. Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi (keyingi o'rinlarda – RITSA), 147-fond, 485-ro'yxat, 260- yig'majild, 28 -35 varaqlar.5- varaq.
8. Klichev O. Scholarships of Emirs of Bukhara // Oriente moderno. – 2020. – T. 100. – №. 1. – S. 57-74.
9. Abdurasulovich, Klichev Oybek. «Legal aspects of Russian political agency in the emirate of Bukhara (cross over review).» Austrian Journal of Humanities and Social Sciences 7-8 (2016): 7-9.
10. Klichev O.A. Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara //Europaische Fachhochschule. – 2016. – №. 8. – S. 14-15.
11. K Oybek .The Role of the Russian Political Agency in Diplomatic Relations between theEmirate of Bukhara and the Russian Empire // Oriente Moderno, 2023 Oriente Moderno. 2023. – Volume102: – Pp. 227-239 Brill. (Print Only-ISSN:0030-5472, Online –

TILSHUNOSLIKDA HAQIQAT KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muminova Nasiba Solijon qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.036>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz paramiyalarida haqiqat konseptining kognitiv-pragmatik tadqiqi hamda tilshunoslikda konsept maydonining strukturaviy tavsifi "haqiqat" konseptini namoyish qilishda qo'llanadigan ko'plab lisoniy vositalarni ma'lum sistemaga solish imkoniyati haqida ma'lumot berilgan. "Haqiqat" konseptini shakllantiruvchi lisoniy vositalar markaz va periferiyalarni hosil qilishda konseptual maydonning markaz, yaqin va uzoq periferiyalarni aniqlash va ularni ko'rsatuvchi elementlar tavsiya etilgan. Xulosa qismida o'zbek va ingliz paramiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.

Kalitso'zlar: o'zbektili, ingliztili, haqiqat, konsept, parameya, kognitivtilshunoslik, pragmatik yondashuv, tilshunoslikka oid bilim, ko'nikma va malaka, lingvokulturologiya.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОНЦЕПТА ИСТИНА В ЛИНГВИСТИКЕ

Муминова Насиба Солижон қизи
преподаватель Ташкентского университета прикладных наук.

Аннотация. В статье приведены сведения о когнитивное-прагматическом исследовании концепта истина в узбекских и английских паремии, а также структурное описание концепт-пространства в лингвистике, о возможности применения многих лингвистических средств, используемых при демонстрации концепта "истина" в определенную систему. Лингвистические средства формирования концепта "истина" при формировании центра и периферии рекомендуются для определения центра, ближней и дальней периферии концептуального поля и обозначающих их элементов. В заключении представлены предложения по совершенствованию узбекской и английской паремии.

Ключевые слова: узбекский язык, английский язык, реальность, концепт, парамея, когнитивная лингвистика, прагматический подход, лингвистические знания, умения и компетенции, лингвокультурология.

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF TRUTH IN LINGUISTICS

Muminova Nasiba Solijon qizi
teacher of Tashkent University of Applied Sciences

Annotation. The article provides information about the cognitive-pragmatic study of the concept of truth in Uzbek and English paramias, as well as the structural description of the concept space in linguistics, about the possibility of putting many linguistic tools used in demonstrating the concept of "truth" into a certain system. Linguistic tools forming the concept of "truth" in forming the center and peripheries recommended to determine the center, near and far peripheries of the conceptual field and the elements that indicate them. In the conclusion, suggestions for improving the Uzbek and English paremias presented.

Key words: Uzbek language, English language, reality, concept, parameia, cognitive linguistics, pragmatic approach, linguistic knowledge, skills and competence, linguocultural science.

Zamonaviy tilshunoslik sohasidagi global muammolar inson rivojiga destruktiv ta'sir etayotgan bir vaqtda, jamiyat hayotining barcha sohalarida haqiqat konseptiningkognitiv pragmatik tadqiq etish, haqiqatning amaliy faoliyatdagi kognitiv ahamiyatini ochib berish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda lingvistik -metodologik jihatdan tahlil etish zarurati vujudga kelmoqda. Tilshunoslikda haqiqat konseptining mavjudligi, uning mavjud bo'lishini tasdiqlovchi nazariy va empirik dalillar ustuvor bo'lsa, o'zbek va ingliz paramiyalarida haqiqat konseptining mavhum tafakkur operatsiyasi va tajribiy tushunchalariga bog'liqligi qayd etilmoqda. Shu bilan birga haqiqat konseptining lingvomadaniy metodlar, kategoriyalar, modellar va umumiy qonuniyatlar bilan bog'liq holda o'rganish ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Mamlakatimizda til tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, komil inson konseptini yangicha yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida haqiqat, adolat, ideallik kabi umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lishi mavjud ta'lim-tarbiya tizimining ratsional imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son[1:22] Taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida", 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari va 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Tilshunoslikning tadrijiy taraqqiyoti davomida yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Bu esa tilni o'rganish, tadqiq etish zaruratining kuchayib borayotganligi, shuningdek, sohalararo o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi natijasidir. Jahonda lingvokulturologik tadqiqotlarga e'tibor XX asrdayoq o'zining asosiy rivojlanish pallasiga ko'tarilib ulgurdi. Bugungi kunda turli lingvomadaniyatlar doirasida til voqeligini tizimli tahlil qilish va til vositalarini lingvomadaniy yo'nalishlarda o'rganish etakchi o'ringa ko'tarilmoqda. Til materiallarini haqiqat omiliga muvofiq tadqiq va tahlil qilish tilning turli madaniyat va submadaniyatlarda voqelanishi, umumiy va faqrli jihatlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali tillar va madaniyatlararo aloqalarni o'rnatish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tilshunoslikda konsept yuzasidan Yusupov O'.Q., Ashurova D.U., Safarov Sh., Mamatov A.E., Agzamova D.B., Nurmonov A., Xudoyberganova D., Lutfullaeva D.E., Iskandarova Sh., Hoshimova N.A., Azimova I., Yigitaliev U.S., Ermolova M.V., Hazratqulova O. tadqiqotlar olib borishgan.

Qiyoslanayotgan tillarda haqiqat konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda olamning lisoniy manzarasida lingvomadaniy birliklarning voqelanishini o'rganish; Jahon tilshunosligida lingvomadaniy birliklar tadqiqqga bag'ishlangan tadqiqotlarni qiyosiy o'rganish; haqiqat konseptosferasiga kiruvchi leksik birliklarni tahlil qilish; ingliz va o'zbek tillarida "haqiqat" konseptini ifodalovchi lisoniy vositalarning o'xshash va noo'xshash jihatlari aniqlash; ingliz va o'zbek tillarida "haqiqat" konseptining mohiyatini ochib beruvchi leksemalarning sinonimlar tarkibini tasniflash muhim ahamiyatga ega. Ingliz va o'zbek tillarida "haqiqat" konseptining lingvomadaniy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Haqiqat izlashning eng muhim vazifalaridan biri bu ijtimoiy uyg'unlikka erishish va Lakoff (2003: 201) tomonidan metaforik tarzda "ijtimoiy g'ildiraklarni moylash" deb ta'kidlagan narsadir. U bu "birinchi navbatda va asosan ijtimoiy harakat" nuqtai nazaridan qarashni yaxshi ko'radi. Demokratiya haqida: "oshkoralik, haqiqat izlash - tizim bilan harakat qilish adresatning yuz ehtiyojlariga e'tibor berish". Goffman (1971: 140) haqiqat istash ijtimoiy muvozanatni

tiklash deb ta'kidlaydi, bu haqiqat izlash harakati bilan "ishtirokchilar masalalar yopiqligini va [ijtimoiy] muvozanat tiklanganligini his qiladilar.

Biz Fitratning o'zbek tili bo'yicha aytgan mazkur fikridan yuqorida nomlari zikr etib o'tilgan xalq kitoblari, jumladan, dostonlar, ertaklar hamda o'zbek adabiy tilida yozilgan buyuk mutafakkirlarimizning qimmatli asarlarini va ularning tilini to'liq o'rganib, namuna sifatida ilk bor mukammal holdagi, ma'lum bir grammatik qoidaga bo'ysundirilgan o'zbek adabiy tili

grammatikasi loyihasini yaratishga qo‘l urganligini ko‘ramiz. Shu bilan birgalikda olim ushbu ishni bir kishi qila olmasligini hamda bu ish o‘sha davr ilm ahli va tilshunos olimlarioldida turgan dolzarb muammolardan biri ekanligi xususida ham to‘xtalib o‘tib, bu haqida shunday deydi: “Bu ishning qulaylig‘i bo‘lmog‘oni belgili. Bunlar bir kishining qo‘lidan kelmaydir. Bu yo‘lda tirishmak yangichiqqan yigit yozg‘uvchilarimizning hammalariga tushadur. Yangi o‘zbek adabiyotig‘a ilmiy bir asos bermak, unga zamonaviy, madaniy borliq bag‘ishlamoq uchun mana shu yo‘llarg‘abot kirishmak hammamizga lozimdir. Bu ishlarning tugal natijasini kutib turish yaramaydi. Bu ulug‘ binoning, bu adabiyot madrasasining birinchi toshinitezlik bilan qo‘ymoq lozim, mana shu fikrlarg‘a berildim-da, men til qoidalari to‘g‘risida qo‘lda bo‘lgan narsalarni tuzib, terib shu bilikchani chiqardim.

U bir saboq bitigi emas, mutolaa kitobidir. Tilimiz to‘g‘risida tugal bir narsa emas, boshlang‘ichdir: tuzatmak, kengaytmak yo‘li ishlari yigit kuchlarimizning jonli tebranishlarini kutadir” [2; 140].

Fitrat asaridan keltirilgan mazkur jumalardan biz, XX asr arafasidagi ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma‘naviy, madaniy va ruhiymuhit o‘sha davr o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun katta to‘siq bo‘lib, unda salbiybir iz qoldirganligini, o‘sha paytdagi o‘zbek tilining lug‘at tarkibida ayrim (arab va fors tillariga xos bo‘lgan) grammatik shakllarning qo‘llanishini, imlo va alifbo sohasida muayyan o‘zgarishlar yuz berayotganligi hamda usha davr tilida eski o‘zbek va yangi o‘zbek adabiy tili xususiyatlari bilan birga, boshqa tillarning ham unsurlari tez-tez uchrab turishini hamda ana shunday sharoitda olim o‘zbek adabiy tilining nazariyasalarini ishlab chiqishda va til grammatik qoidalarinima‘lum bir qat‘iy tizingasolish borasida juda katta salmoqli ishlarni amalga oshirib, mazkur qimmatli asarini o‘sha davr tilshunos olimva ziyolilarimuhokamasiga topshirdi va uni mukammallashtirish, rivojlantirish kerak ekanligini dolzarbmualammo sifatidabirinchi rejaga olib chiqdi.

Fitrat o‘z asarining fonetikaga bag‘ishlangan faslida o‘sha davr o‘zbek adabiy tili tovushlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, birma-bir tahlil etib, boshqa (arab, fors) tillar tovushlari bilan qiyoslab, tilimiz tovushlar tizimini biroz soddalashtirib, qisqartirib, zamon talabidan kelib chiqqan holda 23 ta deb ko‘rsatadi va qat‘iy belgilaydi [2; 142].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tovushlar soni 25 ta deb qabul qilingan [3; 11]. O‘sha davr o‘zbek adabiy tilidahozirgi o‘zbek adabiy tilidagi singariinternatsional so‘zlar bilan birga kirib kelgan sirg‘aluvchi“j” (jurnal) va qorishiq “s” tovushlari bo‘lmaganligi sababli tilshunos olim o‘z asarida o‘zbek adabiy tili tovushlari sonini 23 ta deb ko‘rsatib o‘tgan. Uning o‘zbek adabiy tili tovushlarisonibo‘yicha qarashlari aynan, hozirgi o‘zbek adabiy tili tovushlar tizimi bilan mushtarakligidan dalolat beradi. Bundan biz o‘zbek adabiy tili tovushlar tizimini yaratishda uning “Sarf” asari fonetika bo‘limi to‘g‘ridan-to‘g‘riasosiy manba bo‘lib xizmat qilganligini ko‘ramiz. Shu bilan birgalikda, Fitratning tilshunoslik sohasida buyuk, hassos olim bo‘lganliginio‘zbek adabiy tilidagi “i” tovushini so‘zlar talaffuzida ifodalanishiga qarab ikki turga bo‘lganligidan ham anglab olishimiz mumkin. Bu borada olim “Bizning tilimiz yalpi turk tilining keng bir tarmog‘idir. Turk tilida bo‘lg‘on asosiy hollarning bizning tilda bo‘lishitabiiydir. Turk tilining butun tarmoqlarida bo‘lg‘oni kabi bizning tilda ham so‘zlar ohang e‘tiboribilan yo‘g‘on , ingichka bo‘lib ikkiga bo‘linadi.

Bu ohangmasalasini eski yozma asarlarda ko‘p ko‘rganimiz kabi dalada yashaganlar orasida ko‘proq uchratmoq mumkindir. Fors adabiyoti, madrasa tajvidi ta‘siri bilan buzilgan shahar shevalarida bu holni ko‘rganimiz bilan bizning shevada yo‘g‘onlik, ingichkalik ohangi yo‘q deb bo‘lmaydi” [2; 142-143], deb o‘zbek adabiy tilidagi “i” tovushiga ishora qiladi va asl o‘zbek adabiy tili fonetikasidagi“i” tovushi qatnashgan so‘zlarni yo‘g‘on so‘zlar, fors tilidan o‘zlashgan “i” tovushli so‘zlarni esa ingichka so‘zlar deb alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Uning “i” tovushi talaffuzi xususidagi qarashlaridan xulosa qilibshuni aytishimiz mumkinki, xaqiqatdan ham, asl o‘zbek adabiy tili so‘zlarida qo‘llaniladigan “i” tovushi bilan fors tilidan

o'zlashgan so'zlardagi "i" tovushi talaffuzi o'rtasida tafovut borligining guvohi bo'lamiz. Bunday farq tilimizda hozirgi kungacha ham saqlanib kelmoqda. Masalan: shirin, pir, dida, shirkat, shir kabi forscha o'zlashma so'zlardagi "i" tovushi bilan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi asl o'zbekcha bo'lgan bir, yil, tirnamoq, to'qqiz, sakkiz so'zlaridagi "i" tovushi talaffuziga e'tibor berib, har ikkalasini muqoyasa etadigan bo'lsak, fors tili o'zlashma so'zlaridagi "i" tovushi o'zbek tili so'zlaridagi "i" tovushi talaffuzidan sezilarli darajada yumshoqroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. Chunki fors tilidagi "i" tovushi cho'ziq unli tovush hisoblanadi [4; 15]. Asl o'zbek adabiy tili so'zlaridagi "i" tovushi esa, Fitrat o'z asarida alohida ta'kidlab o'tganidek, qisqaroq, yo'g'onroq, g'alizroq talaffuz etiladi va mazkur tovushni biz ko'proq rus va qozoq tillaridagi "ы" tovushi talaffuziga monand ekanligini ko'ramiz.

Jumladan, tilshunos olim o'zining "Sarf" asarida o'zbek adabiy tili unli tovushlariga alohida to'xtalib, ularni arab va fors tillari unli tovushlari tizimi va sonidan kelib chiqqan holda soddalashtirib a, o, e, i, u, o' kabilar deb ko'rsatib o'tadi.

"Eskiturkiy til (11-14 asrlar) yozma obidalarida 9 ta unli tovush a, ä, ä, e, o, o, u, y, i va eski o'zbek tili (15-19 asrlar) yozma manbalarida 10 ta unli tovusha, ä (o), ä, e, o, o, u, y, i, ü mavjuddir" [5; 46].

Yuqorida keltirilgan iqtibosdan ham ko'rinib turibdiki, turkiy va eski o'zbek tillarida unli tovushlar soni 9, 10 ta bo'lgan. Shu sababli ham Fitrat turkiy va eski o'zbek tilidagi unli tovushlar tizimi va sonini o'sha davr yozma manbalari, xalq kitoblari va dostonlari tili asosida sinchkovlik bilan o'rganib, fors va arab tillaridan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning son jihatini hamda o'zbek tilida 9 ta, 10 ta unli tovush bo'lsa yozishda, o'qishdako'proq chalkashlik, xatoliklarga yo'l ko'yilishi sabablarini e'tiborga olib, ularni soddalashtirib, qulaylashtirib, fors tili unli tovushlari sonidan kelib chiqqan holda 6 ta qilib belgilagani haqiqatdan holi emas.

Shuningdek, olim yana o'z asarida o'zbek adabiy tili morfologiyasiga ham to'xtaladi va o'zbek tilida ko'pgina so'zlarga egalik qo'shimchalari hamda so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush yo'qolishi vujudga kelishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Jumladan, o'g'il, ko'ngil, bu-yur so'zlaridan o'g'il, ko'ngil, o'rin kabilarga egalik qo'shimchasi, "buyur" so'ziga "uq" so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida "i" tovushi tushirib qoldirilib, "o'g'il" so'zi "o'g'lim" "ko'ngil" so'zi "ko'nglim", "o'rin" so'zi "o'rnim", "buyur" so'zi "buyruq" tarzida talaffuz etilishini ta'kidlab o'tadi va o'zbek tilidagi ikki bo'g'inli so'zlarga qo'shimchalar qo'shilish bilan o'sha so'zlardagi bir tovush tushib qolishi natijasida yana ikki bo'g'inli so'zlar hosil bo'lishi xususida ham ilmiy, asosli ma'lumotlar keltiradi va bunday holatni qat'iy qoida sifatida o'zbek adabiy tili grammatikasiga birinchilardan bo'lib olib kiradi. Uning kiritgan mazkur qoidasi hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasida ham o'z aksini topgan va o'qish va yozishda unga to'liq amal qilinadi. O'zbek adabiy tilidagi o'ziga xos bo'lgan bunday holatga muallif o'z asarida quyidagicha ta'rif beradi.

"O'g'ul, o'run, ko'ngil, buyur" so'zlaridan har biri ikki bo'g'inli (ikki hijoli) dir. Mana shularning so'ngi tovushlarigayana bir oltinchi tovush qo'shganda o'-g'u-lim, o'-ru-nim, ko'-ngi-lim, bu-yu-ruq shaklida, yani uch bo'g'inli so'zlar bo'lishi kerak ekan, shunday bo'lmaydir; bular oralig'idagi bir "i" cho'zig' unlisi yo'qolib, o'g'lim, ko'nglim, buyruq shaklidagi ikki bo'g'inli so'zlar bo'lib qoladir.

Bu albatta, tilimizning yingillik istaganidan chiqib qolgan bir hol. Bu hol yozuvlarimizda bor. Yuqoridagilarga o'xshagan ko'p so'zlarni yozg'uchilarimiz hech narsa sezmasdan shu yo'ldato'g'ri keltirib yozadi. Biroq bu hol umumiy qoida bo'lib qabul etilmagan, shuning uchun har so'zda yozilmaydi" [2; 250].

Biz buyuk tilshunos olim Abdurauf Fitratning "Sarf" (Morfologiya) deb nomlangan o'zbek adabiy tilining fonetika va morfologiyasiga bag'ishlab yozilgan qimmatli asarini hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi bilan o'xshashlik jihatlarini imkoniyat darajasida ilmiy-qiyosiy jihatdan tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik. Olim ushbu asarini yozar ekan avvalo, arab, fors va rus tillarining grammatikasini mukammal o'rganib chiqqan, chunki o'sha davrda

o‘zbek adabiy tilining grammatikasi yaratilmagan edi. Shu sababli ham u o‘zi bilgan bir necha tillarning grammatik qoidalaridan kelib chiqib, shningdek, o‘zbek adabiy tili tarixini, shu tilda yozilgan badiiy-ilmiy asarlar tilini mukammal o‘rganib, qat’iy bir qoidaga asoslangan o‘zbek adabiy tili morfologiyasini yaratdi. Uning bu borada qilgan buyuk ishlari tahsinga sazovor bo‘lib, Fitratdan keyin mazkur ishga qo‘l urgan tilshunos olimlar uchun u dasturulamal bo‘lib xizmat qilganligi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т., Маънавият. 2008.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлари. 5 жилд.-Т., Маънавият, 2006.
3. Асқарова М. Юнусов Р. Муҳаммедова Д. Ўзбек тили практикуми . –Т., 2006.
4. Abdusamatov M. Fors tili. –Т., 2007.
5. Абдурахмонов Г. Шукуров Ш. Махмудов К. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси, -Т., 2008.

QIYOSLANADIGAN TILLARDA AYOLLAR KIIYIMI VA MODASI LUG'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Tillaboyeva Gulruh Soxibbek qizi,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.040>

Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy va madaniy aloqalarga ega bo'lgan tillar bo'ylab ayollar kiyimi va moda lug'atini rivojlantirishning ajoyib sayohatini o'rganadi. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan bir qatorda til evolyutsiyasini o'rganib, biz tilning tarix davomida ayollarning o'zgaruvchan idroki, roli va uslublarini qanday aks ettirishini ochib beramiz. Ingliz, frantsuz, ispan va italyan kabi tillarni qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot til va modaning o'zaro bog'liqligini ta'kidlash, inson ifodasi va o'ziga xosligining murakkab gobelenini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kiyim, kostyum, tatuirovka, poyabzal, bosh kiyimlar.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОЙ ОДЕЖДЫ И МОДНОЙ ЛЕКСИКИ НА СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ

Тиллабоева Гулруха Сахиббека,
преподаватель Ферганского государственного университета

Аннотация: Эта статья погружает в увлекательное путешествие по развитию словарного запаса женской одежды и моды на разных языках, которые имеют общие исторические и культурные связи. Исследуя языковую эволюцию наряду с социальными и культурными сдвигами, мы раскрываем, как язык отражает меняющееся восприятие, роли и стили женщин на протяжении всей истории. Посредством сравнительного анализа таких языков, как английский, французский, испанский и итальянский, данное исследование направлено на то, чтобы подчеркнуть взаимосвязь языка и моды, проливая свет на сложную картину человеческого самовыражения и идентичности.

Ключевые слова: одежда, костюмы, татуировки, обувь, головные уборы.

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S CLOTHING AND FASHION VOCABULARY IN COMPARABLE LANGUAGES

Tillaboyeva Gulruh Sohikbek qizi,
teacher of Fergana State University

Abstract. This article delves into the fascinating journey of the development of women's clothing and fashion vocabulary across languages that share historical and cultural connections. By exploring the linguistic evolution alongside the societal and cultural shifts, we uncover how language reflects the changing perceptions, roles, and styles of women throughout history. Through a comparative analysis of languages such as English, French, Spanish, and Italian, this study aims to highlight the interconnectedness of language and fashion, shedding light on the intricate tapestry of human expression and identity.

Keywords: clothes, suits, tattoos, shoes, hats.

KIRISH. Til va moda o'rtasidagi murakkab munosabatlar madaniyat, o'ziga xoslik va ifodaning dinamik o'zaro ta'siridan dalolat beradi. Tarix davomida ayollar kiyimi badiiy ijod, ijtimoiy sharh va individuallik uchun tival bo'lib xizmat qilgan, u tasvirlangan tillarda shakllangan va shakllangan. Ushbu maqola vaqt va til bo'ylab sayohatga kirishadi, tarixiy va lingvistik aloqalarga ega bo'lgan madaniyatlar bo'ylab ayollar kiyimi va moda lug'ati evolyutsiyasini o'rganadi.

Moda, vizual aloqa shakli sifatida, jamiyatlar o'rtasida g'oyalar va ta'sir almashish imkonini beruvchi geografik chegaralardan oshib ketadi. Til modani ifodalash va tushunish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, turli jamoalarning madaniy nuanslari va tarixiy yo'llarini aks ettiradi. Ingliz, frantsuz, ispan va italyan kabi tillarda ayollar modasi lug'atining rivojlanishini o'rganib chiqib, biz ayollar modasining boy gobelenini yaratish uchun birga to'qilgan an'analar, innovatsiyalar va madaniy almashinuv iplarini ochamiz.

Qadimgi sivilizatsiyalarning nafis liboslaridan tortib zamonaviy yuqori kutyurening nafis siluetlarigacha ayollar kiyimlari jamiyat, texnologiya va estetikaning o'zgaruvchan landshaftlari bilan bir qatorda rivojlandi. Ushbu evolyutsiya davomida til an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qolish va zamonaviy tendentsiyalarni qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynadi. «Xalbat», «vestido», «ko'ylak» va «abito» kabi atamalar nafaqat kiyim-kechak buyumlarini bildiradi, balki ular bilan birga madaniy ma'no va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qatlamlarni ham o'z ichiga oladi.

Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas qismidir. Bir tomondan, bu inson mehnati bilan yaratilgan va ma'lum ehtiyojlarni qondiradigan moddiy qadriyatlar bo'lsa, boshqa tomondan, bular inson qiyofasini estetik jihatdan o'zgartiradigan dekorativ-amaliy san'at asarlaridir. Kiyim me'moriy inshootlar, mehnat va kundalik turmush ob'yektlari bilan birgalikda tarixiy davr ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishini, mamlakatning iqlim sharoitini, xalq hayotining milliy xususiyatlarini va ularning go'zallik haqidagi g'oyalarini aks ettiradi. Ammo «...agar me'morlar uylar qursalar va amaliy san'atning boshqa sohaları rassomlari kundalik hayotda odamni o'rab turgan muhitni yaratishda ishtirok etsalar, u holda dizaynerning ob'ekti insonning o'zi». Kostyum va shaxs o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik tufayli «... hech narsa kostyum kabi nozik nuanslarga ega bo'lgan davrning badiiy didini aks ettirmaydi». «Kiyim» va «kostyum» tushunchalari ko'p jihatdan o'xshash, ammo sezilarli farqlarga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy tilshunoslikda lug'atning ayrim taksonlarini o'rganishga qiziqish, yangi til birliklarining manbalarini aniqlash va ularni tarix nuqtai nazaridan yetarlicha ilmiy tavsiflash muammosi. shakllanish va evolyutsiya, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, shuningdek, lingvomadaniy xususiyatlar to'xtovsiz davom etmoqda. Garchi tilshunoslarning katta qismi rus tili lug'atining alohida tematik guruhlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa-da (A. A. Reformatskiy, A. A. Ufimtseva, D. N. Shmelev, M. A. Borodina, V. G. Gak, V. N. Proxorova, V. V. Kolesova, G. A. Shu bilan birga, lug'atning kam o'rganilgan qatlamlarining sezilarli qismi hali ham mavjud bo'lib, ular tizimli lingvistik ko'rib chiqish va tavsiflash nuqtai nazaridan ilmiy qiziqish uyg'otadi. Kiyim lug'atining ayrim guruhlari frantsuz moda terminologiyasining rivojlanishini o'rgangan S. L. Sonina (1997) kabi tilshunoslarning maqola ob'ektiga aylandi; N.V.Kulakova (2000) A.S.Pushkin tilidagi kiyim nomlarini leksikografik va funksional-stilistik jihatdan o'rgangan, V.G.Kuzina (2001) Oryol shevalaridagi bosh kiyim nomlarining struktur-semantik jihatini tahlil qilgan; V. M. Panova (2002) Voronej shevalarida kiyim nomlarini o'rgangan; GR. Daukaeva (2004) ingliz, nemis va tatar tillarida bosh kiyim va poyabzal nomlarini qiyosiy tahlil qildi; O. R. Rostov (2006) Ivanovo viloyati dialektlarining lug'atiga asoslangan kiyim nominatsiyalarini tasvirlab berdi; Nagorskikh T.N. (2009) "Moda zamonaviy G'arbiy Yevropa madaniyatida qiymat yaratuvchi omil sifatida" ilmiy maqolaida moda masalalari ustida ishlagan; S. O'zer (2016) lug'atning strukturaviy-semantik bog'liqligini o'rgangan. rus va ingliz tillarida kiyimlar; M.Halimova (2002) tojik tilidagi "kiyim" tushunchasini bildiruvchi lug'atni o'rganib chiqdi (Xo'jand va uning atrofi shevasi materiallari asosida); S. Usmonova (1971) tojik tilidagi to'qimachilik bezaklari lug'atini o'rgangan; Ismatova (1983) Samarqand shevalarida tikuvchilik va kashtachilik san'ati lug'atini, shuningdek, Solieva M.A. "Tojik va ingliz tillarida to'qimachilik terminlarining strukturaviy-semantik tahlili" (2014) ishida ingliz va tojik tillarida to'qimachilik

terminologiyasi masalalari ustida ishlagan; Xudoiyeva X.M. (2018) o'zining "Tojik va ingliz tillaridagi zargarlik buyumlari lug'atining strukturaviy-semantik tahlili" nomli ishida tojik va ingliz tillarida kiyim-kechak bezaklarini bildiruvchi leksik birliklarning so'z yasash usullarini qiyosiy formatda ko'rib chiqdi, va boshqalar.

Ayollar kiyimlari tarixi ming yilliklarni qamrab olgan innovatsiyalar, an'analar va madaniy almashinuvlarning jozibali hikoyasidir. Qadimgi tsivilizatsiyalarning o'ralgan liboslaridan tortib, zamonaviy davrning tikilgan ansambllarigacha, ayollar modasining evolyutsiyasi insoniyat jamiyatlarini shakllantirgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik kuchlarning murakkab o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Mesopotamiya, Misr va Yunoniston kabi qadimiy sivilizatsiyalarda kiyim ham amaliy zarurat, ham ijtimoiy mavqe va o'ziga xoslik ramzi bo'lib xizmat qilgan. Ayollar kiyimi ko'pincha Yunonistonda chiton va peplos kabi draped kiyimlardan yoki Misrda zig'ir to'ni va plitkali liboslardan iborat edi. Bu kiyimlar zig'ir, jun, ipak kabi tabiiy tolalardan tayyorlangan bo'lib, kashtachilik, zargarlik buyumlari va bo'yalgan naqshlar kabi bezak elementlari bilan bezatilgan.

Rim imperiyasi tikilgan kiyimlar va murakkab pardozlash usullarini joriy qilish bilan ayollar modasida sezilarli o'zgarishlarni qayd etdi. Stol, uzun, yengsiz tunika, turmush qurgan Rim ayollari uchun eng muhim kiyimga aylandi, peplos va palla esa turmushga chiqmagan ayollar uchun mashhur tanlov bo'lib qoldi. Rim ayollari o'zlarining ijtimoiy mavqei va boyligini bildirish uchun o'zlarini zargarlik buyumlari, aksessuarlar va nozik soch turmagi bilan bezashgan.

O'rta asrlar murakkab hunarmandchilik va nafis kiyim-kechaklarning qayta tiklanishiga guvoh bo'ldi, chunki Evropa Rim imperiyasining soyasidan chiqdi. Bu davrdagi ayollar modasi katta hajmli yubkalar, mahkam o'ralgan ko'ylaklar va bezakli matolarning qatlamlari bilan ajralib turardi. Gildiyalar va savdo yo'llarining paydo bo'lishi to'qimachilik, bo'yoqlar va texnikalar almashinuvini osonlashtirdi, bu esa Evropa bo'ylab turli xil uslublar va siluetlarning tarqalishiga olib keldi.

Uyg'onish davri badiiy va madaniyatning gullab-yashnashining yangi davrini boshlab berdi, Italiya moda innovatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Ayollar kiyimlari tobora ko'proq tikilgan va tuzilgan bo'lib, tananing tabiiy konturiga e'tibor qaratildi. Florensiya, Venetsiya va Milan kabi Italiya shaharlari to'qimachilik ishlab chiqarish va dizayn markazlariga aylandi, ular butun Evropadan malakali hunarmandlar, savdogarlar va homiylarni jalb qildilar.

Ma'rifat davri ayollar modasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi, chunki ratsionallik, foydalilik va soddalik g'oyalari e'tiborga sazovor bo'ldi. Neoklassik estetikaning yuksalishi qadimgi yunon va rim uslublarining jonlanishiga olib keldi, ular oqimli parda, imperiya bellari va engil matolar bilan ajralib turadi. Ayollar modasi ma'rifat davri qadriyatlarini aks ettiruvchi yanada vazmin va amaliy bo'ldi.

Sanoat inqilobi ayollar modasi tarixida burilish nuqtasi bo'ldi, chunki texnologiya va ishlab chiqarish jarayonlaridagi yutuqlar kiyim ishlab chiqarish va tarqatishda inqilob qildi. Tayyor kiyim-kechaklarning ko'payishi va do'konlarning ko'payishi modani demokratlashtirdi va zamonaviy liboslarni barcha ijtimoiy tabaqadagi ayollar uchun ochiq qildi.

Arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, kiyim-kechak insoniyat jamiyatining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. Paleolit davridagi odam (40-25 ming yil oldin) suyak ignalari yordamida turli xil tabiiy materiallarni - barglar, somonlar, qamishlar, hayvonlarning terilarini tikish, to'qish va bog'lash - ularga kerakli shaklni berishni allaqachon bilgan. Bosh kiyim sifatida tabiiy materiallar ham ishlatilgan: qovoq, kokos yoki tuyaqush tuxum qobig'i va toshbaqa qobig'i.

Oyoq kiyimlariga kelsak, ular ancha keyin paydo bo'lgan va kostyumning boshqa elementlariga qaraganda kamroq tarqalgan. Kiyim, dekorativ-amaliy san'atning har qanday ob'ekti kabi, go'zallik va amaliylikni o'zida mujassam etgan holda, inson tanasini sovuq va

issiqlikdan, yog'ingarchilik va shamoldan himoya qiladi.

NATIJALAR

Kiyim dastlab insonni bezash va sinfiy farqlash vositasi sifatida paydo bo'lgan deb faraz qilsak, tarixchilar, arxeologlar, san'atshunoslar ham iqlim va odamlarning turmush tarzining o'zgarishi bilan kiyimning himoya, amaliy funksiyasi sezilarli darajada oshganligini ta'kidlaydilar. Kiyimning to'g'ridan-to'g'ri o'tmishdoshlari tatuirovka, tanani bo'yash va unga sehrlil belgilar qo'llash bo'lib, ular yordamida odamlar o'zlarini yovuz ruhlardan va g'alati tabiatkuchlaridan himoya qilishga, dushmanlarni qo'rqitishga va do'stlarni mag'lub etishga harakat qilishdi. Keyinchalik, tatuirovka naqshlari matoga o'tkazildi. Misol uchun, qadimgi keltlarning ko'p rangli katakli zarb naqshlari Shotlandiya matosining milliy naqshi bo'lib qoldi. Katta rol qadim zamonlarda zargarlik buyumlari rol o'ynagan, ular zarb, soch turmagi yoki bosh kiyimi bilan birgalikda ibtidoiy jamiyatdagi odamning butun kostyumini tashkil etgan. Frantsiyadagi Dordogne g'or rasmlarida va boshqa qadimiy tosh va g'or rasmlarida odamlar shunday tasvirlangan. Suyak yoki toshdan yasalgan uzun marjonlarni, marjonlarni, bilaguzuklarni tirnalgan sehrlil belgilar egalarining jasorati, ovchilik va harbiy jasoratidan dalolat beradi. Qadimgi zargarlik buyumlarining shakli inson tanasining qismlari shakliga ta'sir qilgan. Bo'yin, quloq, burun, lablar, bilak, to'piq, barmoqlar va oyoq barmoqlari va belning shakli marjonlarni, marjonlarni, halqalarni va halqalarning yumaloq yopiq chizig'ini aniqladi.

Xulosa. Kiyimning asosiy shakllarining tarixiy rivojlanishi o'sha davrning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, estetik va axloqiy talablar va san'atdagi umumiy badiiy uslub bilan bevosita bog'liq holda sodir bo'ldi. San'atdagi uslub - bu san'atdagi g'oyaviy mazmunning birligi bilan shartlangan badiiy ifoda vositalari va usullarining majoziy tizimining tarixan shakllangan, nisbatan barqaror birligi. Uslubning asosiy xususiyatlari me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at, adabiyot, musiqada namoyon bo'ladi. Kostyumda umumiy uslub yo'nalishi asosiy shakllar va nisbatlarda, kiyish usulida, ma'lum materiallardan va rang kombinatsiyalaridan foydalanishda, zargarlik buyumlarining tabiatida ifodalanadi. Bir davrning umumiy badiiy uslubidagi o'zgarishlar doimo katta mafkuraviy va ijtimoiy siljishlar bilan bog'liq. Ular uzoq tarixiy davrda sodir bo'ladi. Ammo har bir uslubda ko'proq mobil va qisqa muddatli hodisa - moda mavjud bo'lib, u inson faoliyatining barcha sohalariga ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.
2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, 3(4), 506-514.
4. qizi Tillaboyeva, G. S. (2023). FORMATION STAGES OF ANCIENT PERIOD DRESSES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
5. Tillaboyeva, G. S. TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI.

O'ZBEK QODIRIYSHUNOSLARINING MONOGRAFIK TADQIQOTLARINI O'RGANISH

Elmurod Tursunov Umrzoqovich,
O'zбекистон Davlat Jahon Tillari universitetiningkatta o'qituvchi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.041>

Annotatsiya. Abdulla Qodiriy siymosi o'zbek adabiyotshunosligida romannavislik an'analarini boshlab bergan millatparvar, xalqni taraqqiyotga yetaklovchi "mayoq" kabi o'zbek mumtoz adabiyoti koshonasini o'zining badiiy-estetik, g'oyaviy-uslubiy nafosati bilan yoritib turadi. Maqolada o'zbek jadid adabiyoti namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyatiga doir mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar muayyan davrlarga ajratib tahlilga tortilgan. Har bir davr muayyan adabiy toifalarga ajratib, o'sha davrda ijod qilgan qodiriyshunoslarning adibning ijodiy faoliyatiga doir ayrim mulohazalari berilgan.

Kalit so'zlar: jadid, tanqidiy realizm, sotsiolistik realizm, lingvistik aspekt.

ИЗУЧЕНИЕ МОНОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ УЗБЕКСКИХ КАДЫРИЕВ

Эльмурод Турсунов Умрзакович,
старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. Личность Абдуллы Кадыри своей художественно-эстетической, идейно-стилистической изысканностью освещает мир узбекской классической литературы, как националист, заложивший традицию романистов в узбекской литературе, как «маяк», ведущая нацию к развитию. В статье анализируются проводимые в нашей стране исследования творческой деятельности Абдуллы Кадыри, одного из представителей современной узбекской литературы, путем разделения ее на определенные периоды. Каждый период разделен на определенные литературные категории и приведены некоторые мнения литературоведов, творивших в этот период.

Ключевые слова: жадин, критический реализм, социалистический реализм, лингвистический аспект.

STUDY OF MONOGRAPHIC STUDIES OF UZBEK SCIENTISTS

Elmurod Tursunov Umrzokovich,
senior lecturer at the Uzbekiston State University of World Languages

Annotation. Abdulla Qadiri's individuality illuminates the world of Uzbek classical literature with his artistic-aesthetic, ideological-stylistic beauty, like a nationalist who started the tradition of novelists in Uzbek literature, a "lighthouse" that leads the nation to development. In the article, the research conducted in our country on the creative activity of Abdulla Qadiri, one of the representatives of modern Uzbek literature, is analyzed by dividing it into certain periods. Each period is divided into certain literary categories, and some opinions of the literary experts who created in that period are given.

Key words: jadidizm, critical realism, socialist realism, linguistic aspect.

Kirish. Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, did-farosati, xudo bergan iste'dodi va mahorati singari qator omillar badiiy asarda o'z ifodasini topishga shubha yo'q. Shu ma'noda demoqchimizkim, Abdulla Qodiriy iymon e'tiqodli, pokiza tabiat, haqiqatgo'y bir inson edi. Bu fazilat-xislatlar uning romanlariga ko'chgan, albatta. O'zbek adabiyoti, umuman, jahon adabiyoti tarixi kuzatilganda bir haqiqat ayon bo'ladi: yozuvchi-shoir asosan o'z dunyosini,

o‘z his-tuyg‘ularini kitobxonga ma’naviy ozuqa-mulk sifatida taqdim etadi. Abdulla Qodiriy romanlarining umrboqiylik asoslarini eng avvalo adib shaxsiyatidan, dunyoqarashini shakllantirgan zamindan, adabiyotdagi adabiy mavzularning maromiga yetkazib tasvirlashidan, so‘zning ruhiyatiga ta’siridan va shu singari ko‘zga ko‘rinib-ko‘rinmay turgan hamda hisga ta’sir etib-etmay turgan qator unsurlardan izlash kerak.

Adabiyotlar tahlili. D.Quronov va X.Polvonovalarning “Sharq yulduzi” jurnali 2007-yil 1-sonida “O‘tkan kunlar” romani matniy tadqiqi to‘g‘risida bir maqolasi bosildi. Unda “Inqilob” jurnali bir – ikki marta tilga olinadi. Biroq kengroq qiyoslar, batafsilroq ma’lumot berilmaydi. Ikkinchidan maqolada: “Romanning “Inqilob”dagi nashri bilan, kitob bo‘lib chiqishi orasida besh yillik masaofa bor – bu vaqt mobaynida adibning mahorati o‘sgani shubhasiz”, degan bir taxminiy gap ham “O‘tkan kunlar”ning jurnaldagi parchasini tekshirishga zarurat tug‘diradi.

Romaning nashriga oid yana bir dalil shuki, “Chaqimchiliq” fasli 1924-yili shoir Cho‘lpon tartib bergan “Adabiyot parchalari” to‘plamining 15-21-sahifalarida chop etiladi. Mashhur sharqshunos E.Bertels “O‘tgan kunlar” munosabati bilan “yevropa romani, ingliz romani, rus romanlari bilan bir qatorda o‘zbek romanining yaratilganligi” ni yozgan edi. Ulkan qozoq yozuvchisi, o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Muxtor Avezov fikricha, “O‘tkan kunlar” romani bilan Abdulla Qodiriy 20-yillarda “Sharqning eng ulkan yozuvchisi bo‘lib qolgan edi”. Abdulla Qodiriy ongli ravishda novatorlik yo‘li bilan bordi va izlanishlari samarali bo‘ldi. U o‘zbek romanchilik maktabini yaratdi.

Tahlil va natijalar. XX asrning Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvarqori singari ko‘plab jadidchilik harakati namoyondalari ijod qilgan davri bir necha asrli o‘zbek adabiyoti tarixining oltin sahifalariga aylandi.

Jahon adabiyoti va san’atida shakllangan, bevosita o‘zbek adabiyotshunosligiga ta’sir ko‘rsatgan badiiy metodlar xususidagi muayyan tasavvurlarsiz Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini ilmiy tadqiq va tahlilga tortish imkonsiz. 19-asrning 20-30 yillarida jahon adabiyotshunosligi va san’atida tanqidiy realizm metodi yuzaga keldi. 19-asrning ikkinchi yarmiga kelib o‘zbek adabiyotida ham tanqidiy realizmga xos belgilar ustunlik qila boshladi. Mazkur oqim 19-asrning ikkinchi yarmidan XX-asrning 30 yillari so‘ngigacha saqlanib qoldi. Jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan yaratilgan adabiyot aynan tanqidiy realizm metodi ta’sirida yaratilgan asarlardir. Adibning hayoti va ijodining tadrijiy tadqiq etish xronologiyasini quyidagi tartibda ajratish mumkin.

1. XIX-asrning ikkinchi yarmidan – XX-asrning 30-yillari oxirigacha bo‘lgan o‘rganishlar (Tanqidiy realizm ijodiy metodi hukmronlik qilgan davr). Mavzuga oid maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyati 1913-1914 yillardan [19.16] to XX asrning 30-yillar oxiriga kelib, aniqrog‘i, 1938-yil 4-oktyabrda xalq dushmani sifatida qatl etilgan davrni qamrab oladi, ammo uning ijodiga nisbatan ilmiy-adabiy jamoatchilik qiziqishi 20-30 yillardanoq boshlangan. 1922-yil “Inqilob” jurnalining ayrim sonlarida B.A.Pestovskiyning “O‘zbek teatri tarixidan” nomli maqolasi chop etiladi. Unda o‘zbek sahna asarlari haqida bir yoqlama ma’lumotlar berilgan. Ayni shu maqolaga munosabat tariqasida “Ozbeklarda teatr” nomli boshqa bir maqola chop etilib, unda A.Qodiriyning 1915-yilda teatrlarda sahlalashtirilgan “Baxtsiz kuyov” dramasi xususiada so‘z boradi.[20] Shu yili A.Sad’iyning “Oktabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti”[22] nomli maqolasi, Ali Ismoilzodaning “Adabiyot g‘avg‘osi” [7] maqolasi, 1924-yili esa Ne‘mat Hakimning “O‘zbek adabiyotida tanqid va adabiy muhokamalar”[5] sarlavhali maqolasi, 1925-yili Vadud Mahmudning “Bu kungi she’rlarimiz va san’atkorlkarimiz”[16] deb nomlangan maqolalari bosib chiqariladi.

A.Qodiriy haqidagi dastlabki yirik tadqiqotlardan biri Oybekning “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” [18] nomli risolasidir. Risolada adib ijodining ayrim fazilatlarini va o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi. U Qodiriy romanlariga xos qator xususiyatlarni tanqid qilish bilan o‘zi yozmoqchi bo‘lgan romanlariga xos ijodiy prinsiplarini bayon etadi, ammo mazkur asarlar tahlilida sotsiologik realizm metodlari yetakchilik qiladi. Taniqli adabiyotshunos

B. Karimovning “XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi” mavzusidagi dissertatsiyasida “... 30-yillarning munaqqidlari uchun xolis ilmiy talqindan ko‘ra siyosiy qarorlar muhimroq va asosiy mezon edi.

1928-yilda Mixail Sheverdinning “Birinci o‘zbek romani”[15] maqolasida “O‘tkan kunlar” romani badiiy yuksakligi va betakrorligi haqida so‘z yuritgani holda asarning “g‘oyaviy jihatdan yot” ekanligini qoralab, unga nisbatan “mafkuraviy baho berish”, va “bu bahoni siyosiy qarashlarga bog‘lash”ni maqsad qilgandi. 1931-yil “Sharq haqiqati” gazetasining bir necha sonida qo‘qonlik tanqidchi va adabiyotshunos Sotti Husaynning “O‘tkan kunlar”[6] nomli turkum adabiy-tanqidiy maqolalari chop etildi.

Taniqli adabiyotshunos B.Karimovning “XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi” mavzusidagi dissertatsiyasida “... 30-yillarning munaqqidlari uchun xolis ilmiy talqindan ko‘ra siyosiy qarorlar muhimroq va asosiy mezon edi. 20-asrning oxiri 30-yillarning boshlarida usbu nochor, ayanchli holat badiiy adabiyot ustidan yuritilgan siyosat, so‘z erkinligining bo‘g‘ilishi, nafis adabiyotning partiyaning qarorlarining targ‘ib-tashviq etadigan mafkuraviy qurolga aylantirish jarayoni bilan izohlanadi.”[2.304], – deb yozadi.

2. XX-asrning 30-yillaridan 60-yillar boshlarigacha. (Sotsialistik realizm ijodiy metodi ustunlik qilgan davr, ya’ni adib ijodini tadqiq etishdagi turg‘unlik, bo‘shlik davri). 30-yillarning oxirida uning ijodi siyosiy-mafkuraviy jihatdan baholab kelindi va adabiy qarashlari xolis tahlil qilinmadi. Adib qatl qilinganidan so‘ng uning ijodini yoritmaslikka harakat qilindi. B.Karimovning yozishicha, Abdulla Qodiriy shaxsiyati va uning asarlari borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va qator ilmiy risolalar asosan 1958 yildan, u va uning zamondoshlari oqlanganidan keyin maydonga keldi.[1.160]

3. XX-asrning 60-yillaridan 90-yillarigacha (Sotsialistik realizmning “ochiq metod” deb e‘lon qilinishi). 60-yillardan keyingi davrda A. Aliyev, I. O. Sultonov, M. Qo‘shjonov, S. Mirvaliyev, F. Nasriddinov, I. Mirzayev, H. Qodiriy, Oybek, N.Karimov, X.Lutfiddinova, I.G‘aniyev, U.Normatov, Maqsud Shayxzoda, B.Karimov, H. Qodiriy, K.A.Azzamov, A.O‘rayev, H.Bekmurodov, M. Jalil; M. Otajonova, Sh. Qodiriy kabi qodiriyshunoslar tomonidan uning hayot yo‘li va ijodi borasida qator ko‘plab risola va monografiyalar yaratilgan.

4. XX-asrning 90-yillaridan hozirga qadar (Realizm ijodiy metodining erkin va yangicha qarashlar tamoyilida rivojlanish davri). Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng Abdulla Qodiriy va boshqa adiblar ijodi badiiy qiymat va keng ijtimoiy mazmun kasb etibgina qolmasdan, milliy merosimiz sifatida ham qator ijtimoiy fanlar kesimida o‘rganilish zarurati paydo bo‘ldi.

Z. Mahmudova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida esa A.Qodiriyning milliy xarakter yaratish mahoratini tadqiq va tahlil qilish, asarning milliy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni tekshirish usullari va romanning milliy o‘ziga xos xususiyatlari qalamga olinadi.[26.129] U.Jo‘raqulov, Umarova. M, S.Normatov, N.Karimov, B.Karimov, A.Rasulov, B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dalimov, Sh.Rizayev, A.Axmedov [8., 9., 27., 17., 14., 10., 13., 12., 3.] kabi qodiriyshunos olimlar va adabiyotshunoslar tomonidan monografiyalar, risolalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ko‘plab adabiy-tanqidiy maqolalar bosib chiqarildi. Xususan, adabiyotshunos N.Karimovning “Abdulla Qodiriy zamondoshlari” nomli ensiklopedik xarakterdagi tadqiqot ishida adib bilan bir davrda yashagan 254 kishining tarjimai xoli, ularning yozuvchi bilan munosabatlari va Abdulla Qodiriy yashagan zamon manzarasi aks ettirilgan.

90-yillar boshlarida, xususan, 1994-yilda Abdulla Qodiriy tavalludining 100 yilligini nishonlash munosabati bilan yozuvchi hayoti va ijodiga doir ilmiy maqolalar, kitoblar va izlanishlarda tamomila o‘zgacha ilmiy talqinlar bayon etilgani, adib hayoqi va ijodiga nisbatan “iliqlik” nashidasi esgani ko‘riladi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1989 yil noyabr sonida professor Umarali Normatovning “Obid ketmon haqiqati” nomli maqolasining chop etilishi ham ayni shu iliqlik shabodasi nishonasi edi.

Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda Qodiriyshunos olim Bahodir Karimovning “XX asr

o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi” (Qodiriyshunoslik misolida) mavzusidagi doktorlik ishi va shu ilmiy tadqiqot asos bo‘lgan “Abdulla Qodiriy” nomli monografiyasida adib ijodining o‘zbek va xorij adabiyotshunosligi hamda tanqidchiligida qanday talqin etilganligi har tomonlama ochib berilgan. Tadqiqotchi to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida, umuman, sobiq ittifoqdagi millatlar adabiyotshunosligida badiiy asar talqini ko‘pincha davr siyosatiga muvofiq bo‘lganligi ko‘rinadi. Shu ma’noda, adabiyot va siyosat juftligi filologiya ilmida har vaqt yonma-yon keldi”.

Istiqlol davri tanqidchiligida Qodiriy ijodiy mahoratiga bag‘ishlangan bir qancha maqola, tadqiqot yuzaga keldi. Ularning ayrimlari monografik xarakterda bo‘lib, yozuvchi hayoti va ijodini yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ocherklar va monografiyalar bo‘lsa, ayrimlari ijodkor poetik olamining muayyan qirralarini yoritgan tadqiqotlardir. Jumladan, M.Qo‘shjonovning “O‘zbekning o‘zligi”, I.G‘aniyevning “Ruhiy go‘zallikning qismati”, A.Murodxonovning “Iste’dod jozibasi”, H.Lutfiddinovaning “Gullarning ra’nosi”, “Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi”, B.Karimning “Qodiriy qadri”, “Abdulla Qodiriy”, “Adabiyot badiiyat abadiyat” kabi asarlarda adib poetik olami tadqiq etilsa, U. Normatovning “Qodiriy bog‘I”, A.Aliyevning “Istiqlol va adabiy meros” kitobidagi “Abdulla Qodiriy” ocherki, S.Mirvaliyevning “Abdulla Qodiriy” kabi tadqiqotlarida uning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, istiqlol yillarida Qodiriy ijodini yangicha tafakkur tarzi, yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etish sho‘ro davri qodiriyshunosligi shakllanishiga katta hissa qo‘shgan atoqli munaqqidlar faoliyatiga ham xos xususiyatdir. Ular mustaqillikning ilk yillaridayoq o‘z dunyoqarashlarini qayta qura olgan, avvalgi ayrim mafkuraviy qarashlaridan voz kecha olgan olimlardir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek romanchiligi asoschisi, benazir yozuvchi Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li va boy adabiy merosini monografik tadqiqotlar darajasida o‘rganish ishlari olib borilgan va shu kecha kunduzda uning asarlari xususida adabiyotshunoslik, lingvistik aspektda tekshirish ishlari olib borilmoqda. Kelgusida ham adibning ijod faoliyatiga ta’luqli o‘z yechimisini kutib turgan muammolar o‘zining ijobiy yechimi topishiga ishonamiz. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasiga nazar tashlasak, adibning ijod yo‘li, umuman olganda, o‘zbek jadid adabiyotini tadqiq etilishi, nashriy matmuotlarda keng yoritib borilishi va adib asarlarining badiiyati xususida ilk izlanishlar o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlandi. Olim Sharafiddinov, M.Sheverdin, Sotti Husayn, Oybek, Mirmuhsin, M.Solihov, A.Sad’iy, J.Boypovlatov [23., 24., 6., 18., 28., 25., 21., 4.] kabi adabiy tanqidchilar Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan bir tomonlama, siyosiy tus berishga harakat qildilar. 1929 yil “Sharq haqiqati” jurnalining 218-sonida adib Julqunboy taxallusi ostida ““O‘tkan kunlar” ham “O‘tkan kunlar” tanqidi ustida ba’zi ijohlar” nomli maqolasi bosib chiqariladi. Maqolada adib misrlik yozuvchi Jo‘rji Zaydon ijodidan ilhomlangani, uning ijodi A. Qodiriyning ko‘plab asarlarini yaratilishiga turtki bo‘lgani barobarida o‘sha davrning adabit tanqidchilaridan hisoblangan Sotti Husaynni ham Jo‘rji Zaydon bilan tanishtirib qo‘ygani, unga bir necha bor yordam berganini qalamga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. B.Karimov. Jadidlar. Abdulla Qodiriy.: risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.– 160-b.
2. B.Karimov. XX-asr adabiyotshunosligida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida): dis. ... filologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002. – 304 b.
3. B.Qosimov, Sh. Yusupov, U. Dalimov, Sh. Rizayev, S. Axmedov. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. – T.: Ma’naviyat . 2004.
4. Baybulatov Dj. Uzbekskaya literatura i chagataizm // Za partiyu. 1929. № 3–4. S. 99–111.

5. Hakim N. Turkiston. 1924. – 25 iyun.
6. Husayn S. “O‘tkan kunlar”. – Toshkent — Baku, 1931.
7. Ismoilzoda A. Adabiyot g‘avg‘osi. Turkiston. 1922. – 23 dekabr.
8. Jo‘raqulov U. O‘zbek romani genesisi. – T.: “Nurafshon business”. 2002.
9. Jo‘raqulov U. Qodiriy va roman tafakkuri. – T.: “Nurafshon business” 2020.
10. Karimov B. “O‘tkan kunlar” ibrati. – T.: Mashhur press. 2019.
11. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. – T.: Akademnashr. 2014.
12. Karimov B. Ikka daho-ikki benaho (Bobur va Qodiriy). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2020.
13. Karimov B.. Abdulla Qodiriy fenomeni. – T.: “Info Capital Group”.2019.
14. Karimov N. Abdulla Qodiriy zamondoshlari. – T.: Akademnashr, 2019. -329.
15. M.Sheverdin. Первый узбекский роман. За партию. – T.: 1928. № 3.
16. Mahmud V. Bu kungi she‘rlarimiz va san‘atkorlarimiz. 1925. № 4.
17. Normatov S. Jadid adiblarining lug‘atshunoslik faoliyati. – T.: “Adabiyot uchqunlar”, 2018.
18. Oybek. Abdulla Qodiriyning ijod yo‘li. – Toshkent, 1936.
19. Qodiriy H. Otam haqida: Xotiralar. – To‘ldirilgan 2-nashri. – T.:Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. 16-b.
20. Ravshan. O‘zbeklarda teatr. Inqilob. – 1922. №5-6.
21. Sa‘diy A. O‘zbek burjua adabiyoti. – Toshkent, 1934.
22. Sa‘diy A. Oktabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti.Turkiston. 1922.-7 noyabr.
23. Sharifiy J, Sharafiddinov O. “Obid ketmon” haqida // qizil O‘zbekiston. 1937;.
24. Sheverdin M. Za partiyu. –1928. -№3. – С96.
25. Solihov M. O‘zbek adbiyotida millatchilik ko‘rinishlari. – Toshkent, 1932.
26. Z. Mahmudova. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining milliy o‘ziga xosligi:dis. ... filol. fan. nomzodi. – Toshkent, 1996. – 129 b.
27. Умарова М. Historicism highlighted in Walter Scott’s novel ”Waverly or Tis sixty years and Abdulla Kadiri’s novel “Days gone by” / “Инглиз тилини ўрганишда инновациялар ва ўқитиш амалиёти” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. – Жиззах, 2019. – Б. 455-456.
28. Mirmuhsin. Dinchilar, taraqqiychilar //Sho‘ro, 1917.

KO'P SONLI INGLIZ TILI O'RGANUVCHILARDAN IBORAT AUDITORIYADA FIKR-MULOHAZA BERISHNING AMALIY QIYINCHILIKLARI VA YECHIMLARI

Yuldashev Xurshid Nozim o'g'li
Til or'g'atish kafedrası ingliz tili o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
<https://orcid.org/0009-0000-2746-4428>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.042>

Annotatsiya: Feedback (izohlash, fikr-mulohaza berish) til o'rganishning asosiy omillaridan biri hisoblanib, til o'rganishning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Biroq, ko'p sonli til o'rganuvchilardan iborat auditoriyalarda, feedback bildirish qiyinchilk tug'diradi. Chunki o'qituvchi tomonidan har bir talabagafikr-mulohaza berish ko'p vaqt talab qiladi. Natijada, talabalarning yetarli darajadabilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun imkoniyat kamayadi. Mazkur maqolaning maqsadi ko'p sonli ingliz tili o'rganuvchilardan iborat auditoriyada fikr-mulohaza berishning zamonaviy va samarali usullarini o'rganishdan iborat. Maqolada keltirilgan muammoning yechimlaridan biri o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan bildiradiganfikr-mulohazalari hisoblanadi. Yana bir usul – guruhlariga bo'linib muloqot ko'nikmasini oshirish mobaynida kuzatilgan xatolarga umumiy tarzda fikr-mulohaza berishdir.

Kalit so'zlar: feedback, fikr-mulohaza, tavsiflovchi, motivatsion, tengdoshlarning fikr-mulohazalari, guruhda ishlash, rivojlantirish, samarali

ПРАКТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПРИ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ В БОЛЬШИХ АНГЛИЙСКИХ КЛАССАХ И ВОЗМОЖНЫЕ РЕШЕНИЯ

Юлдашев Хуршид Назимович
Учитель английского языка кафедры обучение языков
Правоохранительная академия Республики Узбекистан

Аннотация: Фидбек является одним из ключевых факторов в изучении языка, поскольку оно способствует развитию знаний и навыков языка. Однако предоставление обратной связи в больших английских классах может быть затруднительным из-за недостатка времени на индивидуальную обратную связь от преподавателя, что может привести к медленному прогрессу среди студентов. Цель данного исследования - изучить способы решения этой проблемы. Одно из предложенных решений - это обратная связь со стороны сверстников, где студенты делятся комментариями друг с другом. Другим методом является обратная коллективная связь на основе работы студентов в группе, выполняющих определенную задачу, направленную на развитие навыков речи.

Ключевые слова: Обратная связь, описательная, мотивационная, фидбек от сверстников, групповая работа, развитие, эффективный

PRACTICAL DIFFICULTIES OF GIVING FEEDBACK IN LARGE ENGLISH CLASSES AND POSSIBLE SOLUTIONS

Yuldashev Xurshid Nozimovich
English teacher at department of language teaching
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: Feedback is one of the key factors in language learning since it paves the way for the development of necessary skills and knowledge. However, giving feedback in large English classes can be difficult since there is not enough time for everyone to receive individual feedback from a teacher, which may result in low progress among students. The purpose of this

article is to investigate the ways to address this issue. One solution presented in this article is peer feedback where students give each other comments. Another method is to give oral collective feedback based on the performance of students engaged in a group work activity.

Key words: Feedback, descriptive, motivational, peer feedback, group work, development, effective

Introduction. Feedback is one of the essential elements of teaching and learning. It facilitates the progress, acts as a level and serves as a beacon in the vast ocean of knowledge where learners are often faced with the waves of uncertainty, difficulties and insecurities in their journey. A growing number of researches point out the benefits of feedback in terms of education. For example, Ferguson (2011) maintains that feedback is a crucial aspect of learning and nurtures skills that are necessary to succeed as a student. Although the importance of feedback is widely known and there is much research about the types of feedback and how to implement them, some teachers still struggle to give proper feedback, particularly in large ELT classes where the number of students can exceed the number of chairs available in the class. This presents a challenge in the form of time constraint as it is virtually impossible to give each and every student quality feedback. Consequently, certain students fall behind others and fail to learn target language successfully. This issue is also common among shy students who are not willing to ask for the feedback or less active students who receive little feedback from teachers due to limited involvement in the lessons. Giving feedback is only one of the many problematic issues of teaching large classes; having said that, it is one which is crucial for learners' educational growth and development. Thus, the purpose of this article is to identify practical difficulties of giving effective feedback in large language classes, particularly in English classes and explore possible ways to address them.

Having been employed at one of the higher education institutions in Uzbekistan where I have to teach English to more than 30 students in one class, I came to realize that I was constantly failing to provide response to my students' performance, as a result of which many students were failing to make significant progress. According to Hattie & Timperley (2007) providing students with feedback is an essential skill for teachers working in universities, and that feedback has a key impact on the learning process. Hence, I was motivated to write this paper to contribute to the development of not only my students but also those students whose teacher reads this paper and aims to make significant progress by giving effective feedback to a group of many students learning the English language.

First of all, practical challenges of giving feedback in large language classes and existing methods to overcome them should be identified. The main challenge, as mentioned above is the time constraint presented by the number of students. If teachers gave feedback to all students, the whole lesson would be dedicated to feedback session, which is undoubtedly impractical and ineffective. This statement is supported by McCarthy (2017) who asserts that giving individual quality feedback in time takes too much time and large class settings make it even more challenging to do. There are several methods to address the lack of time when giving feedback in large classes. One is peer feedback, where students provide feedback to each other, thereby evaluating the progress level and the degree of participation (Blumberg, 2019). In addition, peer feedback nurtures student collaboration and autonomy, which are essential study skills. Rollinson (2005) also favors the idea of peers giving each other feedback as it enhances the autonomy of students. While the feedback from their peers may not be very accurate, it will still create an opportunity to grow with other students, which will save teachers' time that can be used for other activities and lesson procedures.

Another method is to employ oral feedback. While students are working together and performing a certain task, such as speaking activity, a teacher can monitor their performance by walking around and taking notes of mistakes made by students and correct them in front

6. Motivatsiya va qiziqishlar: o'qishda talabaning motivatsiyasi katta rol o'ynaydi. Agar u o'qishga qiziqsa, unda uning natijalari yuqori bo'ladi.

Ushbu omillar shuni ko'rsatadiki, o'rganish har bir talabaning shaxsiy xususiyatlariga qarab individuallashtirilishi kerak. O'qituvchilar ushbu farqlarni hisobga olishlari va har bir talabaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashuvni tanlashlari kerak.

O'rganishni yaxshilaydigan psixologik texnikalar

- ijobiy mustahkamlash yordamida o'rganish
- o'z-o'zini boshqarish va nazorat strategiyasini ishlab chiqish

□ ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun guruhli o'qitish usullaridan foydalanish.

Ijobiy mustahkamlash psixologiya tamoyillariga asoslangan eng samarali o'qitish usullaridan biridir.

Usulning mohiyati ma'lum bir xatti-harakatni rag'batlantirish (mustahkamlash), bu uning kuchayishiga va tez-tez takrorlanishiga olib keladi. Misol uchun, agar talaba to'g'ri javob bergani uchun maqtov yoki mukofot olsa, bu ularga o'z mahoratiga ishonch bag'ishlaydi va mavzuni o'rganishni davom ettirishga undaydi.

Ilg'or o'qituvchilar talabalarni sinfda rag'batlantirish va baholarni yaxshilash uchun ijobiy mustahkamlashdan foydalanishlari mumkin. Bunga sinfda ishtirok etish darajasini oshirish, uy vazifalari sifatini yaxshilash yoki testlarda yuqori ball to'plash uchun mukofotlar kiradi. Mukofotlar moddiy bo'lishi shart emas-bu dalda so'zlari, ramziy mukofotlar yoki hatto tabassum bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu usul mas'uliyat bilan va talabani individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlatilishi kerak. Qo'llab-quvvatlash talabani sa'y-harakatlari va ularning ta'limdagi yutuqlarini aks ettirishiga ishonch hosil qilish muhimdir, aks holda bu no'rin raqobat yoki mukofot olishga nosog'lom intilish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish ta'limoti psixologiya o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradigan yana bir usuldir.

O'z-o'zini boshqarish sizning vaqtingiz, vazifalaringiz va akademik majburiyatlaringizni boshqarish uchun strategiya va ko'nikmalardan foydalanishni anglatadi. Bunga aniq maqsadlarni belgilash, vaqt va resurslarni rejalashtirish, ishingizni tashkil qilish va boshqalar kiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish, aksincha, maqsad va vazifalarga erishish uchun his-tuyg'ularingizni, xatti-harakatlaringizni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Bunga ustuvor vazifalarni belgilash, chalg'itadigan narsalarni yengish, stress va qiyinchiliklarni boshqarish kiradi.

Ushbu ko'nikmalarni o'rgatish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va ularga ta'limni mustaqil ravishda boshqarishda yordam berishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, bu ko'nikmalar vaqt o'tishi bilan rivojlanadi va amaliyotni talab qiladi.

Tahlil va natijalar: Jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'rganiladigan ko'nikma yoki xatti-harakatni aniqlash.
2. Aniq, o'lchanadigan, erishish mumkin bo'lgan, real va vaqt bo'yicha cheklangan maqsadlarni belgilash (SMART maqsadlar).
3. O'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish strategiyalarini tanlash va qo'llash.
4. Rivojlanishni baholash uchun o'z-o'zini baholashni amalga oshirish va kerak bo'lganda strategiyalarni o'zgartirish.
5. Natijalarni aks ettirish va tahlil qilish, shu jumladan rejaga kerakli o'zgartirishlar kiritish.

Ushbu strategiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi, ularning motivatsiyasini oshiradi va yaxshi akademik natijalarga olib keladi.

Guruhli ta'lim aloqa, hamkorlik, nizolarni hal qilish va yetakchilik kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan eng samarali ta'lim strategiyalaridan biridir. Ushbu usul muammolarni yoki loyihalarni birgalikda hal qilish jarayonida talabalarning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

1. Guruhda ishlash: kichik guruhlarda ishlash talabalarga fikr almashish, munozaralar olib borish va umumiy maqsadlarga erishish imkonini beradi. Mas'uliyatni taqsimlash talabalarni faol ishtirok etish va hamkorlik qilishga undaydi.

2. O'rgatuvchi o'yinlari va rolli o'yinlar: ushbu usul talabalarga guruh muammolarini «o'yin» shaklida hal qilish imkoniyatini beradi, bu ularga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va jamoaviy ruhni mustahkamlashga yordam beradi.

3. Fikr-mulohaza va baholash: guruh ishidan so'ng, talabalar nima yaxshi bo'lganini va nimani yaxshilash kerakligini muhokama qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarga ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan o'quv jarayonining muhim qismidir.

4. O'zaro o'rganish (peer learning): bu usul o'quvchilarni bir-biriga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga muloqot va dialog ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va materialni tushunishni yaxshilaydi.

Guruhli o'qitish usullaridan foydalanish nafaqat talabalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, balki ularning bilim va hissiy ko'nikmalarini ham yaxshilaydi, bu esa yanada to'liq va samarali ta'lim tajribasini yaratadi.

Maxsus ehtiyojli talabalarni o'qitishning psixologiyasi va o'ziga xos xususiyatlari

o'qitishda individual yondashuvdan foydalanish

rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun moslashuvchan ta'lim usullarini qo'llash

O'qitishda individual yondashuvdan foydalanish maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan talabalar bilan ishlashning asosiy elementidir. Bu o'qituvchilarga har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish va ularga muvaffaqiyatli o'rganish uchun kerakli yordamni taqdim etish imkonini beradi.

1. Individuallashtirilgan ta'lim: bu o'quv dasturi, o'qitish usullari va materiallarini har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Ko'proq vaqt yoki qo'shimcha resurslar kerak bo'lishi mumkin, ammo natijada har bir talaba uchun ishlaydigan o'quv dasturi bo'ladi.

2. Vizual, eshitish yoki kinestetik o'qitish usullaridan foydalanish: har bir talaba ma'lumotni o'zlashtirishning o'ziga xos usuliga ega. O'qituvchilar barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil o'qitish usullaridan foydalanishni talab qiladilar.

3. Qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar: jismoniy va aqliy qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar uchun turli xil qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar, masalan, moslashtirilgan uskunalar, kompyuter dasturlari va o'rganishni osonlashtiradigan dasturlar foydali bo'lishi mumkin.

4. Ijobiy mustahkamlash va fikr-mulohazalar: ushbu strategiyalar, ayniqsa, alohida ehtiyojli talabalar uchun juda muhimdir, chunki ular past ishonch bilan kurashishlari yoki salbiy xulq-atvor modellarida ishtirok etishlari mumkin. Ijobiy mustahkamlash va konstruktiv fikr-mulohazalar o'quvchilarning motivatsiyasi va ishonchini oshirishi mumkin.

Individuallashtirilgan ta'lim yondashuvi alohida ehtiyojli o'quvchilarga akademik jihatdan ustun bo'lishga imkon beradi va ularga mustaqil o'quvchi bo'lishga yordam beradi.

Adaptiv o'qitish texnikasi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga materiallarni o'rganishda va akademik vazifalarini tengdoshlari singari muvaffaqiyatli bajarishda yordam berish uchun mo'ljallangan. Bu yerda ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi usullar mavjud:

1. Differentsial ta'lim: bu har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish uchun tarkib, jarayon, mahsulot va o'quv muhitini moslashtirishni o'z ichiga olgan yondashuv. U bir vaqtning o'zida turli xil qobiliyatlarga ega talabalarni o'qitish uchun ishlatilishi mumkin.

2. Strukturaviy ta'lim: rivojlanish qobiliyatiga ega bolalar uchun bashorat qilinadigan va tuzilgan jadval yoki harakatlar ketma-ketligini yaratish muhimdir. Bu ularga umidlarni va bundan keyin nima qilish kerakligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

3. Vizual qo'llab-quvvatlash: tasvir kartalari, diagrammalar, grafikalar va jadvallar kabi vizual qo'llab-quvvatlashlar nogiron bolalarga ma'lumotni ko'rish va tushunishga yordam beradi. Ular, ayniqsa, aloqa yoki ijtimoiy aloqada muammolari bo'lgan bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

4. Adaptiv texnologiyalar: adaptiv texnologik qurilmalar va dasturlar alohida ehtiyojli bolalar uchun o'quv jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin. Bunga Audiokitoblar, o'qish va yozish dasturlari va boshqa vositalar kiradi.

5. Ko'p marotaba o'rganish: rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ko'plab bolalar uchun ma'lumotni o'zlashtirish uchun uni qayta ko'rib chiqish yoki mashq qilish kerak. Bolalarga materialni qayta-qayta mashq qilish imkoniyatini berish ularga muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Ushbu usullardan tashqari, ijobiy munosabat va bag'rikenglikni saqlash, shuningdek, har bir bolaga o'z salohiyatiga erishishga yordam beradigan yangi strategiyalarni o'rganish va sinab ko'rishni davom ettirish muhimdir.

Psixologiya o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, o'qitish usullari, talabalar ehtiyojlari va motivatsiyasiga ta'sir qiladi.

1. O'qitish usullariga ta'siri: psixologiya o'qituvchilarga o'quvchilar ma'lumotni qanday qabul qilishlari va o'zlashtirishlarini tushunishga yordam beradi. Bu vizual va eshitishdan kinestetikgacha bo'lgan turli xil o'qitish usullaridan foydalanishga va ushbu usullarni har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirishga olib keladi.

2. Talabalarning psixologik ehtiyojlari: talabalar psixologiyasini tushunish ularning ehtiyojlarini va ularni o'rganishga nima undayotganini aniqlashga yordam beradi. Bunga qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari, ijobiy mustahkamlash va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash kiradi.

3. Motivatsiya va muvaffaqiyatga erishish: o'quvchilarning motivatsiyasini psixologik tushunish o'qituvchilarga rag'batlantiruvchi va jalb qiluvchi ta'lim muhitini yaratishda yordam beradi. Konstruktiv fikr-mulohazalar va mukofotlar akademik muvaffaqiyatga erishish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar bo'lishi mumkin.

4. Psixologiya va o'quv qiyinchiliklari: boshqa narsalar qatori, psixologiya o'quv qiyinchiliklariga duch kelgan talabalarni, shu jumladan alohida ehtiyojli talabalarni aniqlash va ularga yordam berishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, psixologiya har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashish va o'rganish uchun maqbul muhitni ta'minlash uchun mo'ljallangan o'quv jarayonida katta ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayoniga psixologik yondashuvni joriy etish bir necha usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Talabalarni o'rganish: o'qituvchilar o'zlarining ehtiyojlari, o'rganish uslublari va motivatsiyasini yaxshiroq tushunish uchun o'z o'quvchilarini chuqur o'rganishlari mumkin.

2. Ta'lim turini birlashtirish: ushbu tushunchaga asoslanib, o'qituvchilar o'zlarining o'qitish usullarini talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish va ularning faol ishtirokini rag'batlantirish uchun moslashtirishlari mumkin.

3. Rag'batlantiruvchi muhitni yaratish: bu konstruktiv fikr-mulohazalarni, tez-tez maqtashni va o'quvchilarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun qimmatli yutuqlarni mukofotlashni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Qo'llab-quvvatlash: psixologik tushuncha, shuningdek, o'qituvchilarga o'quv qiyinchiliklarini tan olishga va o'z vaqtida maqsadli yordam ko'rsatishga yordam beradi.

5. Davom etayotgan ta'lim va kasbiy rivojlanish: o'qituvchilar kasbiy rivojlanish va davom etayotgan ta'lim bilan shug'ullanish orqali o'zlarining psixologik ko'nikmalari va bilimlarini oshirishlari mumkin.

6. Professionallar bilan hamkorlik: psixologlar yoki psixologik maslahatchilar bilan hamkorlik qilish o'qituvchilarga samarali strategiyalarni qo'llashda va o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda yordam berishi mumkin.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali ta'lim muassasalari o'quv muhitini yaxshilash, o'quvchilarning faol ishtiroki va muvaffaqiyatini rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1. Ta'lim nazariyalarini bilish: o'qituvchilar va ota-onalar turli xil psixologik ta'lim va rivojlanish nazariyalarini, shu jumladan motivatsiya va xotira nazariyalarini o'rganishlari mumkin. Bu ularga bolalarning qanday o'rganishini yaxshiroq tushunishga va ularni o'rganishga

undashga yordam beradi.

2. Ijobiy mustahkamlashdan foydalanish: ta'lim psixologiyasi sohasidagi asosiy tushunchalardan biri bu ijobiy mustahkamlash, ya'ni kerakli xatti-harakatlarni ijobiy stimullar bilan mustahkamlashdir. Bu o'rganishni rag'batlantirish va motivatsiyani saqlab qolish uchun ishlatilishi mumkin.

3. Shaxsiy farqlarga bilim va bag'rikenglik: har bir talaba o'ziga xos va o'ziga xos kuchli va zaif tomonlariga ega. Ushbu individual farqlarni tushunish va qabul qilish o'qituvchilar va ota-onalarga ma'lum bir talaba uchun o'rganishni moslashtirishga yordam beradi.

4. Moslashuvchan fikrlashni rag'batlantirish: ota-onalar va o'qituvchilar bolalarga muammolarni hal qilish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash va akademik ijodkorligini rag'batlantirish orqali moslashuvchan fikrlashni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

5. Mutaxassislar bilan hamkorlik: o'qituvchilar va ota-onalar psixologik strategiyalarni qanday qo'llashni tushunish, eng yaxshi amaliyotlardan o'rganish va eng yaxshi o'rganishni ta'minlash uchun psixologlar va boshqa ta'lim mutaxassislari bilan ham muloqot qilishlari mumkin.

6. Qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish: xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini ta'minlash bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, ta'limni yaxshilash uchun psixologiyadan foydalanishda asosiy narsa o'qituvchilarga qanday o'rganishni o'rgatish, ularni motivatsiya, o'rganish strategiyalari va ma'lumotni qanday qilib eng yaxshi o'zlashtirishlarini tushunishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018.
2. Davletshin M.G., To'ychiyev S.M. Umumiy psixologiya. T.:TDPU, 2012.
3. G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. "Noshir" nashriyoti 2012.
4. Hockenbury & Hockenbury. Psychology. Worth Publishers, 2010.
5. „Psychology is a Hub Science“. Aps Observer. 20-jild, № 8. Haziran 2020. „psychology is a hub discipline - that is, a discipline in which scientific research is cited by scientists in many other fields. Association for Psychological Science Observer (September 2007).
6. Yaşam boyu gelişim. Nobel Yayıncılık, 2012. ISBN 9786051331522.
7. Çevre Psikolojisi. Nobel Yayınları, 2016. ISBN 9786053202110

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY SALOHIYAT RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Norbekova Barno,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya fakulteti "Yoshlarpsixologiya" kafedrasida v.b. dotsent

Rahmatullayeva Mushtariy,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya fakulteti "Oilapsixologiya" yo'nalishi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.048>

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish ularning umumiy o'sishi va muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Turli xil ijtimoiy-psixologik omillar bu yosh o'quvchilarning ijodkorligini tarbiyalash va rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolamizda Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy salohiyat rivojlanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, garmonik tuyg'u, motivatsiya, dunyoqarash, innovatsiya madaniyatini, insonparvarlik, professional, kombinatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Норбекова Барно,

кафедра «Психологии молодежи» Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, факультет психологии и др.
Доцент

Рахматуллаева Муштари,

Мирзо Национальный университет Узбекистана имени Улугбека, Джизакский филиал, факультет психологии, преподаватель кафедры «Семейная психология»

Аннотация: Развитие творческого потенциала учащихся начальной школы очень важно для их общего роста и успеха. Большое влияние на воспитание и развитие творческих способностей этих юных школьников оказывают различные социально-психологические факторы. В данной статье представлены общие сведения о социально-психологических детерминантах развития творческого потенциала учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Творчество, гармоничное чувство, мотивация, мировоззрение, инновационная культура, гуманизм, профессионализм, сочетание.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Norbekova Barno,

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Jizzakh Branch, Faculty of Psychology, Department of «Youth Psychology», etc. associate professor.

Rahmatullayeva Mushtariy,

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Jizzakh Branch, Faculty of Psychology, teacher of «Family Psychology»

Abstract: Developing the creative potential of elementary school students is very important

for their overall growth and success. Various socio-psychological factors have a great influence on the education and development of the creativity of these young students. This article provides general information about the socio-psychological determinants of the development of creative potential in primary school students.

Key words: Creativity, harmonious feeling, motivation, outlook, culture of innovation, humanitarianism, professional, combination.

Ma'lumki, zamonaviy ta'limning bosh maqsadi ta'lim – tarbiya berish, o'quvchilar hamda talabalarning individual imkoniyatlari o'rganish hamda o'quv faoliyatining intellektual, kognitiv, emotsional, motivatsion jihatlarini ilmiy jihatdan tekshirishdan iboratdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala– bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Bugungi kunda erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir, yani o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosi respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ta'limdagi yangilanishlar ta'lim jarayoni orqali o'quvchini o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'z-o'zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish ularning umumiy o'sishi va muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ijodkorlikni tarbiyalash va oshirishda bir qancha ijtimoiy-psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Ijodiy qobiliyatlar muammosi uzoq vaqtdan beri turli madaniyatlar va davrlardagi turli olimlar va mutafakkirlarning hissalarini bilan psixologiyani qiziqarli tadqiqot sohasi bo'lib kelgan. Sharqdan Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar, rus psixologlari B.M. Teplov, B.G. Ananov, N.V.Kuzmina, S.L. Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N. Myasishev va A. Bine, T. Simon, F. Galton, V. Shtern, U. Allport, K. Rodgers kabi g'arb olimlari ijodkorlikni tushunishga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda psixologlar E.G'oziyev, R.Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va boshqalar ham ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borishdi. Ijod, mohiyatiga ko'ra, insonning yangi g'oyalar va muammolarni hal qilish qobiliyatini anglatadi. Ijodiy qobiliyat odatda o'ziga xoslik, amaliylik, g'ayrioddiylik va so'z erkinligi kabi xususiyatlar bilan bog'liq.

Ijodiy fikrlash odamlarga muammolarga turli tomonlardan yondashish imkonini beradigan o'ziga xos nuqtai nazarni o'z ichiga oladi. Bu ko'pincha mavjud muammolarga innovatsion yechimlar yoki yangi yondashuvlarga olib keladi. Ijodiy fikrlashni an'anaviy usullarni mavjud bilimlarga tayanmasdan, noldan boshlab yangi yoki takomillashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish jarayoni sifatida ko'rish mumkin. Bu ijodiy fikrlash qobiliyati muammolarni hal qilish, innovatsiyalar va shaxsiy o'sish uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatining rivojlanishiga shaxsda mavjud bo'lgan tug'ma qobiliyat va iste'dodlarning kombinatsiyasi ta'sir qiladi. Ba'zi

o'quvchilar yangi ko'nikmalarni tezda o'rganish va o'zlashtirish uchun tabiiy qobiliyatlarini namoyish etishlari mumkin bo'lsa-da, hamma o'quvchilar bir xil darajadagi tug'ma iste'dodga ega emas. Shunday ekan, barcha yoshlarning iqtidor va ko'nikmalarini rivojlantirish va oshirishga e'tibor qaratish pedagoglar, oilalar va umuman jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni turli tadbirlarda qatnashishga undash va jamoada o'zlarini sinab ko'rish ularga o'zlarining tug'ma qobiliyatlarini kashf etish va rivojlantirishga yordam beradi. Maktab to'garaklari, guruh loyihalari, fan olimpiadalari kabi tanlov tadbirlari va o'quv topshiriqlari kabi tadbirlarda qatnashish bolalarga o'z iste'dodlarini kashf etish va qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

Iste'dod tushunchasi qobiliyat g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, iste'dod ko'pincha odamlarda mavjud bo'lgan tabiiy moyillik yoki sovg'a sifatida qaraladi. Ba'zi qobiliyatlar o'ziga xos bo'lishi mumkin bo'lsa-da, iste'dodni rivojlantirish amaliyot va uzluksiz o'rganish orqali rivojlantirilishi va kuchaytirilishi mumkin. Ko'p hollarda tabiiy qobiliyatlar aniq iste'dodlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "Tabiiy", "tug'ma" yoki "tabiatdan iqtidorli" kabi atamalar ko'pincha shaxsning iste'dodiga hissa qo'shadigan bu tabiiy qobiliyatlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Iste'dodlarni vaqt o'tishi bilan maxsus harakat va amaliyot orqali rivojlantirish va sayqallash mumkinligini tan olish kerak. Masalan, musiqaga tug'ma yaqinligi bo'lgan kishi "garmonik tuyg'u" bilan tug'ilishi shart emas, balki o'z musiqiy qobiliyatini ta'lim va amaliyot orqali rivojlantirishi mumkin. Yoshlarga o'z qiziqishlarini o'rganish, yangi ko'nikmalarni o'rganish va o'zlarini sinab ko'rishlari uchun imkoniyatlar yaratib, ularga o'z salohiyatini to'liq ochish va iste'dodlarini to'liq rivojlantirishga yordam berish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda, ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan turli xil ijtimoiy-psixologik omillar mavjud. Jumladan:

- Bolalar o'sadigan va o'rganadigan ijtimoiy muhit ularning ijodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oila qo'llab-quvvatlashi, tengdoshlarning o'zaro munosabati va jamoat resurslari kabi omillar bolaning ijodini rivojlantirishi yoki to'sqinlik qilishi mumkin.

- Ijobiy rag'batlantirish, turli tajribalar bilan tanishish va ijodiy o'zini namoyon qilish imkoniyatlari bolaning ijodiy salohiyatini oshirishi mumkin. Bolalarga o'z qiziqishlari va g'oyalarini o'rganish erkinligini ta'minlash ularning ijodiy salohiyatini ochishi mumkin. Ochiq topshiriqlar, guruh faoliyati va loyiha asosidagi ta'lim o'quvchilarga o'zgacha fikr yuritishga yordam beradi. Yangi tajribalarga ochiqlik, qiziquvchanlik, fikrlashda moslashuvchanlik, tavakkal qilishga tayyorlik kabi individual psixologik xususiyatlar ijodiy salohiyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'sish tafakkurini va qiyinchiliklarga ijobiy munosabatni rivojlantirish o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini ham oshirishi mumkin. Maktablarda qo'llaniladigan ta'lim tizimi va o'qitish usullari o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

- Divergent fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantirish va loyiha asosida o'qitishni rag'batlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini oshirishi mumkin. O'z-o'zini namoyon qilish, izlanish va tajriba o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratish yosh o'quvchilarda ijodkorlikni rag'batlantirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

- Madaniy omillar, jumladan, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, an'analar va e'tiqodlar bolalarda ijodiy salohiyatning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. Madaniy xilma-xillikni qamrab olish, o'quvchilarni turlicha dunyoqarashini ochib berish va ularni atrofda dunyo haqida tanqidiy fikrlashga undash ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishi mumkin. Motivatsiya va jalb qilish ijodiy salohiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z-o'zidan g'ayratli, qiziquvchan va o'rganishga ishtiyoqi bo'lgan talabalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini o'rganish va ijodiy tavakkal qilish ehtimoli ko'proq. Mustaqillik, o'zlashtirish

va maqsadli imkoniyatlarni ta'minlash o'quvchilarning ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Ushbu ijtimoiy-psixologik omillarni tushunish va hal qilish orqali o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi mumkin. Ijodkorlikni rag'batlantirish, o'zini namoyon qilish imkoniyatini yaratish va innovatsiya madaniyatini tarbiyalash yosh o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini to'laqonli rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sohibjon o'g'li, M. O. (2024, March). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. In E Conference Zone (pp. 6-10).

2. Rahmatullayeva, M. (2023). GORDON ALPORTNING SHAXS XUSUSIYATLARI KONSEPSIYASIHAQIDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 180-185.

3. Rahmatullayeva, M., & Esanboyev, T. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHI VA O'SMIRLIK DAVRIDAMEN KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 186-191.

4. Rahmatullayeva, M., & Toshtemirova, N. (2023). SHAXSNING SOTSIAL-MADANIY NAZARYASI KREN XORNI TALQINDA. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 174-179.

5. Rahmatullayeva, M. (2023). BF SKINERNING OPERANT XULQ-ATVOR NAZARIYASI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 199-204.

6. Gulnoza, R., Mushtariy, R., & Makhliyo, S. (2023). THE PHYSIOLOGICAL BASIS OF TEMPERAMENT: UNRAVELING THE COMPLEXITIES OF HUMAN NATURE. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(2), 243-247.

7. Rahmatullayeva, M., & Norqulova, I. (2023). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOSLASHTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(3), 83-88.

8. Gulnoza, R., Mushtariy, R., & Yoqubjon, M. (2023). THERAPY, PHYSIOLOGY OF SENSATION AND PERCEPTION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 2(2), 214-219.

9. Rahmatullayeva, M., Khasanov, F., & Abduganieva, A. (2023). ATTENTION AND MEMORY AS A MENTAL PROCESS. Наука и инновация, 1(10), 60-62.

10. Rashidova, G., Rahmatullayeva, M., Saidov, S., & Egamqulova, S. (2023). Character, ability, and action: the unity of human activity. Наука и инновация, 1(10), 152-155.

11. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO'LLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(2).

12. Rahmatullayeva, M., & Karimova, N. (2023). Maktabgacha ta'lim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari. Журнал педагогике и психологии в современном образовании, 3(2).

DINAMIK STERIOTIPLAR INSONDA YUZAGA KELUVCHI MURAKKAB HISSİY HOLATLARNING ASOSI SIFATIDA

Obidova Dilnoza Maqsud qizi,
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.049>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sabiy dinamik steriotiplarning insonda hosil bo'lish strukturasi, salbiy tasiri, qizlarda va yigitlarda farqlashi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek singib ketgan xato o'y-fikrlarning insonga va butun insoniyatning baxt ko'rsatkichiga olamshumul ta'siri haqida yoritib o'tilgan. Insonda steriotiplarning yoshga, jinsga, irqga, ish joyiga kora, vaznga ko'ra o'ziga hos farqlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Steriotip, ehtiyoj, hissiyot, vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretsiya bezlari, yuksak ma'naviy hislar, estetik hislar, kognitiv assotsatsiyalar, madaniy ta'sir, ijtimoiy ta'sir.

DYNAMIC STEREOTYPES AS THE BASIS OF COMPLEX EMOTIONAL STATES THAT OCCUR IN HUMANS

Obidova Dilnoza Maqsud kizi,
teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article talks about the structure and negative effects of dynamic stereotypes in a person, the difference between girls and boys. It also include light on the universal impact of ingrained wrong thoughts on the happiness of all mankind. Specific differences of stereotypes in humans according to age, gender, race, workplace, and weight are highlighted.

Key words: Stereotype, need, emotion, vegetative nervous system, endocrine glands, high spiritual feelings, aesthetic feelings, cognitive associations, cultural influence, social influence.

ДИНАМИЧЕСКИЕ СТЕРЕОТИПЫ КАК ОСНОВА СЛОЖНЫХ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ У ЧЕЛОВЕКА

Обидова Дильноза Мақсуд кизи,
преподаватель Джизакского государственного педагогического университета.

Аннотация: В данной статье говорится о структуре и негативном влиянии стереотипных стереотипов, отличии девочек от мальчиков, а также проливается свет на универсальное влияние укоренившихся ошибочных представлений на человека и на индекс счастья всего человечества. Выделены специфические различия стереотипов у человека в зависимости от возраста, пола, расы, места работы, веса.

Ключевые слова: Стереотип, потребность, эмоция, вегетативная нервная система, железы внутренней секреции, высокие духовные чувства, эстетические чувства, когнитивные ассоциации, культурное влияние, социальное влияние.

Mamlakatimizda har xil sohalarda amalga oshirilayotgan har bir islohotning asl maqsadi aholi turmush sharoitini yengillashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, rivojlanmagan sohalarni rivojlantirish va butun dunyoda yurtimizning baxt ko'rsatkichini oshirish sanaladi. Jamiyatning monomeri inson sanaladi, qachonki u o'zini yaxshi his qilganda, sog'lom bo'lganida rivojlanaoladi va rivojlantiradi. 2023.03.25 dagi "Butunjahon baxt ko'rsatkichi" ning yangi nashriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi 54-pog'onadan o'z joyini egalladi. Tadqiqotchilar ko'zda tutgan asosiy masalalar aholining daromad miqdori, salomatligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, ish bilan ta'minlanganlik darajasi va korrupsiya darajasi sanaladi. Bunga

qo‘shimcha ravishda fuqorolarning erkinlik darajasi, xavfsizlik va kelajakka ishonch, shuningdek oila barqarorligi ko‘rsatkichlarini ham o‘z ichiga oladi. Hammada qiziqish o‘yg‘otadigan baxt ko‘rsatkichi eng yuqori bo‘lgan davlat Finlandiya sanaladi, baxt ko‘rsatkichi eng past bo‘lgan davlat esa Afg‘oniston bo‘lib 137-pog‘onadan o‘z joyini olgan. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, inson baxt ko‘rsatkichiga bir emas bir nechta omillar birgalikda ta‘sir etadi. Inson da hosil bo‘luvchi ko‘pgina salbiy hislarning asosiy negizi ko‘p holatda uning ongiga singib ketgan xato o‘y fikrlar majmuasi ta‘sirida sodir boladi deb hisoblaymiz. Inson ongiga singib ketgan o‘y fikrlar majmuasi esa stereotiplardir.

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik stereotipning yotishi yaqqol ko‘rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo‘lsak, biron yoqimli kuydan lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o‘rin yo‘q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyni bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo‘lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik stereotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug‘diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug‘diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik stereotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olm aslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo‘ladi.

Hissiyot odamda sodir bo‘layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a‘zolariga ta‘sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo‘zg‘ovchilardan aniq bo‘lib ajraladi, ba‘zilari bir-birlari bilan qo‘shilib ketadi va paydo bo‘lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada ta‘ssurot uyg‘otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma‘lum qo‘zg‘atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo‘ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po‘sti qismining faoliyati bilan bog‘liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchiniva barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po‘stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a‘zolari faoliyati bilan ham bog‘liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog‘liqdir. CHunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo‘rqan paytida esa rangi o‘chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozida ham o‘zgarish paydo bo‘ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi[1].

Demak, odam ma‘lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekretiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog‘iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo‘rqish paytida «YUragi orqaga tortib ketdi», «Sovuq ter bosib ketdi» kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning

ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak»[2].

Stereotiplar - bu ma'lum bir odamlar guruhi bilan bog'liq umumiy e'tiqodlar, xususiyatlar yoki xususiyatlarni o'z ichiga olgan kognitiv tuzilmalar yoki aqliy tasavvurlar. Ular ko'pincha irqi, jinsi, yoshi yoki kasbi kabi ijtimoiy, madaniy yoki demografik toifalarga asoslanadi. Stereotiplarning tuzilishi, odatda, guruh ichidagi individual farqlarni tan olishdan ko'ra, butun guruh haqidagi e'tiqodlar yoki taxminlar to'plamini o'z ichiga oladi. Stereotiplar ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin, garchi salbiy stereotiplar ko'proq tarqalgan va ta'sirli bo'lsa-da. Bu erda odatda stereotiplar tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi komponentlar mavjud:

1. Umumlashtirishlar: Stereotiplar ma'lum xususiyatlar yoki xatti-harakatlar ushbu guruhdagi barcha shaxslarga tegishli deb hisoblab, bir guruh odamlar haqida umumlashmalarni o'z ichiga oladi.

2. Soddalashtirish: Stereotiplar murakkab ijtimoiy voqelikni soddalashtiradi, bunda shaxslarni keng guruhlariga bo'lish va shu guruhning barcha a'zolariga bir xil xususiyatlarni kiritish orqali.

3. Haddan tashqari umumlashtirish: Stereotiplar ko'pincha haddan tashqari umumlashtirishni o'z ichiga oladi, ya'ni ular bir nechta shaxslar bilan bog'liq e'tiqod yoki xususiyatlarni butun guruhga kengaytiradi.


4. Kognitiv assotsiatsiyalar: Stereotiplar kognitiv assotsiatsiyalar orqali shakllanadi, bu erda ma'lum xususiyatlar yoki xatti-harakatlar odamlar ongida muayyan ijtimoiy guruh bilan bog'lanadi.

5. Madaniy va ijtimoiy ta'sirlar: Stereotiplarga madaniy me'yorlar, ommaviy axborot vositalari tasvirlari, sotsializatsiya jarayonlari va individual tajribalar ta'sir qilishi mumkin[3].

Bolalar atrofdagi insonlarni ko'rish va taqlid qilish orqali dunyo haqida ilk tushunchalarni o'rganishadi va stereotiplar chuqur tomir ota boshlaydi. Bola taraqqiyotiga oilasi, qarindoshlari, do'stlari, o'yinlar, o'yinchoqlar va maktab ta'limi ta'sir etadi. Stereotiplar insonlarning yoshiga, og'irligiga, ish joyiga, teri rangiga, jinsiga ko'ra farqlanadi.

Stereotiplar hilama-xiligini foizlarda ko'rinishi.

Stereotiplar hilama-xiligini foizlarda ko'rinishi.



Quyida siz stereotiplarni chuqurroq tushunishingiz va ulardan imkon qadar qochishga harakat qilishingiz uchun bir qancha misollar keltiramiz.

Qizlar va yigitlar o'rtasidagi stereotiplarning taqqoslanishi.

№	Qizlar	Yigitlar
1	Qizlar yuvoshroq bo'lishadi va boshqalarni hursand qilishni hohlashadi.	Yigitlar tushuntirishlarni eshitishni hohlashmaydi va kamroq diqqatli bo'lishadi.
2	Qizlar odatda hech narsa bo'lmasa ham uzoq arazlab yurishadi.	Yigitlar o'rtasidagi nizo oson yechim topadi va vahimali bo'lmaydi.
3	Qizlar faqatgina qo'g'irchoqlarga va kichik bolalarga qarash bo'yicha ro'l o'ynashni yoqtirishadi.	Yigitlar faqat binolar qurishga, yuk mashinalari va yengil moshinalar o'ynashga qiziqishadi.
4	Qizlar qo'l mehnati buyumlarini yasashadi va kun bo'yi o'qituvchi bo'lib o'ynay olishadi.	Agar ko'chada yomg'ir yog'sa, yigitlar uchun kun bo'yi uyda o'tirish juda qiyin.

Bundan tashqari quyida aynan o'zbek mentalitetiga hos bo'lgan bir qancha salbiy stereotiplarni keltirib o'tamiz.

- 1 Odamlar nima deydi.
- 2 Qaynona yomon.
- 3 Ayolning mingta joni bor.
- 4 Erkaklar uy ishlari kabi mayda ishlarga aralashishi kerak emas.

Yuqorida keltirilgan yillar davomida insonlar ongiga singib ketgan fikrlar insonlar hayotida turli toqnashuvlarga, nizolarga sabab bo'lmoqda. Ya'ni, murakkab bilish jarayoni sanalgan tafakkurning taqqoslash opratsiyasi yordamida real hayotda sodir bo'lyotgan amaliy voqea hodisalarni unda mavjud bo'gan singib ketgan fikrlarga taqqoslash natijasida, yuzaga kelgan vaziyatning darajasiga ko'ra yoki ijobiy yoki salbiy his hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan his esa insonni chuqur o'ylashga qo'ymaydi va aftomat tarzda boshqara boshlaydi. Albatta buning natijasi ko'p holda yaxshi bo'lmasligi hech kimga sir emas.

Shuni ta'kidlash kerakki, stereotiplar har doim ham guruh ichidagi shaxslarning to'g'ri yoki adolatli vakili emas va ular noto'g'ri qarashlar, va diskriminatsiyani davom ettirishi mumkin. Stereotiplarni tan olish va ularga qarshi kurashish turli guruhlar o'rtasida tushunish, adolat va tenglikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan. 699 p
2. Павлов И. П. Полное собрание сочинений, т. 3, кн. 2 с. 240, М.— Л., 1951
3. Купалов П. С. Учение о рефлексе и рефлексорной деятельности и перспективы его развития, в кн.: Философские вопр, физиол, высшей нервной деятельности и психологии, под ред. П. Н. Федосеева

BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TADQIQ ETISHNING AMALIY ASOSLARI

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna

BuxDu Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.050>

Anotatsiya. Bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlikomillarini tajribaviy tadqiq qilishmuqarrarligini ko'rsatishi, buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kompetentlikning xorijda va sharq olimlar tomonidan berilgan nazariy ma'lumotlar ham keltirilgan. Shuningdek, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, metodologiya, professional kompetentlik, kategoriya, oliy kompetentlik, motivlashtirilgan qobiliyatlar, kvalimetrik, semantik, ixtisoslashgan ko'nikmalar.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Кадырова Дильноза Муртазоевна

Психология и социология преподаватель кафедры

Аннотация. Приводятся данные о том, что экспериментальное исследование важных на сегодняшний день факторов коммуникативной компетентности неизбежно, а для этого, прежде всего, необходимы исследования пропорциональных и корреляционных показателей между типами личности и особенностями личности у практикующих психологов. Одновременно приводятся теоретические данные, предоставленные зарубежными и восточными учеными. Также было высказано мнение, что каждый исследованный и опубликованный в научной прессе показатель служил для того, чтобы превзойти Перспективы науки социальной психологии.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, методология, профессиональная компетентность, категория, высшая компетентность, мотивированные способности, квалиметрические, семантические, специализированные навыки.

PRACTICAL FUNDAMENTALS FOR RESEARCHING THE COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

Kadyrova Dilnoza Murtazoevna,

Psychology and Sociology teacher of the department

Annotation. There is evidence that an experimental study of the currently important factors of communicative competence is inevitable, and for this, first of all, studies of proportional and correlation indicators between personality types and personality traits in practicing psychologists are necessary. At the same time, theoretical data provided by foreign and Eastern scientists are presented. It was also suggested that each indicator studied and published in the scientific press served to surpass the Prospects of the science of social psychology.

Keywords: communicative competence, methodology, professional competence, category, higher competence, motivated abilities, qualimetric, semantic, specialized skills.

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi kommunikativ kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kommunikativ kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kommunikativ mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mashhur psixolog V.I. Baydenko ta'kidlaganidek, so'nggi paytlarda "kompetentlik" atamasi o'qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta'lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G'arb ta'lim (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo'llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta'lim tizimlarini loyihalashdir. Bu mohiyatan, bozor qiymatiga e'tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o'tishni belgilaydi.

Shuningdek, taniqli olim M.A. Xolodnayaning fikricha "kompetentlik" bu -ma'lum bir faoliyat sohasida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan maxsus bilim deb hisoblaydi.

Dj. Raven o'z ilmiy tadqiqotlarida "kompetentlik" atamasiga umumiy holda ta'rif beradi. Uning ta'rifiga ko'ra, kompetentlik – ma'lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat bo'lib, yuqori ixtisoslashgan ko'nikmalarni o'z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko'nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi. Bundan tashqari Dj. Raven (kichkinasi) "Oliy kompetentlik" haqida ham fikr bildiradi. Unga ko'ra "Oliy kompetentlik" qaysi sohada namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o'z maqsadlariga erishish uchun o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo'lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

"Oliy kompetentlik" ni barcha turlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj. Raven kompetentlikni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lib, kompetensiyalarning o'zaro almashinuvchanlik

xislatlariga ega. «Kompetentlik turlari» atamasi ma'lum ma'noda «motivlashtirilgan qobiliyatlar»dan boshqa narsani anglatmaydi, ya'ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta'sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari «tashabbus» kabi atamaga mos keladi.

Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozirev o'z ilmiy tadqiqotlarida kommunikativyüksalish bosqichlari va kommunikativ kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o'rgangan. Uning talqinicha, kommunikativ yetuklikning 3 ta bosqichi bo'lib, ularning har biri «anglanmagan kompetentsizlik ® anglanilgan kompetentsizlik ® anglangan kompetentlik» ko'rinishidagi kommunikativ kompetentlikni namoyon etadi.

N.B.Moskvina fikricha «kompetentlik» asosiy xarakterga ega bo'lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan yangi kashfiyotlarni o'zlashtirish bilan bog'laydi.

N.B.Moskvina o'z tadqiqotlarida «Kompetentlik»ni uch jihatini keltirib o'tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;

- amaliy - turli ko'rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya «Kompetentlik»ni 3 guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekt sifatida qarashligi;

- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;

- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi. Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kommunikativ tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko'ra, "amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetensiyasi" – samarali faoliyatga asos bo'luvchi murakkab psixologik ta'lim, hamda bilim, ko'nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

V.A.Yadov sotsiologiyada kompetensiya kommunikativ mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o'z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko'zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo'lgan vositalari va usullari to'g'risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta'kidlaydi.

Shu munosabat bilan E.F.Zeerning ta'kidlashisha, kompetensiya nafaqat bilim va malakaning mavjudligi, balki, mazkur faoliyatni o'z vaqtida bajarish hamda o'zining kasbiy faoliyatida maksimal foydalana olish bilan belgilanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan olimlar T.G.Braje, S.G.Molshanov va boshqalar professional kompetentlikni atroflicha o'rganib chiqishgan. Shunday qilib, T.G.Braje nafaqat bilim va ko'nikmalar shaxsni kompetentligini belgilaydi, balki mutaxassisning faoliyati motivlari, odamlar bilan munosabatlarning uslubi, umumiy madaniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyati, muhim shaxsiy sifatleri ham alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi.

V.N.Karandashevaning fikricha, amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligi faoliyati davomida o'rganilgan tajriba, ko'nikma hamda malakalarni qamrab oladi. Kasbiy ko'nikmalar-psixologning o'z faoliyatini oson va ishonch bilan bajarishga imkon beruvshi harakatlardir.

Mashhur olimlardan N.S.Pryajnikov va E.Yu.Pryajnikovalar o'z tadqiqotlarida amaliyotchi psixologlarning matematik hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishning 7 darajasini ifodalab o'tadi:

- g'ayrat-shijoat;
- ishonch;

o‘z faoliyatidagi malakalardan kelib shiqib, tegishli ma’lumotlarni tahlil qila olish;
 ba’zi psixologik muammolarni mustaqil tarzda bartaraf etish;
 yuzaga keladigan to‘siqlarni yengishda ijodiy yondashish;
 nazariy psixologik bilimlarga ega bo‘lish.

Shuningdek, L.A.Petrovskaya esa birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanov kommunikativ kompetentlik tarkibida o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya’ni pedagogik faoliyatga kommunikativ tayyorgarlik darajasini va ta’lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatlari (xususiyatlari) majmuini anglatadi.

Tahlil va natijalar Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini o‘rganish maqsadida quyidagigi omillar orqali olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili

Omillar		3-yilgacha		5-yilgacha	
		N=40		N=50	
		n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	15	46,4	28	52,9
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	53,6	32	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«V» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	18	42,9	35	55,9
	Zaif fikrlaydigan	22	57,1	15	44,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«S» omil	Barqaror	15	46,4	30	52,9
	Beqaror	25	53,6	20	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«D» omil	Optimizm	25	57,1	22	44,1
	Pessimizm	15	42,9	28	50,0
	Jami	40	100,0	50	94,1
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	31,4	28	42,9
	Realist	24	68,6	22	39,4
	Jami	40	100,0	50	82,4
«H» omil	O‘zini nazorat qila oladigan	23	55,7	26	40,0
	Nazoratda qiynchilikka uchraydigan	17	44,3	24	54,1
	Jami	40	100,0	50	94,1
«M» omil	O‘ziga yo‘nalgan	13	30,7	26	57,6
	O‘zgalarga yo‘nalgan	27	69,3	24	42,4
	Jami	40	100,0	50	100,0
	Jami	40	100	50	100

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko‘ra «A» omil bo‘yicha «muloqotchanlik» 3 yilga nisbatan 5 yilgacha 52,9% ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki kommunikativ muloqot jarayoniga moslashish

yil hisobidan olib qaraganda biroz ko'proq vaqtni talab qiladi. «O'z-o'zidan muloqotga kirishishga qiynalish» omili 3 yilgacha 53,6% ni tashkil qildi. «B» omil bo'yicha «mantiqiy fikrlash» darajasi 3 yilga nisbatan 5 yilda 55,9% ni, «zaif fikrlash darajasi» esa 3 yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan psixologlarda 57,1% ni ko'rsatdi. «Mantiqiy fikrlash» qobiliyati psixologlarda yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunga bevosita intellektual jarayonning roli beqiyosdir. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo'yicha ham 5 yilgacha 52,9%, beqarorlik esa 3 yilgacha 53,6% ni tashkil etdi. Bundanma'lumki, barqaror ijtimoiy munosabatlar 3 yilga nisbatan ko'proq vaqtda shakllanadi. Keyingi mezon, ya'ni, «optimizm» va «pessimizm» omili 3 yilgacha 57,1% ni, «pessimizm» esa 5 yilgacha mehnat amaliyotiga ega bo'lgan psixologlarda 50,0% ni tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdegilar bilan munosabatga kirishish 3 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar 5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi.

Xulosa. Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlanishidamatematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kommunikativ kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Kasbiy kompetentlik nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan.

Bu esa zamonaviy psixologiya sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash muammosini dolzarbligini bildiradi. Jahondagi juda ko'plab psixologiya namoyondalari amaliyotchi psixologlarning kasbiy yetukligi borasida qarashlari o'rganilganda, mazkur jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi va shakllanishi uchun muhim tadqiqot ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda elon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentlik va uning shaxs faoliyatidagi o'rnini o'rganish muammosining mavjudligiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, kommunikativ rivojlanish darajasi bilan uzviyligini tahlil qilish esa yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Psixologiya. 2004. № 10.
2. Blinov V.I. Prakticheskaya podgotovka budущix uchiteley: progmatika, prespektivy. Moskva. IOO. MONRF. 2000
3. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari.. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.
4. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA HALQARO HUQUQIY ASOSLARI HAMDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sirliyev Erkin Nazarovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasida dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.051>

Annotatsiya. Mazkur maqola yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning milliy va halqaro huquqiy asoslari hamda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o‘rganishga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, milliy g‘oya, konseptual g‘oya, milliy mafkura, yuksak hislar, praksik hislar, empatiya, simpatiya, ijtimoiy-psixologiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ НАЦИОНАЛЬНО-МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

Сирлиева Эркина Назаровича

Доцент кафедры Военного патриотизма, духовно-просветительского воспитания и социальной работы с молодёжью Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор философии по психологическим наукам (PhD)

Аннотация. Данная статья является основой для изучения национальных и международных правовых основ и социально-психологических механизмов формирования чувства военного патриотизма у молодежи.

Ключевые слова: патриотизм, военный патриотизм, национальная идея, концептуальная идея, национальная идеология, возвышенные чувства, практические чувства, эмоции, симпатия, социальная психология.

NASHIONAL AND INTERNATIONAL LEGAL BASES AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASES AND BASES OF FORMING MILITARY PATRIOTISM IN YOUNG PEOPLE

Sirliyev Erkin Nazarovich

University of Public safety of the Republic of Uzbekistan Doctor of philosophy in psychological sciences of the Department of Social work with youth on military patriotism and moral education

Annotation. This article provides the basis for the study of the national and international legal foundations and socio-psychological mechanisms of the formation of a sense of military patriotism in young people.

Key words: patriotism, military patriotism, national idea, conceptual idea, national ideology, sublime senses, praxic senses, empathy, sympathy, socio-psychology.

Dolzarbligi. Jahon afkor ommasini insoniyatning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti va davlatchilik tizimini ta’minlash uchun yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muammosi jiddiy tashvishga solmoqda. Shu sababdan jahon psixolog olimlari, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalasini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholab, shaxsda ushbu tuyg‘uni takomillashtirish ruhiy tarbiyalash, jismoniy va psixologik tayyorlash, shaxs ijtimoiy muhitini hamda halqlar o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy munosabatlarni yaxshilash

va eng asosiysi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ob'ekti sifatida e'tibor qaratib kelishmoqda. Shuningdek, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish orqali ularda vatanga fidoyilik hamda millatga sadoqatlik kabi shaxsiy sifatlarini takomillashtirish borasida juda katta halqaro tashkilotlar o'zlarining yuridik xujjatlarini qabul qilishmoqda. Jumladan, BMT dunyo vijdoni nomini olgan Xalqaro bolalarni himoya qilish tashkiloti YUNISEF tomonidan "yoshlarga oid salomatlik va ovqatlanish, bolalarni himoya qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat, ta'lim hamda favqulotda vaziyatlar masalalariga alohida urg'u berilgan.[7]

Hozirda dunyo miqiyosida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, millatga sadoqat va shaxsga xos ijobiy sifatlarni takomillashtirish har qanday davlat ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur vazifani bajarish va yordam berishga yo'naltirilgan zamonaviy psixologik tadqiqotlarda yuksak darajadagi vatanparvarlik muammosi asosan shaxsiy va jismoniy sifatlarni nuqtai nazaridan, ya'ni jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan hamda ijtimoiylashuv institutlari orqali translyatsiya etiluvchi tartib qoidalarga rioya qilinishi yoki ularni buzilishi bilan bog'lagan holda o'rganilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar natijalari ijtimoiy-psixologik me'yorlarning regulyativ funksiyasini e'tirof etgan holda, xulq-avtorda chinakam tartib va tizimlilikka faqat odamning mardligi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, shaxsiy xususiyatlari hamda jismoniy-ruhiy tayyorgarligi hisobiga erishish mumkinligini tasdiqlamoqda. Ushbu o'ta muhim shaxs sifatleri genezisi va rivojlanishida asosiy omillardan biri vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik tuyg'usining shaxs tartibli xulq-atvorini ta'minlovchi muhim ichki omili ekanligi sababli jahonda uni chuqur tadqiq etishga dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida yondashilmoqda.

Mamlakatimiz eng yangi tarixida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usi bilan bog'liq bo'lishini anglagan holda, ular har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun zarur barcha shart-sharoitlarni yaratishga davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. "...yoshlarda vatanparvarlik, fuqorolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida, zararli ta'sirlarga va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarshilarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi.[2] Ushbu yo'nalishlardagi kompleks vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida yoshlarni harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlili ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha amliy-nazariy yechimlarni topish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'rganilganlik holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" 4.5-bandida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kerakligi to'g'risida alohida keltirib o'tilgan bo'lsa, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatleri yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturida "Biz Vatanga tayanchimiz", "Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar" degan shiorlar ostida aksiyalar va Vatanimiz ravnaqini ta'minlashda yoshlarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan "Eng buyuk jasorat – ma'naviy jasoratdir" mavzuida davra suhbatlarini o'tkazib borish kerakligi to'g'risida alohida keltirib o'tilgan.[1]

2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillargamo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 71-maqсадida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish

yuzasidan: “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish; “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash; Hududlarda “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada yaxshilash; Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish kerakligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni 1.4-bandida “Yoshlarga oid davlat siyosati va sportga yo‘nalishidagi islohatlar” yo‘nalishida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini keqaytirish hamda Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar deb nomlangan 5.2.-bandida “Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish” masalalariga alohida e’tibor berilgan.[3] Mazkur Farmon, Qaror va Dasturlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-sonli “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini singdirish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olingan: yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaffli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish; milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofmiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish; har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash; O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish masalasi ilgari surilgan.[4]

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi bugungi kunda dunyo hamjamiyatida o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy salohiyati yuqori bo‘lgan MDH hamda xorijiy davlatlarda ham alohida me’yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solinganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida rus yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan qonunlar majmuasi davlat siyosatining asosiy mazmunini tashkil etib, konseptual va tizimli ravishda belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunlarda ham shaxsiy rivojlanish bilan birgalikda jamiyatda qadriyat sifatida shakllangan fuqarolik, vatanparvarlik, Vatan himoyachilari va qahramonlarining xotirasiga hurmat, mehnatkash va keksa avlod o‘rtasida o‘zaro hurmat tuyg‘usi hamda ko‘p

millatli xalqlarining madaniy merosi va an'alariga ehtirom ko'rsatish ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.[5]

Fuqarolarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risida "Harbiy burch va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunining 14-moddasida keltirilgan. Ushbu moddada, qonun ijrochilari va tashkilotlarning mansabdor shaxslari fuqarolarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ishlarni tizimli ravishda olib borishlari shartligi, Rossiya Federatsiyasi Qurolli kuchlarining tarkibigi qabul qilish jarayonida harbiy-amaliy tayyorgarligini aniqlashning asosiy mezon sifatida jismoniy va ruhiy tayyorgarligini o'rganish uchun maxsus komissiyadan o'tkazilishi, fuqarolarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yuzasidan iqtisodiy moliyalashtirish davlat budjeti, shuningdek boshqa budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.[6]

AQSHda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalasiga juda katta e'tibor qaratiladi. Chikago universitetining tadqiqotlariga ko'ra Amerika halqi milliy g'ururi Venesueladan keyin ikkinchi o'rinda turishi aniqlangan. Amerikada vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish kichik maktab yoshi davridan ta'lim va tarbiya maskanlarida olib boriladi. Amerika yoshlari boshqa davlat yoshlaridan farqli o'laroq dars mashg'ulotlarini davlat madhiyasi va Vatanga qasamyod qilish bilan boshlaydi. Maktabda yoshlarni "Amerika haq, chunki u haq" g'oyasini singdirish va milliy bayramlar, jumladan, 4-iyul mustaqillik kuni, 12-oktabr Amerika kashf qilingan kun (Kolumb kuni), noyabr oyida "Shukronalik kuni", 11-noyabr kuni Amerika uchun kurashgan shaxslarni yod olish kuni munosabati bilan paratlar ko'tarinki ruhda o'tkazilishi ularda o'z davlati va millatga nisbatan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga zamin yaratadi.[8] Yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlar AQSh me'yoriy-huquqiy normalarida o'z aksini topgan.

Xitoyda vatanparvarlik tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratiladi. Xitoyda vatanparvarlik tuyg'usi shakllanishi ularning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimgi tarixi va bir tomondan jamoaviy mehnat qilish, ikkinchi tomondan milliy psixologik fazilatlar (qat'iy intizom, shaxsning jamoaga nisbatan yuqori darajadagi bog'liqligi, shaxsning o'ziga xos tabiati, hamdardlik) hamda qadriyatlar bilan bog'liq. Bu mamlakatda vatanparvarlik yangilangan Xitoy mintaqalari va xalqini birlashtirgan va siyosiy to'ntarishning barcha qiyinchiliklarini yengishga yordam bergan yuqori darajadagi jamoaviy jipslik bilan taqqoslanadi. Vatanga muhabbat, hokimiyatga sodiqlik va ishonch Xitoy jamiyatining o'zgaras qadriyatlaridir.[8] Xitoy Xalq Respublikasining asosiy huquqiy hujjati – Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasida (24-modda) shunday deyilgan: "Davlat Vatanga, xalqqa, mehnatga, fanga, sotsializmga muhabbat bilan ajralib turadigan, vatanparvarlik, kollektivizm va internatsionalizm, kommunizm, xalq orasida dialektik va tarixiy materializmga asoslangan ta'limni amalga oshiradigan jamoat axloqini anglatadi".[9]

Qiyosiy tahlil: Yuqorida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yuzasidan O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Xitoy Xalq Respublikasi me'yoriy-huquqiy normalarini o'rganilganlik holati yuzasidan quyidagicha qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning milliy va halqaro tahliliy ko'rinishi

AQSH:	XXR:	RF:	O'zbekiston:
yoshligidan milliy davlat ramzlariga hurmat va Vatanga qasamyod qilish; "Amerika haq, chunki u haq" g'oyasini singdirish; milliy bayramlarni ko'tarinki ruhda nishonlash.	yoshlarga Xitoy tarixini o'rgatish; jamoaviy mehnat qilish ijtimoiy psixologik muhitni yaratish; qat'iy intizom va jamoaviy empatiyani shakllantirish.	yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga konseptual tizini yaratish; vatanparvarlik tuyg'usini ta'lim orqali ta'minlash; vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga jamiyatning barcha a'zolarini jalb etish.	yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash; Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish.

Yuqoridagi o‘rganilgan ilmiy-nazariy natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir davlat o‘z mustaqilligi va halqaro reytingini yaxshilashda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va me‘yoriy-huquqiy jihatdan asoslash hamda ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini aniqlash orqali erishish mumkinligini anglaydi. AQSHda yoshlarga “Amerika haq, chunki u haq” mazmunidagi egosentirik g‘oyani singdirish bilan birgalikda yoshligidan davlat ramzlariga hurmat va Vatanga qasamyod qilish, Xitoy xalq respublikasida jamoaviy mehnat qilish, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitini yaratish, qat’iy intizom va jamoaviy empatiyani shakllantirish, Rossiya Federatsiyasida esa, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning konseptual tizini yaratish orqali erishish mumkinligi to‘g‘risidagi me‘yoriy-huquqiy asoslar va bir qator ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ko‘rish mumkin.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash mumkinki, barcha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatorida Yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini yaratish bilan birgalikda jahon reytinglarida o‘zining o‘rnini topish uchun birinchi navbatda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi. Vatanparvar insonlarni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy va milliy merosi hamda qadriyatlarini katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarixiy va milliy merosni asrab-avaylash, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, o‘rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘rganilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar va me‘yoriy-huquqiy xujjatlarning qiyosiy tahlili natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- davlatimiz tomonidan yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shallantirishga qaratilgan Farmonlar, Qarorlar va Davlat dasturlarining ijorisini ta’minlash;
- yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;
- jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;
- yoshlarda jamoaviy mehnat qilish ijtimoiy psixologik muhitini yaratish, qat’iy intizom va jamoaviy empatiyani shakllantirish kabi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son Qarori.
5. Российская Федерация. Законы. Об образовании в Российской Федерации: Федер. закон № 273-ФЗ //Консультант Плюс: правовая база: [сайт]., 2022: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_140174/ (дата обращения: 09.09.2021).
6. Российская Федерация. Законы. О воинской обязанности и военной службе: Федер. закон № 53-ФЗ (ред. от 26.05.2021)
7. Alimov N. Dunyo vijdoni YUNISEF tashkiloti 73 yoshda. Daryo. Uz. 12.12.2019, 14:45
8. Данилева Н.Л. Патриотические воспитания школьников: из зарубежного опыта. Народная образования. 2010., №-4. 204 с.
9. Конституция Китайской Народной Республики, принята в 1982 г. с изм. От 2004 г. (перевод с кит. яз.). [Электронный ресурс]: (дата обращения: 22.09.2016).

HAYDOVCHILARNING RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARGA BOG'LIQLIGI

Usmonov Rahimjon Rahmonali o'gli
Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.052>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l transport hodisalaridagi inson omili o'rganilgan. Haydovchining ruhiy salomatligining harakat xavfsizligiga ta'siri haqida so'z boradi. Yo'l transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va ularning omillari haqida mulohalar yuritilgan. Bundan tashqari maqolada yo'l harakati qoidalari va ularning buzilishiga bog'liq statistik ma'lumotlar, qaror va farmonlar, yo'l harakatining psixologik omillarini o'rganish va yo'l harakati sabablarini aniqlash, ularning sabablarini o'rganish uchun, haydovchini o'zini tutishini turli sabablardan kelib chiqishibirinchi va ikkinchi turlarga ajratilishi borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati, yo'l transport hodisasi, harakat xavfsizligi, haydovchi salomatligi, yo'l harakati ishtirokchilari, piyoda, haydovchining ruhiy holati, qaror, farmon, extiyotsizlik, islohot, ma'lumot, avtomashina, ekspert.

ЗАВИСИМОСТЬ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ВОДИТЕЛЕЙ ОТ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Усманов Рахимжон Рахмонович,
Преподаватель заочного отделения Ферганского государственного университета

В этой статье исследуется человеческий фактор в дорожно-транспортных происшествиях. Речь идет о влиянии психического здоровья водителя на безопасность движения. Были сделаны рассуждения о причинах дорожно-транспортных происшествий и их факторах. Кроме того, в статье изложены статистические данные, постановления и постановления, касающиеся правил дорожного движения и их нарушений, даны рекомендации по изучению психологических факторов дорожного движения и выявлению причин дорожно-транспортных происшествий, по изучению их причин, по разделению поведения водителя на первый и второй типы, обусловленные различными причинами.

Ключевые слова: дорожное движение, дорожно-транспортное происшествие, безопасность движения, здоровье водителя, участники дорожного движения, пешеход, психическое состояние водителя, решение, постановление, неосторожность, реформа, информация, автомобиль, эксперт.

DEPENDENCE OF MENTAL HEALTH OF DRIVERS ON SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS

Usmanov Rahimjon Rahmonovich
Teacher of the External Department of FerSU

Abstract: This article examines the human factor in road traffic accidents. The impact of the driver's mental health on traffic safety is discussed. Reasons for road traffic accidents and their factors are discussed. In addition, the article contains statistical data, decisions and decrees related to traffic rules and their violations, to study the psychological factors of traffic and to determine the causes of traffic, to study their causes, to study the driver Opinions on the division of sexual behavior into the first and second types due to various reasons are presented.

Key words: traffic, traffic accident, traffic safety, driver's health, road participants,

pedestrian, driver's mental state, decision, decree, carelessness, reform, information, car, expert.

KIRISH. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan global muammolardan biri bu yo'l transport xodisalarini sodir etilishi bo'lmoqda, sababi bunday nohush xodisa sababli begunoh insonlar jabr ko'rishi yoinki bevaqt vafot etishi mumkin. Yo'l harakati tizimini oqilona yo'lga qo'yish va haydovchi va yo'lovchilarni huquq va majburiyatlari to'grisida mamlakatimizda va xorijda bir qancha qarorlar qabul qilingan. Yo'l harakati to'g'risidagi 1968-yil 8-noyabrdagi xalqaro Vena konsensiyasida kelishilgan xalqaro qoidalar O'zbekiston Respublikasida 1995-yil 17-yanvardan boshlab kuchga kirdi. Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori 2021-yil 15-dekabr kundan kuchga kirdi. Barchamizga ma'lumki bunday islohatlar mustaqillik yillarida bir necha marotaba o'tkazildi. Bunga yo'l harakati tizimidagi murakkabliklar, avtomashinalar sonining tobora ortib borishi, qatnov uzluksizligi kabi sabablarni misol qilib keltirish mumkin.

Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2021 mamlakatda 9902 ta YTH rasman qayd yetilgan bo'lib, bu o'tgan yildagiga nisbatan 99 ta yoki 1 foizga kam (10 001 ta). O'lim bilan yakunlangan YTH soni 2197 tadan 2086 taga - 111 taga yoki 5,1 foizga, avariya oqibatida vafot yetganlar - 70 kishiga yoki 2,9 foizga kamaydi - 2426 dan 2356 gacha. Shu bilan birga, jarohatlar bilan bog'liq avariya 2021 yildagi 7804 tadan 7816 taga oshdi, 12 ta yoki 0,2 foizga, jarohatlanganlar soni 376 nafarga yoki 3,9 foizga oshib, 9230 nafardan 9606 nafarga yetdi.

Rossiya Federatsiyasi ekspertlarning fikriga ko'ra, ushbu mamlakatda motorizatsiya o'sishi davom yetadi. Shuning uchun bugungi kunda shahar, mintaqaviy, federal darajadagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, yo'l harakati xavfsizligini oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmada yo'l-transport hodisalaridan yetkaziladigan zararni kamaytirish uchun yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat tizimini doimiy ravishda rivojlantirish zarur. Yo'l harakati xavfsizligi muammolarini hal qilishda tegishli izchillikning yo'qligi butun yo'l harakati xavfsizligi jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Mohiyatan eng muhim mezon xavfsizlik muammosi – inson va butun jamiyatni himoya qilishdir. Yo'l harakati xavfsizligining mohiyati ham shunda.

Yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir qilish sohasidagi inson omilini baholashni aniqlashga qaratilgan tadqiqotning aksariyat qismi tezlik yoki trayektoriyaning o'zgarishida haydovchi harakatlarini o'rganish, o'zgarishini aniqlash va baholashdan iborat. Ammo shuni hisobga olish kerakki, harakat tezligini yoki trayektoriyasini o'zgartirish yo'lda harakatlanayotganda transport holatini idrok etishdek murakkab jarayonning yakuniy bosqichidir. Bunda haydovchining ruhiy salomatligi meyorida bo'lishi unda yuqori agressivlik yoki depressive holatlar bo'lmasligi juda muhim. Haydovchidagi ruhiy salomatligidagi muammolar yo'l transport hodisasini yuzaga chiqarishi haydovchining emotsional holati ruldagi holatiga salbiy ta'sir qilishi buning natijasida esa avtohalokat yuzaga kelish ehtimoli yuqori.

Ko'pincha, avariya sabablarini o'rganayotganda, haydovchining e'tibori ayni holatida reaksiyasi tezlikni o'zgartirishga emas, balki yo'l holatining ba'zi bir elementiga qaratilganligi ko'zga tashlanadi. Asabiylashishning kuchayishi, bosh miya po'stlog'ida tarqaladi va haydovchiga ta'sir qiladi. Haydovchi nafaqat favqulodda vaziyatda, balki muncha vaqt o'tib undan muvaffaqiyatli chiqib ketgandan keyin ham haydovchi xato qila boshlaydi. Ayrim yo'l-transport hodisalarini yo'lning eng xavfli yoki murakkab qismida emas, balki ancha olisda masofada yoki qatnov murakkab bo'lmagan joylarda sodir bo'lishini ham shu fakti tasdiqlaydi. Yo'l harakatini tartibga solish vositalaridan foydalanish samaradorligi, ushbu vositalarning yo'l sharoitlari qanchalik to'g'ri hisobga olinganligi va ular haydovchilarning psixofiziologik xususiyatlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq.

NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agar yo'l harakatini tartibga solish vositalari haydovchi idrokining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlansa, baxsiz hodisalarni kamaytiradi va mehnat sharoitlarini yaxshilaydi. Moskva davlat avtomobil yo'llari institutida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yo'lda mashina haydash vaqtidagi haydovchi diqqatining 95% yo'l uchun ajratilgan bo'ladi. Harakat tezligidagi o'zgarishlar diqqat maydonining hajmiga ta'sir qiladi. Yo'l holati tushuntiruvchi elementlarini o'z vaqtida va to'g'ri idrok etish, ularni idrok yetish uchun kerak bo'ladigan vaqtning yetarli yoki yetarli emasligiga bog'liq. Haydovchi tomonidan yo'l elementlarini va belgilarni tanib olishi, mohiyatini anglashi, tushunishi uchun elementlarning soni va diqqatini jamlashiga sarflangan vaqt bir biriga mos bo'lishi kerak. Masalan, «cheklangan tezlik» belgisini tanib olish uchun, belgining foni aniq ko'rinadigan vaqtda taxminan 0,1 s, yomon kontrast bilan - 0,5 s, kechqurun esa - 0,7-0,8 s vaqt talab qilinadi. Yo'l belgilarini o'tkazib yuborish yoki ularni noto'g'ri idrok etish, haydovchi tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilishini yoki xatoga yo'l qo'yilishi mumkinligi tajribalarda aniqlangan.

Rossiya Federatsiyasida sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalari katta moddiy zarar keltirmoqda. Yo'l-transport hodisalaridan iqtisodiy yo'qotishlar yiliga 10 milliard rubldan oshadi. Rossiya Avtotransport vazirligining avtotransport vositalari ishtirokidagi baxsiz hodisalarning har uchdan bir qismi korxonatashkilot haydovchilarining aybi bilan sodir bo'ladi. Baxsiz hodisalarning eng ko'p soni uch yilgacha bo'lgan tajribaga ega haydovchilar va 10 yildan ortiq tajribaga ega haydovchilar o'rtasida ko'proq sodir bo'ladi. Oqibatlarining og'irlik darajasi yuqori bo'lgan baxsiz hodisalar bir yil haydovchilik tajribasiga yega bo'lgan va 10 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan haydovchilar o'rtasida ko'proq sodir bo'lishi aniqlangan. Aniqlanishicha 1 yillik tajribaga ega bo'lgan haydovchilar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan yo'l transport hodisasi 7 yildan yuqori tajribaga ega bo'lgan haydovchilar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan baxsiz hodisalardan xavfliroq hisoblanadi.

Boshqariladigan va tartibga solinmagan chorralardan o'tayotganda yo'l harakati qoidalarini qasddan buzish yoki quvib o'tish yo'l transport hodisasi uchun uchun eng katta sabablardan biridir. Shunday qilib, barcha to'qnashuvlarning 9% ga yaqini transport vositasi taqiqlovchi svetoforda harakat qilganda sodir bo'lgan. Tartibga solinmagan chorralarda to'qnashuvlarning 12 foizi chorradan o'tish tartibi qoidalariga rioya qilmaslik natijasida, 2,5 foizga yaqini esa tartibga solinadigan chorralarda sodir bo'ladi. Huquqbuzarlikning eng xavfli turi - quvib o'tishda yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik. Qoidalarining buzilishi natijasida kelib chiqadigan quvib o'tish holatlarida transport vositalarining to'qnashuvlarining 18 foizi sodir bo'ladi va ulardagi o'lim va jarohatlar soni to'qnashuvlar umumiy sonining mos ravishda 50% va 20% dan ortig'ini tashkil qiladi. Shunday qilib, chorralardan o'tishda va barcha transport vositalarining to'qnashuvlarining 40% dan ortig'ini bosib o'tishda yo'l harakati qoidalarini qasddan buzish. Rossiya Avtotransport vazirligi tizimida mast haydovchilar tomonidan sodir yetilgan yo'l-transport hodisalari katta ulushga ega. Katta shaharlarda barcha yo'l-transport hodisalarining taxminan 12 foizi shu sababga ko'ra sodir bo'ladi. Biroq, avtotransport korxonalarini va Davlat yo'l inspeksiyasi tomonidan haydovchilar ustidan nazorat susaygan joylarda har to'rtinchi voqea mast holda sodir bo'ladi. Mast holda mashina haydash odamlar halok bo'lgan baxsiz hodisalarga olib keladigan yeng xavfli sabablardan biridir. O'lganlar va jarohatlanganlar soni barcha turdagi hodisalar qurbonlari umumiy sonining o'rtacha 12% ni tashkil qiladi.

MUHOKAMA

Haydovchiga bog'liq bo'lgan va insonlarning qurbon bo'lishi bilan bog'liq ko'p sonli baxsiz hodisalarga olib keladigan asosiy sabablar orasida ikki mashina orasidagi xavfsiz masofani noto'g'ri tanlash juda ahamiyatli sabablardan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, masofaning yetarli emasligi oldindagi avtomashina bilan to'qnashuv, to'siqni yoki to'xtab

turgan transport vositasini urib yuborish kabi hodisalarga olib keladi va bunday hodisalar ulushi 22% ni tashkil qiladi. Bu sabab tufayli insonlar o'limi soni foiz sifatida nisbatan kichik raqamlar bilan ifodalangani bilan, yaradorlar soni barcha turdagi hodisalardan jabrlangan jami yaradorlar sonining 12% ga tengdir.

Yo'l harakati xavfsizligiga meteorologik omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuni aytib o'tish kerakki, notekis yoki qoniqarsiz yo'l sharoitida yo'l transport hodisalari noqulay meteorologik omillar (yomg'ir, qor yog'ishi) paytidagiga nisbatan ko'proq sodir bo'ladi. Shunday qilib, Rossiya hududida yo'l-transport hodisalarining qariyb 18 foizi noqulay ob-havo sharoitida, 25 foizi esa qoniqarsiz yo'l sharoitida sodir bo'ladi. Rossiya yo'llarida baxsiz hodisalarning o'rtacha 46% ochiq havoda, taxminan 40% bulutli havoda, 9% yomg'irda, 4% qor yog'ishida va 1% tumanda sodir bo'ladi. Bir yil ichida noqulay meteorologik omillarning umumiy davomiyligini va ushbu davrda sodir etilgan yo'l-transport hodisalarining ulushini hisobga olgan holda, ochiq ob-havo sharoitida sodir bo'lgan baxsiz hodisalar 25% ko'proq ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Yo'l harakati shakllari va turlarini o'rganish uchun ushbu psixologik omilga qiziqish sabablarini tushunish kerak. Yo'l harakatining psixologik omillarini o'rganish va yo'l harakati sabablarini aniqlash kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi, shuningdek kamdan-kam hollarda o'rganiladi, garchi bu harakat xavfsizligini oshirish uchun muhim bo'lsa ham. Yo'l harakati hodisalari va ularning sabablarini o'rganish uchun, haydovchini o'zini tutishini turli sabablardan kelib chiqib birinchi va ikkinchi turlarga ajratib olinadi. Birinchi tartibli sabablarga quyidagilar kiradi; oqilona yechim tanlash (xarajatlarni, talab qilinadigan vaqtni va qulaylikni solishtirishga qiziqishning ortib borishi), xulq-atvor yoki odatlarining shakllanishi (masalan, tanish kundalik ishga borish yo'li), xulq-atvorni belgilaydigan motivatsiya va psixologik munosabat. Ikkinchi darajali sabablar - birinchi darajali sabablarning o'zaro ta'siri va transportdan foydalanish qulayligiga qarab transport tizimini idrok etish. Masalan, yashash uchun turar-joy maydoni va ish joyini tanlash, ta'til paytida sayohat qilish maqsadini tanlash.

Psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqiladigan individual yo'l harakati omillarining og'irligi hali ham har xil baholanadi, oqilona yondashish uchun motivatsiya haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Климова Г.Н., Повышение работоспособности водителей автобусов в условиях города 2003/ Г.Н.

2.Климова, Э.Н. Бусарин, А.В. Старкова // Научно-электронный журнал «Концепт» том № 35 стр. 71-75 Сб. науч. тр. «Прогрессивные технологии транспорта и БДД» по мат. Межд.науч. практ. конф.- Саратов 3.<https://lex.uz/docs/-2656555>

4.<https://regulation.gov.uz/uz/d/53261>

5.<https://kun.uz/uz/news/2023/02/07/ozbekistonda-yth-sonini-bir-yilda-15-foizga-qisqartirish-rejalashtirilmoqda>

YUQORI SINIF O'QUVCHILARI EMOTSIONAL MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xalilova Maxbuba Nurullaevna
Xalqaro Nordik universiteti magistranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.053>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilari emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'smirlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning psixologik xususiyatlar bir qator ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'smirlilik yoshi, jismoniy taraqqiyot, impulsiv istaklar, qat'iylik, o'zlikni anglash, xarakter, ijtimoiy hayot, kollektivizm.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ СТАРШКОЛНИКОВ

Халилова Махбуба Нуруллаевна
магистрантка Международного Нордик Университета.

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально-психологические особенности эмоциональных отношений старшеклассников. Также на основе ряда научных источников были проанализированы психологические особенности социальных отношений подростков.

Ключевые слова: Подростковый возраст, физическое развитие, импульсивные желания, целеустремленность, самосознание, характер, социальная жизнь, коллективизм.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL RELATIONSHIPS OF SENIOR STUDENTS

Khalilova Makhbuba Nurullaevna
master student of the International Nordic University

Abstract. This article discusses the socio-psychological features of emotional relationships of high school students. Also, the psychological characteristics of social relations among teenagers were analyzed based on a number of scientific sources.

Key words: Adolescence, physical development, impulsive desires, determination, self-awareness, character, social life, collectivism.

Kirish. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909- son qarori qabul qilindi. Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni egallash insonni o'ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o'qish va o'z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo'llarini mustaqil topish bo'yicha pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va

boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi" [1;45] deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi. Psixologiya asosan shaxs va uning individual xususiyatlarini o'rganadigan bo'lsa, uning emotsional munosabatlari ham psixologiyaning asosiy tayanch mavzusi hisoblanadi. Demak shaxsning emotsional munosabatlari mavzusini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'qitish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

MDH mamlakatlari miqyosida yuqori sinf o'quvchilari hisoblangan o'spirinlarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari doir tadqiqotlar A.G. Gretsov, Y.N. Vasileva, N.A. Bogoslovskaya, V.N. Nosulenko, I.V. Starikova L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich, M.I. Lisina, I.S. Kon, A.V. Mudrik, L.M. Fridman, I.Yu. Kulagina, N.D. Levitov, L.D. Stolyarenko ilmiy ishlarida keng urg'u berilgan va atroficha tadqiq etilgan [2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12].

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan o'smir yoshdagi bolalarning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga doir tadqiqotlarni T.R. Bekmirov, Z.T. Nishonova, G.K. Alimova, M. Radjabova, A.K. Shamshetova va boshqalar olib borganlar [13,14,15,16,17].

Xususan, T.R. Bekmirovning o'quv-uslubiy qo'llanmasida "Psixologiya va pedagogika" modulining asosiy mavzusi hisoblangan "Shaxsning emotsional irodaviy holatlari" mavzusini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mavzusida tayyorlangan. O'quv-uslubiy qo'llanmaning dastlabki boblarida psixologiya va pedagogika modulida shaxsning emotsional irodaviy holatlarining asosiy jihatlari va samarali o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar ilgari surilgan. O'quv-uslubiy qo'llanmaning kiyingi boblarida ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlarining bir nechta turlaridan foydalanib mavzuni yoritish usullari ko'rsatilgan. Mavzuga mos taqdimot, glossariylar ilovalar va fan sillabusi keltirilgan [13]. Z.T. Nishonova boshchiligidagi mualliflar jamoasining "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" nomli darsligida rivojlanish va pedagogik psixologiyaning predmeti, metodlari, bo'limlari, ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi haqida so'z yuritiladi. Unda chaqaloqlik davridan qarilik davrigacha shaxsning psixologik rivojlanish xususiyatlari aks ettirilgan. Ta'lim psixologiyasiga bag'ishlangan bobda o'quv faoliyatining psixologik mohiyati, bilimlarni o'zlashtirishning psixologik komponentlari, ta'limning noan'anaviy usullari, mustaqil tafakkurni rivojlantirish, ta'lim jarayonini boshqarish haqida bayon etiladi. Tarbiya psixologiyasi bobida tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar, o'qituvchi psixologiyasi bobida, pedagogik qobiliyatlar, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritiladi [14].

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib biz o'zimizning maqolamizda yuqori sinf o'quvchilari emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotning sifati va natijasi izlanishda qo'llaniladigan vosita va usullarga bog'liq. Shu bois, fanda tadqiqot vositalari, texnologiyasi va usullariga e'tibor har doim katta bo'lgan. O'rganilayotgan ob'ekt qanchalik murakkab bo'lsa, uning xossalari va qonuniyatlarini ochish uchun qanday vosita, asos yoki usulni ishlatish masalasi dastlab hal qilinishi kerak bo'lgan metodologik muammoga aylanadi. Mazkur muammo xususida mulohaza yuritish metodologiyani, ya'ni, metodologik bilim darajasini (qatlamini) tashkil qiladi. Tadqiqotimiz

davomida ilmiy bilishning kuzatish, so'rovnomalar, analiz va sintez, mantiqiylik usullaridan foydalangan holda mavzuni yoritishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar

Atrof-muhitning kreativlikni rivojlantirishga ta'siri:

Psixologik xususiyatlar o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynasa, ular o'rganadigan va o'sadigan muhit ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim amaliyoti, ijtimoiy dinamika va madaniy omillarning barchasi o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yoki inhibe qilishga yordam beradi[6]. Ushbu ekologik ta'sirlarni tushunish kreativlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga intilayotgan o'qituvchilar va siyosatchilar uchun juda muhimdir. Quyida biz kreativlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi uchta asosiy ekologik omilni ko'rib chiqamiz:

O'quv amaliyotlari o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot, eksperiment va avtonomiyaga ustuvor ahamiyat beradigan muhitlar kreativlikni rivojlantirishga moyil bo'lib, qat'iy o'quv tuzilmalari, standartlashtirilgan testlar va eslab qolishga urg'u berish bilan ajralib turadigan muhitlar ijodiy fikrlashni bo'g'ib qo'yishi mumkin. Talabalarni ochiq muammolarni hal qilish, amaliy loyihalar va fanlararo o'rganish tajribasi bilan shug'ullanishga undash izlanish, kashfiyotlar va innovatsiyalarga imkon berish

orqali kreativlikni rivojlantiradi. Bundan tashqari, talabalarning tanlovi, mustaqilligi va o'zini o'zi boshqarishi uchun imkoniyatlarni taqdim etish o'quvchilarga o'z qiziqishlarini ro'yobga chiqarish, o'rganishga egalik qilish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Ijtimoiy muhit, jumladan tengdoshlarning o'zaro ta'siri, hamkorlikda o'rganish tajribasi va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlar kreativlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tengdoshlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar aqliy hujum, fikr almashish va fikr-mulohazalarni qabul qilish, tegishlilik va hamkorlik tuyg'usini rivojlantirish uchun imkoniyatlar beradi. Birgalikda o'rganish tajribalari o'quvchilarni boshqalar bilan hamkorlik qilish, muloqot qilish va g'oyalarni muzokara qilishga undash orqali kreativlikni rivojlantiradi, bu esa bilim va yechimlarni birgalikda yaratishga olib keladi. Bundan tashqari, qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, o'qituvchilar, murabbiylar va tengdoshlar, rag'batlantirish, tasdiqlash va konstruktiv tanqidni ta'minlaydi, o'quvchilarda yangi g'oyalarni o'rganish va ijodiy tavakkal qilish uchun ishonch va motivatsiyani rivojlantiradi.

Madaniy me'yorlar, qadriyatlar va kreativlikka munosabat uning o'quvchilarda rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalarni, tavakkalchilikni va noan'anaviy fikrlashni qadrlaydigan madaniyatlar kreativlikni rivojlantirishga moyildirlar, uyg'unlik, an'analar va ierarxik tuzilmalarni ta'kidlaydiganlar esa ijodiy ifodani cheklashi mumkin. Til, ramzlar, marosimlar va ijtimoiy me'yorlar kabi madaniy omillar odamlarning kreativlik haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi va ularning yangi g'oyalarni o'rganishga, mavjud me'yorlarga qarshi turishga va ijodiy tavakkal qilishga tayyorligiga ta'sir qiladi. Kreativlikni nishonlaydigan, fikrlar xilma-xilligini qamrab oluvchi va eksperimentlarni rag'batlantiradigan madaniyatni yaratish o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish va jamiyatga mazmunli hissa qo'shish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim amaliyoti, ijtimoiy dinamika va madaniy omillar o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot, hamkorlik va innovatsiyalarga ustuvor ahamiyat beradigan muhitlarni yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga o'zlarining ijodiy salohiyatini ochib berish va innovatsion fikrlovchi va muammolarni hal qilish imkoniyatini beradigan kreativlik madaniyatini rivojlantirishlari mumkin. Ushbu atrof-muhit ta'sirini tushunish va ulardan foydalanish ta'lim muassasalarida kreativlik va innovatsiyalarni rivojlantirish va o'quvchilarni doimiy o'zgaruvchan dunyoda rivojlanishga tayyorlash uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amabile, T. M. (1983). The social psychology of creativity: A componential conceptualization. *Journal of Personality and Social Psychology*, 45(2), 357–376.
2. Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention*. Harper Perennial.
3. Kaufman, J. C., & Beghetto, R. A. (2009). Beyond big and little: The four C model of creativity. *Review of General Psychology*, 13(1), 1–12.
4. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The standard definition of creativity. *Creativity Research Journal*, 24(1), 92–96.
5. Sawyer, R. K. (2012). *Explaining creativity: The science of human innovation*. Oxford University Press.
6. Sternberg, R. J. (Ed.). (1999). *Handbook of creativity*. Cambridge University Press.

ZAMONAVIY OILAVIY HAYOTGA TAYYORGARLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Sayyora Rustamovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.078>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy oilaviy hayotga tayyorgarlikning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bu muammo haqiqatan ham dolzarb va ahamiyatli. Maqolada: oliy o'quv yurtidagi pedagogika universitetida tahsil olayotgan, bugungi kunda talaba-yoshlarining oilaviy hayotga tayyorligi darajasi, avvalo, ularning oilasi, undagi ustuvor qadriyatlar; ularning egotsentrik, sotsiotsentrik yoki an'analarga bog'liq tarzda shakllanganligidan kelib chiqib o'rganilgan. Bunda boshqa milliy-madaniy muhitlardan farqli o'laroq, o'zbek talaba yigit-qizlarida an'anaviy oilaga nisbatan ustanovka (pedagogika universitetida), qizlarda esa an'anaviylikdan biroz og'ish bilan bog'liq ustanovkalar yaqqol namoyon bo'lishi aniqlangan. Maqolada zamonaviy oilaviy hayotga tayyorgarlikning psixologik xususiyatlari bo'yicha so'ngi zamonaviy nazariy tadqiqotlarni umumlashtirish va tahlil qilish asosida taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar; psixologik xususiyatlar; zamonaviy oila, "zamonaviy oila modeli" "an'anaviy oila modeli", oilaviy hayotga tayyorlik, egotsentrik, sotsiotsentrik.

Annotatsiya: V dannoy state analiziruyutsya psixologicheskie osobennosti podgotovki k sovremennoy semeynoy jizni. Eta problema deystvitelno aktualna i vajna. V state: uroven gotovnosti k semeynoy jizni sovremennyyx studentov, obuchayuyuxsya v vysshem uchebnom zavedenii, t. ye. pedagogicheskom vuze, osnovan, prejde vsego, na ix seme, prioritetnyx sennostyax v ney, ix egotsentricheskom, sotsiotsentricheskom ili traditsionnom formirovanii. izuchal. V otlichie ot drugix natsionalno-kulturnyyx sred ustanovleno, chto uzbekskie studenty i studentki imeyut ustanovku po otnosheniyu k traditsionnoy seme (v pedagogicheskom vuze), a u devushek chetko vyrayazhena ustanovka, svyazannaya s nebolshim otkloneniem ot traditsionalizma. proyavlyayetsya. V state obobshcheny i proanalizirovany noveyshie teoreticheskie issledovaniya psixologicheskix osobennostey podgotovki k sovremennoy semeynoy jizni.

Klyuchevyye slova: studencheskaya molodej, psixologicheskie osobennosti, sovremennaya semya, «sovremennaya model semi», «traditsionnaya model semi», gotovnost k semeynoy jizni, egotsentrichnost, sotsiotsentrichnost.

Abstract: This article analyzes the psychological features of preparation for modern family life. This problem is really relevant and important. In the article: the level of readiness for family life of modern students studying at a higher educational institution, i.e., a pedagogical university, is based, first of all, on their family, the priority values in it, their egocentric, sociocentric or traditional formation. studied. In contrast to other national-cultural environments, it has been established that Uzbek male and female students have an attitude towards the traditional family (at a pedagogical university), and girls have a clearly expressed attitude associated with a slight deviation from traditionalism. manifests itself. The article summarizes and analyzes the latest theoretical research into the psychological characteristics of preparation for modern family life.

Key words: student youth, psychological characteristics, modern family, "modern family model", "traditional family model", readiness for family life, self-centeredness, sociocentricity.

So'nggi yillarda oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlari muammolari olimlar tomonidan har tomonlama o'rganib kelinmoqda. Oila muammolari fundamental va amaliy tadqiqotlarning predmeti sifatida turli yo'nalish mutaxassislarining diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Aslida, oila

hozirda ko'p tarmoqli tadqiqot sohasidir. Zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilish, ularni tushunish va o'rganishning psixologik asoslarini aniqlash va o'rganish tufayli dolzarb vazifalardir.

Hozirda O'zbekistonda 9 milliondan ortiq oila bor. Ularning katta qismi bir vaqtning o'zida 2-3 avlod asosida birlashgan kengaygan (bir necha avlodlardan iborat) oilalardir. O'zbekistondagi zamonaviy oilalarning aksariyati er-xotin va ikki yoki to'rtta boladan iborat bo'lgan oila hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondagi oilalarning aksariyat qismi yosh oilalarga to'g'ri keladi va ularning muayyan qismi bir vaqtning o'zida oliy o'quv yurtlarining talabalari hamdir. Nikohga kirish arafasida bo'lgan talabalarda psixologik to'siqlar, nikoh-oila ustanovkalarining adekvat emasligi, oilaviy qadriyatlari tizimining to'liq shakllanmaganligi, umr yo'ldosh tanlashda ko'proq romantik tuyg'ularga berilish, sherigining tashqi ko'rinishiga ko'proq e'tibor berish, ota-onalariga iqtisodiy bog'liqlik kabi bir qator omillar ko'rinadiki, bu omillarni maxsus o'rganish lozim ekanligi yanada oydinlashadi.

Oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligini bo's o'tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin kabi ko'plab olimlar nikoh-oila masalalarida o'zlarining durdona fikrlarini qoldirib ketganlar. Ular bugungi kunlarimizda ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shuki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar[1].

Oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, O'zbekistonlik psixolog olimlar ham bu yo'nalishda o'ziga xos maktab yaratilishiga hissa qo'shmoqdalar. Olimlardan M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.N. Sattorov, N.A. Sog'inov, E.Sh. Usmonov, X.K. Karimov, F.A. Akramova, N.Salaeva, F.R. Ro'ziqulov, G.T. Yadgarova, M.X. Fayzieva, N.X. Lutfullaeva, U.S. Saribaeva va boshqalarning ishlarida bu masalalar maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan[1-2].

V.M. Karimovning doktorlik dissertatsiya ishida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari sifatida ijtimoiy tasavvurlar ilk bor jiddiy tadqiqot sifatida o'rganilgan[3].

M.M. Umarova tomonidan o'smirlardagi oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi o'rganilgan [7].

M.M. Fayzieva o'z ilmiy ishida oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlarning ta'sirini tadqiq etgan, buning uchun oila qurgan er va xotinlarning o'zaro munosabatlari tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan [9].

N.X. Lutfullaevaning tadqiqotida turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan [4].

U.S. Saribaeva tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ishida oilaviy munosabatlarda jinsiy-psixologik mutanosiblikning oila barqarorligiga ta'siri masalalari atroficha o'rganilgan [5].

Adabiyotlar tahlili oila muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan I.S. Kon, I.S. Golod, V.V. Boyko, L.Ya. Gozman, Yu.K. Aleshina, S.V. Kovalev, Z.A. Yankova, A.G. Xarchev va boshqalar tomonidan o'rganilganligini ko'rsatadi. Jumladan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash (T.Yu. Sorokin, S.V. Kovalev), oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari (V.A. Sisenko), ajralishlar (N.G. Yurkevich, V.T. Kolokolnikova), bola tarbiyasida oilaning roli (S.V. Kovalev, V.Ya. Titarenko), o'smir va ota-ona orasidagi o'ziga xos munosabat (I.S. Kon, A.T. Xripkova) larning ijtimoiy-psixologik jihatlari kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan tashqari, globalizatsiya sharoitlariga xos bo'lgan o'ziga xos

muammolar, jumladan, “teleekran orqali ijtimoiylashuv” muammosi (V.V.Abramenkova, I.Ya. Medvedeva, T.L. Shishova) zamonaviy oila va undagi o‘zaro munosabatlarning turli qirralarini (A.I. Antonov, M.Yu. Arutyunyan, S.I. Golod, O.V. Zdravomslova, L.B. Shneyder, Ye.M. Chernyak va boshqalar) o‘rganilishi zamonaviy yoshlarda umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarining uyg‘un shakllanishi bilan bog‘liq muammolar ham ilmiy tadqiqotlar nazorati ostiga olinganligidan dalolat beradi[1-2].

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, nikoh-oila munosabatlari, oilaviy hayot muammosi chet ellik olimlar tomonidan ham, respublikamiz oilashunos psixologlari tomonidan ham keng ko‘lamda tadqiq etib kelinmoqda, bu borada o‘ziga xos tajribalar to‘plangan.

Maqolaning maqsadlarini shakllantirishda avvalo, oila tushunchasiga oydinlik kiritsak, adabiyotlarda oila - bu sevgi, umumiy manfaatlar, o‘zaro yordam va quvonchlarni o‘zaro tushunish bilan birlashtirilgan odamlar birligi sifatida qaraladi. Oila har qanday zamonaviy jamiyatning ustuvor qadriyatidir, zero, oilaning mavqei, uning holatini tavsiflovchi tendensiyalar jamiyatning haqiqiy istiqbollarini ochib beradigan ijtimoiy ko‘rsatkichlardir. Zamonaviy oilaning asosi sevgi, qo‘llab-quvvatlash va hissiy qabul qilishdir. Oila va uning psixologik nomutanosibliigi ta‘sirida shaxsning deformatsiyasi yuzaga keladi va bu jarayon erta o‘spirinlikda boshlanadi. Ba‘zan tasodifiy, ba‘zan ahamiyatsiz bo‘lib ko‘rinadigan, ba‘zan esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri noqulay omillar ta‘sirida zararli, shu jumladan kelajakdagi rivojlanish uchun qadriyatlar aynan shu bosqichda paydo bo‘ladi [6]. Binobarin, maqolaning maqsadi oilaning psixologik xususiyatlarini va ularning turlarini o‘rganishdir.

Ma‘lumki hozirgi zamon oilasi ikkita asosiy turga ajratiladi: an‘anaviy va zamonaviy(innovatsion) oila. Ushbu ikki turdagi oila modellari parallel tarzda harakatda bo‘lishi mumkin.

”An‘anaviy oila modeli”da erkaklar va ayollarning roli aniq taqsimlangan va birlashtirilgan bo‘ladi. Erkak – moliyaviy resurslar to‘plangan oila boshlig‘i va asosiy qarorlarni u qabul qiladi. Shu munosabat bilan oila ichidagi rollarning birlashtirilishi paydo bo‘ladi. Ayol erkakka bo‘ysunadi, u uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Bolalar, o‘z navbatida, ota-onalariga bo‘ysunadilar, har qanday oila a‘zosining nufuzi uning jinsiga va yoshiga bog‘liq. Oilaviy qadriyatlar “ota-onalar – bolalar” munosabatlari uchun asos hisoblanadi.

”Zamonaviy oila modeli”da esa, ayolning siyosiy - iqtisodiy va ijtimoiy maqomi oshishi oila ichidagi rollar va oila hayoti me‘yorlarining o‘zgarishiga olib keladi. Ota-ona professional karerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. Farzandlarga tadbirkorlik ko‘nikmalari va mustaqil bo‘lish fikri singdirib boriladi[8; 7 b].

”Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan 2018 yilda o‘tkazilgan so‘rovlar natijalariga ko‘ra, aksariyat respondentlar zamonaviy namunali oila – bu sog‘lom va muayyan ma‘lumotga ega bo‘lgan oila a‘zolariga, moddiy farovonlik va qulay psixologik muhitga ega bo‘lgan, farzandlarni an‘anaviy milliy qadriyatlar asosida tarbiyalovchi, FHDYoda rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan to‘liq (ota va ona mavjud) oila ekanini ta‘kidlashgan. Oilalarda o‘tkazilgan mazkur so‘rovlar zamonaviy namunali oilaning ustuvor mezonlarini aniqlash va ularni umumlashtirish imkonini berdi[8; 7-14 betlar].

oilalarning a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va o‘zaro bir-birini tushunishga qaratilgan qulay psixologik muhit, ota-onalarni, katta avlod vakillarini (bobo va buvi) qadrlash, sabr-toqat va oiladagi kelishuv zamonaviy namunali oilaning asosiy jihatlari ekanini so‘ralganlarning 24 foizi qayd etdi;

farzandlarni milliy-madaniy qadriyatlarga, an‘anaviy urf-odatlariga tayangan holda, burch, mas‘uliyat va intizom tuyg‘ularini e‘tiborga olib, shuningdek, ota-onalar o‘zlarining namunali xulqi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, muloqot va muomala madaniyati, ilmiy ma‘lumotini ibrat qilib ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlaridan biri ekanini respondentlarning 23 foizi e‘tirof etdi;

uddaburonlik, tadbirkorlik, muhim ish va yetarli daromad bilan ta'minlanganlik, oila byudjetini to'g'ri taqsimlay olish, oila o'z jamg'armasiga ega ekani, qulay uy-joy va maishiy sharoitlarni o'z ichiga oluvchi moddiy farovonlik zamonaviy namunali oila mezonini so'ralganlarning 18 foizi alohida ta'kidladi;

kelgusida oila a'zolarining mavqei va martabasini oshirish hamda jamiyatga manfaat keltirishini ta'minlovchi, intellektual, yuqori samaradorlik va yuqori haq to'lanadigan ish bilan band bo'lishi imkoniyatini ta'minlovchi sifatli ta'lim darajasi zamonaviy namunali oila mezonini bo'la olishi haqidagi fikrga respondentlarning 17 foizi ega;

so'ralganlarning 13 foizi esa, zamonaviy namunali oila mezonlarini jismoniy va psixologik salomatlikni quvvatlab turish, sog'lom turmush tarzini olib borish, butun oilaning sport bilan doimiy shug'ullanishi, dam olishni to'g'ri tashkil etish, ovqatlanish va gigiena madaniyatini oshirishda, deb biladi[8; 7-14 betlar].

Ushbu tadqiqotlar natijalari, shubhasiz, katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qator masalalar hali yetarli darajada to'liq yoritilmagan. Darhaqiqat, oila turlarining paydo bo'lishiga yordam beradigan oila xususiyatlarining omillari o'rganilmagan, munosabatlarning tabiati ko'rib chiqilmagan. Bunda shaxsning oilaviy hayotga qanday tayyorgarlik ko'rgani bilan bog'liq. Shuning uchun biz o'z ilmiy tadqiqot ishimizni Chirchiq davlat pedagogika universitetining talaba yoshlarini oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini o'rganishdan boshladik. Aniqlanishicha, talaba-yoshlarni oilaviy hayot tayyorligi avvalo, ularni oila haqidagi tasavvurlari mazmuniga va ularning to'g'ri shakllanganligiga bog'liq.

Oila-nikoh tasavvurlarining tarkibiy ierarxiyasini o'rganish maqsadida olib borgan izlanishimizda yigitlar va qizlardagi ustanovkalarining o'ziga xosligiga alohida e'tiborni qaratdik. Olingan natijalarga ko'ra (1-jadval), yigitlardagi tasavvurlari ko'proq ijtimoiy ahamiyatli bo'lib, qizlar (masalan, ChDPUda 340 nafar qizdan 182 nafari) ularga nisbatan ancha egoistik tasavvurlarga ega ekanligini ko'ramiz.

1-jadval

**Respondentlarning ehtiyojlarga mos ravishda “nikoh-oila tasavvurlari”
tafovutlanishi (n=524)**

Respondentlar	Kasbiy, jinsiy jihatdan	
	ChDPU (n=524)	
	Yigitlar (n=184)	Qizlar (n=340)
Oila-nikoh tasavvurlari		
Egotsentrik	20	182
Sotsiotsentrik	81	96
An'anaviylik	83	62

Ya'ni, zamonaviy qizlar oilada o'ziga xos yuqoriroq mavqega ega bo'lishni, shaxsiy qulaylik, istagan narsaga egalik qilish, egotsentrizm kabi istaklar, sifatlarni namoyon qilgan. Fikrimizcha, bu mahalliy muhit (o'zbek millati) uchun biroz kutilmagan hodisa hisoblanadi. Olingan empirik ma'lumotlardan aniqlanishicha, qizlardagi «Men» – konsepsiyasi yigitlarnikidan ko'ra individuallashtirilgan bo'lib, oxirgilar ko'pchilik manfaatiga yo'nalgan ustanovkaga egadir.

Shuningdek, oilaviy hayotga tayyorlik fenomeni o'rganilayotganda shaxsning nikohga qanchalik bog'liqligi, turmush o'rtog'iga nisbatan egoizmni qay darajada namoyon qilishi muhimdir. Adabiyotlar tahlilidan bizga ma'lumki – egoizm – o'z diqqat-e'tiborini faqat shaxsiy «Men»i va uning manfaatiga yo'naltirishdir. Bunday holat oila muhitida, ayniqsa, turmush

o'rtog'i bilan hamkorlik va hamjihatlikda bo'lishga xalaqit beradi. Chunki, er-xotinlik, oilaviy hayot doimiy o'z manfaatidan chekinishsiz, o'zni qiynashsiz tasavvur etilmaydi. Yaxshi oila – bu altruizm, gumanizm, o'zni fido qilish maktabidir. Shunday sifatlar sohibi bo'lgan insonlar odatda mustahkam va barqaror oila qura oladilar.

Demak, pedagogik kasbini tanlagan yigitlarda ham ko'rishimiz mumkin (sotsiotsentrik ustanovka 81 nafar, an'anaviylik ustanovkasiga yo'nalganlar – 83 nafar). Tadqiqotning ko'rsatishicha, yigit va qizlardagi nikoh-oila munosabatlari to'g'risidagi tasavvurlarning rivojlanishi, avvalo, ulardagi sevgivanikoh, oilavaturmusho'rtog'iganisbataniste'molchilikning yo'qligi, o'zini va sherigini idrok etishda realistik va yaxlit idrokning mavjudligiga bog'liqdir. Aniqlanilishicha, hozirgi zamon talaba-yoshlarida sub'ektiv munosabatlarda egoizmga yaqin sifatlar ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, talaba-yoshlardagi "oila-nikoh ustanovkalari" asosan egotsentrik tamoyillarga tayanadi va unda o'z galar manfaati yo'lida o'zini fido qilish xususiyati bo'lmaydi. Tadqiqotda ishtirok etgan 524 nafar respondentning javoblarini tahlildan ma'lum bo'ldiki, ularning tasavvuriga ko'ra, nikoh-oila munosabatlari ehtiyojlarini qondirishda asosan uch xil ustuvor ustanovkalarga, ya'ni 38,5 foizi – egotsentrik, 33,77 foizi – sotsiotsentrik, 27,67 foizi – an'anaviy ustanovkalarga tayanadilar. Ammo, qizlar o'rtasida egotsentrik ustanovkaga tayanuvchilar miqdorining nisbatan yuqori (53,5%) bo'lishi qizlarda bu ustanovka yo'nalishining yuqoriligi (jami 340 nafar qizda) hisobiga bo'lmoqda. Ushbu olingan natijalar diognamma ko'rinishida aks ettirildi.

Oila-nikohga nisbatan ustanovkaning an'anaviy shaklida yoshlarning o'zi tug'ilib tarbiya ko'rgan oilalarining turli xususiyatlari aks etadi. Jumladan, bu oilada bolalar sonining o'rtacha ekanligi (2, 3, 4), ota-ona oilasida tarbiyaviy funksiyaning to'g'ri bajarilishi, oilada mas'uliyat va burch masalalarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurtida ya'ni pedagogika universitetida tahsil olayotgan, bugungi kun talaba-yoshlarining oilaviy hayotga tayyorligi darajasi, avvalo, ularning oilasi, undagi ustuvor qadriyatlar, ularning egotsentrik, sotsiotsentrik yoki an'analarga bog'liq tarzda shakllanganligidan kelib chiqadi. Bunda boshqa milliy-madaniy muhitlardan farqli o'laroq, o'zbek talaba yigit-qizlarida an'anaviy oilaga nisbatan ustanovka (pedagogika universitetida), qizlarda esa an'anaviylikdan biroz og'ish bilan bog'liq ustanovkalar yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki qizlarning jinsiga oid psixologiyasida noan'anaviylikka qiziqish va rolli ziddiyatlardan qochish xususiyatlari mavjud.

Zamonaviy nazariy tadqiqotlarni umumlashtirish va tahlil qilish bizga oilaviy xususiyatlarning asosiy qoidalarini shakllantirishga imkon berdi.

Zamonaviy namunali oila – bu sog'lom va muayyan ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolariga, moddiy farovonlik va qulay psixologik muhitga ega bo'lgan, farzandlarni an'anaviy milliy qadriyatlar asosida tarbiyalovchi to'liq (ota va ona mavjud) oila ekanini ta'kidlandi.

Aan'anaviy milliy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish hamda ijtimoiy iqtisodiy va demografik islohotlar ta'siri ostida an'anaviy oila modelining o'zgarishi yuzaga keladi. Oila institutini mustahkamlash, zamonaviy, farovon va sog'lom oilalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan farzandlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va ta'lim olish mezonlari keyinchalik birinchi o'ringa chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. – T.: Res. «Oila» IAM, 2002. – 28 b.
2. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Oilaviy hayotga doir tavsiyalar. – T.: Res. «Oila» IAM, 2002. – 40 b.
3. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi:

Psixol. fan. dok. ... dis. – Farg‘ona: FarDU, 1994. – 324 b.

4. Lutfullaeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nom....dis. avtoreferati.– T.: O‘zMU, 2006.– 25 b

5. Saribaeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta’siri: Psixol. fan. nom. ... dis. avtoreferati. – T.: O‘zMU, 2007. – 22 b.

6. Solovyov N.Ya. Bugun nikoh va oila. Vilnyus: Mintis, 2010. 226 b.

7. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari. Psixol. fan. nom. ... dis. avtoreferati. – T.: O‘zMU, 2004. – 27b.

8. O‘zbekistonda zamonaviy oila (Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida). Sovremennaya semya v Uzbekistane (Po rezultatom sotsiologicheskix issledovaniy) / D.Tashmuxeimedova, D.Karimova, B.Mavlonov. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. – Toshkent: “Yurist-media markazi”, 2019. – 136 b.

9. Fayzieva M.X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Er-xotin misolida). Psixol. fan. nom. ... dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2005. – 25b.

10. Avlayev, O. U. (2021). Talabalar kasbiy kamolotida ustanovkalarining o‘rni. Academic research in educational sciences, 2(10), 1247-1258.

ARITHMETIC MEAN VALUES OF PERFORMANCE INDICATORS BY ATHLETES-WRESTLERS OF TECHNICAL TECHNIQUES STUDIED DURING THE PEDAGOGICAL EXPERIMENT

*Kubitdinov Jamshed Abduraxmonovich,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida katta o'qituvchisi.
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.079>*

Annotasiya. The relative increments of the arithmetic mean values of the performance indicators of athletes-wrestlers of the seven techniques studied during the pedagogical experiment.

Key words: research, training, control, methods, special power.

СРЕДНИЕ АРИФМЕТИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЫПОЛНЕНИЯ СПОРТСМЕНАМИ-БОРЦАМИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРИЕМОМ, ИЗУЧЕННЫХ В ХОДЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация. Относительные приращения средних арифметических значений показателей выполнения спортсменами-борцами семи изученных в ходе педагогического эксперимента технических приемов.

Ключевые слова: исследования, обучение, контроль, методы, особая сила.

SPORTCHI-KURASHCHILARNING PEDAGOGIK TAJRIBA DAVOMIDA O'RGANILGAN TEXNIK USULLARNI BAJARISH KO'RSATKICHLARI O'RTACHA ARIFMETIK QIYMATLARI

Annotasiya. Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlari

Kalit so'zlar: tadqiqot, mashg'ulotlar, nazorat, usullar, maxsus kuch.

Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlarining NGdagi eng kichik nisbiy o'sishi 8,99 foizni, eng kattasi esa 12,30 foizni tashkil etgan bo'lsa, TGda ushbu ko'rsatkichlar, mos ravishda, 19,17 foizni (NGdagi mos ko'rsatkichdan 10,18 foizga ortiq miqdorda o'sgan) va 29,14 foizni (NGdagi mos ko'rsatkichdan 16,84 foizga ortiq miqdorda o'sgan) tashkil etganligi kuzatildi. NGdagi o'rtacha nisbiy o'sish 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni tashkil etdi (NGdagi mos ko'rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 martaga ortiq miqdorda o'sgan). Shuning bilan birga ushbu nisbiy o'sishlar TGdagi qiymatlari NGdagiga nisbatan 2,180 marta bilan 2,383 marta oraliq'idagi miqdorda katta ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, NGda o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini Стъюдент таксимоти критик қийматаларини ҳисоблаш, эркинлик даражаси сони ва белгиланган аҳамиятлилик даражасини инобатга олиш асосида амалга оширилган статистик ишончлилик баҳоларидан то'rttasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($t=2,06$ bilan $t=2,77$ oraliq'ida joylashgan hamda $P<0,05$) statistik ishonchli va qolgan uchta qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($t=1,71$ bilan $t=1,76$ oraliq'ida joylashgan hamda $P>0,05$) statistik ishonchsiz ijobiy o'zgarganligi kuzatildi.

TGda yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini statistik ishonchliлик баҳоларидан to'rttasi yuqori ahamiyatlilik

darajasida ($t=4,46$ bilan $t=4,48$ oralig'ida joylashgan hamda $P<0,001$) statistik ishonchli va qolgan uchasi yaxshi ahamiyatlilik darajasida ($t=3,53$ bilan $t=3,54$ oralig'ida joylashgan hamda $P<0,01$) statistik ishonchli ijobiy o'zgariganligi aniqlandi.


Shuningdek, pedagogik tajriba davomida o'rganilgan sportchilarning yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlarining o'rtachasi NGda 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni, ya'ni NGdagi mos ko'rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 martaga ko'proq va statistik ishonchliroq ijobiy tomonga o'zgariganligi aniqlandi. Bu zikr etilgan faktlar, NG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarga nisbatan TG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarning samaradorligini yana bir marta tasdiqlab turibdi.

7-jadval.

Nazorat va tajriba guruhlardagi kurashchilarni musobaqalarda ko'rsatgan natijalarini tajriba davomida o'zgarishi


Kurashchilar ishtrok etgan musobaqalar	guruh	Shahar birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		Tuman birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		Viloyat birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari		O'zbekiston kubogi musobaqalari	
		g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r	g'olib	sovr-r
TB	NG	2	1	1	1	1	1	1	2
	TG	2	2	0	1	-	3	1	2
TO	NG	4	4	2	2	2	3	1	3
	TG	7	9	3	4	7	7	4	4
O'sish	NG	2	3	1	1	1	2	0	1
	TG	5	7	3	3	7	4	3	2

6- rasm. NG va TGda shug'ullanuvchi yunon-rim kurashchilarni tadqiqot boshida va oxirida (Sh-shahar, T-tuman, V-viloyat va R-respublika kubogi) musobaqalarda ko'rsatgan natijalarining solishtirish.



Yuqorida keltirilgan 6-rasmda NG va TGda boshlang'ich tayyorgarlik davrida shug'ullanuvchi yunon-rim kurashchilarning tadqiqot boshida va oxirida musobaqalarda

ko'rsatgan natijalari tahlili keltirilgan. Unga ko'ra nazorat va tajriba guruhlarini sportchilari tadqiqot boshida o'xshash natijalarni qayd yetganliklari va tadqiqot oxirida esa nazorat guruhidagi kurashchilarni natijalari deyarli o'zgarmagan holda takrorlangan bo'lsa, tajriba guruhi kurashchilarining sezilarli darajada ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, kurashchilar ishtirok etgan musobaqalardan Shahar birinchiligi va ochiq turnir musobaqalarida ishtirok etish va erishilgan natijalar bo'yicha NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 2 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 5 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 3 taga, TGda esa 7 taga oshgan. TGdagi bunday ustunlik boshqa musobaqalarda ham kuzatilgan. Chunonchi, Tuman birinchiligi va ochiq turnir musobaqalaridagi natijalar bo'yicha NGdagi g'oliblar va sovrindorlar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 1 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 3 tani, Viloyat birinchiligi va ochiq turnir musobaqalari natijalari bo'yicha NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida 1 taga ortgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 7 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 2 taga, TGda esa 4 taga oshgan hamda O'zbekiston kubogi musobaqalarida NGdagi g'oliblar soni tajriba boshidagiga nisbatan tajriba oxirida o'zgarmagan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich TGda 3 tani, sovrindorlar soni bo'yicha esa, mos ravishda, NGda 1 taga, TGda esa 2 taga oshgan (7-rasm).



7- rasm. NG va TGda shug'ullanuvchi yunon-rim kurashchilarni tadqiqot boshida (Sh-shahar, T-tuman, V-viloyat va R-respublika kubogi) musobaqalarida ko'rsatgan natijalarini tajriba oxiriga kelib o'sish farqlarini solishtirish.

Nufuzlik darajasi turlicha bo'lgan musobaqalardagi erishilgan natijalar bo'yicha ham nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi kurashchilarining yuqulari sezilarli ekanligi ham tajriba guruhi mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarning samarador ekanligini dalolatidir.

Xulosa. Sportchi-kurashchilarning pedagogik tajriba davomida o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini nisbiy o'sishlarining. NGdagi o'rtacha qiymati 10,76 foizni, TGda esa 24,69 foizni tashkil etganligi (NGdagi mos ko'rsatkichdan 13,93 foizga yoki 2,295 martaga ortiq miqdorda o'sgan), bundan tashqari, NGda o'rganilgan yettita texnik usullarni bajarish ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini statistik ishonchlilik baholaridan to'rttasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,05$) statistik ishonchli va qolgan uchtasi qoniqarli ahamiyatlilik darajasida ($P > 0,05$) statistik ishonchsiz ijobiy o'zgarganligi hamda TGda yettita texnik usullarni bajarish

ko'rsatkichlari absolyut farqlarini statistik ishonchlik baholaridan to'rttasi yuqori ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,001$) statistik ishonchli va qolgan uchasi yaxshi ahamiyatlilik darajasida ($P < 0,01$) statistik ishonchli ijobiy o'zgarganligi

faktlari NG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarga nisbatan TG mashg'ulotlarida qo'llangan vosita va usullarning samaradorligini yana bir marta tasdiqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абдиев А.Н. - Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари //Педагогика фанлари доктори: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2004. – 196 б.

2. Abdullaev Sh.A., Xolmatov A.I. – Malakali kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari “O‘qituvchi” Toshkent. 2015. – B. 56.

3. Adilov S.Q. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin kurash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Fanlar akademiyasi bosmaxonasida” nashr etilgan 2019. – B.221.

4. Азизов Н.Н. - Малакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақа олди тайёргарлигини шакллантириш //Пед.фан.номзодлик: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2007. – 128 б.

5. Андрушишин И.Ф., Шепетюк М.Н., Райфова Я.В., Житпив А.Р., Шепетюк Н.М. - Развитие скоростно-силовых качеств дзюдоисток высокой квалификации на этапе специальной подготовки. Ж.: “Наука и спорт”, Казань, №2, т.7, 2015. – С.105-109.

6. Abdurakhmonovich, Kubitdinov Jamshed. «Efficiency of Modeling Methods in Sports Training of Greco-Roman Wrestlers.» Texas Journal of Multidisciplinary Studies 8 (2022): 106-108.

ВЛИЯНИЕ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА УЧЕБНУЮ МОТИВАЦИЮ

Ткачук Александр Алексеевич, Пак Виктория Виссарионовна,
Преподаватели кафедры «Психология» Ташкентского государственного
педагогического университета им. Низами
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.080>

Аннотация: Учебная мотивация является ключевым аспектом в развитии личности школьника и определяет его поведение и активность в учебном процессе. В данной статье рассматривается влияние детско-родительских отношений на уровень учебной мотивации у первоклассников. Результаты исследования показывают, что кооперация, симбиоз и принятие-отвержение со стороны родителей существенно влияют на формирование мотивации к учению у детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова: учебная мотивация, личность, школьник, детско-родительские отношения, первоклассники, кооперация, симбиоз, принятие-отвержение.

BOLA VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING TA'LIM MOTIVATSIYASIGA TA'SIRI

Tkachuk Aleksandr Alekseyevich, Pak Viktoriya Vissarionovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrasida
o'qituvchilari

Annotatsiya: Ta'lim motivatsiyasi talaba shaxsini rivojlantirishning asosiy jihati bo'lib, uning o'quv jarayonidagi xatti-harakati va faoliyatini belgilaydi. Ushbu maqolada ota-ona va bola munosabatlarining birinchi sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasi darajasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar tomonidan hamkorlik, simbioz va qabul qilish-rad etish boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda o'rganish motivatsiyasini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ta'lim motivatsiyasi, shaxsiyat, maktab o'quvchisi, ota-ona va bola munosabatlari, birinchi sinf o'quvchilari, hamkorlik, simbioz, qabul qilish-rad etish.

THE INFLUENCE OF CHILD-PARENT RELATIONSHIPS ON EDUCATIONAL MOTIVATION

Tkachuk Alexander Alekseevich, Pak Victoria Vissarionovna,
Teachers of the Department of Psychology of Tashkent State Pedagogical University
named after Nizami

Abstract. Educational motivation is a key aspect in the development of a student's personality and determines his behavior and activity in the educational process. This article examines the influence of child-parent relations on the level of educational motivation among first-graders. The results of the study show that cooperation, symbiosis and acceptance-rejection on the part of parents significantly affect the formation of motivation for learning in primary school children.

Keywords: educational motivation, personality, student, child-parent relations, first graders, cooperation, symbiosis, acceptance-rejection.

Актуальность: Учебная мотивация занимает одно из основных мест в структуре личности школьника и является одним из понятий, которое используется для объяснения движущих сил поведения и деятельности. Формирование учебной мотивации, несомненно, является одной из центральных проблем современного обучения. Актуальность данной

проблемы является обусловленной формированием активной жизненной позиции обучающихся, постановкой задач развития у школьников познавательных процессов и приемов самостоятельного приобретения знаний, а также обновлением содержания обучения. В младшем школьном возрасте, когда ведущей видом деятельности является учебная, важно создать предпосылки формирования мотивации учения, и к завершению обучения на начальной ступени обозначить её как устойчивое личностное образование школьника.

На современном этапе развития психологической науки накоплено множество данных, демонстрирующих влияние различных факторов на учебную мотивацию школьника. Особое значение имеет исследование влияния на мотивацию особенностей детско-родительских отношений, так как во многом именно этот фактор формирует характер ребёнка и особенности его поведения. Родители являются неотъемлемой частью в механизме педагогического процесса. Именно в семье закладывается основа развития личности, формирования её ценностей и идеалов. В дальнейшем все эти качества развивает и укрепляет школа. Поэтому связь между семейным и школьным институтами должна быть взаимной и прочной. Таким образом, актуальная на протяжении всего развития психологической науки и практики проблема детско-родительских отношений остаётся острой и на современном этапе.

Методология: Разработкой проблем мотивации в отечественной и зарубежной психологии занимались различные школы. Из зарубежных концепций наиболее известными являются теории Дж. Аткинсона и К. Берча, Д. Барбуто, Р. Вудворта, В. Врума, К. Левина, У. Макдауголла, А. Маслоу, Х. Мюррея, Г. Олпорта, Р. Сколла и Х. Хекхаузена. В отечественной психологической науке проблемами изучения мотивации занимались такие ученые как Я.М. Аптер, В.Г. Асеев, В.А. Бодров, Б.С. Братусь, И.А. Васильев, Ф.Е. Вилюнас, В.А. Иванников, Е.П. Ильин, Д.А. Леонтьев.

Изучением отдельных аспектов детско-родительских отношений занимались такие исследователи как Л.И. Божович, Л.С. Выготский, И.В. Дубровина, А.Г. Ковалев, А.К. Осницкий, Е.П. Панько, И.К. Фридман, влияние детско-родительских отношений на развитие личности ребенка исследовали Т.В. Архиреева, Н.К. Радица, М.И. Лисина, А.И. Силвестру, Н.Н. Авдеева, С.Д. Лаптенко, Е.М. Рахковская, С.Г. Яковсон, С.П. Тищенко и др.

Целью исследования является проследить влияние детско-родительских отношений на учебную мотивацию первоклассников.

Методы: На современном этапе психологии существует ряд концепций мотивации, однако общепринятым является мнение, что мотивация – это сложное многофакторное явление, что объясняет возникновение различных концепций и попыток её толкования [1]. Мотивы учебной деятельности – это осознанные побуждения к постановке целей данной деятельности, действиям, поступкам и деятельности по достижению этих целей [2]. Совокупность мотивов учебной деятельности в их взаимообусловленности и иерархической зависимости рассматривается как мотивация учения. Одним из важных факторов формирования учебной мотивации младшего школьника являются особенности взаимоотношений в семье [3].

Выборку составили:

1) учащиеся первого класса (20 учеников в возрасте от 7 до 8 лет, из них 11 мальчиков и 9 девочек) средний возраст в группе 7,6 лет; минимальный возраст 7 лет и 1 месяц; максимальный возраст 8 лет и 2 месяца;

2) их родители (20 человек, из них 15 женщин и 5 мужчин); средний возраст в группе 28 лет; минимальный возраст 25 лет; максимальный возраст 39 лет;

Диагностика особенностей мотивации младших школьников осуществлялась с помощью следующих методик: методика «Лесенка побуждения» Н.В. Елфимовой;

анкета школьной мотивации (модифицированный вариант Н.Г.Лускановой); методика М.Р. Гинзбурга «Методика исследования мотивации учения у старших дошкольников и первоклассников»; методика «Направленность на оценку» Е.П.Ильина и Н.А.Курдюковой, «Направленность на приобретение знаний» Е.П.Ильина и Н.А.Курдюковой.

Диагностика особенностей детско-родительских отношений проведена с помощью тест-опросника родительского отношения А.Я.Варга, В.В.Столина для исследования особенностей детско-родительских отношений в семьях первоклассников.

Для выявления связи между характеристиками детско-родительских отношений и учебной мотивацией первоклассников был проведен корреляционный анализ с использованием коэффициента Пирсона. Были получены результаты, которые представлены в табл.1

Таблица 1

Результаты корреляционного анализа детско-родительских отношений и учебной мотивации первоклассника

	Внешний мотив	Внутренний мотив	Направленность на оценку	Направленность на знания	Оценка мотивации по Н.Г.Лускановой	Итоговый балл по методике М.Р.Гинзбурга
Кооперация	-0,12	0,12	-0,22	0,02	**0,64	**0,69
Симбиоз	0,37	-0,37	**0,52	-0,28	-0,45	-0,28
Контроль	0,43	-0,43	0,39	-0,11	-0,27	-0,37
Отнош.к неудачам	0,05	-0,05	0,43	-0,40	-0,38	-0,39
Принятие-отвержение	-0,18	0,18	-0,42	0,38	*0,46	*0,46

Примечание: * – значимость на статистическом уровне $p \leq 0,05$;

** – значимость на статистическом уровне $p \leq 0,01$.

Результаты: По результатам корреляционного анализа на учебную мотивацию первоклассников наиболее влияют такие особенности детско-родительских отношений:

1. Кооперация: получена значимая прямая связь между показателем шкалы и общим уровнем мотивации младшего школьника ($r=0,064$; $p \leq 0,01$ по методике Н.Г.Лускановой; $r=0,069$; $p \leq 0,01$ по методике М.Р.Гинзбурга). Это означает, что чем больше родители проявляют сотрудничество с ребенком, тем выше его мотивация к учебной деятельности. Искренний интерес к интересам ребенка, признание его способностей, поощрение самостоятельности и инициативы играют существенную роль в формировании высокого уровня мотивации к учению в первом классе. В то же время, отсутствие сотрудничества и заинтересованности со стороны родителей в деятельности ребенка негативно сказывается на его общем уровне учебной мотивации. Таким образом, результаты подчеркивают важность активного взаимодействия между родителями и детьми в процессе обучения для эффективного формирования мотивации к учебе.

2. Симбиоз: получена значимая прямая связь между показателем симбиоза и

направленностью на оценку младшего школьника ($r=0,052$; $p\leq 0,01$): психологическая близость родителя к ребёнку способствует формированию оценочной мотивации первоклассника. Если родители стремятся к симбиотическим отношениям, ощущая себя с детьми единым целым и стремясь удовлетворить все потребности ребенка, то в системе мотивации у младшего школьника будет преобладать внешняя оценочная мотивация. Это означает, что оценка и признание со стороны родителей играют ключевую роль в формировании мотивации учебной деятельности у детей в начальной школе.

3. Принятие-отвержение: получена значимая прямая связь между показателем шкалы и общим уровнем мотивации младшего школьника ($r=0,046$; $p\leq 0,05$ по методике Н.Г.Лускановой; $r=0,046$; $p\leq 0,01$ по методике М.Р.Гинсбурга). Эта взаимосвязь показывает, что при росте положительного отношения родителей к ребёнку усиливается уровень мотивации младшего школьника. Общее положительное отношение к ребенку, его принятие и поддержка способствует формированию высокого уровня мотивации учения в первом классе. Соответственно, родители, которые эмоционально отвергают своих детей, не получают удовольствия от общения с ними, не любят их, негативно влияют на общий уровень развития учебной мотивации школьника

Таким образом, на формирование учебной мотивации первоклассников наиболее влияют такие особенности детско-родительских отношений как симбиоз, кооперация и отвержение-принятие.

Итак, результаты нашего исследования взаимосвязи детско-родительских отношений и уровня мотивации учебной деятельности младших школьников позволяют сделать несколько важных выводов.

Во-первых, выявлена положительная связь между кооперацией в детско-родительских отношениях и общим уровнем мотивации ребенка к учебе. Это подчеркивает важность активного взаимодействия между родителями и детьми в процессе обучения для формирования высокой мотивации к учебе.

Во-вторых, обнаружена значимая прямая связь между симбиозом в детско-родительских отношениях и направленностью на оценку у младших школьников. Это указывает на важность оценки и признания со стороны родителей в формировании мотивации учебной деятельности у детей начальной школы.

Наконец, выявлена прямая связь между положительным отношением родителей к ребенку и уровнем его мотивации к учению. Эмоциональное принятие и поддержка ребенка существенно способствуют формированию высокой мотивации к обучению в начальной школе.

Заключения и рекомендации: Основываясь на выявленных в ходе исследования взаимосвязях между детско-родительскими отношениями и уровнем мотивации учебной деятельности младших школьников, можно предложить следующие рекомендации для родителей:

- родители должны активно взаимодействовать со своими детьми, проявлять интерес к их интересам и деятельности. Это может быть выражено через совместное времяпрепровождение, обсуждение учебных вопросов и поощрение самостоятельности и инициативы ребенка;
- важно стремиться к созданию близких эмоциональных связей с ребенком, проявлять понимание, поддержку и уважение к его индивидуальности. Родители должны стараться ощущать себя единой семейной командой, поддерживая друг друга и удовлетворяя потребности каждого члена семьи;
- важно выражать любовь, признание и поддержку ребенка. Родители должны проявлять положительное отношение к его усилиям и достижениям, давая ему понимание, что он ценен и поддерживаем в любых обстоятельствах;
- родители должны создавать открытую атмосферу для общения с ребенком, где он

может делиться своими мыслями, чувствами и проблемами. Доверительные отношения и поддержка со стороны родителей помогут ребенку чувствовать себя защищенным и уверенным в своих силах.

В целом, эти рекомендации направлены на создание поддерживающей и стимулирующей образовательной среды в семье, которая способствует формированию высокой мотивации учебной деятельности у младших школьников и их успешному развитию в начальной школе.

Таким образом, наши результаты подтверждают важность роли детско-родительских отношений в формировании учебной мотивации младших школьников. Эффективное взаимодействие родителей и детей, проявление интереса и поддержки со стороны взрослых способствует не только развитию позитивной мотивации учебной деятельности, но и созданию благоприятной образовательной среды для успешного обучения и развития ребенка в начальной школе.

Список использованных источников

1. Бабаева Е.С. Особенности мотивации учебной деятельности учащихся (теоретический аспект)/ Е.С.Бабаева // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика.–2008. –№ 7.–С.74-76.
2. Вилюнас В.К. Психологические механизмы мотивации человека/В.К.Вилюнас. –М.:Изд-во МГУ, 1990.–314 с.
3. Гижицкий В.В. Внутренние и внешние мотивы учебной деятельности как факторы академической успешности старшеклассников/ В.В.Гижицкий – Москва: ВЛАДОС, 2016. –312 с.

PSIXOLOGIK SAVODXONLIK STRATEGIYALARINI O'RGANISH

Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich,
University of Business and Science NOTM
Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.081>

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o'quv fanlarning o'zaro uyg'unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanishning ahamiyatini chuqur anglab yetish zamonaviy ta'limning eng asosiy talablaridan biri sanaladi. Buyuk didaktik olim Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, huddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmuning aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Ushbu yondashuvlar asosida integratsiya atamasini uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. «Intergratsiya» so'zi lotincha integration - tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

O'tgan asrning 60-yillarida o'qitish jarayonini faollashtirish, uni ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashgan holda fanlarni o'qitishda integratsiyani yoki o'quv fanlarini o'zaro integratsiyalashni ta'minlash sohasidagi harakatlar kuchaydi. Tadqiqotchi C.Brumfitning yozishicha, o'tgan asrning o'rtalarida fanlararo integratsiyaning turli jihatlari keng tadqiq qilingan[1]. Jumladan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita, ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatida apersepsiyani

rivojlantirish, yoki o‘quv faoliyatini adekvat idrok etish qobiliyatlarini shakllantirish asosi, o‘qitishda fanlararo integratsiyani ta‘minlashda ilmiylik tamoyiliga amal qilish hamda o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiyani birgina o‘quv fani doirasida ta‘minlash mumkin emasligi asoslab berilgan.

1980-yillarda «integratsiya» tushunchasi paydo bo‘lishidan oldin, o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi shunga o‘xshash «fanlararo o‘xshashlik» tushunchasi kiritilgan bo‘lib, uning yordamida bitta mavzuni chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘lgan. Hozirgi vaqtda esa, ko‘plab tadqiqotchilar «integratsiya» tushunchasiga o‘z ta‘riflarini berishadi. V.N.Lyamina quyidagi ta‘rifni beradi: “Integratsiya - bu bir fan bo‘yicha ma‘lum bir sohaga oid umumlashtirilgan bilimlarni ma‘lum chegaralarda birlashtirish” hodisasi hisoblanadi[8]. E.V.Yakovlev integratsiyani “tizimning kenglik, yaxlitlik tomon harakati” deb ta‘riflaydi[12]. G.Gilyazovaga ko‘ra, integratsiya - bu atrofimizdagi olam bilan o‘xshashlik asosida qurilgan, dunyodagi hamma narsa o‘zaro bog‘liq va “sof shaklda” mavjud emas, degan aksiomaga asoslangan o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq o‘quv fanlari tizimi ekanligini ta‘kidlaydi[5]. G.A.Monaxova integratsiyani tabiat qonunlarining birligiga, sub‘ektning atrofidagi dunyoni yaxlit idrok etishiga asoslangan tarkibni tashkil qilish shakli sifatida tavsiflaydi[10]. O.V.Kozlova monografiyasida ta‘kidlashicha, integratsiya orqali bir butunga, har qanday elementlarning birligiga erishish mumkin. Shuningdek, bu birlikni tushunish ta‘lim oluvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Tizimlar nazariyasida integratsiya, bir tomondan, tizimning alohida elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik holati, ikkinchi tomondan, bunday holatni belgilovchi jarayon deb ataladi hisoblanadi. V.A.Ignatova integratsiyani butun tizimning o‘zaro bog‘liq barqaror ishlashiga olib keladigan tizimning individual differentsial elementlari va funktsiyalarining o‘zaro ta‘siri jarayoni va natijasi deb hisoblaydi. S.V.Yelovskaya ta‘lim integratsiyasi kategoriyasini «pedagogik bilimlar tizimi» sifatida tushuntiradi. Muallifning fikricha, uning asosi bir qator fundamental pedagogik kategoriyalar (integratsiya, o‘quv-didaktik tizim), tamoyillar (birlik, o‘xshashlik, tabaqalanish, madaniy muvofiqlik) va pedagogik funktsiyalar (axborot, bilim-reproduktiv, shaxsiy rivojlanish) bilan bog‘laydi[6].

Xorijiy mualliflar orasida J.B.Eklundning ta‘rificha, integratsion ta‘lim bu ta‘limning keng yo‘nalishlariga e‘tibor qaratish uchun o‘quv dasturining turli jihatlarini mazmunan birlashtirish, mavzularini umumlashtirishdir[2]. Bizningcha integratsiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan real dunyoni aks ettiradi va o‘quvchi fikrlarini, his-tuyg‘ularini va sezgilarini o‘rganish tajribasiga asoslanadi hamda bu bilimlarni birlashtiradi va qismlarni alohida o‘rganish orqali erishilganidan ko‘ra ko‘proq natija beradi.

I.A.Larionova integratsiya jarayonining ikki bosqichini belgilaydi[7].

Birinchi bosqichda integratsiyaning maqsadi aniqlanadi, ya‘ni uning amalga oshirilishi mumkinligi; integratsiya ob‘ektlarini tanlash va tahlil qilish amalga oshiriladi; integratsiya jarayonining asosiy va formal-mantiqiy xarakteristikalarini bilan shakli aniqlanadi; pedagogik integratsiya turi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda tizimni tashkil etuvchi omil tanlanadi; yangi ta‘lim tuzilmasi yaratiladi; o‘xshashliklar va bog‘liqliklar, integratsiya komponentlari o‘rnatiladi; integratsiyalash usuli aniqlanadi; yangi integrativ shakllanish qayd etilgan. O.V.Kozlova integratsiyaning tashqi va ichki tabiati haqida to‘xtalib, ulardan biri faoliyatning har xil turlari: fan va ta‘lim, texnologiya va ishlab chiqarish, ta‘lim muassasalari va sub‘ektlari integratsiyasini aks ettiradi, ikkinchisi esa bir tur doirasidagi elementlarning integratsiyasini nazarda tutadi.

«Pedagogik integratsiya» tushunchasini umumlashtirishga doir qarashlar, urinishlar V.S.Bezrukova, M.N.Berulava, N.K.Chapaev va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlarida ko‘proq uchraydi. V.S.Bezrukova pedagogik integratsiyani “komponentlarning ajralmasligi, yangi ob‘ektivlik – monoob‘ekt, yangi tuzilma, komponentlar bog‘lanishiga kiradigan yangi funktsiyalar bilan tavsiflangan” o‘zaro bog‘liqlikning eng yuqori shakli sifatida belgilaydi[3].

Shuningdek, muallif, pedagogik integratsiya yaxlitlik darajasining to'rtta xususiyatini aniqlaydi:

umumlashtirish;
kompleks;
tizim;

sintez. Umumlashtirish orqali u integratsiya ob'ektlarining yaqinlashishi, korrelyatsiyasi, murakkablashuvi, kengayishi va ular orasidagi bog'lanishlarni tushunadi. Kompleks yetakchi integral ob'ektlar orasidagi munosabatlarni tartibga solish sifatida aniqlanadi. U tizimni tubdan yangi sifatlarning paydo bo'lishi bilan yaxlit shakllanish sifatida ta'riflaydi. Sintez esa ob'ektlarning to'liq, bo'linmagan, birlashishi sifatida ta'riflaydi. Integratsiya jarayonining markaziy nuqtasi butun va uning qismlari o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, yaxlitligi bilan belgilanadi. M.N.Berulava umumta'lim va kasb-hunar ta'limining integratsiyasi masalalarini ochib beradi, pedagogik integratsiyani o'quvchilar bilimining tizimliliigi va zichligi oshishi bilan birga keladigan ta'lim mazmunining tarkibiy elementlarining o'zaro ta'siri jarayoni va natijasi sifatida ta'riflaydi[4]. Muallif ta'lim mazmunini fanlararo aloqalar darajasida birlashtirishni ko'rib chiqishni taklif qilib, ta'lim mazmunining integratsiyasi tushunchasini ikkita asosiy jihat bilan ifodalaydi:

-mazmunli;
protssual.

Ta'lim mazmuni - umumiy nazariy tushuncha, o'quv material mavzusi, o'quv material, o'quv faoliyati va o'quvchining shaxsiyatini ifodalaydi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, pedagogik integratsiyani turli individual elementlardan o'ziga xos uslublari, tuzilishi va sifatlariga ega bo'lgan mutlaqo yangi tizim shakllanadigan jarayon sifatida ta'riflashimiz mumkin.

Fanlararo integratsiyani turli o'quv predmetlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Adabiyotlarda o'quv materiallari integratsiyasining uch ko'rinishi mavjudligi aytiladi:

1. Bir o'quv fani ichidagi integratsiya. Bunda bir predmetga doir tushuncha, bilim, ko'nikmalar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlinishi ko'zda tutiladi.

2. Fanlararo integratsiya. Bunda ikki yoki undan ortiq fanlarning tushuncha, bilim va ko'nikmalari o'rtasidagi integratsiya anglashiladi. Transfanlararo integratsiya. Bunda asosiy o'quv fanlari bilan qo'shimcha ta'lim mazmuni o'rtasidagi integratsiya tushuniladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi olimlar oldida murakkab muammolarni qo'yimoqda. Shu sababli tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta'lim mazmuniga kiritish, barcha fanlardan o'zaro integratsiyada eng zarur bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm-fanning turli sohalari uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'quvchilar egallashlari uchun yuksak bilim va mahoratga ega bo'lgan pedagoglarni tayyorlash nihoyatda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brumfit C. The integration of theory and practice //Alatis et al.(eds.). – 1983. – T. 1983. – C. 59-73.

2. Eklund. J.B. «Integrative Education. A Curriculum for the Twenty-First Century.» «OSSC Bulletin» 33, 2(October 1989). Eugene, Oregon: Oregon School Study Council. ED 311 602.

3. Безрукова, В.С. Интеграционные процессы в педагогической теории и практике. / В.С. Безрукова – Екатеринбург: Издательство уральского профессионально-педагогического университета, 1994.

4. Берулава, М.Н. Теоретические основы интеграции образования /

5. Гилязова, О.Г. Интеграция содержания учебных дисциплин как фактора повы-

шения качества подготовки учителей в вузе [Текст] / О. Г. Гилязова // Интегративные процессы в подготовке специалиста на основе государственного стандарта высшего профессионального образования. —

6. Еловская С. В. Модернизация иноязычного образования в неязыковом вузе // Вестник МичГАУ: научно-производственный журнал. 2014. № 6. С. 95-98.

7. Ларионова, И.А. Интегративные тенденции в профессиональной подготовке специалистов социальной сферы [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук (13.00.08) / Ларионова Ирина Анатольевна; ГОУ ВПО «Уральский государственный педагогический университет». – Москва, 2009. – 42 с.

8. Лямина В.З. Интегрированные уроки – одно из средств, привития интереса к учебным предметам/ В.З. Лямина// НШ. – 1995.– №11.– С.21-25

9. М.Н. Берулава – М.: Совершенство, 1998.

10. Монахова, Г. А. Образование как рабочее поле интеграции [Текст] / Г. А. Монахова // Педагогика. – 1997. – № 5. – С. 52-55.

11. Рязань: Изд-во РГПУ, 1997. — С. 83–85.

12. Яковлев, Е.В. Комплексное моделирование высшего учебного заведения [Текст] / Е. В. Яковлев // Педагогика. – 2001. – № 2. – С. 32–36.

O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSIDA DIALEKTAL KORPUS LOYIHASI

Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.087>

Annotasiya: Turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tili O'zbekistonda va qo'shni mamlakatlarda keng tarqalgan. Aloqa vositasi sifatida til doimo rivojlanib bormoqda va o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Texnologiyalar paydo bo'lishi bilan o'zbek tilining elektron korpusi tilshunoslar, tadqiqotchilar va til o'rganuvchilar uchun muhim vositaga aylandi. Ushbu raqamli ombor doirasida dialektal korpus o'zbek tilining boy til xilma-xilligini saqlash va targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada, biz o'zbek tilining elektron korpusida dialektal korpusi loyixasi haqida ma'lumot beramiz.

Kalit so'zlar: dialektal korpus, lahjalar, o'zgarishlar, elektron ombor, elektron tizimlar, integratsiya

Аннотация: Узбекский язык, относящийся к тюркской языковой семье, широко распространён в Узбекистане и соседних странах. Язык как средство общения постоянно развивается, и узбекский язык не является исключением. С появлением технологий электронный корпус узбекского языка стал важным инструментом для лингвистов, исследователей и изучающих язык. В этом цифровом хранилище диалектный корпус играет важную роль в сохранении и развитии богатого языкового разнообразия узбекского языка. В этой статье мы предоставляем информацию о проекте диалектного корпуса в электронном корпусе узбекского языка.

Ключевые слова: диалектный корпус, диалекты, изменения, электронное хранилище, электронные системы, интеграция.

Abstract: The Uzbek language, belonging to the Turkic language family, is widely spoken in Uzbekistan and neighboring countries. Language as a means of communication is constantly evolving, and the Uzbek language is no exception. With the advent of technology, the electronic corpus of the Uzbek language has become an important tool for linguists, researchers and language learners. In this digital repository, the dialect corpus plays an important role in preserving and developing the rich linguistic diversity of the Uzbek language. In this article we provide information about the dialect corpus project in the electronic corpus of the Uzbek language.

Key words: dialect corpus, dialects, changes, electronic storage, electronic systems, integration.

Kirish: Dialektal korpus-bu o'zbek tilining turli lahjalari va mintaqaviy o'zgarishlarini ifodalovchi matnlar, audio yozuvlar va boshqa multimedia materiallari to'plamidir. Ushbu korpus dialektal farqlar ko'pincha mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy farqlarni aks ettiradigan O'zbekistonning lingvistik manzarasini tushunish uchun juda muhimdir. O'zbek tilining elektron korpusiga dialektal korpusni kiritish orqali tadqiqotchilar va tilshunoslar tilning murakkab dinamikasini chuqurroq tushunishlari mumkin.

Dialektal korpusning asosiy afzalliklaridan biri uning o'zbek tilining til xilma-xilligini namoyish etish qobiliyatidir. O'zbekiston boy madaniy merosga ega mamlakat bo'lib, uning dialektlari millatni shakllantirgan murakkab tarix va madaniy almashinuvni aks ettiradi. Dialektal korpus standart o'zbek tili foydasiga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan ushbu dialektlarni hujjatlashtirish va tahlil qilish uchun platforma yaratadi. Ushbu dialektlarga ovoz berish orqali dialektal korpus lingvistik xilma-xillikni targ'ib qiladi va standart tilning ustunligiga qarshi chiqadi.

Bundan tashqari, dialektal korpus lingvistik tadqiqotlar va tahlillar uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Dialektal o'zgarishlarni o'rganish orqali tadqiqotchilar tilning tarixiy rivojlanishi, til bilan aloqasi va til o'zgarishi haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Korpus tilshunoslar uchun har bir dialektning fonologik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganish, o'zbek tilini shakllantirgan lingvistik jarayonlarni yoritib berish uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, dialektal korpus tilni o'qitish va til siyosatini xabardor qilishi mumkin, chunki u o'zbek tilining lingvistik xilma-xilligi haqida to'liq tushuncha beradi.

Bundan tashqari, dialektal korpusni o'z ichiga olgan o'zbek tilining elektron korpusi til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun bir qator imtiyozlarni taqdim etadi. Korpus tilni o'rganish materiallari va

mashqlarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan matnlar, audio yozuvlar va videolarni o'z ichiga olgan ko'plab haqiqiy til materiallarini taqdim etadi. Ushbu korpus til o'qituvchilari uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu ularga o'zbek tilining til xilma-xilligini hisobga olgan holda yanada samarali til o'qitish metodikasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Dialektal korpus tilni saqlash va madaniy merosni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Dialektal korpus ushbu dialektlarni hujjatlashtirish va saqlash, ularning kelajak avlodlarga yo'qolmasligini ta'minlash vositasini taqdim etadi. Ushbu korpus madaniy meros va lingvistik xilma-xillikni targ'ib qilish, lingvistik xilma-xillikni saqlash va madaniy tushunishni rivojlantirish muhimligi to'g'risida xabardorlikni oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Lingvistik asos-bu sizning matningizni keyingi tahlilga tayyorlaydigan va tokenlar, lemmalar, nutq qismlari va boshqa ko'p narsalarni samarali qidirish yoki qayta ishlashga imkon beradigan asosiy morfologik qurilish bloklari. Tilning asosiy vositalari tabiiy tilni eng yaxshi qayta ishlash, tezligi va ravshanligi uchun ona tilidagi asl matnni boyitadi. Dunyo internetda ishlaydigan aqlli, muvaffaqiyatli qidiruv semantikasini ishlab chiqdi. Biror kishi kompyuter qidiruv tizimiga so'rov yuboradi va javobni xohlaydi. Hozirgi vaqtda ochiq manbali platformalar teskari to'liq matnli qidiruv tizimlari uchun asosiy tizimni taqdim etadi, ammo aniq qidiruv muammolari qiyinlashadi, chunki siz so'rovlar va natijalarga ko'proq til (siz izlayotgan til) qo'shasiz. Lingvistik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan so'zlar qidiruv tizimiga asoslangan holda so'ralgan tilda qidiruvni amalga oshiradi. Masalan, Arab tilshunosligi allaqachon Arab tilida yozilgan hujjatlarni tahlil qilishni osonlashtirish uchun asosiy qidiruv tizimlari va ma'lumotlarni qidirish dasturlariga ulanish uchun mo'ljallangan lingvistik ma'lumotlar bazasiga Arabcha matnni kiritgan. Biroq, an'anaviy ravishda gapiradigan Arab yozuvini hisobga oladigan standart avtomatlashtirilgan tahlil usullari uchun mos emas. Bunday lingvistik asosda Arabcha so'zlar ko'pincha fe'l yo'nalishi, ob'ekt, shaxs, raqam, jins va hokazo kabi xususiyatlarni bildiruvchi grammatik elementlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim avtomatik ravishda quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) so'zning lingvistik shaklini shakllantiradi;
- 2) nutq qismlarini aniqlaydi;
- 3) imlo normalarini, shu jumladan unli va otlarni olib tashlashni, hamda shakllarini birlashtirishni va doimiy singan tartibsiz «singan» ko'plik shakllarini normallashtiradi;
- 4) Fors (fors va Dari), Pashto va Urdu tillarida ishlashi mumkin.

O'zbek tilining milliy korpusi leksik birliklar, shu jumladan o'zbek tilida mavjud bo'lgan sinonimlar, antonimlar, omonimlar, so'zlar ierarxiyasi; so'zning morfologik tuzilishini, so'z qurilishini, so'zlarning ma'nosini, morfologik xususiyatlarini avtomatik tahlil qila olishi kerak. Ya'ni, korpusni tuzish, lemmalash, belgilash jarayonida matnlarda korpusning bir qismi bo'lgan bunday so'zlarni individual izlanishlar asosida topish va ularni maxsus talqin qilish kerak. Buning uchun algoritmik, lingvistik modellashtirish ishlarini bajarish kerak. «Interfeys» so'zi ingliz tilidan olingan va «tashqi ko'rinish» ma'nosida ishlatiladi. Bu so'z ko'pincha kompyuter texnologiyalarida qo'llaniladi. Kompyuter-bu odam va mashina o'rtasida turli xil ma'lumot almashinuvini ta'minlaydigan yagona aloqa tizimi. Interfeys-bu bitta tizimning ikkita elementi va ushbu tizim yordamida ishlaydigan bog'lovchi bo'g'in. Interfeys-bu turli xil tugunlar va murakkab apparat bloklari, shuningdek texnologiya va foydalanuvchi o'rtasidagi aloqa tizimi. U mantiqiy (axborotni taqdim etish tizimi) va rasmiy (axborot xususiyatlari) shaklida ifodalanadi. U muayyan vazifalar uchun buyruqlar berish uchun ishlatiladi. Bunday interfeys foydalanuvchi interfeysi deb ataladi. Har qanday qurilmaning interfeysi bajaradigan funktsiyalariga qarab tashqi va ichki ko'rinishlarga bo'linadi. Foydalanuvchi ichki interfeysga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqiga ega bo'lmaydi, u shaxsiy variantga ega. Tashqi interfeys yordamida foydalanuvchi to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishi va undan qurilmani boshqarish uchun foydalanishi mumkin. Ushbu ikki turdagi interfeyslar har doim bitta qurilmaga mos keladi va uning ishlashini ta'minlaydi, ular alohida mavjud bo'lolmaydi.

Foydalanuvchi interfeysini 2 qismga bo'lish mumkin. Masalan, bu qurilmaga ma'lumotlarni kiritish uchun mas'ul bo'lgan qism va foydalanuvchi uning chiqishi uchun javobgardir. Agar biz oddiy ishchi kompyuter haqida gapiradigan bo'lsak, unda birinchi toifada bizda kompyuterda ishlaydigan hamma narsa mavjud. Shunga ko'ra, hamma narsa ikkinchi toifaga kiradi, bu orqali kompyuter bir xil klaviatura, sichqoncha va boshqa kirish qurilmalari, ya'ni monitorlar, karnaylar, minigarnaturalar, printerlar, plutorlar va boshqalar tomonidan berilgan buyruqlarga javoban foydalanuvchiga ma'lumot uzatadi. Kompyuter texnologiyalarida ishlatiladigan interfeyslar quyidagi turlarga bo'linadi:

Vizual. Monitorlarda ko'rsatilgan vizual tasvirlar yordamida ma'lumotlarni uzatuvchi standart kompyuter interfeysi.

Imo-ishora. Qoida tariqasida, u telefonlar yoki planshetlar uchun interfeys bo'lib xizmat qiladi. Ko'pgina hollarda, bu tizimni boshqaradigan odamning barmoqlari harakatlariga javob beradigan va har bir aniq harakatga ma'lum darajada javob beradigan sensorli panel. Buni oddiy vizual interfeysning soddalashtirilgan versiyasi deb atash mumkin.

Ovoz. Ushbu turdagi interfeys nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Ovozli buyruqlar yordamida tizimni boshqarishga imkon beradi. Tizim, o'z navbatida, foydalanuvchi aloqasi orqali javob beradi. Qizig'i shundaki, zamonaviy texnologiyalar nafaqat telefonlar yoki kompyuterlarning ovozini, balki maishiy texnika va hatto bort kompyuterlarining ovozini ham boshqarish imkonini beradi. Milliy korpusning interfeysi boshqa dizaynga, tuzilishga ega bo'lib, uning mukammalligi korpusni yaratgan muallifga ishonib topshirilgan. Chunki interfeys insonda birinchi taassurot qoldiradigan jozibali umumiy ko'rinishdir. Interfeysni yaratishda milliy koloritni aks ettiruvchi bezaklar, shuningdek klassik yoki zamonaviyni aks ettiruvchi belgilar hisobga olinishi kerak. Demak, milliy korpusdan foydalanishda o'zining qulay va samarali imkoniyatlarini namoyish etish uchun interfeys mukammal va tizimli ravishda ishlab chiqilgan bo'lishi muhimdir. Shuning uchun interfeys zamonaviy dasturiy ta'minot dizayni talablariga javob beradigan foydalanuvchilarga qulay, ishlatish uchun qulay shaklda yaratilgan.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, dialektal korpus o'zbek tilining elektron korpusining ajralmas tarkibiy qismidir. U o'zbek tilining lingvistik xilma-xilligini namoyish etish uchun zamin yaratadi, lingvistik tadqiqotlar va tahlillarni targ'ib qiladi, tillarni o'qitish va til siyosatini xabardor qiladi, tilni saqlash va madaniy merosni saqlashga hissa qo'shadi. Raqamli ombor sifatida dialektal korpus tilshunoslar, tadqiqotchilar va til o'rganuvchilar uchun o'zbek tili bilan yanada kengroq va nozikroq aloqada bo'lish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. O'zbek tili rivojlanishda davom etar ekan, dialektal korpus O'zbekistonning boy lingvistik merosini tushunish va targ'ib qilishda muhim vosita bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Hamroeva, O'zbek tilining mualliflik korpusini yaratishning lingvistik asoslari: Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasining avtoreferati, Toshkent (2018)
2. R. Karimov, Tilshunoslik va o'zbek va ingliz tillarining parallel korpusini yaratishning dasturlash masalalari, PhD dissertatsiyasining avtoreferati, Buxoro, 151 (2021)
3. R. Qo'ldoshev va boshqalar, Pearson muvofiqlik mezonlari asosida boshlang'ich chap qo'l o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarining matematik statistik tahlili, E3S Web of Conferences EDP Sciences, 371 (2023)
4. R. G. Kotov, Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining lingvistik jihatlari. Moskva, Nauka (1977) 13. A. B. Kutuzov, Korpus tilshunosligi (2017) <http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf> (So'nggi kirish 14.05.2023)
5. G. Lich, Korpus lingvistikasidagi san'at darajasi, ingliz korpus tilshunosligi, London (1991)
6. B. Mengliev, O'zbek tili korpusi yaratilmoqdam? "Ma'rifat" gazetasi. 3 aprel (2018-yil) marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/savol/1142.htm. (So'nggi kirish 14.05.2023)

BO‘LAJAK MUHANDIS-TEXNOLOGLARNI TAYYORLASHDA MUAMMOLAR TAHLILI

Alimov A'zam Anvarovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

BuxDPI "Pedagogika" kafedrasida professori

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.088>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarda bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash jarayonida duch kelinayotgan muammolar va ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan takomillashtirish chora-tadbirlari tahlil qilingan. Amaldagi ta'lim dasturlarining iqtisodiy ehtiyojlarga mos kelmasligi, o'qitish va mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik, o'quv rejalarining ma'nan eskirishi, o'qitish metodikalari va Amaliy ta'limdagi muammolar, shuningdek, pedagogikada fanlararo yondashuv va innovatsiyalarning yetarli darajada joriy qilinmayotganligi kabi muammolarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, har bir muammo uchun zarur yechimlar va ularni amalga oshirish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, muhandis-texnolog, ta'lim dasturlari, ijtimoiy ehtiyoj, mehnat bozori, amaliy yo'nalganlik, pedagogika, fanlararo yondashuv, innovatsiyalar, o'qitish metodlari.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНОЛОГИЙ

Алимов Азам Анварович

Доктор философии (PhD) педагогических наук, профессор

Профессор кафедры «Педагогика» БухГПИ

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, возникающие в процессе подготовки будущих инженеров-технологов в высших учебных заведениях, и меры совершенствования, необходимые для их решения. К ним относятся такие проблемы, как несовместимость действующих образовательных программ с экономическими потребностями, несоответствие подготовки кадров требованиям рынка труда, существенное устаревание учебных программ, проблемы в методике преподавания и практической подготовки, а также недостаточное внедрение междисциплинарного обучения. подходы и инновации в педагогике. Также указаны необходимые решения каждой проблемы и способы их реализации.

Ключевые слова: Высшее образование, технолог, образовательные программы, социальная потребность, рынок труда, практическая направленность, педагогика, междисциплинарный подход, инновации, методы обучения.

ANALYSIS OF PROBLEMS IN TRAINING FUTURE TECHNOLOGY ENGINEERS

Alimov Azam Anvarovich

Doctor of Philosophy (PhD) of Pedagogical Sciences, Professor

Professor, Department of Pedagogy, BukhSPI

Abstract. This article analyzes the problems that arise in the process of training future industrial engineers in higher education institutions, and the improvement measures necessary to solve them. These include problems such as the incompatibility of existing educational programs with economic needs, inconsistency of personnel training with the requirements of the labor market, significant obsolescence of educational programs, problems in teaching methods and practical training, as well as insufficient implementation of interdisciplinary training. approaches and innovations in pedagogy. The necessary solutions to each problem and how to implement them are also indicated.

Key words: Higher education, technologist, educational programs, social need, labor market, practical orientation, pedagogy, interdisciplinary approach, innovation, teaching methods.

Globalashuv sharoitida jamiyat rivojlanishi uchun oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi, bunda malakali mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat bilim va malaka berish, balki tarmoq sohalari innovatsion rivojlanishi va iqtisodiy o'sishga ham salmoqli hissa qo'shmoqda. Texnologik innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini hamda kadrlarga bo'lgan talablarni uzluksiz o'zgartirayotgan zamonaviy dunyoda ta'lim muassasalariga o'z dasturlarini yangi chaqiriqlarga moslashtirish zaruratini taqozo qiladi. Bu, ayniqsa, innovatsion va texnologik jarayonlarda asosiy rol o'ynaydigan muhandis-texnologlarni tayyorlashga taalluqlidir.

Yuqori malakali texnik mutaxassislarni tayyorlashning asosiy muassasalari sifatida oliy ta'lim muassasalar ta'limning zamonaviy kasbiy sohalar va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z o'quv dasturlarini doimiy ravishda ko'rib chiqishlari va yangilashlari shart. Bu o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va moslashtirish, eng so'nggi texnologik yutuqlar va o'qitish metodlarini integratsiyalash, ta'lim muassasalari va sanoat tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashni talab qiladi. Mazkur sharh interfaol ta'lim, fanlararo dasturlar, texnologik xavfsizlik integratsiyasi va talabalarning kasbiy rivojlanishi kabi jihatlarga urg'u berib, muhandislikda ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalarni taqdim etadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarda bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash hozirgi vaqtda bir qator muammolarga hamda takomillashtirishni talab qiladigan sohalarga duch kelmoqda.

Bitiruvchilarning texnologik jarayonlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha muhim bo'lgan texnologik xavfsizlikka oid o'n ikkita mavzulari aniqlangan bo'lsa-da, kimyo muhandisligi bakalavriati o'quv dasturlariga texnologik xavfsizlik ta'limining integratsiyasi yetarlicha bo'lmagan jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur holat bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Bo'lajak muhandis kadrlarni tayyorlash, shuningdek, yuqori malakali muhandislik va texnologik iste'dodlarga bo'lgan talabni ham qondirishi kerak, bu esa o'qitishning innovatsion shakllari orqali murakkab muhandislik muammolarini hal qilishga e'tibor qaratishni talab qiladi [2].

Interfaol ta'lim va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limni modernizatsiyalashning zaruriy shartlari sifatida ta'kidlangan, bu esa o'quv jarayonini boshqarishda Moodle [3] kabi interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o'qituvchilardan yanada faol rolni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim dasturlarini iqtisodiyotning real ehtiyojlariga moslashtirish, bitiruvchilarning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbiy va loyihaviy o'qitish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimligi ta'kidlangan [4]. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish, tanqidiy fikrlash va boshqaruv ko'nikmalarga hissa qo'shadigan fanlararo kurslar va pedagogik innovatsiyalarni kiritish orqali ta'lim mazmunini yangilash zarurligi ta'kidlanadi [5]. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarda bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash darajasi o'quv dasturlarini yangilash, sanoat bilan mustahkamroq hamkorlik qilish, mavjud muammolarni hal qilish va talabalarni zamonaviy muhandislik chaqiriqlariga maqbul tayyorlash maqsadida innovatsion o'qitish metodlari zarurati bilan tavsiflanadi [6].

Oliy ta'limga raqamli kompetensiyalarni joriy etish ham ta'lim natijalarini aniqlash muhimligini ta'kidlaydi. Ta'lim natijalariga (Learning outcomes (LO)) alohida e'tibor berilishi kerak, chunki ular kasbiy sohada ta'lim dasturlarini talab qilinadigan kompetensiyalarga muvofiq yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ta'lim natijalari (LO) oliy ta'lim muassasalarda bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlashni shakllantirishda asosiy rol o'ynab, ta'lim dasturlarini kasbiy sohada talab qilinadigan kompetensiyalar bilan moslashtiradi. Tadqiqotlar muhandislik LOlarida kognitiv ko'nikmalarning muhimligini ta'kidlab, bunda, soft skills ga emas, balki hard skillsga e'tibor qaratadi [7]. LO ni muhandislik ta'limiga integratsiyalash kasbiy muammolarni hal qilishga tayyor bo'lgan malakali muhandislarni tayyorlash uchun zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalarda bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash iqtisodiy va texnologik

taraqqiyot asosiy o‘rin tutayotgan zamonaviy dunyoda talabalarni murakkab muhandislik muammolarini muvaffaqiyatli hal etish maqsadida zarur kompetensiyalar, kasbiy ko‘nikma va malakalar bilan ta‘minlashga qaratilgan. Bu jarayonda o‘quv natijalari (LO) muhim o‘rin tutib, kasbiy soha talablariga javob beradigan va kognitiv hard skills larga alohida e‘tibor beradigan ta‘lim dasturlarini shakllantiradi. Ta‘lim sifatini oshirish va uning xalqaro miqyosda tan olinishi uchun baholash tizimlari ishlab chiqilmoqda. Muhandislik ta‘lim dasturlari sanoat talablariga javob berish maqsadida doimiy ravishda yangilanadi, bunda ta‘lim natijalarini samarali baholashga alohida e‘tibor beriladi. Natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim (OVE) bitiruvchilarning kasbiy vazifalarni yechish uchun xalqaro miqyosda tan olingan zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

Shunday qilib, malakali muhandis-texnologlarni shakllantirish maqsadida LO ni muhandislik ta‘limiga integratsiyalash juda muhimdir. Ushbu ta‘lim yangi iqtisodiy rivojlanish sharoitida talab qilinadigan yuqori malakali muhandis va texnologlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, bakalavriat bosqichida muhandislik ta‘limining asosiy komponentlari sifatida innovatsiyalar muhimligini va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini ta‘kidlaydi [8]. Bunday ta‘limga pedagogik yondashuv o‘rganishning turli didaktik va ishlab chiqarish tamoyillarini o‘z ichiga oladi, masalan, politexnika tamoyili, ta‘limni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish tamoyili, jumladan, ko‘p qirrali ta‘lim tajribasini ta‘minlash maqsadida kasbiy harakatchanlik tamoyili va boshq. [9].

Ushbu muammolarga o‘qitishning an‘anaviy tabiati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) cheklangan foydalanish va muhandis-o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligida texnik va texnologik komponentni kuchaytirish zarurati kiradi [10]. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun elektron ta‘lim vositalarini va ta‘lim bloglari hamda muammoga yo‘naltirilgan ta‘lim kabi innovasion ta‘lim texnologiyalarini integratsiyalash taklif qilindi. Ushbu vosita va texnologiyalar ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarni kasbiy muhitning real sharoitlariga yaqinlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan [11]. Bundan tashqari, ko‘p tilli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda kimyoviy jarayonlar xavfsizligi texnikasiga o‘rgatishga urg‘u berish ish joyida talab qilinadigan yumshoq ko‘nikmalarning hamda sanoat sharoitlarida xavfsiz ishlash ko‘nikmasining muhimligini ta‘kidlaydi [12].

Quyida oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak muhandis-texnologlarni tayyorlashdagi mavjud muammolar va zaruriy metodik tavsiyalar bo‘yicha umumlashtirilgan ma‘lumotlar 1-jadval ko‘rinishida keltirilgan. Mazkur jadval har bir tashabbusning tashkiliy va bajarish jihatlari haqida yanada batafsil tasvirni berib, ta‘lim dasturidagi joriy etish jarayonlari va o‘zgarishlarning ehtimolli natijalarini tushunishni yaxshilaydi.

1-jadval

Mavjud muammolar	Bartaraf etish usullari	Amalga oshirish bosqichlari	Kutilayotgan natijalari
<i>Ta'lim dasturlarining iqtisodiy ehtiyojlarga to'liq mos kelmasligi</i>	Soha vakillari bilan birgalikda kurslarni ishlab chiqish; o'quv dasturlariga tadbirkorlik va innovatsiyalar bo'yicha modullarni kiritish	1. Bozor talablarini tahlil qilish va ish beruvchilardan fikr-mulohazalarni yig'ish. 2. Yangi modul va kurslarni ishlab chiqish va integratsiyalash. 3. Natijalarni sinovdan o'tkazish va baholash.	Bitiruvchilar haqiqiy mehnat sharoitlariga yaxshiroq tayyorlangan, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish
<i>O'qitish va mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik</i>	Eng so'nggi texnologik trendlarga muvofiq kurslarni muntazam yangilash; xavfsizlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish	1. Kurslarning joriy holatini baholash. 2. Yangi texnologiyalar va o'quv materiallarini joriy etish. 3. Kurs mazmunini muntazam yangilab turish.	Ishlab chiqarishda xavfsizlikni oshirish, baxtsiz hodisalar sonini kamaytirish; bitiruvchilar zamonaviy texnik talablarga javob beradi
<i>O'quv rejalarining ma'nan eskirishi</i>	Kurslarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish uchun soha mutaxassislarini jalb qilish; samaradorlikni kuzatish uchun analitikadan foydalanish	1. Amaldagi o'quv dasturlarini audit va qayta ko'rib chiqish. 2. Ishlab chiqish jarayoniga tashqi ekspertlarni integratsiyalash. 3. Rejalarni monitoring qilish va moslashtirish.	Talabalar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, bu esa ularning kasbiy mahoratini va sohadagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshiradi
<i>O'qitish metodikalari va Amaliy ta'limdagi muammolar</i>	Aralash ta'limni joriy etish, interfaol ta'lim platformalaridan foydalanish, muntazam amaliy treninglar o'tkazish	1. O'qituvchilarni yangi texnologiyalarga o'rgatish. 2. Interfaol kurslarni ishlab chiqish va joriy etish. 3. Yangi metodlarning samaradorligini baholash.	Talabalarning amaliy ko'nikmalarini yaxshilash, interfaollikni va o'quv jarayoniga jalb qilinganlikni oshirish
<i>O'qitishda fanlararo yondashuv va innovatsiyalarning yetarli darajada emasligi</i>	Fanlararo loyihalar va keys-stadi tashkil etish, faol va loyihaviy ta'lim metodikalarini joriy etish	1. Yangi integrativ dasturlarni rejalashtirish va ishlab chiqish. 2. O'qitishda pedagogik innovatsiyalarni qo'llash. 3. Muvaffaqiyatlar monitoringi va yondashuvlarni tuzatish.	Talabalarda kompleks tafakkur, fanlararo masalalarni yechish qobiliyati va boshqaruv malakalarini rivojlantirish

Keltirilgan tahlillar asosida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlashda quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Bo'lajak muhandislar-texnologlarni tayyorlashdagi mavjud muammolarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim dasturlarining relevantligini saqlab turish uchun ularni uzluksiz moslashtirish va zamonaviy texnologiyalar va o'qitish uslublarini integratsiyalash zarur. Fanlararo kurslarni kiritish, interfaol ta'lim va ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlash orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim

sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi. Ushbu muammolarni anglash va hal etish universitetlarga nafaqat o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, balki yangi texnologiyalarni yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishda faol ishtirok eta oladigan muhandislarni tayyorlash imkonini beradi

Bo'lajak muhandis-texnologlarni tayyorlash ta'lim jarayonidagi joriy muammolar tahlili asosida ma'lum bo'ladiki, universitetlar o'z dasturlarini yangilash va moslashtirish bo'yicha faol choralar ko'rishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, aniqlangan muammolarni bartaraf qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar majmuini tavsiya etamiz:

O'quv dasturlarini muntazam yangilash: Dasturlarning dolzarb texnologik va iqtisodiy tendensiyalarga mos kelishini kafolatlash maqsadida universitetlar har 2-3 yilda soha mutaxassislarining ishtirokida o'quv dasturlarini muntazam qayta ko'rib chiqish jarayonini o'rnatishi kerak

Amaliy ta'lim va interfaol ta'limning integratsiyasi: Real dunyoviy loyihalar, amaliyot hamda virtual va to'ldirilgan voqelik kabi so'nggi texnologiyalarga asoslangan simulyasiyalarni kiritgan holda kurslarning amaliy yo'nalganligini kuchaytirish muhim

Ishlab chiqarish bilan hamkorlik: Talabalar faoliyat ko'rsatib turgan mutaxassislardan haqiqiy tajriba va murabbiylik orttirishlari uchun sanoat va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish lozim.

Fanlararo aloqadorlikka asoslangan fanlar kiritish: Texnik fanlarni boshqarish, iqtisod va hatto san'at bilan birlashtirgan fanlararo dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish talabalarda muhandislik muammolariga keng qarashlarni shakllantirishga yordam beradi

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash: Masofaviy va gibrid ta'limni ta'minlash uchun ta'lim platformalari va vositalarini faol qo'llash talabalarning dinamik o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan ta'lim olishlari maqsadida foydalanish va qulayliklarni ta'minlaydi

Mazkur tashkiliy-metodik tavsiyalarni amalga oshirish universitetlarga nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki bitiruvchilarni kasbiy sohada samarali faoliyat ko'rsatish va innovatsiyalarga to'liq tayyor bo'lishini ta'minlash imkonini beradi, bu esa pirovardida ularning shaxsiy muvaffaqiyati va umuman jamiyat ravnaqiga hissa qo'shadi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida muhandis-texnologlar tayyorlashning amaldagi tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, mehnat bozori va ta'lim standartlari o'rtasidagi farqlarni qisqartirish, o'quv rejalarini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish, o'qitish metodlarini yaxshilash va pedagogikada innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur metodik tavsiyalar natijasida talabalarning amaliy va nazariy ko'nikmalari yaxshilanib, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N., Kuzmich. (2022). Trends in engineering training in higher education. *Nucleation and Atmospheric Aerosols*, doi: 10.1063/5.0104836
2. Yun-song, Tan., Hao-yu, Jin. (2023). Research on the Training Mode of Emerging Engineering Education Driven by Complex Engineering Problems. doi: 10.55571/ettl.202303035
3. Svetlana, M., Markova., Ludmila, N., Zafir., Olga, I., Vaganova., Zhanna, V., Smirnova., Svetlana, A., Tsyplakova. (2019). Department of educational process in conditions of implementation of interactive training of future engineers.
4. Iuliia, Borisovna, Nadtochii., Iurii, Vladimirovich, Zernii. (2019). Vysshee tekhnicheskoe obrazovanie v Rossii: problemy i vozmozhnosti. doi: 10.31483/R-22041
5. Margarita, Yu., Raitina., Larisa, V., Smolnikova., Olga, V., Gorskikh., Tatyana, I., Suslova. (2019). Conditions Affecting the Professional and Project Training of Engineering Personnel. doi: 10.1007/978-3-030-11473-2_9
6. Mykhailo, Palahniuk. (2022). Improvement of the Quality of Future Engineers' Social and

Humanitarian Training in the Higher Technical Education Institution. Journal of Vasyl Stefanyk Precarpathian National University, doi: 10.15330/jpnu.9.1.58-68

7. Diana, Carolina, Campaña, Días. (2023). Engineering Learning Outcomes: The Possible Balance between the Passion and the Profession. *Social Sciences*, doi: 10.3390/socsci12010037

8. L., Lomakina., Oksana, Hural. (2023). Ict application in modern foreign language training of future engineers. *Naukovì zapiski*, doi: 10.36550/2415-7988-2022-1-207-206-212

9. Valeria, Boiko. (2022). Components of graphic training concept for future mechanical engineers. *Vitoki pedagogìčnoï majsternosti*, doi: 10.33989/2075-146x.2022.29.264249

10. S., Reznik., H., Kuznetsova. (2022). Essence and structural components of basic professional competence of future engineers. *Teoriâ ì praktika upravlinnâ social'nimi sistemami*, doi: 10.20998/2078-7782.2022.3.06

11. Olexandr, Romanovskiy., Olena, Lapuzina. (2023). Project based learning and its role in the process of training future professional leaders in ukrainian technical universities. *Teoriâ ì praktika upravlinnâ social'nimi sistemami*, doi: 10.20998/2078-7782.2022.4.01

12. Anna, Prokhorova. (2020). Multilingual Communicative Competence of Future Engineers: Essence, Structure, Content. doi: 10.1007/978-3-030-47415-7_2

KURSANTLARDA MUZOKARAGA KIRISHISH KO'NIKMASINI RIVOJLANISHIGA SHAXS TIPLARINING TA'SIRI

Azamjonova Oyniso Qahramon qizi
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.089>

Annotatsiya. Maqolada kursantlarda muzokaraga kirishish ko'nikmasini shakllanishiga shaxs tiplarining ta'sir xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Dastavval shaxs tiplarining mohiyati, bu boradagi nazariyondashuvlar hamda konsepsiyalarning mazmuni psixologik nuqtai nazaridan atroflicha bayon qilingan. Shuning bilan birga kursantlarni muzokaraga kirishish ko'nikmasini rivojlanishiga shaxs tiplarining ta'sir xususiyatlari empirik tadqiqotlar doirasida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, muomala, muloqot, ko'nikma, malaka, muzokaraga kirishish, ekstravert, interavert, distribut uslub, hamkor mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslub, vaziyatni mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslub, rakobatchilik, hamkorlik.

ВЛИЯНИЕ ТИПОВ ЛИЧНОСТИ НА РАЗВИТИЕ УМЕНИЕ ВЕДЕНИЯ ПЕРЕГОВО-РОВ У КУРСАНТОВ

Азамджонова Ойнисо Кахрамон кизи
Университет общественной безопасности Республики Узбекистан, самостоятельный соис-катель

Аннотация. Статья посвящена изучению особенностей влияния типов личности на форми-рование переговорных навыков у курсантов. Во-первых, с психологической точки зрения подробно описываются природа типов личности, теоретические подходы и содержание понятий по это-му поводу. При этом в рамках эмпирического исследования изучено влияние характеристик типов личности на развитие переговорных навыков курсантов.

Ключевые слова: личность, поведение, общение, навыки, компетентность, ведение перегово-ров, экстраверт, интераверт, распределенный стиль, интегративный стиль, направленный на достижение цели партнера, интегративный стиль, направленный на достижение цели ситуа-ции, конкурентоспособность, сотрудничество.

INFLUENCE OF PERSONALITY TYPES ON THE DEVELOPMENT OF SKILLS TO ENTER INTO NEGOTIATIONS IN CADETS

Azamjonova Oyniso
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, independent researcher

Abstract. The article is devoted to the study of the characteristics of the influence of personality types on the formation of negotiation skills in cadets. First, the nature of personality types, theoretical approaches and the content of concepts in this regard are described in detail from a psychological point of view. At the same time, the impact characteristics of personality types on the development of cadets' negotiation skills have been studied within the framework of empirical research.

Key words: personality, behavior, communication, skills, competence, negotiating, extravert, interavert, distributed style, integrative style aimed at getting the partner intended, integrative style aimed at getting the situation intended, competitiveness, cooperation.

Psixologik tahlil predmeti tobora ko'proq shaxsning ixtiyoriy faoliyatining turli shakllariga aylanib bormoqda. U ko'proq qiyin vaziyatda qabul qiladigan qarorlarning o'ziga xos xususiyatlari, atrofdagi dunyoni tushuntirish turlari, mafkuraviy va shaxsning o'z taqdiriga munosabatlarini aks ettiradi.

Shaxsiy o'zini o'zi anglash mezonlaridan biri sub'ektiv nazorat darajasidir, ya'ni. insonning turli vaziyatlarda o'z xulq-atvorlari va faoliyati natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatidir.

Mazkur shaxsiy xususiyat, bizning fikrimizcha, qiyin faoliyat, ba'zan o'ta og'ir sharoitlarda o'tadigan, fikrlashning ravshanligini, barcha harakatlariga ongli ravishda yondashish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishni talab qiladigan harbiy soha mutaxassisi uchun alohida ahamiyatga ega. Bu esa

o'z navbatida shaxsning hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan insonlar, moddiy zahiralarning xavfsizligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarning muzokaraga kirishish jarayoniga ta'sir qiluvchi ichki omillardan biri bo'lgan harbiy universitet kursantlari o'rtasida sub'ektiv nazorat darajasini o'rganish dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Ma'lumki, sub'ektiv nazorat tushunchasi Jorj Rotterning sub'ektiv nazorat tushunchasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Lokus nazorat - bu sabablarning lokalizatsiyasini tavsiflovchi tushuncha bo'lib, uning asosida inson o'z xulq-atvori va u tomonidan kuzatilgan boshqa odamlarning xulq-atvorlarini tushuntiradi.

Ichki lokus nazorati- bu xulq-atvorlarning sabablarini shaxsning o'zida izlash, tashqi nazorat o'chog'i esa ularni shaxsdan tashqarida, uning muhitida lokalizatsiya qilishdir [3].

Nazorat markazining ikkita ekstremal turi mavjud: ichki va tashqi.

Ekstrenal u bilan sodir bo'lgan voqealar tashqi kuchlar - tasodif, boshqa odamlar va boshqalarning harakati natijasidir, deb hisoblaydi. Internal muhim voqealarni o'z faoliyati natijasi sifatida izohlaydi.

Har qanday shaxs u yoki bu turdagi belgilar bilan tavsiflanadi va turli vaziyatlarda u yoki bu tur ustun bo'lishi mumkin. Shu bois, ularning ichki nazorati universalidir va u duch keladigan har qanday hodisa va vaziyatlarga xosdir.

Jumladan, kasbiy sohada internallikni namoyon qiladigan inson bir vaqtning o'zida oilaviy sohada barqaror tashqi yo'nalishni namoyish qilishi mumkin va hokazo [4].

Psixologlarning fikriga ko'ra, agar odam aniq internal bo'lsa, ya'ni, o'zini o'zi bilan sodir bo'lgan barcha hodisalar uchun javobgar deb hisoblaydi. Undan keyin, qoida tariqasida, u o'z kuchiga ishonish va o'z kuchini qo'llash sohasi sifatida ishdan qoniqish bilan ajralib turadi.

U ko'proq mas'uliyatli, chidamli, izchil, hissiy jihatdan barqaror, yetakchilikka moyil, o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtirishga yuqori darajada tayyor. Shu bilan birga, bunday shaxs ma'lum darajada kategorik bo'lishi mumkin va atrof-muhitni yetarlicha qabul qilmaydi [2].

Eksternal odamlar tashqi strategiyaga ega odamlardir. Ular muvaffaqiyatsizlik manbasini va muvaffaqiyat dvigatelini o'zlaridan tashqarida ko'rishadi.

Bunday odamlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

-o'zini o'zi tanqid qilish va o'zini takomillashtirishga moyillik emas, ijtimoiy vaziyatni keskin his qilish, undagi o'zgarishlar, atrof-muhitga moyillik.

Ularning fikriga ko'ra, tashqi sharoitlar (taqdir, tasodif, odamlar) ularning faoliyatida katta rol o'ynaydi. Ular tashvishga moyil, boshqalarning fikrini tinglaydilar va o'zini oqlash taktikasi sifatida aldashedan qochmaydilar. Tashqi mavqei qulayroq va ularga ijtimoiy muhitda qulayroq mavqeni ta'minlashi kerakdek tuyuladi.

Biroq, ko'plab psixologik kuzatuvlar va eksperimentlar izchil qonunni aniqladi: internal odamlar ko'pincha ijodiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishadilar, kamroq tashvishli va tajovuzkor bo'lishadi hamda eksternal tomondan ko'ra o'z tamoyillarini qat'iyroq himoya qilishga qodir. Internal odamlar munosabatlarda kamroq shubhali va ko'pincha o'z maqsadlariga erishishda ishonchni ilhomlantiradi.

Har bir inson o'z kuchi va qobiliyatiga ishonchning ulushiga va vaziyatga psixologik bog'liqlik ulushiga ega [3]. Ko'pgina tadqiqotlar tashqi ta'sirning tashvish va depressiya, dogmatizm va avtoritarizm bilan sezilarli va ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi. Umuman olganda, tashqi ko'rinishlar fatalistik tendensiyalar bilan ajralib turadi [2].

Sub'ektiv nazoratni o'rganish har ikkala turdagi insonlarning qiyinchiliklari va muammolarini bashorat qilishga, xulq-atvorlarning xususiyatlari va motivlarini aniqroq aniqlashga, kasb tanlash va shaxsning kasbiy rivojlanish xususiyatlarini bashorat qilishga yordam beradi, bu ayniqsa harbiy universitet kursantlari uchun juda muhimdir.

Fuqarolardan farqli ravishda, harbiy xizmatchining kasbiy o'zini o'zi anglashini shakllantirish maxsus faoliyat sharoitida - harbiy mehnatda sodir bo'ladi.

Harbiy xizmatchi uchun bunday mehnat harbiy burchni bajarish bo'lib, unda u o'zini harbiy kasbiy faoliyat, kundalik xizmat munosabatlari va o'z rivojlanishining sub'ekti sifatida amalga oshiradi [5]. Harbiy faoliyat murakkab ijtimoiy hodisadir.

Jamoat hayotining bir qismi sifatida u harbiy ishlar sohasidagi odamlarning moddiy, hissiy-ob'ektiv va maqsadga muvofiq faoliyatini ifodalaydi va amaliy harbiy va harbiy tadqiqot faoliyatini o'z ichiga oladi.

Harbiy faoliyatning mazmuni va shakllari doimo o‘zgarib, rivojlanib bormoqda.

Uning namoyon bo‘lishini tarixiy tahlil qilish jarayonida o‘tmishdagi harbiy tajriba va zamonaviy harbiy faoliyat ajralib turadi.

Harbiy faoliyat qurolli kurash, jangovar vazifa, qo‘shinlarning jangovar va ma’naviy-psixologik tayyorgarligi, shtab va boshqa harbiy qo‘mondonlik va boshqaruv organlarining boshqaruv faoliyati, harbiy xizmatchilarni tayyorlash, harbiy-ilmiy faoliyat va boshqalar shaklida amalga oshiriladi.

Harbiy faoliyat shakllari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi va shart qiladi.

Harbiy faoliyatni umumiy faoliyatning asosiy bosqichlari ketma-ketligini tahlil qilish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish mumkin:

-maqsadni belgilash va kelgusi harakatlarni rejalashtirish;

-faoliyat sharoitlarini tashkil etish, vositalar va usullarni tanlash;

-faoliyat dasturini amalga oshirish, uni amalga oshirish;

-natijalarni nazorat qilish va baholashni ta‘minlash, ularni faoliyat maqsadlari bilan solishtirish va oraliq natija asosida keyingi faoliyatni davom ettirish [5].

Harbiy kasbning sanab o‘tilgan xususiyatlari harbiy xizmatchilar orasida ichki nazorat o‘chog‘ining ustunligini ko‘rsatadi deb taxmin qilishimiz mumkin.

Harbiy faoliyat g‘oyasi uning ikki tomonining birligi sifatida aks ettirilishi mumkin - sub’ektiv va ob’ektiv.

Sub’ektiv tomon-bu shaxs (sub’ekt), uning motivlari, bilimlari va ko‘nikmalari, shuningdek, inson tomonidan amalga oshiriladigan maqsadga muvofiq faoliyat operatsiyalari. Ob’ektiv tomon - bu shaxs tomonidan ma’lum o‘zaro ta’sirlarga kiritilgan va harbiy faoliyat ob’ektlari, vositalari va mahsulotlari sifatida ishlaydigan ob’ektlar to‘plami.

Muayyan harbiy kasbiy faoliyat sharoitida harbiy xizmatchining shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi anglashini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar orasida tashqi va ichki omillar ajralib turadi [1]. Ichki omillar insonning muhim individual psixologik xususiyatlaridir. Sub’ektiv nazorat (javobgarlik) darajasi ichki omillarga tegishli hisoblanadi. Lokus nazorat o‘chog‘i shaxs individual xulq-atvorlarning o‘zini o‘zi boshqarishi bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot jarayonida kursantlarning muzokaraga kirishish ko‘nikmasini shaxs tiplari bilan bog‘liqligini tekshirish maqsadida Rotter va Panteleyevalarning “Sub’ektiv lokal nazorat xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi”, “Mening muzokaralardagi taktikam”, “Muzokaralar uslubini aniqlash” metodikalaridan foydalanildi. Olingan empirik ma’lumotlarni yaqqol ifodalash maqsadida jadvallarda aks ettirildi.

1-jadval

3-kurs kursantlarida muzokaraga kirish uslublari va shaxs tiplari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Shaxs tiplari	Muzokaraga kirish uslublari				
	Distribut uslub	Hamkorni mo‘ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslub	Vaziyatni mo‘ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslub	Rakobatchilik	Xamkorlik
Eksternal	-0,02	-0,23*	-0,22*	-0,21*	0,21*
Internal	0,02	0,23*	0,22*	1	-0,98**

Jadval (1-jadval)da keltirilgan natijalarga ko'ra, shaxsning eksternal tipi hamkorni mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslubi bilan ($r=-0,23$; $r\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli munosabatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning bilan birga kursantlarda eksternal tipi vaziyatni mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslubi bilan ($r=0,23$; $r\leq 0,05$) ijobiy ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, muzokara jarayonida kursant shaxsida eksternallikning ustunligi ularda hamkorni to'g'ri idrok qilishiga hamda vaziyatga mos ravishda harakat qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Ma'lumki, integrativ muzokaralar muammoni birgalikda tushunishga va ishtirokchilarning manfaatlarini birlashtirishga asoslanadi. Ikkala tomon uchun ham g'alaba qozonish natijasini belgilash, ishtirokchilarning maqsadlari bir-biriga mos kelishini va muammolarni hal qilish natijasi har ikki tomon uchun ham o'zaro manfaatli kelishuvlar bo'lishini nazarda tutadigan xatti-harakatlar uchun to'siqni belgilaydi. Ayniqsa, integrativ muzokaralar formati ma'lumotlardan ochiq, umumiy foydalanish, boshqalarga ishonish istagi, qadriyatlar va manfaatlar almashinuvi va to'g'ri muhokamani o'tkazish bilan tavsiflanadi.

Metodika natijalariga ko'ra, vaziyatni mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslub eksternal bilan ($r=-0,22$; $r\leq 0,05$) ahamiyatli va internal bilan ($r=0,22$; $r\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra, kursantlarda vaziyatni mo'ljalgan olishga qaratilgan integrativ uslubning yuqori darajada namoyon bo'lishi ularda eksternallik xususiyatini to'liq namoyon bo'lmasligiga olib keladi. Shuning bilan birga mazkur uslubning yuqori darajada rivojlanishi ulardagi internallikning ham kuchli darajada namoyon bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, integrativ yondashuvlar muammolarni hal qilish, hamkorlik, birgalikda qaror qabul qilish va o'zaro manfaatlarni izlashga ustuvor ahamiyat berganligi sababli, integral strategiyalar ishtirokchilardan g'alaba qozonish va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilish uchun birgalikda ishlashni talab qiladi. Bunday maqsadlar manfaatlarni ochib berishga va tomonlarning manfaatlarini o'rtasidagi umumiylikni izlashga, shuningdek, muammoni hal qilish variantlarini yaratishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqobatchilik ekstrenallar bilan ($r=-0,21$; $r\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, kursantlarda o'quv va kasbiy faoliyatiga nisbatan raqobatni yuzaga kelishi ko'proq ularning tashqi ifodalarida namoyon bo'lishi aniqlandi. O'z navbatida interallik sifati yuqori chiqqan kursantlarda raqobatga bo'lgan intilish yuqori emasligini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqot natijalariga ko'ra kursantlarda hamkorlik ekstrenallar bilan ($r=0,21$; $r\leq 0,05$) ijobiy ahamiyatli va internallar bilan ($r=-0,98$; $r\leq 0,01$) yuqori darajada qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. O'z navbatida eksternallarga moyil bo'lgan kursantlarda hamkorlikda faoliyat olib borishga nisbatan ishtiyoqlari baland ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuning bilan birga internallik xususiyati yuqori bo'lgan kursantlarda esa aksincha hamkorlikda faoliyat olib borishga nisbatan hoxishning ustun emasligidan dalolat beradi.

O'rganilgan nazariy materiallar va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Kursantlarda muzokaraga kirishish ko'nikmasini rivojlanishi ulardagi shaxs tiplari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular tanlovchan tabiatga ega ekanligi aniqlandi.

2. Kursantlarda muzokara kirishish ko'nikmasi ko'proq ekstrenallarda ustuvor ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

3. Internalga moyil bo'lgan kursantlarda muzokaraga kirishishga bo'lgan intilish ustun emasligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абрамова, Г. С. Практическая психология: Учебник для студентов вузов / Г. С. Абрамова. – изд 6-е., перераб. и доп. – М.: Академический Проект, 2001. – 480 с.
- Бороздина, Л. В. Увеличение индекса тревожности при расхождении уровней самооценки и притязаний / Л. В. Бороздина, Е. А. Залученова // Вопросы психологии. 1993. - № 1. – С.112-118.
- Кондаков, И. М. Методологические основания зарубежных теорий профессионального развития / И. М. Кондаков, А. В. Сухарев // Вопросы психологии. – 1988. - № 7. – С.158-164.
- Кондаков, И. М. Экспериментальное исследование структуры и личностного контекста локуса контроля / И. М. Кондаков, М. Н. Нилопец // Психологический журнал. – 1995. - № 1. – С. 35-39.
- Торгаева, И. Н. Психолого-акмеологические факторы формирования личностно-профессиональной Я-концепции военнослужащих по контракту (на примере подразделений Воздушно-десантных войск): автореф. дисс. ... канд. психол. наук / И. Н. Торгаева. – Ульяновск, 2006. – 125 с

OLIV TA'LIM FAOLIYATIDA TYUTORLIK VA FASILITATORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI

Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Pedagogika, psixologiya va tillar" kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.090>

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning diqqat markazida shaxs turadi. Aynan shuning uchun ham yangi taraqqiyot davrining talablarini amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish davlatimiz oldidagi eng asosiy vazifalardan biri bo'lib xisoblanadi. Bugungi kunda oldimizda turgan muhim vazifalardan biri – bizning o'rnimizga kelayotgan, o'z fikri, o'z dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi raqobatbardosh mutaxassislarini tarbiyasidir. Ushbu maqolada hozirgi kundagi oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan tyutorlik faoliyatining tarixi, kelib chiqishi, tyutorlik va fasilitatorlik faoliyatining tashkil etish mazmuni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tyutor, murabbiy, talaba, ta'lim, tarbiya, guruh, model, faoliyat, ta'lim, tarbiya, tizim, axloqiy tarbiya.

СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ТЮТОРИСКОЙ И ФАСИЛИТИРУЮЩЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕЙ ОБРАЗОВАНИЕ

Абдумуталибова Магфират Миродил кизи.

Преподаватель кафедры «Педагогика, психология и языков» Ташкентской медицинской академии

Аннотация. В центре внимания всех реформ, реализуемых в образовательном процессе, находится личность. Вот почему одной из важнейших задач нашей страны является воспитание и воспитание зрелого поколения, способного соответствовать требованиям новой эпохи развития. Одной из важных задач, стоящих сегодня перед нами, является подготовка к нам новых конкурентоспособных специалистов, обладающих собственным мнением, мировоззрением, современными знаниями и мышлением. В данной статье представлены сведения об истории, происхождении и содержании репетиторской и фасилитационной деятельности, организуемой сегодня в высших учебных заведениях. Ключевые слова: тьютор, тренер, ученик, воспитание, воспитание, группа, модель, деятельность, воспитание, воспитание, система, нравственное воспитание.

THE CONTENT OF ORGANIZING TUTORING AND FACILITATING ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION ACTIVITIES

Abdumutalibova Maghfirat Mirodil kizi

Teacher of the «Pedagogy, psychology and languages» department of the Tashkent Medical Academy

Annotation. The focus of all reforms implemented in the educational process is the individual. That is why it is one of the most important tasks for our country to raise and educate a mature generation capable of fulfilling the requirements of the new era of development. One of the important tasks facing us today is the training of new competitive specialists who come to our place, who have their own opinion, worldview, modern knowledge and thinking. This article presents information about the history, origin, and content of tutoring and facilitating activities organized in higher education institutions today.

Key words: tutor, trainer, student, education, education, group, model, activity, education, education, system, moral education.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida —... barcha uchun butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimini, jumladan, masofaviy o'qitish tizimini rivojlantirish va unda tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Hozirgi davrda "Tyutor" atamasining bir necha ta'riflari mavjud bo'lib, ingliz tilidan tarjima qilinganda "Tyutor" (tutor) tom ma'noda ustoz, murabbiy, instruktor va o'qituvchi

ko'rsatuvchi ma'nolarida qo'llaniladi. Pedagogik-psixologik atamalar lug'atida "o'z o'quvchilarining bilimdon murabbiyi o'quv jarayonini osonlashtiruvchi shaxs, o'qituvchi" deb ta'rif berilgan. Professor A.Xoliqov o'z ilmiy maqolasida tyutor so'ziga quyidagicha ta'rif bergan: "Tyutor – o'quv kurslarini interfaol taqdim etish bo'yicha mutaxassis.

Tarixiy manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, tyutorlik faoliyati tarixi kamida 900 yildan buyon ta'lim berish madaniyati bilan birgalikda alohida madaniyat sifatida shakllanib kelgan va asrlar davomida rivojlanishida uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli ham o'zgarib borgan. Mavjud manbalarga ko'ra tyutorlik faoliyatining rivojlanish davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1-bosqich: ... – XVI asrlar - tyutorlik faoliyati ta'lim oluvchilarning mustaqil o'qishlariga ko'maklashuvchi sifatida;

2-bosqich: XVI–XIX asrlar - tyutorlik faoliyati ingliz universiteti tizimida rasmiy tan olingan kasb sifatida;

3-bosqich: XIX–XX asrlar - tyutorlar va kitoblarni asosiy bilim manbai deb bilish mumkin bo'lgan vaqtlar;

4-bosqich: XXI asr - tyutor yangi kasb sifatida: o'qituvchi funksiyasini o'zgartirish, kengaytirish va yangi lavozim majburiyatini belgilash. Mavjud adabiyotlarda tyutorlik faoliyati XII asrdagi Yevropa universitetlari, jumladan Oksford, Kembrij universitetlari tarixi bilan chambarchas bog'liqligi va Buyuk Britaniyada shakllanganligi ta'kidlangan. Tyutorlik faoliyati taxminan XIV asrda ingliz universitetlari Oksford va biroz keyinroq Kembrijda shakllangan va bu bo'yicha mavjud tajribalarning tahlillariga ko'ra, shu davrdan boshlab tyutorlar universitet murabbiysi sifatida shakllanganligini ko'rish mumkin. Bu davrda universitetlarga o'qituvchilar va talabalarning uyushmalari sifatida qaralgan va talabalar bir xildagi muayyan kurslarda ishtirok etishi talab etilmagan, qaysi professorning tinglashni yoki qaysi fanlarni o'rganishni talabning o'zi hal qilishi lozim bo'lgan. Har bir professor o'zining tadqiqot mavzusiga doir ma'ruza o'qigan va sharhlagan. Shuning uchun talabalar nafaqat o'zining, balki boshqa ta'lim muassasalar professorlari ma'ruzasini tinglashlari mumkin bo'lgan. Universitet esa, o'z talabalarini faqat bitiruv imtihonlariga qo'ygan. Bunda talabalarga o'z yo'lini tanlash jarayonida hamda kurs yakunida tegishli darajani olishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashda tyutorlar yordam ko'rsatishgan. Bu vaqtlari o'qishning birinchi yilida barcha talabalar tyutorlar konsultatsiyalariga qatnashish majburiy bo'lgan va ular har haftada bajarilgan ishlari to'g'risida tyutorga hisobot berib turishgan. Talabalarning tyutorlar bilan uchrashuvlari jadval bo'yicha va darsdan tashqari vaqtda o'tkazilgan hamda bunday uchrashuvlar, muloqotlar talabalar uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha zamondagi universitetning rad qilib bo'lmaydigan jihati o'qitish va o'qishning erkinligi bo'lgani uchun, tyutorlar professor va talaba o'rtasida vositachilik funksiyasini bajargan. Ta'lim olish erkinligi talabning mustaqil o'qishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda tyutorning asosiy vazifasi talabning mustaqil bilim olish jarayonini akademik g'oyalari bilan bog'lashdan iborat bo'lgan. Mustaqil o'qish jarayoni universitetda bilim olishning asosiy qismi hisoblangan va tyutor ushbu mustaqil o'qish jarayoniga ko'maklashish funksiyalarini bajargan. XVI asrning oxirida universitet o'quv jarayonida tyutorlar o'z talabalarini tarbiyasiga javobgar sifatida asosiy shaxsga aylangan. Bu borada M.I.Popova tadqiqotlarida shunday yozilgan. Bizlar faqat bilim berishimiz emas, tarbiyalashimiz kerak: bilim bilan birgalikda axloqiy va diniy javobgarlik hissini singdirishimiz lozim. Talaba bu yerda har xil qoidalarga bo'ysunadi va tyutorlar nazorati ostida bo'ladi, ular ... ham otalarcha, ham xizmat huquqiga ega, har qadamda o'zini tutishni va o'zini idora qilishni talab qiladi va shunday qilib, uning uchun hayotga tayyorlovchi haqiqiy maktab bo'lib xizmat qiladi. ...». Bu fikrlar bilan tadqiqotchi tyutorlik faoliyati, talabalarning individual ta'lim olish traektoriyasi bo'yicha o'z qarashlarini keltirib o'tgan. XVII asrga kelib tyutorlik faoliyati sohasi kengaydi, uning faqat ta'limga oid emas, tarbiyaviy funksiyalari ham borgan sari ko'proq ahamiyatga ega bo'la boshladi. Tyutor talabaga qaysi ma'ruzalari yoki amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish eng ma'qul ekanligi va u o'zining o'quv rejasini qanday tuzishi kerakligi bo'yicha maslahat bergan, o'z talabalarining yaxshi o'qishlari va imtihonlarga tayyor bo'lishlarini nazorat qilgan. Tyutor o'sha davrlarda talabning eng yaqin maslahatchisi va uning barcha qiyinchiliklari, muammolarining yechimini topishda yordamchi bo'lib hisoblangan. XVII asrda tyutorlik tizimi ingliz universiteti tizimining professorlik (nemis) modelini asta-sekin siqib chiqarib borayotgan bir qismi deb rasmiy ravishda tan olingan. 1700 yildan 1850 yilgacha davrda ingliz universitetlarida ommaviy kurslar va kafedralar umuman bo'lmagan. Talabalarni imtihonlarga faqat tyutorlar tayyorlagan. XVII asrga kelib Oksford va Kembrij universitetlarida tyutorlar o'z atrofiga uni o'z ustozlari deb tanlagan 1-2 talabani to'plab, ta'lim jarayonida asosiy shaxsga aylangan

va u o‘z talabalari oladigan bilimlar doirasini belgilagan. O‘zi taklif qilgan materiallarni o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha ulardan imtihonlar olgan.

Boshqacha qilib aytganda, tyutor talaba shaxsini individual yondashuv asosida shaxsiy va kasbiy jihatdan hayotga tayyorlovchi vasiydir. XIX asrning oxirida universitetlarda erkin kafedralar va kollegial ma‘ruzalar paydo bo‘lganida ham, talabaning professorlar va kurslarni shaxsan tanlash huquqi saqlanib qolgan. XVIII–XX asrlar davomida Angliyaning eski universitetlarida tyutorlik tizimining mavqei pasaymagan, aksincha, ta‘limda asosiy o‘rinni egallagan: ma‘ruzalar tizimi faqat unga qo‘shimcha bo‘lib xizmat qilgan va hozirgacha shunday xizmat qilmoqda. Oksford va Kembrijda tyutorlar hozirgacha ta‘lim-tarbiya ishida muhim o‘rin egallaydi va bu lavozim shtat birliklari hisoblanadi. Tyutorlik faoliyatining tarixiy rivojlanish tendensiyalari sifatida 2008 yilda Udmurtiya davlat universiteti tomonidan Edvard va Eleyn Gordonlarning ”Tyutorlikning yuz yilligi: Amerika va G‘arbiy Yevropada muqobil ta‘limining tarixi» nomli kitobi nashr qilinganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kitobda mualliflar kundalik daftaridagi yozuvlar, arxiv materiallar, buyuk shaxslarning fikrlariga asoslanib tyutorning funksiyalarini sharhlagan va individual ta‘lim har qanday zamonaviy pedagogik muassasadan ko‘ra qadimiyroq ekanligini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, MDH davlatlarida tyutorlik faoliyati bir muncha kechroq shakllanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, Rossiyada tyutorlik faoliyati uzoq vaqt davomida unchalik ma‘lum bo‘lmagan, tyutorlik g‘oyalari asosan Rossiyada faqat qayta qurish davrida tarqala boshlagan. 1989 yilda P.G.Ищедrovskiy rahbarligida Moskvada tyutorlarning birinchi konkursini o‘tkazgan. Keyinchalik P.G.Шедrovskiy turli hududlardan bo‘lgan yosh pedagoglar uchun “Artek” lagerida yangi pedagogik faoliyat – tyutorlik to‘g‘risida turkum ma‘ruzalar o‘qigan. Shu vaqtdan boshlab asta-sekin Rossiyada tyutorlik amaliyoti tashkil topa boshlagan. P.G.Ищедrovskiy fikricha tyutorlik faoliyati o‘quvchining ta‘limga oid motivlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish, individual ta‘lim dasturini yaratish uchun ta‘lim resurslarini izlash, oilaning ta‘limga oid buyurtmasi bilan ishlash, o‘quvchining tarbiyasi va ta‘limga oid refleksiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limni individuallashtirish bo‘yicha pedagogik faoliyat tushunilgan.

Shunday qilib, tyutorlik faoliyati - bu tarixda o‘qitish va o‘qish madaniyati bilan yonma-yon shakllangan alohida madaniyat hisoblanadi. Hozirgi davrlarda tyutorlik ta‘limi masofaviy o‘qitishda ommalashib bormoqda va bu kunduzgi o‘qitish shakllaridan birmuncha farq qiladi. Respublikamiz oliy ta‘lim tizimida endigina paydo bo‘lgan tyutorlik faoliyatining o‘ziga hos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tyutor - talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi inson bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga yo‘naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroficha yechim topish bilan shug‘ullanadi.

2. Tyutorlarning asosiy maqsadi - ta‘lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarining universitet hayoti va ta‘lim jarayoniga moslashishiga ko‘maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish va talabalarda tanlagan kasbga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg‘ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta‘minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo‘lib turadi.

3. Tyutorlar ma‘naviy-ma‘rifiy va ahloqiy-tarbiya, o‘quv va o‘quvuslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida o‘z faoliyatini olib boradi.

4. Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to‘garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste‘dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta‘lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi.

5. Talabalarining o‘quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to‘g‘ri so‘zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yadi. Iqtidorli va iste‘dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarining loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

6. Talabalarining darslarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta‘lim

texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi.

7. Tyutorlar talabalarni o'ylantiradigan qator masalalar, xususan, talabalarni turar joy bilan ta'minlash, qoldirilgan darslarni o'zlashtirishga yordam berib boradi.

8. Har bir tyutor o'ziga biriktirilgan akademik guruhlarining darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

9. Har bir tyutor talabalarining sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, Yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.

Tyutor qo'llab-quvvatlash modeli uch vektorli model ijtimoiy, fan va antropologik tyutorlik harakatlar. (Kovaleva T.M.).

Ta'lim muhiti ijtimoiy-madaniy, shu jumladan pedagogik, - T. ta'lim faoliyati bo'lishi kerak yoki amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muhit, B 4. IEPni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha faoliyat. Ta'lim maydoni - bu ma'lum sharoitlarda talaba uchun manba bo'ladigan ta'lim, mazmun, pozitsiyalar, aloqalar uchun potensial joylarning ob'ektiv haqiqati (Suxanova E.A.)

Tyutor portfeli - o'qituvchining individual ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'zini o'zi baholash vositasi bo'lib, quyidagi bo'limlardan iborat: kognitiv qiziqishlar bo'limidan: ta'lim resurslari va mumkin bo'lgan axborot manbalari ro'yxati; ushbu qiziqish sohasiga oid ilgari o'qilgan va ko'rilgan sharhlar; fotosuratlar, rasmlar va boshqalar, ishlab chiqilgan rejalar, grafiklar, diagrammalar; o'qituvchiga ko'ra, kelajakdagi loyiha, tadqiqot, ijodiy ishlar, o'quv ekspeditsiyasi va boshqalar uchun zarur jihozlar ro'yxati; o'qituvchining o'zi joylashtirish zarur deb hisoblagan har qanday materiallar, ularning qisqacha yozma asoslari bilan. dasturni ishlab chiqish natijalari bo'limi: mutaxassislik bo'yicha o'qitish jarayonida bajariladigan insholar, ijodiy ishlar, referatlar; amaliyot (o'quv, ishlab chiqarish) davrida bajarilgan yozma ishlar, tuzilgan hujjatlar, tavsifnomalar nusxalari; o'qituvchining ijodiy ishlarining asl nusxalari yoki nusxalari; o'qituvchilarning, qiziqishlari bo'yicha ishlaydigan tashqi ekspertlarning sharhlari va sharhlari; baho kitobidan ko'chirmalar; repetitorning muqobil maktubi: ishni baholash va keyingi rivojlanish istiqbollari tavsiflash; Tyutorning o'zi haqida qisqacha ma'lumot: bu ishda erishilgan eng muhim natijalarning qisqacha tavsifi, nuqtai nazaridan. Qo'shimcha ta'lim bo'limi: qo'shimcha ta'lim dasturini ishlab chiqishni tasdiqlovchi hujjatlar.

Tyutor portfeli - bu tyutorning ish quroli bo'lib, unda turli diagnostika, psixologik testlar, o'z tyutorlik tajribasini tahlil qilish va tavsiflash kiradi; o'qituvchi o'z ishida zarur deb hisoblagan boshqa hujjatlar.

Tyutori qo'llab-quvvatlash tamoyillari: modullik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, individuallashtirish, ochiqlikdir. Modullik prinsipi uchta asosiy ta'lim modulidir: tadqiqot (ramziy, ilmiy), kommunikativ (muloqot), o'yin (rol o'ynash, bilim jonli harakatlar orqali olinadi). Ilmiy modulda ish shakllari oddiy, ammo qiyin, o'quv tadqiqotlari texnologiyasini o'zlashtirishgacha.

Moslashuvchanlik prinsipi o'qituvchini qo'llab-quvvatlashni ijtimoiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirishda, tashabbusni doimiy qo'llab-quvvatlashda, faoliyatni davom ettirish usullarini tanlashda namoyon bo'ladi. Kognitiv qiziqishni rivojlantirish jarayonining izchilligi, davriyligi, o'z vaqtidaligi prinsipi. Individuallashtirish prinsipi - o'quvchining shaxsiy ta'lim ehtiyojlariga, uning xususiyatlariga, qiziqishlari va moyilliklariga, umumiy yo'nalishiga yo'naltirish. Ochiqlik talabaning o'z bilim va ta'lim faoliyatini boshqarish uchun sharoit yaratishda amalga oshiriladi.

Seyshn festival – xorijiy mamlakatlar tyutorlik maktablari o'rtasida tajriba almashishning yangi formati bo'lib, tajribali ta'lim maydonidagi talabalariga tyutorlik yordami bo'yicha hamkorlikda amaliyot o'tkazish joyidir. Tyutorlik seyshn - bu ma'lum bir tuzilma doirasidagi mutaxassislarning erkin o'zaro ta'siri. Bu ikki turdagi o'quv qo'llanmalari: loyiha ofisi (ta'lim va faoliyat to'g'risida qaror qabul qilish va individual ta'lim loyihasini ishlab chiqish), o'zgaruvchan ta'lim makonida faoliyat sinovlari tizimi (tyutorlik va qiziqarli faoliyat sohasida sinovni tashkil etish) (muallifning studiyalar, aristos klublari).

Xulosa qilib aytganda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni faoliyatini tashkil etishda

tyutorlikning ahamiyati katta. Talabalarni individual ta'lim dasturini amalga oshirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda pedagogik faoliyatini mazmuni talabalarining ta'limga bo'lgan qiziqishini aniqlash va ta'lim maqsadlarini belgilashda yordam beradi, ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatini loyihalashni tashkil etish, ta'lim muhitida ta'lim faoliyati loyihasini amalga oshirishda yordam beradi, ta'limning keyingi bosqichini aks ettirish va loyihalashni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Азарова Е.А. Психолого-педагогические основы тьюторской деятельности в условиях инновационной образовательной политики / Е. А. Азарова, И. В. Коваленко, Н. Н. Мозговая // Психология обучения. - 2012. - № 9. - С. 174-181.

Александрова Е.А. Теория и практика тьюторской деятельности в России / Е. А. Александрова, Е. А. Андреева // Известия Саратовского университета. - 2012. - № 2. - С. 222-232.

Абдукаримов Х. – Тарбиячи ва тарбиячилик касбининг ижтимоий моҳияти Халқ таълими . – Тошкент , 1996.№6, -Б . 9-12.

Андреева В.И. Сравнительный анализ моделей тьюторства: на примере Англии, Германии, Объединённых Арабских Эмиратов И России: дисс.канд.пед.наук: 13.00.01- М., 2012.-222стр.

Атерсон Дж. Теория тьюторства –Ижевск, ERGO, 2013. – 32с..

Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПУ, 2003. – 192 с.

Амир Темур ва темурийлар даврида маданият ва санъат. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 88 б.

Ахмедова М. Педагогика тарихини ўқитишда талабаларнинг маънавий сифатларини тарбиялаш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2008. – 156 б.

Беспалова Г.М. Тьюторское сопровождение: организационные формы и образовательные эффекты –М.: 2007.№7. С.51-58.

BIZNES INGLIZ TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT

Ro'zmetova Muhabbat

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, "TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti dotsenti.

<https://orcid.org/0009-0002-3787-103X>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.091>

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes ingliz tilini o'qitish xususiyatlari hamda uni o'qitishda sun'iy intellekt ilovalaridan foydalanish afzalliklari bayon qilinadi. Shuningdek, zamonaviy sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat ekanligi, uning inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshirishi muhokama qilinadi. Jumladan, zamonaviy ingliz tilini o'rganishni va o'qitishni tashkil qilishda sifatli va yuqori samarador metodologiyani yaratish dolzarb muammo ekanligi, talabalar bilimini assesment qilishda inson omilini kamaytirishni optimallashtirish maqsadida sun'iy intellekt dasturlari ishtirokini inobatga olish keng iste'foda qilinadi. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratish g'oyasi ilk bora o'rganiladi. Unda jahon ilm-fani tomonidan erishilgan amaliy va ilmiy natijalar batafsil tahlil qilinadi, soha mutaxassislari bilan hamkorlikda faoliyat olib boriladi va amaliy natijalarga erishiladi.

Kalit so'zlar: chet til o'qitish tajribasi, sun'iy intellekt, biznes ingliz tili, assesment, muayyan mavzular, o'qitish, mobil ilova yaratish.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБУЧЕНИИ БИЗНЕС АНГЛИЙСКИЙ

Рузметова Мухаббат

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент в Банковско-финансовая академии Республики Узбекистан, Национальный исследовательский университет "ТИИМСХ"

Аннотация: В данной статье изложены особенности преподавания бизнес-английского языка, а также преимущества использования приложений искусственного интеллекта при его преподавании. Также рассматривается, что современный искусственный интеллект состоит из алгоритмов и программных систем, предназначенных для выполнения различных действий, он может выполнять ряд задач, которые человеческий разум может выполнять на основе информации, включенной в базу данных. В частности, актуальной проблемой является создание качественной и высокоэффективной методики в организации изучения и преподавания современного английского языка, широко используется учет участия программ искусственного интеллекта с целью оптимизации снижения человеческого фактора при оценке знаний студентов. В статье впервые исследуется преподавание английского языка с использованием технологий искусственного интеллекта, а также идея создания его комплексного инновационного программного мобильного приложения. В нем детально будут проанализированы практические и научные результаты, достигнутые мировой наукой, а также будет осуществлена деятельность в сотрудничестве со специалистами данной области и достигнуты практические результаты.

Ключевые слова: опыт преподавания иностранного языка, искусственный интеллект, бизнес английский язык, оценка, конкретные темы, обучение, создание мобильного приложения.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING BUSINESS ENGLISH

Ruzmetova Muhabbat

PhD in Pedagogic Sciences, Associate Professor The Banking and finance academy of the Republic of Uzbekistan "TIAME" National Research University

Abstract: In this article is described the specific features of business English teaching and the advantages of using artificial intelligence application. It is also discussed that recent artificial intelligence consists of algorithms and software systems designed to perform various actions, and it performs a number of tasks that the human mind can accomplish based on the IT basics. In particular, the creation of a high-quality and highly effective methodology in the organization of modern English language learning

and teaching is summarised, taking into account of the participation of artificial intelligence applications in order for optimizing the reduction of the human factor in the assessment process of student knowledge. There is commonly explored the idea of teaching English with using artificial intelligence technologies and creating a complex innovative software mobile application. Moreover, in this article are analysed in detail, the practical and scientific results achieved by world experts and activities are carried out in the cooperation with scholars in the field.

Key words: Foreign language teaching experience, artificial intelligence, business English, assessment, specific topics, teaching, mobile application development.

Kirish. Bugungi kun sharoitida, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlandiya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, Britaniya elchixonasi, Janubiy Osiyo davlatlarida chet tillarni o'qitish/o'rganish sohasida taraqqiy qilgan inson tafakkurining amaliy natijalari sanalmish zamonaviy axborot va sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga aylangan. Koreya, Yaponiya, Finlandiya, Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi sun'iy intellekt ilovalari mavjudligi tahlil qilindi: <https://chatgpt.com>, <https://poe.com>, <https://www.notion.so>, <https://app.twee.com>, <https://gptionary.com>, <https://article-summarizer.scholarcy.com> O'zbekiston sharoitida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishda yuqoridagi xavolalarda keltirilgan sun'iy intellekt texnologiyalaridan va mobil qurilmalardan foydalanish mazkur sohani yangi bosqichga ko'taradi, bu esa mavjud ta'lim mazmuni, metodologiya va shakllarni qayta ko'rib chiqish hamda yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, ingliz tilini o'qitishning amaliy va nazariy kurslari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarni til va biznes sohasi bilan, masalan, maxsus mavzular orqali umumiy dunyoqarashni rivojlantirish, biznes ingliz tilini o'rganish orqali mamlakat ravnaqiga hissa qo'shish, ayol va erkak tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish, ingliz tilida suhbat va muzokaralar olib borish imkoniyatlari kengayishini ta'minlash mumkin.

Mamlakat Prezidenti tomonidan 2021 yil 17 fevralda «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinganidan so'ng, sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish kompleksi yaratildi, sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimi yaratildi, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun yetarli sharoitlar yaratildi.

“Sun'iy intellekt” ayrim mutaxassislar tomonidan “Sun'iy aql”, “Sun'iy tafakkur” deya e'tirof etiladi. Bu degani ayrim hollarda robotlarning insonlar o'rniga turli faoliyatlarga jalb qilinishi tushuniladi. Biroq, “Sun'iy intellekt” texnologiyalarining asosiy funksiyasi insonlar mehnatini va qobiliyatlarini kengaytirishni hamda takomillashtirishni nazarda tutadi. Shuning uchun mazkur texnologiyalar tadqiqot doirasida noyob resurs sifatida qo'llaniladi. Natijada, ingliz tilini o'rganuvchi talaba shaxsini kommunikant va kognizant maqomida shakllantirish maqsadida muqobil mobil ilova yaratilishi ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratish muammosining o'rganilganlik darajasini tahlil qilsak, chet tillarni sun'iy intellekt texnologiyalari orqali o'rgatish/o'qitish bo'yicha Boston universiteti tadqiqotchisi Leyn M.Kokborn (Iain M. Cockburn), Garvard Menejment Biznes maktabi professori Rebeka Xenderson Xeynz (Rebecca Henderson Heinz), Massachusetts axborot texnologiyalari qoshidagi Sloun menejment universiteti professori Skot Stern (Scott Stern), Mustafa Elkadiri (Turkiya), Anant Manisha Sinx (Anant Manish Singh), Vasif Bilal Xaju (Wasif Bilal Haju), Xindiston Gauhati universiteti (Gauhati University) tadqiqotchilari Tulshi Bezboru (Tulshi Bezboruah) va Abxijit Boro (Abhijit Bora)lar tomonidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Yurtimizda ham loyiha ishi mavzusiga oid Farrux Hakimov, Elmira Sirazieva, Mahbuba Eshnazarova, Saidjalol Hasanov, Olimjon Jamalov kabi tadqiqotchilar tomonidan ijobiy yutuqlar amalga oshirilgan hamda salmoqli tarzda amaliy natijalarga erishilgan.

Jahon tajribasidan ma'lumki, chet til turli davrlarda turli xil metodlardan foydalangan holda o'rgatilgan. Umuman aytganda, XIX asrning to'rtinchi hamda XX asrning birinchi choragigacha chet til tarjima metodi orqali o'rgatilgan. Yevropada chet til o'qitish metodikasini islohotidan so'ng to'g'ri (direct) metod ishlab chiqildi. Shu davrdan boshlab, har qanday chet tilni o'qitishda nutq faoliyatiga o'rgatila boshlandi. Buning natijasida ko'plab yangi metodlar tavsiya etildi. Masalan, og'zaki nutq

yondashuvi yoki vaziyatli til o'rgatish metodi (CLM), audio-lingval yoki og'zaki nutqqa asoslangan metod (ALM), sokin o'rgatish metodi (SW), motor/jismoniy harakatlar yordamida javob berish metodi (TPR), jamoaviy til o'rganish metodi (CLL) yoki gumanistik usul, disuggestopidiya (DeS) metodi va boshqalar. Shuningdek, so'nggi yillarda kommunikativ til o'qitish metodlari (CLT) bilan birga kompetentsiyalarga asosan til o'qitish (CBL), lingvistik korpus asosida o'qitish (LCT), kooperativ til o'qitish (CLT), mazmunga asoslangan ta'lim (CBI), vazifalarga asoslangan til o'qitish (TBL) metodlari chet til o'qitishda ommalashgan. Amerikalik amaliyotchi-tilshunoslar Jak S. Richards hamda Teodor S. Rodjers, Ramin Akbari ilmiy mulohazalariga ko'ra, ayni damda ingliz tili o'qitish uchun metodlardan keyingi davr (The post-methods era) kelgani e'tirof etiladi.

Ayni damda halqaro miqyosda chet tillarni o'qitishga oid tilshunoslik, lingvodidaktika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistik, kontseptologiya kabi fanlar tomonidan erishilgan amaliy natijalaridan kelib chiqib, turli fanlarni, xususan, chet tillarni sun'iy intellekt ilovalari yordamida o'qitish masalasi aktualikka ega. O'zbekistonning uchinchi renessansida uzluksiz ta'lim tizimida turfa fanlarni o'qitish, turli veb va mobil ilovalarni o'quv jarayoniga tadbiq qilish, puxta bilim berish uchun ta'lim ilg'or rivojlangan davlatlar tajribasidan keng foydalanish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish asosiy davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Zero, jahonda ona tili va chet tillarni o'qitishga boshqa fanlar yanglig' alohida e'tibor qaratiladi.

Muhokama. Mamlakatimizda ham chet til fani barcha ta'lim muassasalari o'quv rejasiga (OTM.larda majburiy va tanlov fan sifatida) kiritilgan. Binobarin, har qanday ta'lim muassasasida birorta G'arb yoki Sharq tilini o'rganish o'quvchi/talabalar uchun majburiy hisoblanadi. Amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadqiqotda nazariy va amaliy mo'ljali, ixtisosligi iqtisodiyotning turli sohalari bo'lgan bakalavr va magistratura tinglovchilariga ilk marotaba biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga joriy qilishdan iborat. Shu bilan birga mazkur fanni o'qitishda ilmiy tadqiqotlarda qabul qilingan havolalardan foydalanish, turli manbalarni o'qib tanqidiy tahlil qilish va ingliz tili bilan biznes tushunchasiga oid mavzularni muvoziy tarzda o'zlashtirib borish ehtiyoji mavjudligiga oid ilmiy nazariy hamda amaliy g'oyalar ilgari suriladi.

Zamonaviy sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo'lib, inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega "aqlli" texnologiya hisoblanadi. Sun'iy intellekt va zamonaviy mobil ilovalar yaratish yo'nalishida ta'lim tizimida alohida yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimizda ham chet til o'qitishda yetakchi davlatlar tajribasidan keng foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan xukumat tomonidan bir qator muhim dasturlar, qarorlar qabul qilingan hamda sun'iy intellekt sohasida o'ziga xos salohiyat asoslari mavjud. Sun'iy intellekt texnologiyalari insoniyat jamiyati a'zolarining aqliy va jismoniy mehnati mahsuli deya talqin qilinadi. Chunonchi, muqobil biznes ingliz tilini o'rganishga tegishli sun'iy intellekt texnologiyalarini tanlash hamda ular yordamida mobil ilova yaratish ko'zda tutilgan loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga joriy qilishdan iborat.

Dastlab, ingliz tilini o'qitishga tegishli xorijiy ekspertlar tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt texnologiyalari tahlil qilinadi (Blended lingua, COIL -Collaborative Online International Learning connects, COCA-The Corpus of Contemporary American English). So'ngra, muqobillari tanlab olinadi. Ushbu tanlangan ilovalar biznes ingliz tilini o'qitish jarayonida amalda sinab ko'riladi va tajriba-sinov ishlari tashkil qilinadi. Tadqiqot doirasida chet tillar o'rgatishni sun'iy intellekt texnologiyalari orqali uyg'unlashtirib tashkil etilishi lingvodidaktikaning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Natijada, ingliz tilini turli veb va mobil ilovalar orqali o'rganish rivojlantiriladi. Har qanday ikkinchi va boshqa tillarni o'rganishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda, ular orasidagi o'xshashlik (universal belgi)larga e'tibor qaratishimiz kerak. Qolaversa, ona tili va chet tildagi differentsial birliklar va belgilarni farqlab o'rgatishga tegishli vaqt va kuch sarflash hamda ehtimoliy qiyinchiliklarni oldindan bartaraf etish talab etiladi. Bunga lingvistik va lingvodidaktik muqoyasa va talabalarning nutqida sodir bo'ladigan xatolarning tipologiyasini yaratish orqali erishiladi. Tadqiqotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, zamonaviy ingliz tilini o'rganishni tashkil qilishda sifatli va yuqori samarador metodologiyani yaratishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonning yaratilishi va ishlab chiqilishi texnik va texnologik jihatdan murakkab, biroq bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston yoshlari orasida xorijiy nufuzli universitetlarda talaba bo'lish istagi tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonni ham sun'iy

intellekt texnologiyalari yordamida xorijga bormasdan o'zi yashayotgan davlatda o'qib ham amalga oshirish imkoniyati mavjud. Masalan, "COIL–Collaborative Online International Learning" sun'iy intellekt ta'limiy platformasi orqali mamlakatimiz universitetlari va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qo'lga qo'yiladi. Bunda talabalar bir vaqtning o'zida xorijiy universitetlardagi tengdoshlari bilan virtual auditoriya orqali dars jarayonlarida faol qatnashishi va bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Natijada, O'zbekiston yoshlari nufuzli universitetlarning birida talabalar almashinuvi dasturlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishadi hamda xorijiy oliy o'quv yurtlari ta'lim dasturlari asosida bilim va ko'nikmalarni xorijga chiqmagan holda o'zimizda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat ishlanmalarining natijalarini qo'llash orqali yaratilgan mobil ilova realizatsiya qilinadi. So'ngra bank-moliya akademiyasi tinglovchilariga biznes ingliz tilini o'qitish jarayonida foydalaniladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan mobil ilova "google market" platformasiga hamda <https://lms.bfa.uz/> elektron ta'lim tizimiga maxsus joylashtiriladi. Joylashtirilgan mobil ilovadan foydalanish dastlabki bosqichda bepul. CEFR darajalari bo'yicha shkalalarga ajratilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish va yakuniy natijada sertifikatga ega bo'lish loyiha a'zolari tomonidan tijoratlashtiriladi. Ushbu intellektual mulk maxsus axborot texnologiyalari mutaxassislari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Amalga oshirilgan dastlabki tajriba-sinov ishlaridan quyidagi asosiy ilmiy muammolar aniqlandi va ular shunday tavsiflanadi: birinchidan, biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalari ishtirokida mobil ilovalar yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini amalda yoritib berish; ikkinchidan, O'zbekiston sharoitida chet til o'qitishga oid jahon lingvodidaktikasining zamonaviy yo'nalishlarini aniqlash hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish; uchinchidan, Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo'lmagan fakultetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o'rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi qo'yilgan bo'lsa, uning kommunikativ aspektini aniqlashtirish talab qilinadi; to'rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini "MYSQL, Flutter, Prezi" dasturiy sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantirish; beshinchidan, mavjud darsliklarga qo'shimcha multimedial o'quv resurslar o'rniga, ingliz tilini o'rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan (darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovalarning ta'limiy ahamiyatini kengaytirish, muallim mehnatini fasilitator maqomida belgilash; oltinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko'ra talabalar bilimni assesment qilishda inson omilini kamaytirishni optimallashtirish maqsadida sun'iy intellekt dasturlari ishtirokini inobatga olish va boshqalar.

"Biznes ingliz tili" fani turli iqtisodiyot yo'nalishlariga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida "Ingliz tili/Xorijiy til/Kasbiy sohada xorijiy til yoki ingliz tili" kabi nomlar bilan o'qitilmoqda. Mazkur fanni o'qitishda biznesga oid turli xorijiy o'quv adabiyotlaridan foydalanilmoqda. Bugungi kunda har qanday fanlarni o'qitish xususiyatiga binoan, ularni turli dasturiy vositalar, multimedial o'quv resurslar, veb va mobil ilovalar orqali o'qitish/o'rganish taklif qilinmoqda. Ayni damda turli ijtimoiy sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash keng urfga aylanmoqda. Mazkur loyihada sun'iy intellekt texnologiyalarining muqobil funktsiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitishga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston sharoitida ta'limiy mobil ilovalar yaratish jarayonining o'sishiga xissa qo'shish hamda optimal sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitishga oid kompleks innovatsion dasturiy mobil qurilma va planshetlarda ishlash imkoniyatiga IOS (Iphone Operating System) va Android platformalari uchun vizual yechimga ega mobil ilova yaratishdan iborat.

Mazkur loyihada hal etilishi ko'zda tutilgan asosiy ilmiy muammolar quyidagicha tavsiflanadi: birinchidan, biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalari ishtirokida mobil ilovalar yetishmasligini isbotlash hamda muqobil mobil ilovalarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini amalda yoritib berish; ikkinchidan, O'zbekiston sharoitida chet til o'qitishga oid jahon lingvodidaktikasining zamonaviy yo'nalishlarini aniqlash hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish; uchinchidan, Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo'lmagan fakultetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o'rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi qo'yilgan bo'lsa, uning kommunikativ aspektini aniqlashtirish talab qilinadi; to'rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini "MYSQL, Flutter, Prezi" dasturiy sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantirish; beshinchidan, mavjud darsliklarga qo'shimcha multimedial o'quv resurslar o'rniga, ingliz tilini o'rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan

(darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovalarning ta'limiy ahamiyatini kengaytirish, muallim mehnatini fasilitator maqomida belgilash; oltinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko'ra talabalar bilimni assesment qilishda inson omilini kamaytirishni optimallashtirish maqsadida sun'iy intellekt dasturlari ishtirokini inobatga olish kabi muammolarni hal qilishdan iborat.

“Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi loyiha ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratishga oid adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- ixtisosligi chet til bo'lmagan OTM. Talabalari/tinglovchilariga biznes ingliz tilini o'qitish mazmunini ishlab chiqish;

- lingvistik (nutqiy, til) kompetentsiyalarni rivojlantirishga qo'yilgan talablarga binoan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish metodikasini ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga tegishli mobil qurilmaning texnik topshiriqlarini, asosiy ekranda aks etadigan funktsiyalarni hamda menim profilim bo'limlarini ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitishni samarali tashkil qilish maqsadida “Business English with AI” nomli innovatsion dasturiy mobil ilovani yaratish;

- yuqoridagi vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish birinchidan, O'zbekiston sharoitida ta'limiy mobil ilovalarni ko'paytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, darsliklarni chop qilishga oid iqtisodiy muammolarni hal qiladi. Uchinchidan, yangi ilmiy ishlanma (mahsulot/texnologiya) olishni ta'minlab beruvchi texnik-iqtisodiy daromad keltiruvchi innovatsion dasturiy ta'minot yaratiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga kirib keldi. Qishloq xo'jaligi, bank-moliya tashkilotlari, tijorat banklari faoliyatlari, energetika, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, soliq, transport sohalarida erishilgan barcha zamonaviy yutuqlar sun'iy intellekt texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihaning ilmiy yangiligi quyidagicha tavsiflanadi:

- innovatsion dasturiy mobil ilova yaratishga oid adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga erishiladi;

- ixtisosligi chet til bo'lmagan bo'lajak iqtisodchi talabalarga O'zbekiston sharoitida biznes ingliz tilini o'qitish mazmuni ishlab chiqiladi;

- chet til o'qitish Dasturiy standartlariga binoan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish metodikasi ishlab chiqiladi;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga tegishli mobil qurilmaning texnik topshiriqlari, asosiy ekranda aks etadigan funktsiyalari hamda “mening profilim-my profile” bo'limlari ishlab chiqilib, talabalar bilimni baholash kompleksi yaratiladi;

- ilk marotaba o'zbek olimalari tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan “Business English with AI” nomli innovatsion dasturiy mobil ilova yaratiladi.

Natijalar. Shuni alohida e'tirof etish lozim-ki, “Linux” yadrosi asosida “Android” uchun dasturlar va mobil ilovalarni yaratish murakkab ko'p funktsiyali mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Demak, mobil ilovalar bozori sezilarli darajada kengayib, raqobatga boy maydonga aylanib bormoqda. Talabalar va tinglovchilar (magistratura mutaxassislari) loyiha doirasida yaratish rejalashtirilgan mobil ilovani “App Store” yoki “Google Play Market” onlayn dastur do'konlari orqali bepul yuklab olishlari mumkin va minimal harajatlarni hisobga biznes ingliz tili glossari bankini erkin o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Natijada, mobil ilova foydalanuvchilari biznes ingliz tilini qaerda qo'llay olish xususida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Shuningdek, kasbiy leksik atamalarni o'zbek, rus tillarida qiyoslash va tushunishga erishadi, ijtimoiy va biznesga oid oddiy va murakkab matnlarni o'qib anglay oladi. Mobil ilova orqali ingliz tilini o'rganuvchi talaba va tinglovchilar bir nechta modullarga ajratilgan dasturdan yakuniy testgacha ilovadan foydalanish davom ettirilsa, maxsus sertifikat taqdim qilinadi. Shuningdek, mazkur yaratilishi rejalashtirilgan mobil ilova o'zining dizayni, tarkibi va mazmuni bilan boshqalardan ajralib turadi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlarda “Google Play Market”ning so'nggi oylardagi eng foydali mobil ilovalari quyidagilar: Microsoft Math Solver, Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan va yangi matematik

tenglama va misollarni yechishga yordam beradi. Uning ishlash tartibi oddiy: smartfon kamerasini yechimi topilmayotgan misol yozilgan varaq qarshisida tutasiz va suratga olasiz, Microsoft Math Solver avtomatik natijani hisoblay boshlaydi. Shuningdek, mashqlarni qo'lda yoki klaviatura orqali ham yozib kiritish mumkin. Ilova nafaqat natijani, balki yechimning kelib chiqish bosqichlarini ham ko'rsatadi. Shuningdek, onlayn magazinda xorijlik malakali mutaxassislar tomonidan yaratilgan eng sara va ommabop quyidagi ta'limiy mobil ilovalar aniqlandi. Duolingo, Google Primer, LinkedIn, Steezy, Simple Piano App, Khan Academy, Tasty, Skillshare. G'arb mamlakatlari ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha erishilgan yutuqlar natijasida 2023 yilning eng foydali ta'limiy platformalarini (Kristofer Pappas) talentIMS, IspringLearnLMS, 360Learning, Moodle, MyLearningHub va boshqalar tashkil qiladi. Turli yoshga mo'ljallangan ingliz tilini o'rganishga tegishli eng ko'p foydalanuvchilarga ega mobil ilovalarga Britaniya Kengashi tomonidan yaratilgan LearnEnglishPodcats, BBCLearningEnglish, British Council EnglishScore, ABA English, Babbel-LearnLanguages, Learn English Conversations, RealLife: Speak, Learn English, Hello Talk, Fun English, Speak English Fluently kabi misol keltirishimiz mumkin. Biznes ingliz tilini o'rganishga tegishli mobil ilovalar quyidagilar: Business English by BEP, Learn English Business, Business English, Business English by AEE.

Xulosa. Biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalari ishtirokida mobil ilovalar zarurligi hamda muqobil mobil ilovalarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi amalda isbotlab beriladi. Ikkinchidan, O'zbekiston sharoitida chet til o'qitishga oid jahon lingvodidaktikasining zamonaviy yo'nalishlari aniqlanadi hamda uning mexanizmlari ishlab chiqiladi. Uchinchidan, Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo'lmagan fakultetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o'rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi samarali hal qilinadi. Shuningdek, o'zbek lingvodidaktiklari orqali ingliz tilini o'qitishning kommunikativ aspekti aniqlashtiriladi. To'rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini "MYSQL, Flutter, Prezi" dasturiy sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantiriladi. To'rtinchidan, mavjud darsliklarga qo'shimcha multimedial o'quv resurslar o'rniga, ingliz tilini o'rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan (darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovaning ta'limiy ahamiyati kengaytiriladi Beshinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko'ra talabalar bilimni assesment jarayonini amalga oshirishda inson omilini kamaytirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Farrux HAKIMOV. <https://strategy.uz/index.php?news=1198>. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bo'lim boshlig'i
2. Lizhen Shi, Arshad Muhammad Umer & Yanting Shi. Utilizing AI models to optimize blended teaching effectiveness in college-level English education. ISSN: (Print) (Online) Journal homepage: <https://www.tandfonline.com/loi/oaed20>
3. L. Ferguson, "Advancing Research Integrity Collaboratively and with Vigour," 2022, <https://www.hindawi.com/post/advancingresearch-integrity-collaboratively-and-vigour/>
4. S. Makridakis, "The forthcoming artificial intelligence (AI) revolution: its impact on society and firms," *Futures*, vol. 90, no. jun., pp. 46–60, 2017.
5. P. Fernandez, "Through the looking glass: envisioning new library technologies" how artificial intelligence will impact libraries [J]," *Library Hi Tech News*, vol. 33, no. 5, pp. 5–8, 2016.
6. E. Vickers, "The strange child: education and the psychology of patriotism in recessionary Japan by Andrea Gevurtz Arai," *Monumenta Nipponica*, vol. 72, no. 1, pp. 146–152, 2017.
7. M. Garcia, "Racist in the machine: the disturbing implications of algorithmic bias," *World Policy Journal*, vol. 33, no. 4, pp. 111–117, 2016.
8. A. I. Review, "About the authors," *Artificial Intelligence Review*, vol. 15, no. 6, pp. 1–6, 2016.

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHI EKOLOGIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (III SINIF MISOLIDA)

Dustov Sunnatullo Rahmanovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi,

«Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.091>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda, xususan, III sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda ekologik tafakkurni takomillashtirish, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, hodisa va jarayonlarni o'rganishda bog'lanishlar mexanizmini yaratish, tabiiy fanlar bo'yicha avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirish, tabiiy fanlar ta'lim mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligini zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida muhim ma'lumotlar bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, tabiiy fanlar, ekologik muhit, fanlararo tarbiya, ekologiya, shakl, metod, vosita.

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК (ПРИМЕР III КЛАССА)

Дустов Суннатullo Рахманович

Денов — независимый исследователь Института предпринимательства и педагогики,

Преподаватель кафедры «Методика начального образования»

Аннотация: В данной статье рассматривается совершенствование экологического мышления учащихся при преподавании естествознания в начальных классах, в частности, в 3 классе, выявление возможностей развития экологического мышления учащихся при преподавании естествознания, анализ фактов обучающихся, а также создание механизма связей при изучении процессов, сознательное усвоение учебного материала путем применения ранее приобретенных знаний, умений, навыков и компетенций по естественным наукам в новых ситуациях, содержания естественных наук образования представлена важная информация об использовании современных образовательных технологий по различным учебным предметам, изучающим проблемы взаимоотношений человека и природы.

Ключевые слова: начальная школа, естественные науки, экологическая среда, междисциплинарное образование, экология, форма, метод, инструмент.

METHODS OF FORMING THE STUDENT'S ECOLOGICAL THINKING IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES (III CLASS EXAMPLE)

Dustov Sunnatullo Rahmanovich

Denov is an independent researcher of the Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,

Teacher of the «Primary Education Methodology» department

Abstract: In this article, the improvement of ecological thinking of students in the teaching of natural sciences in elementary grades, in particular, in the 3rd grade, the identification of opportunities for the development of ecological thinking of students in the teaching of natural sciences, the analysis of the facts of the students, and creating a mechanism of connections in the study of processes, conscious assimilation of educational materials by applying previously acquired knowledge, skills, skills and competences in natural sciences in new situations, the content of natural sciences education important information about the use of modern educational technologies for various academic subjects that study the problems of the relationship between man and nature is presented.

Key words: elementary school, natural sciences, ecological environment, interdisciplinary education, ecology, form, method, tool.

Kirish

XX asr insoniyatga juda katta taraqqiyot bilan birga ekologik muammolarni ham keltirdi. Ekologik

muhitga texnogen ta'sirlar kuchayishi juda rivojlandi. Oxirgi 30–40 yil ichida antropogen omillarning atrof–muhitga ta'siri bir necha marotaba oshib butun insoniyat uchun ekologik muammo yechimi dolzarb bo'lgan muammoga aylandi. Ekologik tarbiya masalalari qadimgi davr adabiyotlarida, hadislarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida yillar davomida o'z aksini topib kelmoqda. Biroq, insonning tabiatdan foydalanishda me'yorni bilmasligi, har bir faoliyat natijasida tabiatga zarar keltirish kabi muammolar borki, bu muammolar insonni ogohlikka har doim uyg'ovchilikka chorlaydi. Zamonaviy geografiya fani nafaqat hududdagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni taxlil etadi, balki inson va tabiat munosabatini – resurslardan foydalanishda ratsional darajaga ko'tarish, hududlarni muhofaza qilish, hududlarning o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy xususiyatlarini o'rgatish orqali ekologik tarbiyani o'quvchilarda shakllantiradi. Geografiya darslarida ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishdan maksad–o'quvchilarni ekologik madaniyatini va ongini, xulq-atvorini rivojlantirish – geografik muhit va inson munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'zi yashab turgan hududining tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib tabiatni muhofaza qilishga erishishdir. Hozirgi kunda inson va tabiat munosabatlarini uyg'unlashtirish va tabiatga antropogen ta'sirni kamaytirish insoniyat xayoti uchun juda muhim masalaga aylandi. Eramizgacha 500 yil bo'lgan qadimgi Xitoy solnomalarida shunday bitik uchraydi: “Agar siz bir yil haqida fikrlasangiz – yerga urug' eking, agar 10 yil haqida qayg'ursangiz – daraxt eking, agar 100 yil haqida qayg'urar ekansiz – insonni tarbiyalang”. Demak, har qanday ezgulikka yo'naltirilgan ishimizda tarbiyaga e'tiborli bo'lishimiz qadimdan ta'kidlab kelingan.

Maktab ta'limidagi tabiiy fanlar o'quvchilarga dunyoning hozirgi ilmiy manzarasini ochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar o'quvchi dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning umumlashgan ilmiy tushunchalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bilimlar integratsiyasi ta'limga o'zgacha yondashishni taqozo qiladi. Chunonchi, o'quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, shaxsga yo'nalgan texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Tabiiy fanlar uchun jonli va jonsiz tabiat tuzilishi, ulardagi energiya almashinuvi, ichki energiya haqidagi tushunchalar tizimi hisoblanadi. Biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlarini birlashtiruvchi tushunchalar materiya, uning harakat shakllari, tashkiliy darajasi, hujayraviy tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Bu fanlarni o'qitishda fanlararo aloqadorlikni tizimli amalga oshirish “Tabiat-inson-texnikajamiyat” yaxlitligi o'quvchilarning anglab olishlariga zamin hozirlaydi. Buning asosida o'quvchilarda tabiat haqida tizimli va yaxlit tushuncha hosil bo'lib, unda hamma narsa o'zaro aloqadorlikda, shuningdek, modda va energiya aylanishi asosida o'z-o'zini doimiy yaratishi va takomillashtirish jarayonlarini amalga oshiradi. Demak, Yerdagi hayot uchun normal biofizik va biokimyoviy sharoit saqlanadi. Shu asosda fanlararo aloqadorlik ta'lim jarayonida hozirgi zamon fanlarida yuz berayotgan xususiyatlar: integratsiya, ijtimoiylashuv, insonparvarlashuvlarning mazmun-mohiyatini tushunishga zamin tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishda xulq-atvor sifatlarining shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o'rin tutuvchi boshlang'ich ta'lim muayyan imkoniyatlarga ega. Shu sababli boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari bilan tanishtirishga e'tiborning qaratilishi ijobiy natijalarni beradi. O'quvchilar ongida O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining ekologik meroslariga asoslangan bilimlarni hosil qilish ularda atrof-muhitga, tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalaydi[1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiya umummilliy ahamiyat kasb etuvchi muammo bo'lib, uning yechimi masalaga ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yondashish hamda samarali yo'llarning belgilanishiga bog'liq. Shu sababli umumta'lim maktablarida ham o'quvchilarga ekologik bilimlarni tizimli, uzluksiz berib borilishini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shu bois bugungi kunga qadar ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiatni asrash, atrof-muhit musaffoligini saqlab qolish yo'lida tabiiy fanlar yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlar olib borildi va ularda ijobiy natijalarga erishildi. Tashqi olamni o'rganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy fanlarning roli beqiyos.

Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarning, ular orasidagi aloqalarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishini tabiiy fanlar integratsiyasi asosida tushuntirish o'quvchilar shaxsida organik olam haqida yaxlit bilimlar tizimini tarkib toptiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining kasbiy, ilmiy-nazariy

va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali hamda uning mohiyatini chuqur anglash asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi o'zi dars beradigan fanini chuqur va puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin fanlararo bilimlardan xabardor bo'lishi lozim. Bunga bilimlarning alohida turlari va ular o'rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallashga yordam beradi.

Tadqiqotishining o'ziga xos jihati boshlang'ich sinfo'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari tadqiqot ishi uchun muhim metodologik asos bulib, falsafa, pedagogika va sotsiologiya yo'nalishlarida ular tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosning qay darajada o'rganilganligi masalasi ham e'tiborga molikdir.

Ekologik ta'lim zamonaviy ta'limning o'zagiga aylanib bormoqda va uning zamonaviy tizimlarini va umuman jamiyatni qayta qurishning kalitidir. Shunday qilib, ekologik ta'limning yangi axloqning asosi va odamlarning amaliy hayotining ko'plab masalalarini hal qilishda qo'llab-quvvatlash roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ekologik tarbiyalash o'qituvchining eng muhim vazifasi ekanligi sababli ushbu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda. boshlang'ich maktab atrof-muhit, jumladan, o'lkashunoslik darsida ekologik ta'limning turli shakllari va usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida tabiatga muhabbat va hurmatni shakllantirish xususiyatlari T.A. asarlarida ochib berilgan. Bobyleva, L.D. Bobyleva, A.A. Pleshakova, L.P. Saleeva va boshqalar Ekologik ta'lim muammolari A.N. asarlarida ishlab chiqilgan. Zaxlebniy, B.T. Lixachev, L.P. Saleeva, I.T. Pechko, I.T. Suravegina va boshqalar. Bu mualliflar ekologik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, shartlarini ochib beradilar. Ekologik ta'lim vositalari, shakllari va usullari tavsifini A.N. asarlarida topamiz. Zaxlebniy, N.A. Gorodetskaya, A.A. Pleshakov.

Fanlararo ekologik tarbiya muhim pedagogik muammo. Bu sohada ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, boshlang'ich ta'limda ekologik muammolarning turli jihatlarini M.A. Yuldashev[2], G. Sultonova[3], N. Ashurova[4]lar o'rgangan bo'lsa, N.H. Egamberdieva[5] atrof-muhit ta'sirida talabalarni axloqiy tarbiyalash jihatlari, M. Rahmatullaeva[6] sinf va maktabdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarda tabiat estetikasiga qiziqishni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. Ammo boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish, ularni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida keng targ'ib etish atroflicha yo'lga qo'yilmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiyani fanlararo tushuntirishdan maqsad – tabiatni bilish va uni asrashga o'rgatish, ekologik ta'lim-tarbiyaga oid fanlararo nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Tahlil va natijalar

O'qitish jarayoni deganda, o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish metodlarini egallashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

Biologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilar tomonidan biologiya o'quv fani dasturlari va DTS bilan me'yorlangan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni tarbiyalash va ekologik tafakkurni rivojlantirish jarayoni o'qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitish shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish lozim. Mazkur o'qitish shakllari biologiya o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi[6].

Dars, ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar birgalikda biologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishdan ko'zda tutilgan umumiy o'quv maqsadlar, shuningdek, ekologik tafakkurini rivojlantirishni ta'minlaydi, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Agar ta'lim mazmuni o'simlik yoki hayvonot dunyosining xilma-xilligi, turli ekologik muhit sharoitiga moslashishini o'rganishni talab etsa, bu holda ekskursiya tashkil etilishi, yoki videofilmlar namoyish qilish maqsadga muvofiq.

Ekologik tushunchalarni shakllantirishda dars bilan bir qatorda, darsdan va sinfdan tashqari ishlar ham muhim o'rin tutadi. Ekologik muammolarga oid kuzatish o'tkazish va tajriba qo'yishda fizika qonuniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darsda o'qituvchi o'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirishga zamin tayyorlaydigan ta'lim

mazmuni, o'qitish metodi va vositalarining uyg'unligi orqali o'qitish maqsadlariga erishishni nazarda tutadi. Lekin hamma masalalarni ham darsda o'rganish imkoni bo'lmaydi, masalan, uzoq muddatli kuzatish ishlarini talab etadigan tajribalarni o'tkazishda darsdan tashqari ishlardan ham foydalanish kerak[7].

Uy ishlari dars bilan uzviy bog'langan bo'lib, u darsda o'rganilgan mazmunning mantiqiy davomi va o'quvchilarning mustaqil bilim olish omili sanaladi. O'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan, o'quvchilar uncha murakkab bo'lmagan tajribalarni o'tkazish, tabiatda kuzatishlar olib borish, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, muayyan mavzularda ma'ruza yoki referatlar tayyorlash, kolleksiyalar to'plash ishlarini amalga oshiradilar. O'quvchilarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali bilish faoliyati usullarini egallashga zamin tayyorlanadi.

Ekologik ekskursiya - o'qitish jarayonining muhim shakli bo'lib, ular o'quvchilarni tirik tabiatning ob'ektlari, hodisalari, qonunlari, asosiy nazariy g'oyalari bilan tanishtirish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, olamni bilish metodlarini egallash imkonini beradi[8].

Ekologik ekskursiya davomida o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni fizikadan o'zlashtirilgan bilimlarni bog'lash, yangi mavzuni o'rganish jarayonida bilimlarni mustahkamlash, yakunlash, tizimga solish va umumlashtirish kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Shu bilan bir qatorda ekskursiyalar o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Ekskursiyada o'quvchilar o'quv topshiriqlarini yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajarish jarayonida avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanish orqali yangi bilim va ko'nikmani egallaydilar.

Ekologik jihatdan tabiatga to'g'ri tashkil etilgan ekskursiyalar o'quvchilarda mahalliy atrof - muhit va organizm (biogeotsenoz)lar, o'simliklar va hayvonot olamining xilma - xilligi haqidagi bilimlarni kengaytirish, mahalliy ob'ektlardan ko'rgazma materiallarni tayyorlash, ularni jihozlash, tabiatga muhabbat uyg'otish, estetik did va madaniyat, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish imkonini beradi.

Ekologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishda darsga quyidagi talablar qo'yiladi:

har bir darsning ta'limiy maqsadlari aniq belgilash va uning darslar tizimida tutgan o'rnini aniq belgilash;

o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'qitish maqsadlari, o'quv dasturining talablariga mos holda ekologik mazmundagi o'quv materialini optimal darajada tanlash;

darsda rivojlantiriladigan umumiy va shakllantiriladigan xususiy biologik tushunchalar, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalar asosida ekologik tafakkurni rivojlantirish yo'llarini aniqlash;

darsning har bir bosqichini amalga oshirish maqsadida o'qitishning samarali metodlari, vositalari, bilimlarni nazorat qilish va rag'batlantirish va metodlarini aniqlash va ularni uyg'unlashtirish orqali o'quvchi bilish faoliyatini faollashtirish;

darsda o'quvchilarni yalpi o'qitish bilan bir qatorda yakka va kichik guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularda taqsim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirish, mustaqillikni, fikrlashni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin;

darsning o'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlari, mavzuning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy, aqliy, gigienik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy tarbiya berish, estetik tuyg'u, mehnatsevarlik, ekologik madaniyatni tarkib toptirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, tarbiyaviy maqsadlarining aniq qo'yilishi;

o'quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalari, biologiyani o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini rivojlantirish, ularning faoliyatidagi ijodiy faollik va tashabbuskorlikni rag'batlantirish;

mavzuli reja asosida darsning ilmiy-metodik saviyada loyihalangan ishlanmasini ishlab chiqish;

ekologik mazmundagi tarqatma va didaktik materiallar, o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlari, differensial topshiriqlar tuzish;

vaqtdan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish uchun darsning texnologik xaritasini tuzish[9].

Ekologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishda darsda foydalaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar ekologik mazmundagi savol topshiriqlar asosida tashkil etiladigan o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakliga ko'ra tanlanadi:

1. Ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlari reproduktiv va produktiv xarakterda bo'lgan hollarda

didaktik o'yinli texnologiyasining konferensiya, ijodiy o'yin, o'yinli mashqlardan foydalanish.

2. Ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlari produktiv va ijodiy xarakterda bo'lgan hollarda muammoli ta'lim texnologiyasining aqliy hujum, fikrlar to'qnashuvidan foydalanish.

3. Ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlari reproduktiv, produktiv va qisman izlanishli xarakterda bo'lgan hollarda modulli ta'lim texnologiyasining yakka tartibda ishlaydigan modul dasturidan foydalanish.

4. Ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlari reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli va amaliy xarakterda bo'lgan hollarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish belgilanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarni keng miqyosda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Chunki bu demokratik insonparvarlik jamiyat qurishning muhim omilidir. Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. Ayniqsa, bugungi kundagi global ekologik muammoni nafaqat kattalar orasida, uni boshlang'ich sinfdayoq shakllantirib, tushuntirib borish keng ko'lamda yo'lga qo'yish ta'lim olayotgan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, shuningdek, barkamol avlod bo'lib yetishishida ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik - ta'lim tarbiyani fanlararo tushuntirishdan maqsad - tabiatni bilish va uni asrashga o'rgatish, ekologik ta'lim- tarbiyaga oid fanlararo nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Maktab o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni fanlararo shakllantirish tahlili shuni ko'rsatadiki.

Tavsiyalar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni orttirishda fanlararo ekologik tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish. Buning uchun fanlararo ekologik tafakkurni yo'lga qo'yishda nafaqat tabiatshunoslik o'quv dasturi, balki boshqa o'quv fanlari jumladan, o'qish, ona tili, matematika fan dasturlarini bilishi, ularni gorizontal va vertikal bog'lanishlarini amalga oshirish kerak.

2. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirishning nazariyamaliy asoslarini ishlab chiqish va unlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida keng targ'ib etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Bahodirov O. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, alloma, adiblar). -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2019, - 392 b.

Юлдашев М.А. Формирование природоохранительной деятельности учащихся начальных школ Узбекистана. / Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2019. –С. 16.

Султонова Г.А. Комплексные экскурсии как средство экологического воспитания младших школьников. / Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2015. -С. 18.

Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ. / Автореферат дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2013. –С. 18.

Egamberdieva N.H. Fuqarolik huquqiy-javobgarlikning asoslari va shakllari. / Ped. fan. nom. diss. ... avtoref. – Т., 2016. -23-b.

Xamrokulova, Sh. E., & Allayarova, S. N. (2021). EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMASINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2(11), 1089-1094.

Shaxnoza Erkinovna Xamrokulova (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARI. Academic research in educational sciences, 3 (NUU Conference 2), 960-964.

Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. "Tabiatshunoslik"darsligi 3- sinf.T.: "Cho'lpon" nashriyoti. 2016.-25 b.

Norbutayev Kh.B. Raising the ecological culture of the student inteaching biology in connection with other disciplines. Of publication with Impact Factor. International Cientific Journal ISJ Theoretical & Applie Science hiladelphia, USA issue 06, volume 86 published June. - 30, 2020. -P.714 -717.

TALABALARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Habibova Guliya G'aybulloevna,
Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida dotsenti
<https://orcid.org/0000-0002-9503-3272>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.092>

Annotatsiya: Oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni kuchaytirish, talabalarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Ushbu muammolarni pedagogik, ilmiy-uslubiy hamda amaliy yechimlarini topish, zarur metodik tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning zarur shartlaridandir. Mazkur maqolada pedagogik-psixologik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda Vatanga sadoqat ruhini tarbiyalash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mazmuni yoritilgan. Vatanparvarlikning asosiy vazifalari, vatanparvarlik tarbiyasining yo'nalishlari tasniflangan hamda kredit-modul tizimi asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda Vatan taraqqiyoti g'oyasini shakllantirish, har bir dars jarayonida o'tiladigan mavzularda mustaqillik, Vatan ravnaqi, taraqqiyot, renesans kabi tushunchalarning anglab yetishga e'tibor qaratish lozimligi, talabalarda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan shakl, metod va vositalari ishlab chiqilib, ular auditoriya mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni samaradorligini oshirishga xizmat qilishi tahlil etilgan.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ ВЕРНОСТИ ОТЕЧЕСТВАНИЮ

Хабибова Гулия Гайбуллеевна,
Доцент кафедры педагогики Бухарского государственного университета

Аннотация: Необходимо усилить содержание духовно-нравственного воспитания в высшей школе, воспитывать студентов в духе патриотизма, основанного на уважении к национальным ценностям, гуманизму и высоким духовным идеалам, укреплять их иммунитет против иностранных идей и идеологий. Поиск педагогических, научно-методических и практических решений этих проблем, разработка необходимых методических рекомендаций является сегодня одним из необходимых условий. В данной статье раскрыты особенности процесса воспитания студентов в духе верности Родине при преподавании педагогических и психологических наук. Классифицированы основные задачи патриотизма, направления патриотического воспитания, а в процессе преподавания социальных и гуманитарных наук по кредитно-модульной системе, в процессе обучения студентов идее развития Родины, такие понятия, как На каждом уроке преподаются независимость, развитие Родины, развитие, возрождение, необходимость обратить внимание на понимание, формы, методы и средства, направленные на развитие патриотического воспитания учащихся, и проанализировано, что они служат повышению эффективности аудиторного обучения и духовно-просветительской деятельности вне класса.

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF LOYALTY TO THE FATHERLAND

Habibova Gulia Gaybulloevna,
Associate Professor of Pedagogy Department of Bukhara State University

Abstract: There is a need to strengthen the content of spiritual and moral education in higher education, to educate students in the spirit of patriotism based on respect for national values, humanitarianism and high spiritual ideals, and to strengthen their immunity against foreign ideas and ideologies. Finding pedagogical, scientific-methodical and practical solutions to these problems, developing the necessary methodical recommendations is one of the necessary conditions today. This article describes the specific features of the process of educating students in the spirit of loyalty to the Motherland during the teaching

of pedagogical and psychological sciences. The main tasks of patriotism, directions of patriotic education are classified, and in the process of teaching social and humanitarian sciences based on the credit-module system, in the process of teaching students the idea of the development of the Motherland, concepts such as independence, development of the Motherland, development, renaissance are taught in each lesson. the need to pay attention to understanding, forms, methods and tools aimed at developing students' patriotic education were developed, and it was analyzed that they serve to increase the effectiveness of classroom training and spiritual-educational activities outside the classroom.

Kalit so'zlar: Vatan, sadoqat, taraqqiyot, g'oya, ma'naviyat, ma'rifat, milliy yuksalish, ta'lim, tarbiya, barkamollik, natija.

Ключевые слова: Родина, верность, развитие, идея, духовность, просвещение, национальный прогресс, образование, воспитание, совершенствование, результат.

Key words: Motherland, loyalty, development, idea, spirituality, enlightenment, national progress, education, upbringing, perfection, result.

KIRISH. Bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyoti va rivojlanishining poydevori bo'lgan barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda: «Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman»..., «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar» [1].

METODLAR. "Renessans" iborasiga ta'rif beradigan bo'lsak, u fransuz va italyan tillarida, xususan lotinchada "qayta tug'ilish" ma'nosini beradi. Bu ibora Yevropada ro'y bergan uyg'onish va qayta uyg'onish davri dunyo taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgani, aynan yangilanish va hayotbaxsh mazmunlarni o'zida jo etgani uchun ham keng qo'llaniladi. O'zbekiston hududi ham Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga ma'lum va mashhur bo'lganligini ta'kidlash bizga yuksak mamnuniyat bag'ishlaydi.

Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim turlari, ayniqsa, oliy ta'lim o'quv muassasalarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ushbu maskanda ta'lim olayotgan har bir yigit-qiz, faqatgina u yoki bu soha mutaxassisligiga ega bo'libgina qolmay, jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol topadi. Jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etadi. O'zining ma'naviyati, madaniyati bilan O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li bo'lgan ozod va obod Vatan uchun mehnat qiladi. Albatta bu ulkan vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan ijtimoiy fanlarning ahamiyati kattadir. Chunki, ijtimoiy fanlar talaba shaxsida taraqqiyot g'oyasini shakllantirishda, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ma'naviyatini rivojlantirishda muxim o'rin tutadi. Shu jihatdan oliy ta'lim o'quv muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda Vatan taraqqiyoti g'oyasini shakllantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni turli usul va metodlardan foydalanish mumkin. Talabalarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda metod va usullarni tanlash tarbiyaning maqsadi, mazmuni, talabalarning tarbiyalanganlik darajasi, shaxslararo munosabatlar darajasi, professor-o'qituvchilarning mavqei va tajribalari, talabalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlari inobatga olish zarur.

Talabalarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda namuna metodi sifatida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ota-onalarning yurish-turishi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, kundalik faoliyatni tashkil etishlari, atrofdagilarga nisbatan yondashuvlari;
- o'qituvchilarning hamkasblari, rahbarlari, shuningdek, talabalar bilan o'zaro munosabatlari, nutq va muomala odobi, kasbiy faoliyatni olib borishdagi mas'uliyatlari;

- ishlab chiqarish ilg'orlari, umuminsoniy hamda milliy ilm-fan, madaniyat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan shaxslarning hayoti va faoliyatlari;
- badiiy asarlar, kinofilmlar, spektakllar qahramonlarining xatti-harakatlari, ma'naviy qiyofasi;
- tarixiy milliy qahramonlar, Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning jasoratlari;
- favqulodda vaziyatlarda fuqarolik, insoniylik burchini sidqidildan ado etgan shaxslarning xatti-harakatlari;
- tengdoshlarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida, turli vaziyatlarda o'zlarini tuta olishlari, irodali, matonatli, axloqli ekanliklarini namoyon eta olishlari va boshqalar.

NATIJALAR. Vatanga sadoqat, vatanparvarlik ijtimoiy pedagogikaning tarixan shakllangan va rivojlanib borayotgan kategoriyasi bo'lib, u kishilarning o'z Vatanga bo'lgan barqaror ijobiy munosabatini aks ettiradi, uning manfaati yo'lidagi faoliyatda namoyon bo'ladi va uni amalga oshirishda davlat ham, jamiyat ham bir xil pozitsiyadan ishtirok etadi.

Vatanparvarlik jamiyatni birlashtirishning muhim manbai hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasi va o'z Vatanga fidokorona xizmat qilishga tayyor bo'lishi uchun muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Vatanparvarlik ijtimoiy hodisa sifatida millat va davlat mavjudligi va rivojlanishining mustahkam asosidir.

Vatanparvarlikning asosiy belgilari: Vatan tuyg'usi; vatanga muhabbat; o'z Vatani, davlat ramzlari, o'z xalqi va uning milliy an'analari bilan faxrlanish; vatan va xalq taqdiri, ularning kelajagi uchun javobgarlik; vatan oldidagi qarzdorlik hissi; davlat va uning xalqi ravnaqiga qaratilgan faoliyatga intilish, ularning xalqaro nufuzini oshirish; o'z vatanining g'oyalari, qadriyatlari va an'alariga sodiqlik; Vatan sharafini himoya qilish va oshirishga tayyorlik; o'z vatanining buyukligini his qilish; o'z vatanining manfaatlarini har qanday vositalar, shu jumladan qurol bilan himoya qilishga tayyor.

Vatanparvarlikning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) fuqarolik-vatanparvarlik fazilatlarini va ijtimoiy hodisalarni, siyosiy jarayonlarni baholashning tegishli mezonlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaviy;
- 2) vatanparvarlik g'oyalarining ong va xulq-atvorga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan tartibga solish;
- 3) Jamiyat taraqqiyotida etnik, ijtimoiy-psixologik, siyosiy va iqtisodiy komponentlarning birligi va yaxlitligini aks ettiruvchi integrator;
- 4) Millatning, mamlakat jamiyatining o'ziga xosligiga ta'sir qiluvchi va ularning xususiyatlarini aks ettiruvchi bo'luvchi omil.

Jamiyat hayotining hodisasi sifatida vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlari: vatanparvarlik ongi, vatanparvarlik munosabati va vatanparvarlik faoliyati.

Vatanparvarlik ongi o'z vatanining muhimligini, sub'ektning o'z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishga tayyorligini ko'rsatadi.

Vatanparvarlik munosabatlari ijtimoiy amaliyot jarayonida sub'ektning o'z harakatlarining ob'ekti bilan haqiqiy aloqasi, vatanparvarlik ob'ektiga barcha turdagi ta'sirlarni o'zgartirishning o'ziga xos kanali sifatida paydo bo'ladi. Vatanparvarlik munosabatlari vatanparvarlik ongini moddiylashtirish va vatanparvarlik faoliyatini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik faoliyati - vatanparvarlik ongini mujassamlash va sub'ektning vatanparvarlik ob'ektiga ta'sirining barcha turlarini qo'llash usuli, vatanparvarlik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar majmui. Bu faoliyat vatanparvarlikning moddiy negizini, uning ko'zga ko'rinadigan tomonini tashkil etadi.

Olimlar asarlari tahlili vatanparvarlik axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u ekanligini, uning mazmun-mohiyati Vatanga muhabbat va sadoqat, mudofaasiga shaylik, o'tmishi va buguni bilan faxrlanish ekanligini tasdiqlash imkonini beradi.

Vatanparvarlik tarbiyaning ham muhim vazifasi, ham qudratli pedagogik vositadir: "O'zini sevmagan odam bo'lmaganidek, Vatanga muhabbatsiz ham bo'lmaydi, bu ta'lim-tarbiyaga muhabbat inson qalbining to'g'ri kalitidir" [5, 28].

